ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2023 / №5

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2023/ № 5

Термиз – 2023

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.
Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2023
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Avazjon MARAXIMOV, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)

Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)

O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)

Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)

Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)

Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)

Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)

Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Normat Yo'ldoshev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Asqar Eshmo'minov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)

Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)

Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2023
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ» ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649
E-mail: philologicalresearch@umail.uz
Официальный сайт: www. philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Авазжон МАРАХИМОВ, доктор технических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ

ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2023
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155
Printed at the
"Printing House of the TerSU"
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Avazjon MARAKHIMOV, doctor of technical sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)

Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)

Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)

Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)

Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)

Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)

Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)

Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)

Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)

Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)

Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)

Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)

Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)

Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)

Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)

Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)

Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)

Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)

Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)

Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

КАРИМОВ СУЮН АМИРОВИЧ
Ўзбек тилида тиниш белгиларининг семантик-стилистик хусусиятлари 7

МАМАТОВ АБДИМУРОД ЭШОНКУЛОВИЧ
Хорижий тилларни ўрганишда тил ва маданият тушунчаларининг аҳамияти 14

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQ‘LOVNA
Mahmud koshg‘ariyning “devonu lug‘otit turk” asarida so‘z leskik ma’nosining taraqqiyoti 17

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёсий ифодалар тилшунослик тадқиқот объекти сифатида 20

МУРОДОВ НОРМУРОД ТОХИРОВИЧ
“Санглох” алишер навоий асарлари луғати 27

ABDURAXMONOVA NILUFAR, BOYSARIYEVA SAODAT
LATIPOVA GULASAL
O‘quv lug‘atining leksikografik janr sifatida o‘rganilishi 31

ABDULLAYEVA OQILA XOLMO‘MINOVNA,
RAXMONOVA MOHIRA ABDUSATTOR QIZI
O‘zbek tilidagi gaplarda so‘z tartibi va sintaktik tahlil qilish algoritmi 34

МАРДОНОВА РАЪНО
Бадиий сифатлаш – эпитетлар поэтик матннинг
пердикатив-аҳамиятли бирлиги сифатида 42

QURBONOVA GAVXAR XURRAMOVNA
Olam manzarasida astronimlar 44

RAXMONOV BOTIR ABDURASULOVICH
Etnografizm talqini va muammolari:
o‘zbek tilshunosligida etnografizmlarning tadqiq vazifalari 48

МАДАМИНОВА РАЪНО ЮСУПБАЕВНА
“Алпомиш” достонида учрайдиган этнографик атамалар 52

ORAZBAYEV ERGASH YULDASHEVICH
Mavhum tushuncha ifodalovchi arabcha o‘zlashmalarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillari misolida) 54

RO‘ZIYEV ELBEK O‘ROL O‘G‘LI
Diskursiv yondashuvga doir nazariyalarda siyosiy diskurs ifodasi 58

XUDOYBERDIYEVA GULMIRA ALLABERDI QIZI
Terminologiyada polisemiya hodisasining talqini 60

EGAMNAZAROVA ZAYNAB XOLMUROD QIZI
Ingliz va o‘zbek tillaridagi iqtisodiy terminlarning rivojlanish tendensiyalari 63

BERDIYEVA ZULFIYA SAFAROVNA
Til birliklari va madaniyatlararo muloqot birliklari sifatida antroponimlarning lingvistik xususiyatlari 69

ҲОМИТОВ ДИЛОВАР ЛУТФУЛЛОЗОДА
Ҳозирги тожик тили консонантизм тизимининг фонологик таҳлили 72

BO‘RIYEV ISLOM ESHMIRZAYEVICH
O‘zbek tili iboralarida sinonimiya, omonimiya hamda antonimiya hodisalari 76

МУНДАРИЖА

TO‘RALIYEV BAXODIR ERALI O‘G‘LI
Savdogar nutqi leksikasining genealogik tarkibi tahlili 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

АЛИМОВ ПАРДА
Муҳаммад юсуф маҳорати сирлари 86

АФОҚОВА НОДИРА, ҒАНИЕВА АФИФА
Тафаккур, тасаввур ва бадиий сўз 93

ҒАНИЕВ ИЛҲОМ
Чингиз айтматов асарларида инсон, табиат ва ҳайвонот олами диалектикаси 96

EGAMQULOVA NODIRA
“Sadoyi turkiston” sahifalarida abdurauf muzaffarzoda:
muharrirlik faoliyati hamda badiiy publitsistikasi 100

KARAMOVA SHOHIDA
Zamonaviy o‘zbek aruzining fonetik sathi 104

МАНСУРОВ СОБИР
Дилафгор шеъриятдаги ўзига хос назиралар 107

GULOBOV ABDULVOSIT NURULLA O‘G‘LI
Nozil xo‘jandiy hayot yo‘li va ijodi 109

МУХТОРОВА МАҲФУЗА
Шафоат термизий шеъриятида ватан ва табиат тимсоллари 111

TADJIYEVA UMIDA FAXRIDDINOVNA
Arab va o‘zbek maqollarining o‘rganilish tarixi 114

OMONTURDIYEV ALIBEK
She’rda his-tuyg‘ularni teleportatsion tabiatiga ko‘ra o‘rganish masalasi 117

SAYDULLAYEVA AZIZA UBAYDULLAYEVNA
Turk olimi bahaeddin o‘gel va uning “Turkiy mifologiya” ensiklopediyasi 121

ALIYEVA DILSHODA
Zamonaviy jahon nasrida mifologik model 124

ALIYEVA ORZIGUL,
Abdulla oripovning g‘oyaviy -estetik olami 127

YORBULOVA DILDORA SHOKIR QIZI
Obraz, obrazlilik, badiiy obraz (“Hujum” dramasidagi obrazlar tahlili misolida) 130

TA’LIM

ABDUVALITOV ERGASH BURANEVICH, MEDENOVA AYDANA KANATBEK QIZI
Milliy maktablarda qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o‘rganish 134

АЛЛАЁРОВА НИЛУФАР ЯХШИНОРОВНА, ШУКУРОВА ШАХНОЗА МАРАТОВНА
Система изучения имени существительного в начальных классах 138

JOVLIYEVA YULDUZ ABDIVASI QIZI
Normurod norqobilovning “oqbo‘yin” qissasini adabiyot darslarida o‘qitishning
o‘ziga xos usul va metodlari 141

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

Turkum maqolalar[1]

ЎЗБЕК ТИЛИДА ТИНИШ БЕЛГИЛАРИНИНГ СЕМАНТИК-СТИЛИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ (2-мақола)

Каримов Суюн Амирович,
Самарқанд давлат университети профессори, филология фанлари доктори

Кўпнуқта.

К.Назаров кўпнуқтани стилистик тиниш белгилар қаторида санаш лозимлигини айтиб, унга "Воқеаларнинг тез ўзгариши, персонажнинг турли ҳис-ҳаяжон ва ҳолатини кўрсатувчи гаплар охирига кўпнуқта қўйилади" тарзида таъриф беради.[2] Айтилиши ёки ёзувда берилиши мумкин бўлмаган вульгар сўзлар ўрнига қўйилиши, шунингдек, унинг ёрдамида давомлилик оттенкаси ифодаланиши ҳақида мулоҳазалар билдиради.

Тиниш белгилари тизимида кўпнуқта ҳам грамматик, ҳам стилистик вазифаларни адо этиши билан алоҳида мавқега эга. Шунинг учун унга ҳар икки томондан қараш мақсадга мувофиқ бўлади. Айтайлик, матн таркибида, масалан, хатбошида, ўртасида ва охирида унчалик муҳим деб ҳисобланмаган қисмнинг тушириб қолдирилганини англатиб туриши кўпнуқтанинг грамматик вазифаси саналади. Масалан:

И.Кант: "... Ҳар қандай билимимиз сезгидан бошланади, сўнг идрокка ўтади ва ақл билан тугайдики, мушоҳада материалини ишлаш учун ва уни тафаккурнинг олий бирлигига етказиш учун бизда ундан юқорироқ нарса йўқ", – дейди.

"Бунга тарих гувоҳ... бизга берган буюк неъмат – маънавиятга ҳеч қачон хиёнат қилмаганмиз, қилмаймиз ҳам".

Индивид томонидан ҳозирги замоннинг идрок этилиши хусусияти кўп жиҳатдан унинг ўтмишни тушунишига боғлиқ бўлади[3]. каби.

Бундан ташқари, тилга оид дарсликларда муайян товуш (ҳарф) ёки сўз ўрганилаётганда улар матндан тушириб қолдирилади ва ўрнига кўпнуқта қўйилади ва бу унинг грамматик вазифаси ҳисобланади. Масалан: ***Машқ 49.*** Нуқталар ўрнига ***х*** ёки ***ҳ, п*** ёки ***ф*** ҳарфларидан мосини қўйиб кўчиринг: …а…тачилик, тана…ус, дў…и, …ате… оғзаки нутқ, …а…та, ма…ий, …а…рланмоқ, …артара…лама, …а…сала, …а…лавон, маъри…ат... арвар, и…ти…ор, а…остро…, …алса…а, …о… ламоқ[4].

Шунга кўра, кўпнуқта баъзан илмий ва расмий матнларда, баъзан бадиий-публицистик матнларда муаллиф нутқида қўлланилганда унинг грамматик вазифани бажариши яққол намоён бўлади. Лекин бадиий асар қаҳрамонлари нутқида ва назмий асарларда бу тиниш белгисининг қўлланиш имкониятлари жиддий равишда кенгайиб боради ва грамматикадан стилистика томон силжиш юз беради.

Бадиий матнларда фикрнинг тугалланмай қолганлигига, баъзи бир узилишларга, нутқ муаллифининг ўйланиб қолганлигига, иккиланганлигига, ҳаяжонланганлигига, кутилмаганда бир фикрдан бошқасига ўтиб кетганлиги ва яна давом эттирганлигига, бетоблиги ва ҳолсизлигига, хушламаслик ва ёқтирмаслигига, танимаслик ва ҳадиксирашлигига ҳамда бошқа руҳий ҳолатларга ишора қилиши кўпнуқтанинг стилистик имкониятларидир.

Сарлавҳалар охирида кўпнуқтанинг қўйилиши эса алоҳида мазмунга эга. Бу каби сарлавҳалар кўпинча илмий-оммабоп мақолаларда, газеталар матнида учрайди. Уларнинг бир қисми иқтибослар тарзида олинган шеър мисраларининг сарлавҳага чиқишида кўзга ташланади. Масалан, "Халқ сўзи" да: *"Кимки бир кўнгли бузуқнинг хотирин шод айлагай…", "То нафсу ҳавас қасри*

[1] "Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim" jurnali taniqli olimlarimizning turkum maqolalarini chop etishni yo'lga qo'yganini ma'lum qiladi.

[2] Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 48.

[3] Раҳмонов Р., Файзиев Ф. Ёшлар дунёқараши шаклланишида тарихий онг ва тарихий хотира. – Тошкент: O'zbekiston, 2008. – Б. 11, 34, 27.

[4] Маъруфов А., Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тилидан қўлланма. Ўрта мактабларнинг юқори синфлари учун. – Тошкент: Ўқувпедгиз, 1956. – Б. 30.

барафтод ўлмас…", "Одами эрсанг…" (2020 йил 7 февраль). "Zarafshon" да: *"Бори элга яхшилиғ қил…", "Умрингни соз айла…", "Даллес режаси" амалда… ми?"* (2019 йил 19 февраль, 2018 йил 3 ноябрь), "Hurriyat"да: *"Исмимизни тўғри ёзсак…"* (2019 йил 15 май) каби.

Айрим ҳолларда кўпнуқта бир матннинг ўзида икки хил вазифани адо этаётганини кузатишимиз мумкин: *…Козимбекка тега кўрма, дадаси барибир ишдан олинади дейишибди…* (А.Қаҳҳор, Синчалак). Мисолдаги кўп нуқтанинг бир-биридан фарқи бор. Биринчисида гап олдидаги гапнинг келтирилмаганига ишора бўлса, иккинчисида фикрнинг давоми борлиги, аммо бу ерда айтилмаганига ишора бор. Шу маънода биринчиси грамматик, иккинчиси стилистик мазмунга эга.

Маълум бўладики, кўпнуқтанинг стилистик имкониятлари асосан бадиий-публицистик матнларда намоён бўлади. Шу боисдан кўпнуқтанинг бу вазифасини лингвопоэтик вазифа сифатида баҳолаш мумкин. Ўзбек тилида ҳеч бир тиниш белгисининг лингвистик имкониятлари бу қадар кенг эмас.

Бадиий матнлардаги яна бир ҳолатга эътиборимизни қаратамиз. Матнда фикр равон ифода этилиб борилаётган бир пайтда фикрдаги жузъий тугаллик сабаб синтактик занжирнинг узилиши содир бўлади. Оғзаки нутқда бу узилиш пауза – тўхтам деб баҳоланади. Ёзма матнда эса бу вазифани тиниш белгилари бажаради. Нуқта, вергул, ҳатто ундов ва сўроқ белгилари ҳам шу вазифани бажариши мумкин. Аммо баъзан ижодкорнинг бадиий нияти билан боғлиқ тарзда бу синтактик занжир атайлаб узиладики, ёзма матнда бу вазифани фақат кўпнуқта кўрсата олади.

Тадқиқотчиларнинг қайд этишича, ёзма матнда паузани беришнинг бошқа йўллари ҳам бор. Вергул ва тире ҳам бу вазифани адо этиши мумкин. Бу икки белги кўпнуқтадан фарқли ўлароқ қисқа паузаларни акс эттиради. Семантик-грамматик талаблардан келиб чиқиб, уларнинг ўз асосий вазифалари бор. Масалан, гап бўлакларининг кетма-кетлиги, саналиши, ажратилиши, теңглиги каби. Ана шу вазифаларни ифодалаш баробарида қисқа муддатли, бир лаҳзали сукутлар ҳам юз беради. Бу ерда иштирок этаётган қисқа муддатли паузалар ифодалайдиган экспрессивликни микроматнларнинг умумий фонида қараш тўғри бўлади. Кўпнуқта ифодалайдиган пауза эса давомлидир.

Соҳа тадқиқотчиларидан бири Т.Л.Ваулинанинг кўпнуқтага доир қарашлари эътиборга моликдир. У ўзининг "Иловали қурилмаларни ташкил этишда тиниш белгиларининг экспрессив вазифалари" номли мақоласида кўпнуқта юқори даражадаги эмоционал босимдан далолат бериб туришини, бир маромда кетаётган баённинг бирдан тўхтаб қолиши ўз-ўзидан бўлмаслигини таъкидлайди. Эмотив ҳолатларнинг кўплигидан келиб чиқиб, ушбу тиниш белгиси ёрдамида ифодаланган гапларни ижобий ва салбий турларга ажратади.

Шунингдек, у кўпнуқтага хос бўлган стилистик хусусиятлар тиреда ҳам мавжуд деб ҳисоблайди ва уларни биргаликда таҳлил қилади. Унинг фикрича, мантиқий урғуни ифодалаш тире ва кўпнуқтанинг экспрессивлик хусусиятларидан биридир. Улар ёрдамида маълум бир воқеликка китобхон эътибори қаратилади ёки муаллифнинг мақсади шу тарзда ажратиб кўрсатилади. Матн қисмларини ўзаро боғлаш ҳам тире ва кўпнуқтанинг экспрессивлик хусусиятларидан биридир. Бу тиниш белгилари қўлланишининг фаоллашуви ҳам уларнинг экспрессивлик ифодалаш хусусияти билан боғлиқ.[1]

Шунингдек, тире ва кўпнуқта матн бўлинишлари орасидаги паузани ифодалайди, китобхоннинг эътиборини матнга тортади. Бу паузаларнинг узун ёки қисқа бўлишидан юзага келадиган экспрессивлик эса турлича бўлади.

М.Йўлдошев ҳам кўпнуқта стилистикаси ва поэтикасига оид "Бадиий матнда тиниш белгиларининг поэтик актуаллашуви" номли мақола эълон қилган.[2] Мақолада график образлилик муаммолари таҳлил этилган ва бунда асосий эътибор кўп нуқтанинг (**…**) бадиий матнларда бажарадиган стилистик ва поэтик вазифаларига қаратилган ҳамда нутқда қўрқув, қувонч, ҳаяжон, турли жисмоний ва ҳиссий оғриқ-изтироблар ва шунга ўхшаш аффектив ҳолатларнинг берилишида хизмат қиладиган асосий график белги эканлиги айтилган.

М.Йўлдошев фикрича, нутқнинг эмфатик бўлакланиши кўпнуқта орқали ифодаланади. Баъзан асар қаҳрамони турли ҳиссий ҳолатлар билан боғлиқ ҳолда айтмоқчи бўлган фикрининг аниқ ва ўринли ифодаси учун зарур бўлган сўзни қидириб қолади. Ана шу сўз излаш жараёнида, табиийки, нутқ оқимида узилишлар бўлади, бу узилишлар, паузалар бадиий матнда кўпнуқта воситасида таъкидланади. Шу тарзда айни узилишлар поэтик жиҳатдан актуаллашади, яъни тегишли бадиий маънолар касб этади. Бундай узилишлар матннинг бутунлигини бузгандай, парчалагандай кўринади, аммо аксинча, айни узилишлар поэтик актуаллашувга кўра матн интеграциясининг кучайишида иштирок этади.

[1] Ваулина Т.Л. Экспрессивная функция знаков препинания в организации присоединительных конструкций. https://cyberleninka.ru › article› ekspressivnaya-funkts... – С. 141-147.

[2] Йўлдошев М. Бадиий матнда тиниш белгиларининг поэтик актуаллашуви. .

Аммо стилистик фигура сифатида қараладиган жим қолиш – пауза ифодаси бўлганда у, шубҳасиз, экспрессивлик учун хизмат қилади. Унинг кўмаги билан ёзма матнда инсон руҳияти, ифода бадиияти бир қадар аниқроқ ифода этилади. Шу маънода у муаллиф субъективлигининг кўриниши сифатида намоён бўлади. М.Йўлдошев буни “матнда йўқ гапни поэтик актуаллаштириш”, деб ҳисоблайди.

Бадиий адабиётда стилистик фигуралардан бири сифатида қараладиган жим қолиш усулини ёзма матнларда кўпнуқтасиз бериб бўлмайди.

Таъкидлаш жоизки, ижод жараёнида муаллифнинг ёки қаҳрамоннинг руҳий изтироблари ва ҳолатини ифодалайдиган бу усул бирмунча фаол. Биз бу ҳақда “Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари” номли китобимизда имкон қадар тўхталганмиз.[1] Бу ерда ундаги айрим ўринларни такроран келтириб ўтамиз. Масалан:

1. Бу усул ёрдамида ёзувчи ва ўқувчи ўртасида мустаҳкам психологик алоқа ўрнатилади, ўқувчи беихтиёр ижодкор ҳиссиётларига шерик бўлади:

*Ўйларим кезади **Шоҳимардонда...***
Ҳозир:
Кўтарилдим шоир ухлоқ юксакка,
бир қучоқ гул, дилда эҳтиром,
Устоз руҳига шеърим,
қалам ва илҳом.
Мен якка
*Шоирдан ўзгаси **унут...*** (Зулфия, Сўроқлайди шоирни шеърим)

2. Бу усул лирик қаҳрамоннинг табиатдан, воқеа-ҳодисалардан таъсирланиш, хусусан, завқ олиш ҳолатини беришда жуда қўл келади:

Ярқираб кўринар қадим Бухоро,
Ярқираб кўринар гўзал Фарғона.
Эҳ, шу ширин фурсат, шу гўзал асно
*Масъум гўдагингни уйғотгил **она..,***
Уйғот, барқут тунга термулсин тўйиб!
(Ж. Камол)

3. Бирор нарсадан безовталик, қалбдаги нотинчлик фикрни бир маромда ифодалашга имкон бермаслик ҳолати акс этади:

Биттагина паноҳ,
Қариндошим шу
Айткин-айткин синглим,
***Уҳ...** кўп кўрмасин.* (У. Носир, Нахшон)

4. Ғазаб, нафрат ҳисси тўлқинланганда ҳам одоб юзасидан ёки бошқа бирор сабаб билан уни очиқ баён қилиб бўлмаслик берилади:

Ўн еттинчи йилда илк бор
*Сизни асли **йўргакда...***
Афсус, Ҳануз шу армон бор.
Пушаймон бор юракда. (Э. Воҳидов, Сармоядор)

5. Диалогик нутқ жараёнида суҳбатдошнинг бири иккинчисига бўлган салбий муносабатини жим қолиш йўли билан билдиради:

***Нозим**. Яхши денг? Уни ҳамма ҳам яхши кўрарди шекилли? Шунақами?*
Атлас. ...
***Нозим**. Сиз ҳам яхши кўрарсиз?*
Атлас. ...
***Нозим**. Яхши кўрарсиз-да. Ҳамма яхши кўрган кишини сиз ёмон кўрармидингиз?*
Атлас. ... (У. Носир, Атлас)

6. Асар қаҳрамони воқеалар таъсиридан ўзини бутунлай йўқотиб қўйган. Муаллиф бу кайфият тафсилотини бериб ўтирмасдан, уни ифодалаш учун жим қолиш усулига мурожаат қилади ва шу билан персонаж нутқини мантиқсизликдан халос қилади: ***Орзуманд**. **Ҳа... мен** уни ўзим деб билардим. Мен унда ўзимнинг расмимни кўрган **эдим... Ҳа...** койима **муҳаббат...** бу дард узоқ сафарга чиққан карвон каби аллақаерларда из **қолдирди...** Севгим **сароб...** Ҳей-й.* (У. Носир, Атлас)

Жим қолиш усули ҳар бир ёзувчи ижодида ўзига хос тарзда намоён бўлиши мумкинлигини шоира Зулфия ижоди юзасидан олиб борган тадқиқотлар жараёнида кузатганмиз.[2] Масалан:

1. Асар матнида мулоҳазаларнинг баён этилиш жараёни бирдан тўхтатилади, аммо китобхон ёки тингловчига унинг мазмуни аён бўлади: *Ҳарорат, бу сенми, муқаддас, ноёб ўт, ҳарорат? / Овозлар, оҳанглар, меҳмонлар, **мезбонлар…**/ Ким солган бу эзгу одатлар чўғини дилларга?* (1.10).

2. Матндаги иккинчи даражали бўлган элементлар ташлаб юборилади ва жим қолинади: *Кўзим тушди олма гулига, / Дедим, тақсам энг гўзал бирин- / **Сўйлаб берса…** менинг чеккамда, / Дилбарлигин, гўзаллик сирин* (1.15).

3. Воқеаларнинг кейинги ривожини тасаввур қилиш ва ҳис этиш учун ўқувчи ёки тингловчига имкон берилади: *Елда қўшиқ, кўприкда шуъла, / Бахт-ла тепди **икки ёш юрак…**/ Ой сўзлади юлдузни тўплаб, / Севги тонги ҳақида эртак* (1.19).

4. Шоиранинг мулоҳазани охиригача давом эттириш истаги бўлмаган пайтда ҳам жим қолинади: *Гулзорда сайролмас бойқушлар, зоғлар, / Баҳор қушлари боз **елпигай қанот…*** (1.36).

5. Жим қолиш ёрдамида лирик қаҳрамоннинг оғир руҳий ҳолати ифода этилади: ***Узоқ…** узоқларда эркам, у боғбон, / У ерда на гул бор, на гулгун баҳор* (1.36).

6. Шоира томонидан жим қолиш усули ўқувчи-

[1] Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд, 1994. – Б. 53-55.

[2] Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – Б. 151-153.

ни бўлажак воқеага руҳий тайёрлаш жараёнида қўлланилади: *Тоғ ортига ўтиб кетди кун, / Секин чўкди тоза,* ***салқин тун…****/ Мен дераза очганим чорбоғ, / Сокин ухлар тун кўрпасида. / Майин қўшиқ ёйилар ҳар ён, / Эсиб ўтган ел шарпасида* (1.57). Бу парча “Тун” шеърidan олинган. Шеър яна жим қолиш билан тугалланади: *Кўзларимда эриб кетди тун, / Ёйилмоқда ёркин* ***жувон кун…*** (1.58).

7. Тасвирдаги баъзи деталлар шоира учун аҳамиятсиз бўлиб туюлганда ҳам жим қолиш усулидан фойдаланилади: *Ёзибсиз* ***бойликлар…*** *уруш ва яна / Ўзингиз ва мениng унвоним ҳақда* (1.134).

8. Диалогик нутқда ўз фикрини охиригача айтишга этика йўл қўймаганда (камтарликни ифодалашда): *Чўпон дейди: “Ҳар юз совлиқдан / Юз ўттиз беш оламиз қўзи…”* (1.150).

9. Кучли руҳий ҳолат таъсирида фикрни охиригача давом эттиришнинг иложи бўлмаганда жим қолинади: ***Сирқирайман…*** *ҳижрон илонин / Янчишга заиф одам. / Шунинг-чун, ишқ, бахт, ҳижрон доғи / Жуфт яшар борки* ***олам…*** (1.227).

Шундай қилиб, жим қолиш усули ёрдамида муаллиф ва ўқувчи ўртасида ўзига хос тарзда боғланиш пайдо бўлади. Бу усул кўмагида фақатгина экспрессив-эмоционал маънолар, оттенкалар берилиб қолмасдан, муаллиф ёки қаҳрамоннинг руҳий изтироблари ҳам берилади.

Айрим гаплардан англашиладиган стилистик оттенкалар фақат кўпнуқта туфайли юзага чиқади, деган хулосага келишга шошилиш керак эмас. Бу семантик-стилистик маъноларнинг юзага келишига гап таркибидаги бошқа бирликлар ҳам сабабчи бўлади. Масалан:

Гўзал бир йигит эшикни қоқди. Сочига битта-иккита оқ оралаган хотин чиқиб очди.

– Келинг, ***келинг...*** *Марҳамат.* (А.Қаҳҳор, Қайғулар)

Миллий менталитетга хос бўлган эшикдан келган меҳмонни очиқ кўнгиллик билан кутиб олиш гапда *келинг* сўзининг такрорланиши ва *марҳамат* сўзлари орқали ифодаланган. Кейинги *келинг* сўзидан сўнг кўпнуқтанинг қўйилиши эса бу маънони яна қўшимча стилистик оттенка билан тўлдирган. Кутиб олаётган одам аёл киши, меҳмон эса шунчаки таниш эканлигидан келиб чиқадиган одоб этикаси бир қадар расмийликни тақозо этади. *Келинг* дан кейинги кўпнуқта, *марҳамат* дан кейинги нуқта ўқувчига айнан ана шу маънони ҳис этишга ёрдамлашади. Уларнинг ундов белгиси билан алмаштирилиши ўқувчида бошқа бир ҳиссиётни – меҳмон мезбоннинг яқин кишиси эканлиги ва унинг келишидан жуда хурсанд бўлганлигини англатади. Демак, кўпнуқта ва ундов бир-биридан фарқ қилувчи стилистик оттенкаларга эга.

Бўстон *(сўридан тушади).* ***Келинг... келинглар...***

Марасул*. Э, келинг, хола,* ***келинг!*** *Ўйнаб-кулиб келдингизми... Насибахон, аям қанилар?* (А.Қаҳҳор, Аяжонларим) Келтирлган мисолни юқоридагисига солиштириш орқали ҳам бу фикрга қўшилса бўлади.

Саида келиб чамадонини икки қўллаб кўтариб сўрига қўйганидан кейин Қаландаров сўрашгани қўл узатди.

– ***Келинг...*** *Қийналмай келдингизми?* (А.Қаҳҳор, Синчалак) Жумладаги *келинг* ва ундан сўнг қўлланган кўпнуқтада расмийлик, бетакаллуфлик оттенкаси бор. Ўқувчининг бу бетакаллуфликни аниқроқ сезишига ёзувчининг ўзи кўмаклашади: эркак кишининг аёл киши чемоданини сўрига қўйгунча кутиб турганлигини баёни орқали сездиради.

Бадиий услубдан ташқари сўзлашув услубида ҳам кўпнуқтани турли стилистик маъноларда тез-тез учратиш мумкин. Аммо инсон руҳиятидаги бу ўзгаришларнинг бирортасини ёзма матнда кўпнуқтасиз амалга ошириб бўлмайди. Зеро бу тиниш белгисининг стилистик ва бадиий-эстетик аҳамияти ҳам ана шундадир.

2020 йилда – пандемия даврида концерт берган Аваз Охуннинг саҳнадаги афишасида *томошабин…сиз* деган ёзув бор эди. Нутқий вазиятда *томошабин иштирокисиз* маъносини англатадиган бу сўзни *томошабинсиз* тарзида ёзиш ҳам мумкин бўлган. Аммо экспрессивлик нуқтаи назаридан улар ўртасида жиддий фарқ бор. Халқнинг кайфиятини кўтариш мақсадида берилаётган бу концерт жараёнида шароит тақозоси билан зал бўм-бўш эди, афсусланарли эди. Матндаги кўпнуқта айнан ана шу оттенкани бера олганлиги билан ғоятда ўринли қўлланилган.

Тире.

Ўзбекистон Республикасининг “Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида”ги Қонунини бажариш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси 1995 йил 24 августда қабул қилган “Ўзбек тилининг асосий имло қоидаларини тасдиқлаш ҳақида”ги 339-сон Қарорида шу пайтга қадар қўлланилиб келинган *тире, дефис* атамалари ўрнига *чизиқ* ва *чизиқча* деган атамалар ишлатилган. *Чизиқча* (-) шу пайтга қадар қўлланиб келинаётган *дифес* ўрнида ишлатилган. Ҳатто “Қоида”да “Чизиқча билан ёзиш” деган алоҳида бўлим ҳам мавжуд. Аммо *чизиқ* (–) ҳақида ҳеч нарса дейилмаган. Муаллифлари Н.Маҳмудов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамовлар бўлган “Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари”да *тире* атамаси ўз кучида қолган (Тошкент, 2015). Тил ислоҳотлари доирасидаги мунозаралар ҳали давом этаётгани

боис, биз ҳам ***тире*** атамасидан фойдаланишни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

Тиренинг **грамматик вазифа**си ёзувда сўз, бирикма ва гап шаклидаги тил бирликлари ўртасида тенгликни ифодалашдан иборат. Унинг қўлланиш тартиби Ҳ.Ғозиев, К.Назаровларнинг юқорида номлари тилга олинган асарларида, айниқса, Н. Маҳмудов ва бошқаларнинг “Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари”да атрофлича баён этилган.

К.Назаров “Тиниш белгилари ва ёзма нутқ” асарида тиренинг полифункционаллиги ҳақида гапириб, унинг ёзувда 20 дан ортиқ вазифани бажариши ҳақида маълумот берган.[1] Тиренинг бу кўпвазифалилиги ёзувда у ифодалайдиган семантик-стилистик маънолар билан боғлиқ.

Гап таркибидаги **тенглик**ни ифодалаш унинг бош – грамматик вазифаси саналади. Масалан: *Тоҳир **саройга – Бобурнинг ҳузурига** келди* (П.Қодиров, Юлдузли тунлар), *Лекин Абдуллатифни **темурийлар хилхонасига – отасининг ёнига** қўйишни мўйсафидлар маъқул кўрмади* (П.Қодиров, Она лочин видоси) каби. Айни пайтда, унинг ёрдамида **таъкидлаш, ажратиб кўрсатиш, қаршилантириш, зидлаш** сингари турли хил семантик-стилистик оттенкалар ҳам намоён бўлади, **қисқарув**лар содир бўлади.

Бу оттенкаларни яққол пайқамоқ учун тиренинг ёки у иштирок этган гап бўлакларининг **синоним**ик муносабатларини кўздан кечирмоқ жоиз. Масалан, *Отам – ирригатор = Отам ҳам ирригатор* гапларини қиёслайлик. Бу каби ҳолатларда тире кучайтирув-таъкидлов воситаси – *ҳам* билан синонимик муносабатда бўлади. Чунки биринчи гапда тире *ота* ва *ирригатор* сўзларининг мантиқан бир-бирига тенглигини тасдиқлайди. Иккинчи гапдаги *ҳам* эса бўлаклар ўртасидаги тенгликни ифодалаш баробарида гап мазмунига отаси бошқалар қатори ирригатор эканлигини тасдиқловчи қўшимча оттенка олиб киради. Бу ўринда стилистик оттенка тире туфайли эмас, балки *ҳам* воситаси орқали юзага чиқаяпти.

Энди *отам ирригатор = отам – ирригатор* гапларини олиб қарайлик. Улар ўртасидаги синонимик муносабат тире туфайли юзага келган. Гарчи бундай ҳолатларда тиренинг қўлланиш-қўлланмаслигини фарқлаш қийин кечса ҳам, бу фарқлашга зарурат бор. Чунки улар ўртасида стилистик фарқ мавжуд. Биринчи ҳолат – *отам ирригатор* гапи *ким ирригатор*, деган саволга жавоб бўлади ва *отамдан бошқа киши эмас,* деган маъно келиб чиқади. *Отам – ирригатор* эса *отанг нима қилади*, деган саволга жавоб бўлади. Бу *отамнинг касби ирригаторлик, бошқа касб эмас,* деган маънони англатади. Жавобларнинг ёзма нутқда бу тарзда фарқланишига фақат тире орқали эришиш мумкин.

Таркибида тире иштирок этган боғловчисиз қўшма гапнинг эргаш гапли қўшма гапга айлантирилган шакли ўртасида ҳам синонимик муносабат пайдо бўлади: *Қўшнинг тинч – сен тинч = Қўшнинг тинч бўлса, сен ҳам тинч бўласан. Олим бўлсанг, олам сеники = Олим бўл – олам сеники* каби. Бу гаплар мазмунан бир хил, аммо стилистик фарқларга эга. Бирида фикр ихчам, иккинчисида батафсил баён этилган. Биринчиси оғзаки, иккинчиси ёзма нутққа хосланган.

Таркибида тире иштирок этган бу каби синтактик қурилмалар боғловчисиз қўшма гапларга хос ва мақоллар таркибида фаол қўлланилади. Масалан, *Вақтинг кетди – бахтинг кетди* каби ҳолатларда унинг грамматик вазифани бажариши яққол намоён бўлади. Айни пайтда, бу жараёнда юзага келадиган **қаршилантириш** ва **зидлаш** оттенкалари стилистик аломатлар сифатида баҳоланади. *Берсанг – ейди, урсанг – ўлади. Айтилган сўз – отилган ўқ. Алп – отадан, зот – онадан. Арслоннинг ўлиги – сичқоннинг тириги. Бир қилган – мадад, Икки қилган – одат. Бола – ёшидан, Хотин – бошидан* каби **мақолла**рда тире грамматик вазифани адо этиш ва гап бўлаклари ўртасидаги тенгликни кўрсатиш баробарида ана шу семантик-стилистик нозикликларни ҳам англатиб туради.

Аммо *Аравани от тортар, Кўланкасин – ит. Аҳмоқнинг кулгуси кўп, Дангасанинг – уйқуси. Яхшидан от қолар, ёмондан – дод* сингари мақолаларда унинг вазифаси стилистика томон жиддий ўзгаради: ритмни, ифода маромини сақлаб қолган ҳолда гапнинг иккинчи қисмини такрордан сақлайди. Гаплардаги тире стилистик вазифа адо этиб, тушиб қолган бўлакнинг маъносини билдиришни ўз зиммасига олади. Бунинг устига, ихчамлик ва қисқаликка эришилади. Улардаги *тортмоқ, кўп, қолар* сўзлари **қисқарув**га учрайди. Айни пайтда, тире ва алоҳида оҳанг туфайли бу яшириган сўзларнинг маъноси тўлиқ ифодаланади ёки баённинг бирдан тўхтатиб қўйилиши ҳам ўқувчида воқеликнинг давомига қизиқиш уйғонишига сабаб бўлади.

Айтилганларга асосланиб, мақолларда тире алоҳида стилистик вазифа бажаради, деб ўйлаймиз. Бу ҳолат публицистикада ҳам кузатилади: *Ватаним – онам*. Бу билан тире тушиб қолган бўлаклар англатадиган маъноларни ифодалашни ўз зиммасига олади. Теледастурлар ҳақида бериладиган: *21.00 – “Ахборот-24”. 22.00 – Жаҳон*

[1] Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент, 1974. – Б. 26.

бўйлаб каби ёзувларда ҳам тире матнни қисқа ва ихчам тарзда бериш воситасига айланган.

Сўзлашув услубида юз берадиган **қисқарув**ни ёзма матнга кўчиришда тире воситачи бўлишини *Тошкент – Бухоро тезюрор поезди* мисолида кузатамиз. *Тошкентдан Бухорога қатнайдиган тезюрор поезд* нинг маъноси *Тошкент* ва *Бухоро* сўзлари ўртасида қўлланган тире туфайли тўлиқ сақланиб қолган.

Бадиий матнларда тиренинг қўлланишидаги фаоллик-нофаоллик, ўринли-ноўринлик **ижодкорнинг индивидуал услуби билан боғлиқ** бўлиши мумкин. Усмон Азим шеъриятидан олинган мана бу:

Замин билан осмон – сену менман,
Саҳар билан оқшом – сену менман.
Еру осмон аро бир ишқ бордир –
Ишқдан бунёд ҳижрон – сену менман.
Куздаги икки япроқ – сену менман,
Баргдаги митти фироқ – сену менман.
Жоним, фироқ аро бир севги бор,
Фироқда қолган чироқ – сену менман

мисраларда эга ва кесим ўртасига тиренинг қўлланилиши индивидуал услубга хосликни кўрсатади. Чунки бу каби ҳолатларга шоирнинг бошқа шеърларида ҳам дуч келамиз ва тире ўзида соф эмоционал юк ташиётганини кузатамиз. Шеърий парчада тире ритмни таъминлаш, муҳим детални таъкидлаш, фикрни якунлаш йўли билан экспрессивликни таъминлаган. Тире кўмагида ифодаланаётган пауза қатъият ва ишонч баробарида ўзидан кейинги жумланинг бир хил маромда талаффуз этилишини ҳам таъмин этган.

Умуман, бадиий матнларда тиренинг қўлланиш частотаси персонажлар нутқининг берилиши билан боғлиқ. Диалог шаклидаги гаплар одатда тире орқали бериб борилади. Бу эса матнни ихчам ҳолатга олиб келади, унинг қўлланиши туфайли матнда кенг тафсилотга ўрин қолмайди. Тире суҳбат икки киши ўртасида бўлаётганини маълум қилиб туради:

– Ишла. – Нима учун? – Югур! – Нимага?
– Телевизор керак! – Машина! – Буюм...
Бир йилки, боқмадим тўйиб дунёга,
Севгилим, унутдим майсалар бўйин (У.Азим, Буюмлар ҳақида баллада) каби.

Тиренинг сўз, бирикма ва гап шаклидаги тил бирликлари ўртасида тенгликни ифодалаш хусусияти уни **бошқа тиниш белгилари билан таққослаб** ўрганишни тақозо этади. Масалан, кўчирма гапли қўшма гапларда **қўштирноқ** тире билан вазифадошлик қилиши мумкин. Кетма-кет келганда қўштирноқ, янги қатордан берилганда тире ишлатилади.[1] Масалан: *Район ижроия қўмитасининг ўша вақтдаги раиси бир куни Қаландаровни чақиртириб, "Бўстон" колхозининг аҳволини гапириб берди, сўзининг охирида: "Мен урушга кетаётибман, агар рози бўлсангиз, шу колхозни сизга топшириб, хотиржам бўлиб кетсам", деди.* (А.Қаҳҳор, Синчалак) Мана шу гапни: *Район ижроия қўмитасининг ўша вақтдаги раиси бир куни Қаландаровни чақиртириб, "Бўстон" колхозининг аҳволини гапириб берди, сўзининг охирида:*

– Мен урушга кетаётибман, агар рози бўлсангиз, шу колхозни сизга топшириб, хотиржам бўлиб кетсам, – деди тарзида шакллантириш ҳам мумкин. Бундан матнда ҳеч қандай стилистик ўзгариш содир бўлмайди. Икки тиниш белгисининг аҳамияти бир хил бўлади.

Аммо кўчирма гапларнинг берилиш тартиби мана шу ўринда услуб жиҳатдан фарқланади. Унинг бадиий матнларда берилишида тире фаол бўлса, илмий матнда асосан қўштирноқ ишлатилади.

Тире **қавс** билан ҳам вазифадош бўлиши мумкин. Масалан, айрим кириш бўлаклар ҳар икки томондан тире билан ажратилади: *Аммо... – Мирзо Улуғбек қўлларини кўксида қовуштириб, шогирдига синовчан тикилди. – Аммо эсингда бўлсин: кўп хатарли юмуш бу! Аммо бу орада (фалакнинг ўйинини қаранг!) ўз устози мавлоно Муҳиддиннинг қизи Хуршидабонуга ишқи тушиб қолди.* (О.Ёқубов, Улуғбек хазинаси) Бу каби ҳолатларда уларнинг бири ўрнида иккинчисини қўллаш мумкин бўлса-да, бу алмашинишларда стилистик фарқланишлар сезилмайди. Аммо ҳар икки ҳолатда ҳам таъкидлаш, ажратиб кўрсатиш оттенкаси, бинобарин, экспрессивлик мавжуд.

Тире **икки нуқта** билан алмашиниши мумкинлиги ҳақида ишнинг *Икки нуқта* қисмида сўз юритганмиз. Ифодадаги ихчамлик ва англаш осон бўлишга қаратиш кўзда тутилиб, бир гапнинг иккига бўлинган ҳолатда тақдим этилиши экспрессив синтаксис учун хос хусусиятдир. Бунда икки нуқта ва тиренинг ҳамкорлигида фаоллик кузатилади. Н.С.Валгина тире матнда **вергул**ни алмаштириши мумкинлигини айтган.[2]

Айрим адабиётларда **қўштире** термини ҳам қўлланилгани кузатилади. Аммо имло ёки пунктуация қоидаларида бундай тиниш белгиси йўқ. Бу

[1] Бу ҳақда яна қаранг: Маҳмудов Н., Мадвалиев А.П., Маҳкамов Н. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – Б. 42.

[2] Валгина Н.С. Русская пунктуация: принципы и назначение. (Знаки препинания в текстах разной функционально-стилевой принадлежности). Пособие для учителей – Москва: Просвещение, 1979. – С. 125.

аслида бир тиренинг гап таркибида ажратилган бўлак чегарасининг икки томондан тире билан белгиланишидир. Тире мана шу шаклда қўлланилганда ҳам эмоционаллик учун хизмат қилади: *Биз – мен ва талабаларим – имтиҳонларга тайёргарлик тўғрисида гаплашиб олдик. Тошкент – Самарқанд йўналишида қатнайдиган "Афросиёб" поезди манзилга келиб тўхтади. Тошкент – Самарқанд поезди келди* каби.

Баъзан тиренинг ўринли ва ноўрин ҳолатларда қўлланилиши ҳам кузатилади. Ёзма матнларда, айниқса, унинг бадиий-публицистик кўринишларда қўллаш шу даражада фаоллашганки, баъзан унинг нима мақсадда қўлланилганлигини англаб бўлмайди. Мана бу: *Эрнинг иши – элнинг бўйнида, элнинг иши – эрнинг бўйнида; Ҳар ким – элига, Ўрдак – кўлига; Ҳар кимнинг ўз эли – ўзига ширин* мақолларида шу ҳолат кузатилади. Улар олиб ташланса, матн ҳеч қандай зарар кўрмайди. Шундай экан, бу каби ўринларда тиренинг қўлланиши стилистик ғализлик сифатида баҳоланиши зарур.

"Ўзбек халқ мақоллари" тўпламида қуйидаги шаклдаги мақолларни ҳам учратамиз: *Олинг – олдирманг; Ҳар элнинг – ўз ирими; Барака – кўпчиликда; Бизники – халтада, Сизники – ўртада* каби. Уларда қўлланилаётган тиренинг вазифаси бизга тушунарли эмас. Ҳатто улар ортиқчадай бўлиб туюлади. Агар улар *Олинг, олдирманг; Ҳар элнинг ўз ирими бор; Барака кўпчиликда; Бизники халтада, Сизники ўртада* тарзида тузилса, матн мазмуни ёки шакли нима зарар кўрарди?

Айтилганлардан хулоса қилиш мумкинки, тире ўзининг асосий пунктуацион вазифасидан ташқари стилистик оттенкаларни ифодалаш имкониятининг кенглиги, турли хил маъноларнинг актуаллашувига хизмат қилиши, кўпмаънолилиги ва умумлаштириш хусусиятига эгалиги билан бошқа тиниш белгиларидан фарқ қилиб туради.

Resume. Intonation in the process of oral speech can be partially expressed in written speech using punctuation marks. Even for this partial expression, the punctuation mark must go beyond its orbit and take on an additional task: at the stylistic level of text analysis, these aspects, as well as questions of expressive syntax and the author's individuality, must be illuminated. Therefore, the study of punctuation does not remain within the framework of semantic-grammatical studies. This article talks about the semantic and stylistic features of punctuation marks in the Uzbek language.

Резюме. Интонации в процессе устной речи могут быть частично выражены в письменной речи с помощью знаков препинания. Даже для этого парциального выражения знак препинания должен выйти за пределы своей орбиты и взять на себя дополнительную задачу: на стилистическом уровне анализа текста должны быть освещены эти аспекты, а также вопросы экспрессивного синтаксиса и индивидуальности автора. Поэтому изучение пунктуации не остается в рамках семантико-грамматических исследований. В данной статье говорится о семантико-стилистических особенностях знаков препинания в узбекском языке.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШДА ТИЛ ВА МАДАНИЯТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Маматов Абдимурод Эшонкулович,
Ўзбекистон Миллий университети профессори,
филология фанлари доктори

Тилнинг мазмуни маданият билан чамбарчас боғланган. Бундай боғлиқлик маданиятнинг тилда ифодаланган "ички шакли"дир ва маданият борлиқни омил сифатида ўзлаштириш жараёни сифатида юзага чиқади, бу омил тилнинг бевосита таъсири остида кишилик жамиятининг ривожига ўз таъсирини ўтказади. Тил нафақат алоқа ва фикрни баён қилиш воситаси, балки у маданиятга хос бўлган билимларни тўплаш воситаси ҳамдир ва тил мураккаб белгилар тизими бўла туриб, у маълумотларни узатиш, сақлаш, ишлатиш ва ўзгартириш воситаси ҳамдир.

Тилни тадқиқ қилишда маданий, яъни культурологик ёндашув шу билан ифодаланадики, унинг ўрганиш предмети хорижий тилни бегона тил сифатида ўрганиш предмети билан туташиб кетади. Биз қуйида тил ва маданият муштарклиги таълим тизимига қандай таъсир ўтказади ва қандай натижаларга олиб келади деган масалалар ҳақида фикр юритамиз.

1.Маданият тил эгаллашни осонлаштиради. Дастлабки тил бирликларининг ўзлаштирилиши биланоқ тилни ўрганиш жамиятни ўрганиш билан бирга қўшилиб кетади. Лексика маданий контекст билан ўзаро муносабатда бўлади, бундай ҳолат лексиканинг ўзлаштирилишини, мустаҳкамланишини, такрорланишини енгиллаштиради, натижада лексика осон қўлланади, чунки лексика бир бутун тил элементларининг биттагина қисми ҳисобланади. Бу нафақат жуда оддий таркибга эга бўлган лексикага тегишли бўлибгина қолмай, балки умумқўлланиладиган, шунингдек турли тилларда турли маънога эга бўлган, баъзан луғатларда берилмайдиган лексик бирликлар бўлиши мумкин.

Маданият феноменининг тилни эгаллашни осонлаштириш ҳолатини хорижий тилдан она тилига таржима қилиш жараёнида ҳам кузатиш мумкин. Матннинг таржимаси бир вақтнинг ўзида сўзнинг асл маъноси жиҳатидан тўғри, аммо маданий фонни узатиш нуқтаи назаридан ноаниқ бўлиши мумкин, шунинг учун ҳам матнни ҳақиқий тўғри тушуниш учун айнан маданий мазмун муҳимдир. Баъзан айнан бир хил гаплар, сўзлар, вазиятлар турлича эмоционал-экспрессив туйғулар уйғотади, шубҳасиз, бошқа тилда гапирувчи матнни ўз она тилида ўқиганида нимани англаётганининг барчасини аниқ таржимада қайта шакллантиришнинг имконияти йўқ. Таржима масаласининг мураккаблиги ҳам айнан мана шундадир.

2. Маданият асослайди. Ўқитиш жараёнининг самарадорлиги учун талабаларга тил материалларини далиллар асосида тушунтириш биринчи даражали аҳамиятга эгадир, маданият бўлса бу ерда бошқа предметга нисбатан қизиқиш уйғотадиган кучли рағбатлантирувчи омил бўлиб хизмат қилиши мумкин, чунки, кимки у билан шуғулланаётган бўлса, уни ҳеч қандай қийинчиликларсиз ўзининг ички дунёсидан ташқарига олиб чиқади. Масалан, хусусан, талабаларга янада кўпроқ далилий фактлар билан исботлаш мақсадида уларга иккала маданиятнинг ўхшаш томонлари билан таништиришни, кейинчалик эса фарқларини кўрсатишни тавсия қилиш мумкин. Бунда катта қизиқиш уйғотиш учун фольклор материалларини кенг қўллаш мумкин. Қизиқтириш билан бир вақтда биз бошқа маданиятга ва уни акс эттирадиган бошқа тилга қизиқиш уйғотамиз.

Талабаларда қизиқишни шунингдек жамоанинг, оила ва мактабнинг ҳаёти, кун тартиби ва унинг оилавий, мактаб ҳамда касбий ҳаёт ҳақидаги маълумотларга таяниб уйғотиш мумкин. Одоб қоидаси турли халқларда турличадир, масалан АҚШда ўзининг боадаблигини кўрсатиш учун овқатланиш пайтида бўш қўлни столнинг остида тутиш қабул қилинган; Италияда нотаниш кишига 3-шахсда мурожаат қилиш қабул қилинган; кундалик турмуш хусусиятлари Англияда ҳар гал учрашганда кишининг қўлини қисиб қўйишмайди, буларнинг ҳаммасини қиёслаш ва таҳлил қилиш жараёнида қўллаш мумкин. Кўринадики, турли миллат вакилларининг ранг-баранг маданиятига хос ҳолатлар тилда асосланади.

3. Маданият талабаларнинг савиясини кен-

гайтиришга кўмаклашади. Хорижий тилни ўрганаётган талабалар ёки ўқувчиларнинг ўқитиш тизимини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, у ҳам бошқа фанлар, масалан, тарих ёки адабиёт фанлари даражасида аналитик ва синтетик қобилиятларни ривожлантиради. Айтилган нарса биринчи навбатда мулоҳаза қилиш шаклидаги ўқитувчи томонидан ундалган ёки ўқувчиларнинг ўзлари томонидан амалга оширилган суҳбатга тааллуқлидир. Жуда ачинарлиси шуки, таълимнинг ўрта босқичи ўқитишнинг бу туридан воз кечяпти. Идрок қилиш қобилиятларини шакллантириш ва ўқитиш билан фақатгина асосий фанларгина шуғулланиб қолмайди, чет тили ўқитувчиси талаба ва ўқувчиларнинг идрок қилиш қобилиятини шакллантириш билан шуғулланади. У фақат тилга ўқитмайди, балки бу сўзнинг том маъносида ўқитувчи тарбиячи ҳамдир. Яна шуни таъкидлаш лозимки, талаба ёки ўқувчилар фақатгина у ёки бу хорижий тилни ўрганишмайди, балки айни пайтда тили ўрганилаётган халқнинг маданиятини ва турмуш тарзини ҳам ўрганишади.

Таълимнинг ҳар қандай босқичида талаба ва ўқувчи тилни англашга эришиш учун бор кучини сарфлаши лозим, тилни англаш таълимда қўлга киритиладиган муваффақиятнинг ягона гаровидир. Биз мунтазам равишда ўқувчиларни маданиятнинг ўзига хос хусусиятларини таҳлил қилишга ундашимиз зарур. Маданият бўйича материалларга асосланган ўқитиш адабий матнларни ўрганишга асосланган ўқитишни такрорламайди. Аксинча, бири иккинчисидан ажралмайди, уларнинг мақсадлари ҳам бир хил: фикрлашни ўргатиш, ўқувчиларга мулоҳаза қилишни ўзлари давом эттиришларига имкон берадиган иш услубларини сингдиришдир.

Талаба ва ўқувчилар ўз маданияти ва тили билан ўзга халқлар маданияти ва тили ўртасидаги ўхшашлик ва фарқларни ажратишлари учун кундалик ҳаётнинг баъзибир тажрибасига эга бўлишлари лозим. Шубҳасиз, ўқувчилар бу маданиятлар ҳақида ўзларининг мулоҳазаларини билдиришни хоҳлайдилар, уларнинг фикрларини тушунарли ифода этишни ўргатиш зарур ҳамда мунозараларни ташкил этиб, бунга ёрдам бермоқ лозим. Бу мунозаралар тил материалларининг соддагина таҳлилига асосланган бўлишлари керак.

4. Маданият билимга интилишни кучайтиради. Янги муаммолар янги тадқиқотларга ундайди. Ўспирин ёшлар шовинизм, миллатчилик каби муаммоларга алоҳида қизиқиш билан қарайдилар. Масалан, жаҳонда содир бўлаётган турли туман салбий воқеалар, диний экстремизм, терроризм ва шунга ўхшаш ҳодисалар билан боғлиқ муаммолар қайси мамлакатда содир бўлаётган бўлса, ўша мамлакатнинг ижтимоий-маданий аҳволини, шароитини умуман фонини билишни назарда тутади. Бу масалаларнинг мазмунини яхшироқ англаш учун ўқувчилар бунинг сабабларини кўрсатишни сўрайдилар, ўқитувчи эса ана шу саволларга жавоб беришга доим тайёр туриши лозим.

Оммабоп мусиқага ёки халқ қўшиқларига бўлган қизиқишлар ҳам ёшларнинг анча эътиборини тортади, агар ўқитувчилар бу каби маданий бирликларнинг мавжудлиги мазмунини, ижтимоий ролини тушунтириб бера олсалар, булар жуда қизиқарли педагогик восита ҳисобланган бўлар эди. Бунда ўқитувчилар асосий эътиборни мусиқа ва халқ қўшиқларининг ҳам оҳангига, ҳам бу асарларининг ижро этилишига, уларнинг таҳлилий шарҳларига, ҳам жамиятнинг бу маданий бирликларга бўлган муносабатига асосий эътибор қаратилишини унутмаслигимиз керак. Шунингдек кундалик газета ва журналларда берилган материаллар ҳам ўқувчи ва талаба ёшларнинг қизиқишини уйғотади, шу сабабли устозлар улардан усталик билан фойдалансалар, уларга ўқувчиларни оламни англашга тайёрлаш имконини беради.

Пайдо бўлаётган муаммолар – уларнинг сабабларини ўрганиш ҳам таълимнинг ишидир. Бу муаммоларнинг ечимини таҳлил қилиш, улар орасидаги алоқаларни топиш, уларни у ёки бу тамойиллар асосида гуруҳларга ажратишга уриниб кўриш мумкин. Масалан, тили ўрганилаётган мамлакатдаги сайлов механизмини, сайлов тизимининг мураккаблиги, унинг ўзига хос анъаналари ҳақида ҳам етарли даражада маълумотлар бериб, тушунтириш ишлари олиб бориши мумкин. Яна бир қизиқарли нарса ёшларни қизиқтиради, бу эса давлат билан диний ташкилотлар ўртасидаги муносабат албатта эътиборни ўзига тортади ва бундай муносабатларнинг мавжудлигини баъзи ўқувчилар хаёлига ҳам келтирмаган бўлиши мумкин, аммо миллионлаб кишилар учун муҳим ҳисобланган бундай муаммолар устида фикр юритишга ундайди.

Маданият, шундай қилиб, нафақат билимни узатади, балки билимга қизиқишни ҳам ўстиради, бу ўз навбатида борлиқни англашга кўмаклашади.

5. Маданият билим беради. Лингвомаданиятшунослик фақатгина фан бўлиб қолмай, балки у ўқитиш услуби ҳамдир, унинг предмети мунтазам равишда қайта кўриб турилиши ва янги кашфиётлар билан тузатилиб турилиши лозим.

Лингвомаданиятшунослик фанидан таълим бериш учун ўқитиш методи муҳимдир. Шундан келиб чиқиб, уларнинг онгига маданий бойликлар ва маданий меросларҳақида кўпроқ маълумотлар бериш лозим. Билим вақт ўтиши билан тўплана-

ди, аммо уларни қўллаш усулларига, тўплаш билан шуғулланиш хоҳишига таълимнинг бошланғич даражасидаёқ асос солиниши лозим.

Талабаларнинг доимий изланишларига ва берилган материалларни таҳлил қилишларига ўқитувчи асосий эътиборни қаратишлари лозим, бу эса таълимга лингвомаданий ёндашувнинг энг муҳим аспектларидан бири ҳисобланади. Бундай эътибор талаба ва ўқувчиларни ҳамма нарсага енгилтаклик билан қарашга, масаланинг асл моҳиятини тўлиқ тушуниб етмасликка олиб келиши мумкин. Демак, ўқитувчиларнинг энг асосий вазифаси талабаларни юзакиликка интилишдан халос қилишлари керак.

6. Маданиятни ўрганиш маданиятлараро муносабатларнинг ривожланишига ҳам ёрдам беради. Турли мамлакатлар билан ўқувчилар ва талабалар алмашиши бир вақтнинг ўзида тил ўқитувчилари учун ҳам восита, ҳам муваффақият ҳисобланади, чунки тўғридан-тўғри алоқалар, бир томондан тил ўрганишни такомиллаштириш учун, иккинчи томондан эса халқаро алоқаларни ривожлантириш учун фойдалидир.

7. Маданий саводхонлик масаласи. “Инсон – тил – маданият” триадасига мурожаат қилинганда маданий саводхонлик тушунчасига алоҳида эътибор қаратилиш талаб этилади. Юқорида таъкидланганидек, маданият киши фаолиятининг барча соҳалари ичига кириб кетадиган тушунчалар қаторига киради ва унда ҳар ким ўзиникини қидирадиган мураккаб ҳодисадир, яъни маданият – бу тахминан жамиятнинг ҳамма аъзолари унда ўзларини тутишлари зарур бўлан жамият томонидан шакллантирилган хулқ-атвор усулларидир, бу усуллар олий мақсадни ва қадриятларни, ҳам ўз гуруҳи ичидаги, ҳам ундан ташқаридаги тил ва коммуникация тарзини ўз ичига олади.

Маданий ва ижтимоий шароитларнинг бир-бири билан боғлиқлигини тан олиш натижасида лингвомаданий планда ўта муҳим ва муносабатлар кўникмаларини шакллантириш имконини берадиган қуйидаги қоидалар келиб чиқади:

а) ҳар қандай халқ вакиллари ўзларини ўз маданий нормаларига мос ҳолда тутадилар;

б) ёш, жинс, ижтимоий келиб чиқиш, яшаш жойи каби ўзгарувчан омиллар кишиларнинг нутқ муомаласига таъсир кўрсатади;

в) айнан бир хил вазиятнинг ўзи турли маданиятларда турлича ифодаланади;

г) жуда кўп сўзлар ва иборалар маданий жиҳатдан коннотатив маънога эгадир: (ажратиб кўрсатилган сўзларнинг бирортаси ҳам бошқа маданият соҳибларига лингвомаданий изоҳларсиз тушунарли эмас);

д) денотатив жиҳатдан бир-бирига яқин бўлган турли тиллардаги сўзлар маънавий жиҳатдан бир-бири билан тенг эмас;

е) тил орқали маданият ҳақида муҳим маълумотлар олиш, уларни баҳолаш мумкин.

Маданиятлараро муносабатлар ва алоқалар аккультурация, яъни иккинчи тил шахсини маданият нуқтаи назаридан шакллантириш шароитидагина мумкиндир, у бегона миллий психологияга хос бўлган маънавий қадриятларни ўз тилига киритишни назарда тутади.

Resume. This article explains the phenomenon of culture on the example of the process of translation from a foreign language into a native language, which facilitates language acquisition. As a result, it is concluded that intercultural relations and contacts are possible only in conditions of acculturation, that is, the formation of a second language in a person from the point of view of culture, which involves the introduction into one’s language of spiritual values inherent in foreign psychology.

Резюме. В данной статье объясняется феномен культуры на примере процесса перевода с иностранного языка на родной язык, облегчающий овладение языком. В итоге делается вывод о том, что межкультурные отношения и контакты возможны только в условиях аккультурации, то есть формирования у человека второго языка с точки зрения культуры, что предполагает привнесение на свой язык духовных ценностей, присущих инонациональной психологии.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MAHMUD KOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDA SO'Z LESKIK MA'NOSINING TARAQQIYOTI

Yerjanova Saule Baymurzayevna,
Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori

To'ychiyeva Zuleyxa Hamroq'lovna,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Bugungi kunda o'zbek tilini ilmiy tadqiq etishning bir qator yo'nalishlari rivojlandi. Tarixni o'rganish, uni bugungi kun bilan solishtirish, boy madaniyatimiz va qadriyatlarimizni anglash, har bir xalqning o'z tilini, dinini o'rganish muhim bir masaladir. Yurtimizda "... matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgani"[1] bu boradagi ilmiy izlanishlar ko'lamini yanada kengaytirishga asos bo'lmoqda. Zero, til tarixini o'rganishdagi eng ishonchli manba bizgacha etib kelgan yozma yodgorliklardir. Xususan, "Devonu lug'otit turk" asari bugungi o'zbek tilshunosligi, shu jumladan, leksikologiyani aniq va asosli yaratish uchun boy manba sanaladi. Davrlar o'tishi bilan har bir so'zning ma'no taraqqiyoti o'zgaradi. Ya'ni ba'zi so'zlar yangi ma'nolar bilan boyisa, ba'zi so'zlarning ma'nosi torayadi. Shu jarayonni hisobga olgan holda, "Devonda"gi ba'zi ko'p ma'noli so'zlarning leksik ma'no taraqqiyotini aniqlash asosiy vazifa etib qo'yildi.

Ma'lumki, Mahmud Qoshg'ariy turkiy tilshunosligi rivojiga katta hissa qo'shgan buyuk tilshunoslarimizdan biri hisoblanadi. U turkiy tilshunoslikni XI asrdayoq fan sifatida asoslagan edi. Bugungi kungacha o'z mavqeini saqlab kelgan asar, ya'ni "Devonu lug'otit turk" keng tarzda o'rganilgan va o'rganilmoqda. Jumladan, "Devon" da berilgan ko'p ma'noli so'zlarni tahlil qilish, ulardagi ma'no ko'chishning sabablarini o'rganish hamda bu birliklarni "O'zbek tilining izohli lug'ati" bilan qiyoslash ona tilimiz boyligi ko'lamini yana ham kattaroq doirada ko'rsatishi mumkin deb o'ylaymiz.

Ma'lumki, leksik ko'pma'nolilk murakkab va serqirrali hodisa hisoblanadi. Har bir leksemaning ma'no taraqqiyoti dinamikasi alohida-alohida yondashishni, izohlashni talab qilganligi bois leksemalarning ma'no nozikliklarini aniqlash va tartibga solish juda mushkul. Polisemiya odatda muayyan narsa-predmet, belgi-xususiyat, harakat nomini boshqa narsa-predmet, belgi-xususiyat, harakatga ko'chirish usuli bilan voqelanadi.

Polisemiya har qanday tilda salmoqli o'rin tutadi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar bilangina emas, so'zlarning leksik ma'nolari bilan ham o'lchanadi. Demak, so'zlarning ko'p ma'noliligi – polisemiya til boyligida o'z o'rniga ega. Shuningdek, so'z ma'nolarining rivojlanishi qonunlarini tekshirish so'zlarning omonimlik, sinonimlik, antonimlik va ko'p ma'nolilik xususiyatlarini o'rganish, tilning lug'at boyligini aniqlashga, turli lug'atlar tuzish ishlariga katta yordam beradi.

So'zning leksik ma'nosi taraqqiyoti uch ko'rinishga ega[2].

1. Leksik ma'nolarning kengayishi va torayishi.

2. So'z leksik ma'nosinining hosila ma'no yuzaga keltirishi.

3. Evfemizm va disfemizm.

Polisemiya millatning, xalqning ijtimoiy rivojlanishiga bog'liq. Qaysi xalqda fan, texnika, madaniyat, san'at taraqqiy etgan bo'lsa, o'sha xalqda obyektiv borliqning o'zaro aloqasini shuncha ko'proq ko'radi, ularni bir-biriga qiyos etadi va bular tilida ko'proq o'z aksini topadi. Eng ilg'or va taraqqiy etgan xalqlarning tilida polisemantik so'zlar ko'p bo'lib, shu tildagi polisemantik so'z strukturasi ham leksik ma'nolarga boydir. So'z ma'nolarini o'zgartiruvchi taraqqiyotlar ketma-ket sodir bo'lib turadi. Bu esa polisemantik so'zlar taraqqiyoti uchun sabab bo'ladi[3].

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2295 сон "Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017.

[2] Миртиожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2002. – Б. 9.

[3] Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент, 1975.

So‘zlar til taraqqiyoti natijasida o‘zgarib boradi, ya’ni leksik ma’no taraqqiyoti ba’zi so‘zlarda kengayadi, ba’zisida esa torayadi yoki shu so‘z ishlatilmay unutilishi mumkin. Shunday qilib, tarixiy taraqqiyot jarayonida tildagi anchagina so‘zlar o‘zining asosiy leksik ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarga ham ega bo‘ladi.

Masalan: ***tugma*** so‘zi XI asr yozma adabiyotlarida to‘n va ko‘ylak, qalpoqlar bog‘ichi ma’nosini berar edi[1]. Holbuki, hozirgi tugma ip emas. Hozirgi tugma so‘zida biz temirdan, yog‘ochdan, sadafdan va boshqalardan maxsus shaklda yasalgan narsani tushunamiz. Demak, avvalgi tugma hozirgi tugmadan shakl va materiali jihatidan tamoman farq qiladigan narsadir. Lekin shunga qaramay hozirgacha shu so‘zning o‘zi saqlanib qolgan. Bu saqlanib kelishida funktsiya birligi asosdir. Ya’ni ilgari tugma ipdan bo‘lishiga qaramay, u tugish, biriktirish, bog‘lash vazifasini bajargan. Hozirgi tugma ipdan bo‘lmay, boshqa materialdan bo‘lsa ham, ana shu vazifani bajaradi. Ya’ni ko‘ylak yoqalarini bog‘laydi, biriktiradi. Nafaqat ko‘ylak yoqalarini balki maxsus qurulmalarga ham ishlatiladi.

Ulog‘[2] so‘zi XI asr yodgorliklarida maxsus ot, ya’ni xon tomonidan ma’lum masofa – bekatdan ikkinchi bekatga tez yetib borib charchash natijasida boshqasi bilan almashtiriluvchi ot ma’nosida qo‘llangan. So‘ng qachondir bu so‘zga yangi ma’nolar yuklatilgan:

1– ot – eshak, 2 – poyga, 3 – yamoq. Bu yangi ma’nolarning har biri ham **ulog‘** so‘zining dastlabki ma’nosi bilan funktsiyada birdir, ya’ni bu so‘zlarning birinchi ma’nosida asos ulash vositasi, bir bekatdan ikkinchi bekatga ulovchi, ikkinchi ma’nosi birlashtiruvchi yirtilib, uzulib ketgan bo‘laklarni ulash – birlashtirish xususiyati mavjud.

In[3] so‘zi XI asr tilidan faqat yirtqich hayvonlar yotog‘iga ham qo‘llana boshlagan. “Devon”da qush inini – uya, deb atalishi haqida ma’lumot bor. Lekin biz ba’zan shunday gap eshitamizki, *un* so‘zi odam yotog‘i ma’nosida ham qo‘llanadi.

Masalan: Iniga urib ketdi, shaklida.

Demak *in* so‘zi hozirgi kunda deyarli tilda barcha jonivor yotog‘iga nisbatan qo‘llana boshlagan. Navoiy asarlarida ham bu so‘z ma’nosi kengaygan holda uchraydi. Hatto Navoiy asarlaridagi ba’zi dalillar bu so‘zning ma’nosini kengayishi ilgarigi hodisa ekanligidan darak beradi.

Tor ini sichqonga solib erdi g‘am,
Quyrug‘iga bog‘ladi g‘irbol ham.
(Ini sichqonning o‘zicha ham tor edi-yu, badnafslik qilib dumiga qo‘lga tushirgan g‘alvirini ham bog‘lab oldi). Demak, misollardan ko‘rinib turibdiki, in so‘zining ma’nosi juda ilgaridayoq kengaygan.

Bu hodisani, ya’ni so‘zning taraqqiyoti natijasida ma’no kengayishini boshqa so‘z turkumlarida ham kuzatish mumkin.

Masalan, ***otlanmoq*** fe’lining ma’no taraqqiyotiga nazar tashlaylik. Bu so‘z “Devon”da quyidagi ma’noda ishlatilgan.

1. Otga mindi. ***Er amla*ngï** – u odam otga mindi.

2. Biror yerga chiqdi. Ol mag‘qa amlangï.

XI asrda bu so‘zning bosh ma’nosi *omga minish* edi. Ya’ni yo‘lga chiquvchi odam otlanmoq uchun “otni tayyorlab, unga minmog‘i” kerak edi. Hozir bu so‘z asosan shaylanmoq, kiyinmoq kabi yangi ma’nolar bilan boyigan.

1. Otga minmoq. O‘rmonjon bir gapini... o*mlangani uzangiga oyoq qo‘ygandagina* esladi.

2. Biror joyga bir kishi uchun shaylanmoq, tayyorlanmoq, hozirlik ko‘rmoq. Siz *kelmasingizdan oldin bir yerga otlanib turgan edim. Yuz qo‘lingni yuvib otlan.*

3. Biror ishni bajarish uchun shaylanmoq, jazm qilmoq. *Yangi g‘alabalar sari otlanmoq.* Ko‘rinib turibdiki, “Devon”dagi ikkinchi ma’no o‘rni biroz kengaygan.

Ma’noning torayishi umumiylikni anglatadigan so‘zning, xususiylikni ifodalashda tug‘iladi. Boshqacha qilib aytganda leksik ma’noning torayishida u ifoda etgan denotatning ma’lum qismlari differensiatsiya qilib, boshqa nom bilan atalib ketadi[4]. Masalan, Mahmud Qoshg‘ariy davrida barcha tolalar ***yung*** so‘zining leksik ma’nosidan anglashilgan. Keyinchalik paxtadan olinadigan tola ***ip*** so‘zida, pilladan olinadigan tola ***ipak*** so‘zida ifodalanadigan bo‘ldi. *Yung* so‘zi esa hozir jonzod terisidan olinadigan tolani bildiradi, ya’ni ***yung*** so‘zi leksik ma’noda torayish kechadi.

Demak, hozirgi tilimizda tolalarning mohiyatiga qarab ularni ifodalovchi so‘zlar ham turlichadir.

Chalgï (chaldi) so‘zi[5]. Bu so‘z XI asrda *yiqitmoq, urtoq, eshittirmoq* va boshqa ma’nolarda qo‘llanilgan. Bu so‘zning ma’nolarini Mahmud Qoshg‘ariy shunday izohlagan:

Chalgï – chaldi. ***Ol anï chalgï*** – u uni chalib yiqitdi; **Ol sozyg menin qulaqqa *chalgï*** – u so‘zni mening qulog‘imga eshittirdi; ***monug tash uza chalgï*** - kir yuvuvchi kiyimini toshga urdi.

Bu so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda *yiqitmoq* ma’nosida faol qo‘llanadi. Eshitmoq ma’nosida juda kam qo‘llanadi. Faqat ayrim birikmalardagina saqlan-

[1] Кошғарий М. Девону луғотит турк. 1-том. – Б. 406.
[2] Кошғарий М. Девону луғотит турк. 1-том. – Б. 143.
[3] Кошғарий М. Девону луғотит турк. 1-том.
[4] Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2002. – Б. 9.
[5] Девону луғатит турк. II том. – Б. 31.

ib qolgan. Mening qulog‘imga shunday chalindi. Qulog‘ingga tanbur chalayapmanmi? kabi.

B***ïchdï*** so‘zi (DLT, II t, 11-bet) o‘sha davrda kesdi ma’nosida qo‘llanilgan. Barcha narsalarni tilim kesishga bu so‘zni ishlatganlar. Shuningdek qo‘l, oyoq yorilishiga ham, yer yorilishiga ham qo‘llanadi. Dialektda esa chaqaloqning bo‘yin, qo‘ltiqlarining yorilishiga nisbatan bu so‘z qo‘llanadi. Lekin hozirgi tilimizda bu so‘zni matolarni qirqishga, ya’ni tikishdan oldin andozaga solib qirqib olishga ishlatiladi. Ko‘ylak bichdi. To‘n bichdi.

Ba’zi so‘zlarda ilgari qo‘llanilgan ma’nolarining bir qismi iste’moldan chiqqan. Masalan, sïg‘ïp so‘zi XI asrda ikki ma’noda qo‘llangan:

1. Shoxlar ovi
2. Sigir.

Bizgacha bu so‘zning bir ma’nosigina yetib kelgan.

Araladï so‘zi (DLT, I t., 330-b). Bu so‘zni Mahmud Qoshg‘ariy quyidagicha izohlaydi:

Araladï – orasiga tushdi, yarashtirdi. ***Ol ikki kishi omra araladï*** – U ikki kishining ishini kelishtirdi, yarashtirdi. Bu so‘z ikki narsa orasidan o‘tmoq ma’nosida ham qo‘llanadi. Ba’zan sulh ma’nosida ham ***arïladï*** so‘zini ham qo‘llaydi. Lekin *araladï* varianti to‘g‘ridir.

Biz bu so‘zning hozirgi ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak, hozirda bu ma’nolarda katta o‘zgarish bo‘lmagan. Lekin sulh ma’nosi ishlatilmaydi.

Shunday qilib ayrim so‘zlar XI asrda qo‘llanilgan butun mazmuni bilan yetib kelgan. Masalan, *oyoq, urug‘, o‘ng, yo‘l, orqa, uch, og‘iz, yer* kabi so‘zlar XI asrda qanday ma’noda qo‘llanilgan bo‘lsa, shu vaqtgacha o‘shanday ma’noda qo‘llanadi. Lekin bu so‘zlar yuqorida ta’kidlaganimizdek yana bir qancha ma’nolar bilan boyigan. Ba’zan so‘zlarning ma’nolari iste’moldan chiqqan.

Ushoq so‘zi. “Devon”da bu so‘zning quyidagi ma’nolarda ishlatilish mumkinligi haqida ma’lumot berilgan:

1. Kichik, mayda narsa.
2. ***Yosh, ushaq og‘lan –*** yosh bola
3. O‘tinning maydasi: *ushaq omun*
4. Chaqimchilik: ***ushaq soz –*** mayda so‘z

Bu so‘zning ma’nolari hozirgi kunda ham ishlatiladi. Birinchi ma’nosi, ya’ni bosh ma’no to‘liqligicha saqlangan. Non ushog‘i tarzida ifoda etiladi. Ikkinchi ma’nosi esa “Devon”dagidan biroz farqli ravishda dialektda bola-chaqa ma’nosida qo‘llanadi. Masalan: Xotin – ushog‘imiz. Shuningdek hozirda jussasi kichik, zaif, nimjon odamga nisbatan ham ko‘chma ma’noda ishlatamiz. Ushoq kishi. Bu ma’nolar “kichik”, “mayda” ma’nosi ostida o‘zaro birlashadi. Lekin hozirgi tilimizda “chaqimchilik” ma’nosida ushoq so‘zi qo‘llanilmaydi.

Qïz (qiz) so‘zi. Bu so‘zining “Devon”da quyidagi ma’nolari berilgan:

1. Qimmatbaho narsa: **q*ïz nen***
2. Qimmat: **Bu am q*ïz algïm*** - bu otni qimmat bahoga oldim.
3. Cho‘ri. **Q*ïz qïrqïn*** – cho‘rilar.
4. Qiz. **Me*n*ïn qïzïm –** mening qizim.
5. Bo‘yi yetgan va uyda o‘tirgan qiz: ***ew qïzï –*** uy qizi
6. Baxil: qïz kishi – baxil kishi

Olim bu so‘zni izohlar ekan, shunday xulosaga keladi: “so‘z ozod qizlarga qo‘llanilganidek, sotib olingan cho‘ri qizlar uchun ham qo‘llanadi. Asli bo‘yi yetgan, lekin turmushga chiqmagan qiz demakdir. Boshqa ma’nolar istiora tarzida kelib chiqqan”. (DLT, 61 t, 135).

Demak, M.Qoshg‘ariy so‘zlarning ko‘chma ma’nosiga ham alohida e’tibor bergan. XI asrda bu so‘zning bosh ma’nosi “balog‘at yoshiga yetgan, ammo hali turmushga chiqmagan ayol” edi. Hozirgi tilimizda ham bu so‘z shu ma’noda saqlangan. Shuningdek qizlarga yoki yosh juvonlarga nisbatan murojaatda ishlatilib hurmat, erkalash, o‘zini yaqin olish singari ma’nolarni ifodalaydi. Masalan: Otga juda epchil ekansan-ku, qizim. (A.Qahhor. “Xotinlar”).

“*Baxil*” ma’nosidagi bu so‘zni hozir “qizg‘anchiq” tarzida qo‘llaymiz. Demak, bu so‘z bizga shakli kengayib yetib kelgan.

“*Tulki*” so‘zi ham qiz bolaga nisbatan kinoya tarzida ishlatiladi va buni M.Qoshg‘ariy shunday deydi: “t*ilk*u – bu so‘z bilan qiz bolaga kinoya qilinadi. Qizlar aldoqchi va yalinchoq bo‘lganlari uchun tulkiga o‘xshatiladi”. Demak, tulkidagi ba’zi bir xususiyatlar qiz bolaning xarakteriga mos kelganligi uchun ham bu so‘z qiz bolaga nisbatan qo‘llaniladi.

Bunday majoziy ma’noda qo‘llanilgan so‘zlar “Devon”da anchagina. Masalan: ***burga*** so‘zi (1 t. 402-b). Yengil tabiatli kishini unga o‘xshatib, *burga kishi* deb ataganlar. Yoki **sar*ïchqa*** - chigirtka.

Sar*ïchqa er-* chigirtkaga o‘xshash zaif odam. Ko‘rinib turibdiki, burga so‘zida burganing harakatiga nisbatan o‘xshatish bo‘lsa, chigirtka so‘zida uning jussasiga nisbatan o‘xshatiladi.

Uzoq so‘zi (DLT, 1 t. 97-b). Bu so‘z “Devon”da qanday ma’noda qo‘llangan bo‘lsa hech qanday o‘zgarishsiz bizgacha yetib kelgan. XI asrda bu so‘z “bir qancha vaqt davom etadigan, tezda tugamaydigan” ma’noda qo‘llangan. *Uzaq ish* – cho‘zilgan ish. Xuddi shuningdek o‘zbek tilida ham shu ma’noni ifodalaydi. Ba’zan yuborilgan kishining kechikishini ifodalash uchun *jalavach uzaq bardi*-yuborilgan kishi kechikdi, ham bu so‘z qo‘llangan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda ham bu so‘z “kechikish” ma’nosini ifoda etadi. Uzoq qolib ketdi.

Hozirda “yaqin bo‘lmagan qarindosh”ga nisbatan ham bu so‘z ishlatiladi. Uzoq qarindosh. Undan tashqari “aloqasi yo‘q” ma’nosini ham ifodalash uchun ishlatamiz. *Bu fikr haqiqatdan ancha uzoq.* Misollardan ko‘rinib turibdiki, “Devon”da qo‘llanilgan ma’nolar to‘liq yetib kelgan va ma’nosi kengaygan.

“Devon”dagi so‘z ma’nolarining ustidan kuzatishimiz, so‘z ma’nosi o‘zgaruvchi hodisa ekanidan uning kengayishi, torayishi yoki unutilishi mumkinligidan, ayrim so‘zlar ma’nosi qayta-qayta o‘zgarishidan darak beradi. So‘zlarning yangi mazmun bilan boyib borishi ancha keng hodisa ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Resume: This article provides information about the place of words in Uzbek language and their polysemantic meanings and types of use, as well as the development of the lexical meaning of the most common words in Uzbek discourse.

Резюме: В данной статье приведены сведения о месте слов в нашем языке и их множественном значении и видах употребления, развитии лексического значения наиболее употребительных слов в нашей речи.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ҚИЁСИЙ ИФОДАЛАР ТИЛШУНОСЛИК ТАДҚИҚОТ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА

Умурқулов Зафар Бекпўлатович,
Термиз давлат университети доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Қиёсий конструкциялар таҳлил қилинган ишларда қиёсга билиш жараёнининг муҳим усулларидан бири сифатида ёндашилади. Қиёслаш когнитив оламнинг маҳсули бўлиб, инсоннинг онгли фаолиятининг бир кўриниши сифатида майдонга келган ва оламни англашдаги муҳим ифода усулларидан бирига айланган. Қиёслаш кўп тармоқли ифода воситаси бўлиб, оламни англашда, нарса-ҳодисаларга хосликни баҳолашда, шунингдек, амалиётда ва фанда бу усулдан кенг фойдаланиб келинмоқда. Қиёслаш асосида нарсанинг ботиний ва зоҳирий томонлари белгиланади ва изоҳланади. Шундай экан, қиёслаш жараёни инсоннинг ақл-заковати билан боғлиқ. Дунё ҳақидаги маълумотлар билиш орқали англанар экан, инсон билишнинг турли йўллари, усулларидан фойдаланади. Инсоннинг ақлий қуввати ҳақида фикр юритар экан, Абу Наср Форобий инсон камол топишида ақлий билимларнинг жамланишини муҳимлигини уқтиради ва уни категорияларга бўлади. Ана шундай категориялардан бири сифатида аллома инсоннинг атрофдаги олам, воқеликнинг ҳолатларини, уларнинг пайдо бўлишини аниқлаш учун фойдаланиладиган тамойиллар, қонун-қоидаларни, олам ҳақида хулоса чиқаришга имкон бурувчи билимларга эга бўлишликни кўрсатиб ўтади[1]. Бу каби билимлардан бири сифатида қиёслаш орқали дунё манзарасини тушуниш ва тушунтиришни қайд этиб ўтиш лозим. Қиёслаш дастлаб объектнинг яширин томонларини таққослаш орқали англаш натижасида пайдо бўлган мантиқий усуллардан бўлиб, нарса ва ҳодисаларни ўхшаш ва фарқли белгиларини солиштириш асосида нарса ва ҳодисаларнинг муайян белги ва хусусиятларини бир тизимга солишдан[2] иборат.

Қиёслашнинг моҳияти нарса-ҳодисалар орасидаги мавжуд белгиларнинг улар орасидаги ўхшашлик ва фарқли жиҳатлари асосида баҳолашдан иборат. Инсон ушбу фаолият орқали олам ва ундаги нарса-ҳодисаларни баҳолаган, унга муносабатда бўлган. Шу боисдан ҳам қиёслашга ифоданинг муҳим тури сифатида катта аҳами-

[1] Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги асар авлоди, 2010. – Б. 230.

[2] Фалсафа қомусий луғат. – Масъул муҳаррир Қ.Назаров. Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 478.

ят берилган. Қиёслаш дунёни билишдаги муҳим усул сифатида фалсафа ва психологик нуқтаи назардан баҳо берилган, бироқ кенг қамровли монографик асосидаги тадқиқотлар юзага келмаган. Қиёслашнинг лингвистик табиати бўйича ҳам кенг қамровли ишлар олиб борилмаган бўлса-да, қиёслаш муносабати натижасида вужудга келган лингвистик бирликларни ўрганишга эътибор қаратилган. Тилшуносликда қиёслаш муносабати ўхшатишлар асосида ўрганилганлигини гувоҳи бўлишимиз мумкин. Қиёс тадқиқига бағишланган барча тадқиқотларда қиёслаш тўрт аъзодан иборат бўлиши кўрсатиб ўтилган. Қиёслаш муносабатининг вужудга келиши объектнинг маълум бир белги орқали бошқа бир объектга мос келишидир. Белгилар эса қиёслаш муносабатини вужудга келтирувчи унсур ҳисобланади. Кўринадики, қиёслаш қиёс субъекти ва объекти, қиёс асоси ва қиёснинг формал кўрсаткичи каби тўрт бутунликдан иборат бўлади.

Ўзбек тилшунослигида қиёслаш муносабатининг муҳим бирлиги сифатида ўхшатишлар М.Мукаррамов томонидан тадқиқ этилган. Олим ўхшатишнинг уч компонентдан иборат эканлигига эътиборни қаратади ва ўхшатиш воситасини асос сифатида ҳисобга олмайди[1]. Ишда ўхшатишда ўхшовчи образ билан ўхшатилувчи объектни ўхшатишнинг асосий шарти деб ҳисобланган. Дарҳақиқат, қиёслаш муносабати икки объект ва улар ўртасидаги қиёслаш учун асос бўладиган белгиларсиз вужудга келмайди. Ўхшатиш учун асос бўладиган бу воситаларнинг маъновий бирликлар билан ифодаланишида асосланган ҳолда ўхшатишга уч компонентли қиёслаш объекти сифатида ёндашилган. Олим ўхшатишнинг турлари сифатида конкрет, абстракт, анъанавий, индивидуал, инкор, киноя, сатира, чоғиштириш каби турлари ўхшатишларнинг хусусиятлари, ҳосил бўлиш усуллари ҳақида фикр юритар экан, уларнинг қиёслаш усули билан ҳам фарқланишини таъкидлаб ўтади. Чунончи, инкор ўхшатишларида ўхшовчи образлар қарама-қарши қўйиш йўли билан қиёсланса, чоғиштириш ўхшатишларда ўхшатилувчи объект билан ўхшовчи образли бирикма ёки гап ҳолида бир-бири билан қиёсланишини кўрсатиб ўтади[2]. Бу билан тадқиқотчи қиёслаш муносабати доирасидаги луғавий воситаларнинг кенгқамровлигини кўрсатади. Нафақат, предметлар, нарсалар, балки инсон фаолиятининг турли кўринишлари, жумладан, фикрлар, фанлар, тушунчалар ва бошқаларга ҳам қиёслаш орқали муносабат билдирилади, баҳоланади.

Ўхшатишлар ифоданинг муҳим турларидан бири бўлиб, бу воситага нисбатан тасвирий восита сифатида қаралган. Ўхшатишларга тасвирий восита сифатида қараш антик риториклар фаолияти билан боғлиқ бўлиб[3], ушбу восита асосида образли ифода мавжудлиги билан белгиланади. Шунга кўра қиёслаш муносабатидаги воситаларнинг муҳим кўриниши сифатида тадқиқотларда ўхшатишга алоҳида эътибор қаратилган.

Маълумки, бир қатор манбаларда оддий қиёс ва ўхшатиш фарқланган[4]. Ўхшатишда предметларнинг белгилари бир-биридан қиёсланган ҳолда ўхшатилса, соф қиёсда эса белгилар бир-бирига қиёсланмаган ҳолда фарқли жиҳатлари кўрсатилади. Масалан, *Асал шакардан ширин* дейилганда ширинлик белгиси қиёсланмайди, балки ундаги ширинлик даражасининг ортиқлиги ифодаланади. Бу ҳол соф (оддий) қиёсни қиёс ўхшатишлардан фарқловчи муҳим жиҳати ҳисобланади.

Қиёслаш муносабатини ўзбек тилшунослигида гап асосида ўрганилишига алоҳида эътибор қаратилган. Қиёслашнинг моҳияти ҳақида гапирар экан, А.Абдуллаев унинг нарса белги ва бошқаларнинг моҳиятини очишда муҳим аҳамиятга эга эканлигини шу билан биргаликда, нарсаларнинг афзал, кучли, жоизлигини ёки наффсал, кучсиз, ножоизликни аниқлашда ҳам қиёслашдан фойдаланишни кўрсатиб ўтади[5]. А.Абдуллаев қиёслаш тушунчасини кенг маънодаги тушунча ҳисоблаб, унинг таркиби ўхшатиш, таққослаш (қарама-қарши қўйиш), зидлаш, тенглаштириш каби ҳодисалардан иборат эканлигини шундай изоҳлайди: “қиёслаш икки нарса, белги, ҳодисанинг ўзаро муносабатини ифодаловчи умумий ном бўлиб, ўхшатиш, таққослаш, зидлаш, тенглаштириш унинг турли кўринишларидир”[6]. Қиёслаш нафақат кенг маъноли тушунча, балки кенг функцияли ифода жараёни ҳамдир. Бу восита объектга характеристика бериш билан биргаликда сўзловчининг нарса-предметга, шу билан биргаликда, ифодаланаётган фикрга муносабатини билдирувчи восита ҳамдир. Шу хусусиятга кўра, А.Абдуллаев қиёслаш асосида эмоционалликнинг ҳосил бўлишида турли омиллар сабаб бўлишини кўрсатади. Чунончи, қиёс объектнинг турли предметлардан

[1] Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.6-7.

[2] Мукаррамов М.Кўрсатилган асар. – Б.29-30.

[3] Античные теории языка и стиля. – М. Л.: ОГИЗ, 1936.

[4] Турсунов У., Муҳторов Ж., РаҳматуллаевШ. Ҳозирги ўзбек адабий тили.– Тошкент: Ўқитувчи, 1975; Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970; Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

[5] Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодаланишининг синтактик усули. – Тошкент: Фан, – Б.24.

[6] Абдуллаев А. Кўрсатилган асар. – Б. 25.

бўлиши, қиёс объектига олинган нарсалар, уларнинг белгилари орасидаги ҳажм-ўлчов, қиёсий ифодага эга бўлган конструкциянинг характери, қиёснинг реал ёки нореал характерда бўлиши, қиёсий бирликнинг янги ёки эскилиги эмоционал-экспрессивликни ҳосил қилишда муҳим рол ўйнаши тадқиқотчи томонидан изоҳланган.

Қиёслаш асосида юзага келадиган яна бир ифода воситаси тенглаштиришдир. А.Абдуллаев тенглаштириш ва ўхшатиш орасида жуда яқин боғлиқлик борлигини эътироф этган ҳолда, бу ҳодисаларни қуйидагича фарқлайди. “Қиёсланаётган нарса, белги, ҳодиса, ўлчам, миқдор асосида бўлса, тенглаштириш, агар нарса, белги, ҳодисалар маълум образ ёки тарз белги асосида қиёсланса, ўхшатиш ҳосил бўлади”[1] дейди. Шунингдек, тадқиқотчи қиёслаш натижасида вужудга келадиган таққослаш ва зидлаш усуллари ҳақида ҳам ўз муносабатларини билдирган. Кўринадики, ўхшатиш, таққослаш, тенглаштириш каби ифода усуллари қиёслаш асосида вужудга келадиган, муайян хусусиятлари бир-биридан фарқланадиган воситалардир. Шундай экан, бу воситаларнинг фарқли жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда ўрганиш ва баҳолаш қиёслаш муносабати натижасида намоён бўладиган ифода усулларини кенг кўламли тадқиқ қилиш имкониятларини яратиб беришга хизмат қилади.

Қиёслаш ҳаётда кенг жабҳада қўлланиладиган ифода усули. Унинг моҳияти ва нутқий фаолиятдаги вазифалари боғланган қўшма гап материаллари асосида академик Ғ.Абдураҳмонов томонидан махсус ўрганилган. Маълумки, қиёслаш муносабати, асосан, гап таркибида намоён бўлади. Гапдан ташқарида қиёслаш бўлмайди. Гап таркибидаги нафақат нарса-предметлар қиёси мавжуд, шунингдек, гап таркибидаги фикрларнинг ҳам қиёси мавжуд бўлади. Олим боғланган қўшма гап таркибидаги содда гапларни ўрганар экан, содда гапларда алоқа муносабатларини беш тури мавжудлигини таъкидлаб, етакчи муносабат сифатида қиёслаш муносабатини алоҳида ажратиб кўрсатади. Мазмун жиҳатдан бир-бирига қиёсланган содда гаплардан кўзда тутилган мақсад қуйидагича изоҳланади. “Маълум воқеа, ҳодиса, белги-хусусиятларни бир-бирига қиёслашдан мақсад улар орасидаги фарқни аниқлаш ёки уларни зид қўйиш бир-бирига номувофиқ эканини кўрсатишдир[2]. Академик қиёслаш муносабатини ифодаловчи воситалар, бу воситаларнинг муҳим хусусиятлари, уларнинг ҳар бирининг ўзига хос мазмун муносабатини ифодалаши, мазмунан ва қўлланиш даражаси жиҳатидан фарқланишни аниқ далилар асосида ёритиб берган.

Атоқли олим боғланган қўшма гапларда турлича муносабатлар ифодалаши мумкинлиги ҳақида фикр юритар экан, *бўлса, эса* боғловчилари қатнашган гапларда қиёслаш муносабати устунлиги, шунингдек, зидлаш муносабати ҳам мавжудлигини кўрсатади. Зидлаш муносабати, асосан, боғланган қўшма гапларда зидлов боғловчилар ва юкламалар асосида вужудга келишини, бундай ҳолларда ҳам қиёслаш мавжуд бўлиб, қиёслаш муносабатига нисбатан зидлаш муносабати кучли бўлишини таъкидлайди[3].

Олим қиёслаш муносабатини билдирган боғланган қўшма гаплар мазмуни, тузилишига кўра кесимнинг ифодаланишига кўра турларини таҳлил қилиб, қиёснинг боғланган қўшма гапларни ҳосил қилиши ва гапдан англашилган мазмуннинг вужудга келишидаги ўрни ҳақида мулоҳазалар билдирган.

Қиёсий конструкцияли содда гапларнинг структураси ва семантик-синтактик шаклланишида қиёснинг муҳим ўрни мавжудлиги тилшунос олим Н.Маҳмудов томонидан кўрсатиб ўтилган. Олимнинг таъкидлашича, қиёсий содда гапларда ифодаланадиган ҳукмнинг структураси бошқа ҳар қандай гапда ифодаланадиган ҳукм структурасидан фарқ қилади[4]. Профессор Н.Маҳмудов қиёснинг моҳияти, қиёс турлари, унинг табиати, қиёсий конструкциялар ҳақидаги қиёсий содда гапларнинг семантик ва синтактик хусусиятларини ёритишда батафсил маълумот берган. Ишда қиёс логик категория сифатида баҳоланади. Олимнинг фикрича, қиёснинг моҳияти қиёслашнинг характери билан боғлиқ. Характер эътибори билан қиёсий ифодалар бир хил бўлмайди. Шунга кўра, олим ўзбек тилида содда қиёсий конструкцияларни ўхшатишли конструкциялар ва соф қиёсий конструкциялар каби икки турга бўлиб таҳлил қилган, бунда ўхшашлик белгиси ва фарқлаш белгиси асосида қиёсий конструкцияларни таҳлил объекти сифатида умумлаштирган[5].

Н.Маҳмудов қиёснинг муҳим таркибий қисми сифатида қиёс эталони, қиёс субъекти ва қиёс асосини ажратади. Соф қиёсий содда гапларнинг семантик структурасида қиёслаш учун асос бўладиган белги ҳар иккала предмет учун бир хил бўлиб, қиёсланаётган предметларда бу белгининг предметлар ўртасидаги фарқ белгиланиши кўрсатилади. Олим ўхшаш белгилар ва фарқловчи белгилар

[1] Абдуллаев А. Кўрсатилган асар. – Б. 49.

[2] Абдураҳмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент: Фан, 1958. – Б. 24.

[3] Абдураҳмонов Ғ. Кўрсатилган асар. – Б. 26.

[4] Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 65

[5] Маҳмудов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 68-69

асосидаги қиёсдан келиб чиққан ҳолда соф қиёсий содда гапларни икки турини ажратади. Қиёс асоси сифат ва равиш туркумидаги сўз билан ифодаланган қиёсий содда гапларда феълнинг сифат ва равиш туркумидаги сўз билан бирга келганини кўрсатади[1]. Н.Маҳмудов ўхшатиш қиёс ва соф қиёсни қиёснинг алоҳида турлари сифатида қараб, мазкур тадқиқотда соф қиёсга алоҳида аҳамият беради ва уни асосан *-дан* қўшимчаси ва *кўра, қараганда, нисбатан* кўмакчилари билан ҳосил бўлишини кўрсатиб ўтади. Олимнинг таъкидлашида, соф қиёсий содда гаплар синтактик структураси жиҳатдан содда бўлса ҳам, семантик структураси мураккаб бўлади. Чунки бундай гаплар иккита пропозициядан иборат бўлиб, пропозициялардан бири синтактик структурада қисман ифодаланади.

Соф қиёсий содда гапларда қиёс эталонига меърий белги, қиёс субъектида эса нормадан ортиқ даражадаги белги мавжуд бўлиб, қиёслаш муносабатини ҳосил бўлиши учун қиёсланаётган предметларнинг нисбатланаётган белгига эгалиги асосий омил эканлиги таъкидлаб ўтилган[2]. Нисбатланадиган белги қиёс ҳосил бўлишидаги муҳим белги эканлиги бошқа тадқиқотчилар томонидан ҳам қайд этилади. Чунки қиёслаш асоси асосан преметлардаги бир хил белгига кўра намоён бўлади. Масалан, *мен сендан кучли* гапида объектлар кучнинг мавжудлиги асосида қиёсланган. *Мен кучли, сен бўйчан* гапида эса ана шундай соф қиёс мавжуд эмас. Шунга кўра, ушбу гапни қиёсий гап сифатида қараб бўлмайди. Шунингдек, қиёсий конструкциялардаги белгилар баҳолаш жиҳатдан ҳам тенг бўлганда, белгилар бир-бирига нисбатланса, қиёс ҳосил бўлади. Масалан, *нондан азиз нарса йўқ* гапида азизлик белгиси нонга хос бўлганлиги учун шу белги асосида бошқа азиз нарсаларга қиёсланган ҳолда *тошдан азиз нарса йўқ* гапида қиёслаш мавжуд бўлмайди. Чунки тошда азизлик белгиси нисбатланмайди.

Қиёсга идрокий билишнинг бир тури сифатида ёндашган А.Нурмонов қиёсий ифодалар ва уларнинг билиш жараёнидаги ўрнини алоҳида эътироф этган. Олим қиёсни оламни билиш, уни идрок этишнинг муҳим воситаларидан бири ҳисоблайди. А.Нурмонов қиёснинг эмприк билиш жараёнидаги ўрнини юқори баҳолаб, ҳар қандай шахс янги ўрганилаётган объектни олдин ўрганилган объектга қиёслаб, улар ўртасидаги ўхшаш ва фарқли томонларни аниқлайди. Натижада, муайян объект бошқа объект ўхшаш белгилари асосида синфларга бирлаштирилса, фарақли белгиларга кўра объектнинг ўзига хос хусусиятларга эгалиги белгиланади[3]. Бу билан олим қиёслаш муносабатидаги турли воситаларни бир-биридан фарқланишини кўрсатади. Предметлар ўртасидаги ўхшаш белгилар ўхшатиш ҳосил қилиши, ноўхшаш белгилар эса ўхшатишни эмас, балки белгидаги ортиқ камликни ҳосил қилишини, уларнинг ифода асоси эса қиёсдан иборат бўлишини таъкидлайди. А.Нурмонов қиёснинг барча жабҳаларда кенг миқёсда қўлланилувчи ифода усули эканлигини хулоса чиқариш жараёнида қиёсдан фойдаланиш асосида изоҳлайди. “Ҳар қандай мева инсон учун фойдали гапидаги англашилган ҳукм олдиндан маълум, энди “олма-мева” деган ҳукмни олдинги ҳукмга қиёслаганда учинчи ҳукм келиб чиқади. Олма инсон учун фойдали. Ана шу қиёслаш асосида чиқарилган ҳукм хулоса бўлади[4]. Кўринадики, олим тадқиқотларида ифоданинг ўзига хос усули бўлган қиёслашга алоҳида эътибор бериб, қиёслашнинг ҳаётдаги ва таълим жараёнидаги ўрнини таъкидлайди.

Қиёслашнинг дунёни билиш, олам унсурларини идрок этишдаги муҳим усул эканлиги Ш.Сафаров тадқиқотларида ҳам ўз ифодасини топган. Ш.Сафаров умумлаштириш предметларнинг сифатий хусусиятлари тўғрисида маълумотларни мужассамлаштирган ҳолда концептуал қолиплар воситасида идрок этишни когнитив фаолиятнинг самараси деб билади ва лисоний тафаккур фаолиятининг когнитив босқичидан лисоний воқеланиш босқичига ўтишда анализ ва синтез амаллари сингари қиёслашнинг ҳам муҳим ўрни борлигини кўрсатиб ўтади[5]. Олимнинг таъкидлашича, бу амаллар ёрдамида умумийлик ва хусусийлик фарқланиб, ўрганилаётган объектнинг алоҳида белгилари ажратилади.

Олим борлиқни идрокий билимларсиз кечмаслиги ҳақида фикр юритар экан, идрокнинг босқичлари онгли равишда кечишини, бу ҳолатда қиёс ва баҳолаш муҳим бўлган когнитив фаолиятнинг бир қисми эканлигини кўрсатиб ўтади[6]. Ш.Сафров қиёслаш ҳаракати бирор субъектни референт билан солиштиришдан иборат деб ҳисоблайди ва қиёсда намуна ёки эталон хизматини ўтайдиган референтнинг турли сабабларига эгалигини бу сабаблардан бири дунёни мавжудликнинг тузилиши билан боғлиқ эканлиги деб билади[7].

[1] Маҳмудов Н. Кўрсатилган асар. – Б.74

[2] Маҳмудов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 72-73.

[3] Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд.. – Тошкент: академнашр, 2012. – Б. 37.

[4] Nurmonov A. Lingvistik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Академнашр, 2010. – Б.14.

[5] Сафров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 165.

[6] Сафаров Ш.Кўрсатилган асар. – Б. 27.

[7] Сафаров Ш. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 27.

Қиёс референти – қиёслашнинг муҳим жиҳати бўлиб, муайян белгига кўра қиёсланаётган предметлар учун умумий хусусиятларга эга бўлган ҳолда, шу белгилар доирасида фарқловчи белгиларга асосланади. Қиёснинг ҳаётий жараённинг муҳим қисмини ташкил этиши шунда кўринади. Турли нарсалар қиёсланганда, қиёс учун асос бўлаётган предметларнинг муҳим белгиларидан келиб чиқилади. Қиёснинг кўпгина лингвистик ифодаларнинг, жумладан, баҳолаш категориясининг ҳам асоси эканлиги Ғ.Қамбаров томонидан шундай изоҳланади: “нисбатлаш ўзаро қиёсдан келиб чиқади. Қиёслаш сўзловчи ва тингловчини умумий билиш хазинаси, савияси ҳамда бошқа қатор омилларга боғлиқ ҳолда амалга оширилади[1]. Тадқиқотчи қиёс вужудга келишида кишининг савияси ҳам муҳим эканлигини шунга асосан баҳонинг нисбий эканлигини ҳам таъкидлайди. Қиёс учун асос бўладиган белгилар нарса, предметнинг ҳажмида, рангида, шакл-кўринишида, хуллас, барча жиҳатларида мавжуд бўлади. Нарса-ҳодисалардаги қиёслаш учун асос бўладиган белгиларни англаш ва уни маълум меъёр асосида фарқланиши ёки ўхшашлигини англаш ва хулоса чиқариш кишининг онгли фаолияти билан, савияси билан боғлиқ. Бу ҳол қиёслаш асосида когнитив фаолият ётишини кўрсатади. Қиёсий ифодалар нафақат предмет, нарса-ҳодисанинг бирор белгисини ажратиб кўрсатиш учун, балки кишига предмет, нарса, ҳодисанинг мукаммал тасвирлаб кўрсатиш, мавжуд ифодадан завқ олиш учун ҳам қўлланилади. Шунга асосан, қиёслаш моҳиятан ранг-баранглигига кўра, қиёснинг жамият ҳаётидаги ўрни, инсонга таъсири, қиёслаш мавжуд матнларнинг эстетик-таъсирчанлигини таъминлаш хусусиятлари жиҳатидан ҳам долзарбдир.

Ўхшатишнинг бадиий-эстетик қиммати ва лингвопоэтик хусусиятлари халқ қўшиқлари матнлари асосида олима М.Якуббекова томонидан махсус тадқиқ қилинган. Тадқиқотчи томонидан ўхшатиш нутқий ҳодиса сифатида белгиланган ва унинг тўрт унсурдан иборт эканлигига эътибор қаратилган. Тадқиқотчи ўхшатишнинг шакл ва мазмун бирлигидан ҳосил бўлишига диққатни жалб этар экан, асосан, ўзбек халқ қўшиқларида бу воситаларни лисоний, бадиий жиҳатдан ўрганишга эътиборни қаратади.

Бу ҳол ҳар бир луғавий восита талқинида унинг моҳияти муҳим эканлигини назарда тутиш зарур эканлигидан далолат беради. Жумладан, бошқа лингвистик бирликлар сингари қиёс натижасида ҳосил бўладиган воситалар ҳам тингловчига қай даражада таъсир этиши билан белгиланади. Шунга кўра, тадқиқотчи халқ қўшиқларида учрайдиган ўхшатишларни ўрганишда бу воситаларнинг бадиий-эстетик табиатини ўрганишни муҳим вазифалардан бири сифатида белгилаган. Шу билан биргаликда, тадқиқотчи ўхшатишларнинг структур-композицион, лексик-грамматик табиатини ҳам таҳлил объекти сифатида ўрганишни мақсад қилиб олган[2]. Ўхшатишлар структур-композицион жиҳатдан уч турга: содда, мураккаб ва мураккаблашган ўхшатишларга ажратилиб, содда ўхшатишларнинг тўлиқ ва тўлиқсиз турлари ўхшатиш узвларининг мавжудлиги асосида белгиланган. Ўхшатишнинг лексик-грамматик хусусиятлари бу ифода воситасининг ўзига хослигини кўрсатувчи муҳим жиҳати саналиб, асос унда етакчи қисм ҳисобланади ва ўхшатиш ҳосил бўлишида зарурдир. Тадқиқотчи ўзбек халқ қўшиқларида ўзшатиш асоси от сўз туркуми, отлашган сўзлар, баъзан олмошлар ва отли сўз бирикмалари билан ифодаланганлигини кўрсатиб ўтади[3]. Ўхшатишнинг грамматик кўрсаткичлари ҳақида фикр билдирар экан, энг кўп ўхшатиш ҳосил қиладиган восита сифатида *-дай* ва *-дек* аффиксларини кўрсатади. Бу аффиксларнинг қиёслаш хусусиятига эгалигига ҳам эътибор қаратган ва улар ёрдамида предметнинг ҳаракати ва ҳолати, икки предмет орасидаги белгилар, хусусиятларга кўра қиёслаш ва ўхшатиш муносабатларини ифодаловчи грамматик восита эканлиги ёритиб берилган[4]. Ишда бир қатор ўшатиш ҳосил қилувчи грамматик ва луғавий воситаларнинг қайси асосида ўхшатиш ҳосил қилишига ҳам эътибор қаратган. Чунки ўхшатиш ҳосил бўлишида предметлар ва улурга хос белгилар бир-бирига ўхшатилиши билан бир қаторда қиёсланади ҳам. Ўхшатишда предметлардаги бир хилдаги белги айнан мослиги асосида ўхшатилса, соф қиёслашда бир-бирига мос бўлмаган белгиларга кўра бир предмет бошқасига қиёсланади. Масалан, *гулни юзга* қиёслаш, *юзни ойга* қиёслашда бу предметлардаги айнан ўхшайдиган белгилар мавжуд эмаслиги уларни бир-бирига қиёслаш натижасида ўхшатиш ҳосил бўлганлигини кузатиш мумкин.

Умуман, тилшуносликда қиёслаш муносабати доирасида асосан ўхшатиш ва унинг нутқдаги тасвирийлик, бадиийлик жиҳатларини таҳлил қилишга кўпроқ эътибор қаратилган бўлса-да, ўзаро ўхшашлик белгиларига эга бўлган нарса, предмет-

[1] Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент: 2008. – Б. 27

[2] Якуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 62-63

[3] Якуббекова М.Кўрсатилган диссертация. – Б. 84-85.

[4] Якуббекова М.Кўрсатилган диссертация. – Б. 100-102.

ларда ўхшашликнинг моҳияти ҳақида тадқиқотлар олиб борилмаган. Гап шундаки, предметлардаги муайян белгилар фақат ўхшатиш учун асос бўлавермайди. Предметлардаги белгилар бир-биридан фарқланади, солиштирилади, тенглаштирилади, белгиларнинг барчасини асоси қиёслашдан иборат бўлади. Кейинги йилларда инсоннинг когнитив олами унинг дунёни англашдаги муҳим жиҳати эканлигини талқин этишда қиёслаш муносабатининг аҳамияти катта эканлигига эътибор берилиб, қиёслаш асосида вужудга келадиган тил воситаларини ўрганишга эътибор кучайиб бормоқда. Қиёслаш орқали ифодаланаётган фикрга нисбатан воқеликни тўлиқ тушуниш воситаси сифатида қаралмоқда. Қиёслашнинг объектив ҳаётга нарсаларнинг ўхшаш ва фарқли томонлари асосида англаниши натижасида қиёснинг соф ва ўхшатиш қиёс каби кўринишлари ажратилган ҳолда ҳам ўрганиб келинмоқда.

Нарсалардаги белгиларни фарқлаш асосида қиёслаб таҳлил этилган тадқиқотлардан бири Ш.Дадабоеванинг қиёслаш муносабатини ифодалашнинг тизимли тадқиқи масалаларига бағишланган диссертациясидир. Тадқиқотчи қиёслашни объектнинг ўхшаш ва фарқли томонларини, миқдорий ва сифат хусусиятларини аниқлайдиган когнитив жараён деб билади ва ундан воқеликни бадиий акс эттиришда, нарса ва ҳодисанинг белги хусусиятлари, улардаги ўхшаш ва ноўхшаш томонларни ифодалашда фойдаланилишини айтиб ўтади[1]. Ишда қиёслаш муносабатини вужудга келишидаги элементлар, қиёс ҳосил бўлишида иштирок этадиган лисоний воситалар, жумладан, морфологик-лексик воситалар таҳлилга тортилган. Қиёслаш муносабатининг аффикслар, лексик бирликлар, морфологик, синтактик бирликлар, гаплар ва матнлар орқали ифодаланиши хусусида фикр-мулоҳазалар билдирилган. Ишда қиёслаш муносабатини ифодаловчи содда гаплар, боғланган ва боғловчисиз эргашган қўшма гапларда қиёслаш муносабати, суперсинтактик бутунликларда қиёснинг ифодаланиши каби масалалар таҳлилга тортилган[2].

Профессор Д.Худойберганова лингвомаданий бирликларнинг матн яратишдаги аҳамияти ҳақида фикр билдирар экан, ўхшатишларнинг лингвомаданий хусусиятларини тадқиқига алоҳида эътибор қаратади. Ўхшатишларнинг муайян халқнинг ўзига хос ҳаёт тарзининг ифодаланиши асосида вужудга келиши, миллий ўзликка хосликни белгилаши тадқиқотчилар томонидан эътироф этиб келинган ва бу образли тафаккурнинг маҳсули сифатида матний таъсирчанликни, бўёқдорликни кучайтирган. Шундай экан, ўхшатиш орқали фикрнинг ифодаланиши инсоннинг онгли фаолиятидаги муҳим кашфиётларидан биридир. Ўхшатишлар дунёдаги барча тилларда мавжуд бўлиб, ранг-баранглиги, маъновий жиҳатдан серқатламлиги билан алоҳида ажралиб туради. Олима тадқиқотларида инсон ҳақидаги ўхшатишларнинг 8 та маъновий гуруҳга ажратган ҳолда, ўхшатишларга нисбатан маданий бирликлар сифатида қарайди, уларни маълум бир этносга хос менталликни таъминловчи, воқеликни инсон воситасида ифодалаш даражасини кўрсатувчи далил сифатида баҳолайди[3].

Д.Худойберганова ўхшатиш мазмунли матнларни таҳлил қилар экан, бу турдаги матнларни яратишда матн тузувчининг фаолиятига ҳам алоҳида аҳамият беради. Яъни матн тузувчи ўхшатиш объектини бирор нарсага ўхшатар экан, аввало, қандай белги, хусусиятларига кўра ўхшатиш мумкинлигини аниқлаш керак. Албатта, бундай қиёслаш ўз-ўзидан намоён бўлмайди. У матн тузувчи томонидан идрок этилган ҳолда ҳар икки предметга қай даражада мавжудлигига эътибор қаратилади. Матнлардаги қиёслаш муносабатлари таҳлил қилинганда кўпгина ўхшатиш қиёсларда, қиёслаш учун асос бўладиган белги мавжуд бўлмаса-да, қиёсланган бўлади. Масалан, *мен эса ботаётган қуёшдай, ҳозир борман, бир пастдан кейин йўқ* гапида предметларни бир-бирига қиёслаш учун асос бўладиган белги мавжуд эмас. Шунинг учун ҳам қиёслаш матн яратувчисининг идрокий оламининг намунаси сифатида майдонга келади.

Ўзбек тилшунослигида қиёслаш асосида вужудга келадиган яна бир тасвирий восита метафорларни антропоцентрик йўналишда Ш.Махмараимова томонидан махсус ўрганилган[4]. Тилшуносликда метафораларни яшириш ўхшатиш сифатида қараш Аристетелдан бошланган бўлиб, бугунги кунда ҳам кўплаб тилшунослар томонидан қайта-қайта айтилаётганлиги ҳаммага маълум. Бу фикр замирида метафоранинг ҳам асоси қиёсдан иборат эканлиги ётади. Метафорик ифодаларнинг ҳосил бўлиши ҳам тушунча ва тафаккурнинг ўзаро алоқаси асосида вужудга келади. Нарсани қайта номлаш инсон нутқий фаолиятидаги муҳим жараёнлардан бўлиб, метафорик маъно ҳосил қилиш бевосита инсонни нарса-ҳодисалар-

[1] Дадабоева Ш. Тилда қиёслаш муносабатини ифодалашнинг тизимли таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – Б. 12.

[2] Дадабоева Ш. Кўрсатилган диссертация. – Б. 13-18.

[3] Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2015. – Б. 112-113.

[4] Махмараимова Ш. Ўзбек тилида метафораларнинг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспек): Филол. Фан. док. дисс. – Самарқанд, 2020.

ни уларнинг моҳиятини тушуниши билан боғлиқ. Метафора оламни англаш ва уни ифода этишда тафаккур ва когнитив оламнинг намоён бўлишининг бир шакли, янгича ифоданинг усулларидан бири сифатида антропоцентрик хусусиятларини намоён этади.

Метафора турли ёндашувлар асосида ўрганилиши мумкин бўлган восита бўлиб, Ш.Махмараимованинг метафорани бадиий-фалсафий талқин этишда, уни қиёснинг алоҳида тури сифатида ўрганиш[1] ҳақидаги мулоҳазалари метафорани антропоцентрик таҳлил этишдаги муҳим жиҳат эканлигини алоҳида таъкидлаш лозим. Чунки метафора асосан нутқий ҳодиса бўлиб, у ўз-ўзидан яратилган эмас. У инсоннинг муайян мақсадларини кўзга тутиши асосида вужудга келади. Метафоранинг асосида оддий қайта номлашдан тортиб, нутқни бадиий образлилигини таъминлаш назарда тутилади. Метафора ҳосил қилишдаги белгиланган ҳар иккала усул ҳам экспрессивликни вужудга келтирувчи, услубий имкониятларни яратувчи усуллардир. Инсон ўз фикрларини, қарашларини бошқаларга таъсирчан ҳолда етказиш, предметларни янги номлар билан аташ орқали таъсирчанликни таъминлаш учун метафораларни ва бошқа шу каби тил воситаларини яратиши орқали тилни сайқаллаштириб борган. Шу жиҳатлари асосида метафора семасиологик, структурал ва функционал жиҳатдан тилшуносликда тадқиқотлар объектига айланган[2].

Метафора ҳосил бўлишида турли хил предметлар қиёсининг муҳим ўрни бўлиб, метафорадаги бадиий-образлиликнинг кучайиши қиёслашнинг бу турида муҳим омил ҳисобланади. Умуман, метафоралар ҳосил бўлишида бир хил ва турли предметлар орасидаги ранг қиёси, хусусият қиёси, ҳолат қиёси, ҳаракат қиёси, шакл-кўриниш қиёси ва бошқа қиёслар билан бир қаторда тафаккур қиёси муҳим ҳисобланади ва кўпгина ҳолларда бу хилдаги қиёслар образли ифодани вужудга келтиради.

Resume. The article discusses the role of comparison as a method of expression in knowing the world and the issues of studying comparative expressions in Uzbek linguistics.

Резюме. В статье рассматривается роль сравнения как способа выражения в познании мира и вопросы изучения сравнительных выражений в узбекском языкознании.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"САНГЛОХ" АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИ ЛУҒАТИ

Муродов Нормурод Тохирович,
Термиз давлат университети тожик тили кафедраси катта ўқитувчиси

Алишер Навоий асарларини ўрганиб луғатлар тузиш Навоий замонидан бошланган эди. Ҳусайин Бойқаро фармони билан тузилган "Бадойи ул-луғат" Алишер Навоий асарлари асосида тузилган биринчи луғат ҳисобланади[3].

Бу луғадан ташқари 1960 йили машҳур инглиз шарқшунос олими Жерард Классон[4] томонидан Алишер Навоий асарларига тузилган луғатларнинг энг мукаммали – "Санглох" нашр қилинди. Бу луғат Мирза Маҳдихон ибн Муҳаммад Носир Низомиддин Муҳаммад Ҳожи ал-Ҳусайни ас-Сафавий ал-Астрободий[5] томонидан тузилган.

Маҳдихон ўз замонасининг билимли, зукко олими бўлиб, тил ўрганиш қобилияти зўр эди. У араб, форс, тожик, ҳинд ва рус тилларини билар эди. Маҳдихон ўзи яратган бебаҳо тарихий асарлари билан Европа шарқшунослари орасида ҳам машҳур шахсдир. Шунинг учун Европада XVII-XVIII аср Эрон тарихи ва маданиятига бағишланган ҳар бир асарда унинг номи қайд этилган[6]. Маҳдихоннинг қачон туғилиб вафот этганлиги ҳақида аниқ маълумот йўқ. Лекин Султон Ҳусайн саройида хизмат қилганлигини ҳисобга олсак, 80 ёшдан кам яшамаганлиги маълум бўлади. Мирза Маҳдий Султон Ҳусайн (1694-1722) ва Тахмасп (1722-1732) саройида муншилик қилар эди. Мунши асосан ҳар хил давлат ҳужжатларини тайёрлаш билан шуғулланган.

Нодиршоҳ (1736-1747) саройида Мирза Маҳди расмий сарой тарихчиси бўлиб хизмат қилган. Нодиршоҳ унга катта ишонч билдириб "хон" унвонини беради. У билан ҳарбий юришларда доимо бирга бўлган Маҳдихон Нодиршоҳ ҳақида иккита тарихий асар ёзди. Маҳдихон ҳақида гапирганда, биз уни комил лексикограф, турколок, давлат арбоби, ёзувчи, тарихчи, коллиграф ва шоир эканлигини эслаб ўтишимиз керак. У ҳатто Нодиршоҳ буйруғи билан "Библия"ни форс тилига таржима қиладиган грек ва арман диндорларига ёрдам беради.

Мирза Маҳдихон ўз филологик ишини 1760 йилда ёзиб тугатади. У ўз асарининг сўз бошида: *Бандаи ҳақир ёшлигимданоқ балоғат ва фасоҳат ўлкасининг ҳокими ва сухандонлик буйруқчиси Амир Алишер Навоий шеърларини ўқишга ва унинг сўзларини ўрганишга чексиз меҳрим ва абадий таърифга сиғмайдиган шавқ-завқим бор эди. Бироз онинг маъноларини тушунгандан кейин менда шундай ният пайдо бўлдики, унинг мушкул сўзларини танлаб ва улар маъноларини изоҳлаб ёзишга киришсам,* - деб ёзади.

Маҳдихон Алишер Навоий сўзларининг диққат талаблиги, улуғворлиги ва қийинчилигини назарда тутиб, китобга "Санглох" (тошлоқ) деб ном беради. Мирза Маҳдихон Алишер Навоийнинг 12 та назмий ва 9 та насрий асарларини ўқиб, улардаги сўзларни изоҳлаб, "Санглоҳ" асарини тузади.

Маҳдихон ўз асари ҳақида: *Мен шуни истар эдимки ушбу китоб юқорида зикр қилинган асарлардаги мушкул бўлган форсий ва арабий сўзларни ўз ичига олса мутола қилувчилар қийналмай тушунсалар ва шу тилга бўлган имтиёзларни қониқтирсалар* – деб ёзади. Қўлимиздаги "Санглох" асарини Табризлик озарбайжон жаноб Равшан Хаёвий[7] нашрга тайёрлаган.

Мирза Маҳдихон ўзининг мана бу, ўзбек лексикографияси учун ниҳоят даражада аҳамиятли бўлган "Санглох" асарида бошқа сўз турумларига қараганда феъл туркумидаги сўзларга катта эътибор берган ва ўз имконияти даражасида уларнинг миқдоран кўплигини таъминлаган. Ушбу мақолада "Санглох"да қўлланилган айрим сўзларнинг маъноларини таҳлил қилдик.

Мирза Маҳдихон ўзининг "Санглох" асарида بوتمک به پنج معنی آمده "бутмоқ" феълининг: биринчиси гиёҳ ва кўкатларнинг ўсиши, *унмоқ, ўсмоқ, кўкармоқ*; иккинчиси жароҳат ёки яранинг битиши, *битмоқ, тузалмоқ*; учинчиси қурилган, *қуриб*

[1] Махмараимова Ш. Кўрсатилган диссертация. – Б. 44.
[2] Лагута О.Н. Метафорология: теоретические аспекты. – Новосибирск, 2003; Теория метафоры. – М: Прогресс, 1990; Скляревекая Г.Н. Метафора в системе языка. – Наука, 1993; Қобилжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2000.
[3] Умаров Э.А. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент, 1992. – Б. 3.
[4] Жерард Классон. Муҳаммад Маҳдихон "Санглох" асарининг факсимал матни. – Лондон, 1960.
[5] Доктор Забиҳулло Сафо. Адабиёт тарихи. Теҳрон нашри.
[6] Доктор Забиҳулло Сафо. Адабиёт тарихи. Теҳрон нашри.
[7] Доктор Забиҳулло Сафо. Адабиёт тарихи. Теҳрон нашри.

тугатилган, тўртинчиси *амалга ошмоқ*, бешинчиси *ишонмоқ* каби беш маънода келганини ёзади. “Саъбаи сайёр”[1] достонинг заргар ҳикоятидан байт:

حکم قیلدی کیم السون و کیتسون

تخت بوتماککا جدوجهد ایتسون

Маъноси: *Ҳукм қилдиким: “Олсуну кетсун, Тахт бутмокка жидду жаҳд этсун!”* Бу феълнинг шахс - сонда ўзгариб келган шакли ҳам бериб ўтилган: *Бутук – ўстирдик, жароҳатни битирдик* (тузатдик), *қуриб битирдик* (қурдик); *Бутунг – гиёҳни ўстирдинг, жароҳатни битирдинг* (тузатдинг), *қуриб битирдинг, амалга оширдинг, ишондинг* ва охирги маъноси:

دوستلار حقی غه حمت قیلپسان

هر نی رحمن دیدی بوتونگ یاری.

Маъноси: *Дўстлар ҳақиға ҳиммат қилибсан, Ҳарни раҳмон диди бутунг ёри*.

Бутар, бутадур – *жароҳатни битирди* (тузатди), *қуриб битирди, амалга оширди, ишонди*. Биринчи маъносига Алишер Навоийдан байт:

کچه نی نوع یومای کیبریکینگ خیالیده کوز

منکاکه ایکنه بوتار تا نگهنه یتکروب زارا .

Маъноси: *Кечани нав юммай кирикинг хаёлида куз,*

Мангаки игна бутор то нигаҳина еткуруб зора.

Бутор феъли фоил (ҳаракат бажарувчиси) ва масдар маъноларига ҳам тўғри келади. Чунончи, Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонида *қурмоқ* маъносига ушбу байтни келтиради:

که بو ایش بوتارکا تاپیلدی جحت

نی نوع ایمدی دانا کورار مصلحت

Маъноси: *Ки: “бу иш бутарга топилди жиҳат, Не навъ имди доно кўрар маслаҳат? ”* (240-б.)

Бутган, бутарган, бутадурган феълини *унган, кўкарган* маъносига тўғри келишини ёзиб, “Лайли ва Мажнун”[2] достонидан қуйидаги мисолни келтиради:

اوستیگا یاغیب غبار محنت

بوتگان ایاغیغه خارمحنت

Устига ёғиб ғубор меҳнат, Бутган аёғиға хор меҳнат

Шу маънода яна шеър: بوتگانگا اوقشاردیگایسین هر یان قیزیل تال اورار برگ

Бутганга ўхшар дигайсин ҳар ён қизил тол урар барг.

Амалга оширмоқ маъносига мос Бобурийлар тарихидан Бади уз-Замон васфида шундай мисол келтирилади: *Рамазондек мутабаррук ва азиз ойға кечалик фурсат қолиб, отасидин ийманмай қўрқмай, Тенгридан қўрқмай, ҳануз иши чоғир ичмак эди. Муқаррардурким, мундоқ бутғон киши андоқ шикаст топғай*[3].

Бу сўз бўлишсизлик маъносида ҳам келади. **Бутмаган** ва **бутмайдурган** – *бутмаган* (яхши бўлмаган), *бутмаган* (тугатмаган), *бутмаган* (унмаган):

تیغ عشقینگ یاره سی دوربوتمگان *Тиғи ишқинг ярасидур бутмаган*.

دردینی هر کیمگا ایتیب بیتماگان *Дардини ҳар кимга айтиб битмаган*.

هجر صحراسیدورآهیم اوتی دین آندا گل یاخود گیاهی بوتماگان

Ҳажр соҳросидур оҳим ўтидин онда гул ёхуд гиёҳи бутмаган.

Бут ва **буткил** буйруқ феъли бирлик иккинчи шахсда بطریق ایهام - ийҳом (байтда бири аниқ, бири яширин бўлган икки маъноли сўз қўллаш усули мавжуд) маъносида келишини айтиб, Алишер Навоийдан мисоллар кетиради:

وعده وصف ایلادی او آی همانا کیلگوسی

تیغ هجریدین شکاف اولغان کونگول بو سوزگا بوت

Маъноси: *Ваъда васф айлади у ой ҳамона келгуси*

Тиғ ҳажридин шикоф улғон кунгул бу сўзга бут.

Мазкур байтда “бут” калимаси тиғ ҳажридан жароҳатланган кўнгил бу сўзга “ишон” маноси аниқ кўриниб турибди, иккинчи яширин маъноси “жароҳатнинг битиши”ни кўзда тутганлиги эътиборни тортади.

Бўлишсизлик шаклида ҳам келади:

دیسام که ترک عشقینگ ایتای بوتما ای پری

کیم تیلبه لار حدیثیگا کوپ اعتبار یوق

Дисам ки тарки ишқинг этай бутма эй пари,

Ким телбалар ҳадисига кўп эътибор йўқ.

Бутманг, бутмангиз, бутманглар буйруқ феъли кўплик II шахс бўлишсизлик шаклида келади:

نوایی ترک عشق ایتتیم دیسا بوتمانگ که بوتماسلار

کیشی هر سوز ایشیتسا اوسروک و دیوانه دین داغی .

Навоий тарк ишқ иттим диса бутманг ки бутмаслар,

Киши ҳар сўз эшитса усрук ва дивонадин доғи.

[1] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами 9-10-11-томлар. – Тошкент: Фан, 1992. X т. – Б. 181.

[2] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 9-10-11-томлар. – Тошкент: Фан, 1992. IX т. – Б. 262.

[3] Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи: П.Шамсиев. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 40.

Амалга оширмоқ маъносида Бобурийлар тарихидан Бади уз-Замон васфида шундай мисол келтирилади: *Рамазондек мутабаррук ва азиз ойға кечалик фурсат қолиб, отасидин ийманмай қўрқмай, тенгридан қўрқмай, ҳануз иши чоғир ичмак эди. Муқаррардурким, мундоқ бутғон киши андоқ шекаст топғай*[1].

و بمعنی رابع در تاریخ الانبیا در ذکر حضرت اسحق ///علیه السلام گویند که عمری یوز سیکسانگا یتکاندین سونگرا تیگری تعالی حکمین بوتکاردی .

"Торих ул анбиё" асарининг ҳазрат Исҳоқ алайҳуссалом зикрида *бутмоқ* феълининг тўртинчи маъносига шундай мисол келтирилади: *Исҳоқ алайҳуссаломнинг умри юз саксонга еткондин сўнгра тингри таола ҳукмин буткорди.*

بمعنی پوشانیده در تاریخ الانبیا در ذکر تفاخر حضرت ابراهیم علیه السلام بعد از تمام کعبه گوید که خطاب کیلدی کیم بر آچنی مو تغاریب سین یا بر یالانکاچنی مو بوتکاریب سین کیم مباهت قیلادور سین

Кийдирмоқ маъносида "Тарих ул анбиё" асарида ҳазрат Иброҳим алайҳуссалом зикрида каъбани қуруб бўлгандан сўнг шундай хитоб келди: *Бир очни му тўйғорибсин, ё бир ёланкочни му буткорибсин ким мабоҳат қилодурсин*.

چنانکه شاهد بر اول بمعنی رابع در تاریخ بابری مذکور است که بقتل یارماغیدا اهمال قیلادور لار ایدی بیکلارکا بویوریلدی کیم اهتمام قیلیب بوتکارکایلار

Торих Бобури мазкур аст ке беқатл ёрмоғида аҳмол қиладурлар эди бекларга буюрулди ким эҳтимом қилиб буткоргайлар.

Бутманг, бутмангиз, бутманглар – буйруқ феъли кўплик, иккинчи шахс бўлишсизлик шаклида келади:

نوایی ترک عشق ایتتیم دیسا بوتمانگ که بوتماسلار کیشی هر سوز ایشیتسا اوسروک و دیوانه دین داغی .

Навоий, тарки ишқ эттим деса бутмангки бутмаслар,

Киши ҳар сўз эшитса усругу девонадин доғи. (Наводир уш-шабоб, 462-б.)

Бу асарда туркий сўзларнинг форсча изоҳи билан бирга уларнинг арабча, ҳиндча ва баъзан юнонча маъноси ҳам берилган.

Мирза Маҳдихон луғатда бошқа сўз туркумларига қараганда феъл туркумига катта эътибор берган ва улар миқдорини имкон даражасида кўпайтирган.

Мазкур лексикографик манбада ҳозирги ўзбек адабий тилида фаол ишлатилган ва истеъмолдан чиқиб, тил луғат фондида архаиклашган сўзликлар маълум лексикографик бирликларни ташкил қилган.

Маҳдихон алиф ва маддали алиф ҳарфига жами 21 феъл келтирган. Улардан фақат бир сўз алиф ҳарфи билан бошланади: اکامیرپا (17V) – **апримок** – *тўшамоқ, ёзмоқ*. Қолган йигирма сўз маддали алиф, яъни чўзиқ **а:** билан бошланади. Маддали алиф билан бошланувчи сўзларни маъно жиҳатдан иккига бўлиш мумкин: а) бир маъноли феъллар; б) икки маъноли феъллар.

"Санглох"га қуйидаги сўзлар бир маъноли феъллар сифатида келтирилган: 1. آتلاتماق (18V) а:тлатмақ – жўнамоқ; 2. آجیماق (18V) а:жимоқ – аччиқ бўлмоқ: 3. آجیشماق (18V) а:жишмоқ – куймоқ; 4. آخسوملاماق (19 V) а:хсумламоқ – маст бўлмоқ; 5. آردلاشماق (19V) – а:рдлашмоқ – бир-бирлари устига минмоқ; 6. آرغادماق (19V) а:р адамоқ – алдамоқ; 7 اغماق (22V) а:ғмоқ – баландга кўтарилмоқ; 8. آقماق (23V) а:ғмоқ – жўнамоқ; آلاقماق (23г) а:лоқмоқ –бирга чиқмоқ; 9. آنگماق (26г) а:нгмоқ – ёдламоқ 10. آیکماق (30 г) а: йикмақ –хушёр бўлмоқ[2].

Маҳдихон ушбу феълларни изоҳлар экан, ушбу маъноларни тасдиқлаш учун Алишер Навоий, Лутфий асарларидан мисоллар келтиради. Чунки, آییلماق غ بکسریا و سکون لام هشیار شدن و آنرا رومیه آینماق با نون هم گویند آییلدی - هشیارشد ، آییلدوق- هشیار شدنیم ، آییلور و آیلادور- هشیار می شود و آییلور بمعنی فاعل و مصدر نیز می اید. آییلغان آییلورغان و آییلدورغان- هشیار شونده و هشیار شده و بمعنی مصدر نیز می اید. آییل و آییل غیل مفرد مخاطب از فعل امر الشاهد علی الاول شعر: а:йилмоқ – *хушёр бўлмоқ* феълига Алишер Навоий асаридан қуйидаги байтни келтиради:

هجراندا بیخود ایستار اوزنی نوایی ای شیخ
آی و ییل آنی اوسروک کورسانگ دیما که آییل.

Ҳижронда бехуд истар ўзни Навоий, эй шайх,
Ою йил ани усрук кўрсанг, демаки, ***ойил***. (Санглох, 55г)

جام عشقیدین کونگول اول نوع ایرور مست خراب
کیم قیامت بزمیغه یتگر و آییلغودیک ایماس

Жом ишқидин кунгул ул нав эрур масти хароб,

[1] Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи: П.Шамсиев. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 40.

[2] Жерард Классон. Муҳаммад Маҳдихон "Санглох" асарининг факсимал матни. – Лондон, 1960.

*Ким қиёмат базмиға йитгар ва **ойилғудик** эмас*. (Санглох, 55v)

آییلدورماق غ بکسر یا و سکون لام و رای قرشت و ضم دال مصدر متعدی است یعنی هشیار کردن آییلدورغای هشیار کند الشاهد علیه شعر:

مست عشق اولمیش نوایی بیرماگیل پند ای حکیم
کیم مگر ساقی آییلدورغای بو می نینگ بیخودین

Масти ишқ ўлмиш Навоий, бирмагил панд, эй ҳаким,
*Ким, магар соқий **ойилдурғой** бу майнинг бихудин*.
(Санглох, 55v)

Мазкур феъл Алишер Навоий асарларида ҳам учрайди:

Эй Навоий, майда соқий лаълидин эмиш фуруғ,
*Кайфиятни чунки фаҳм эттинг нетарсан **ойилиб**. (2)*

Келди чун соқий лаюи етган қадаҳ ҳушутнгни маҳв,
*То абад зинҳорким, **ойилмағайсан**, эй кунгул. (3)*

Неча дерсанки. Соқий бизни бир май бирла маст этсун,
*Ғуруру жаҳл ичинда мастлиғдан бир **ойил** боре.*

*Навоий басе кеч **ойилдинг** дариғ,*
Йигитликни барбод қилдинг дариғ. (4)

Мисоллардан кўриниб турибдики, **айланмоқ** феъли, ҳақиқатдан ҳам, *ҳушёр бўлмоқ* маъносида ишлатилган.

Луғатшунос **бирга чиқмоқ** маъносидаги الاقماق **а:лақмоқ** феълини Лутфий ва Бобурнинг қуйидаги байтлари мисолида очиб беради:

نواییا چوسسه حکمتی عشق کونگلومگا
ملاح و زهد ایله تقوی بوزولدیلار آلاقیب

Навоийо чусса ҳикмати ишқ кўнглумга
*Малоҳу зуҳд ила тақво бузулдилар **алоқиб.***

و شاهد بر رابع در تاریخ بابری مذکور (Санглох 47 r) است که سرخسدا نیچه قیزلباش ایکاندور دروازه تارتیب قورغاننی بیرماسلار رعیت لار آلاقیشیب دروازه نی آچارلار.

*Сархасда анча қизилбош экандур, дарвозани тортиб, қўрғонни бермасдилар. Раиятлар **алақишиб** дарвозани очарлар*[1].

“Санглох”да етти юздан ортиқ ўзбек тилидаги феълга шарҳлар берилиб, уларнинг тўғри ўқилиши ва ёзилиши аниқ кўрсатилган. Асардаги бу гуруҳ сўзларнинг маълум қисми архаиклашган.

Хулоса шуки, “Санглох”да қайд қилинган ушбу маънолар айрим луғатларда учрамайди. Буларни келажакда тузилажак мумтоз асарлар луғатига киритилса, мақсадга мувофиқ бўларди.

“Санглох” миллат, элат, қавмларнинг номлари ва уларнинг қадимий расм-русум одатларини ўрганиш жиҳатидан катта аҳамиятга молик асардир. Луғатда Осиёнинг турли минтақалари номлари ва улардаги шаҳарлар, тоғлар, дарёлар ҳақида қимматли маълумотлар мавжуд. Асар тарихда из қолдирган машҳур туркий ва эроний сулолалар тарихи ҳақида кенг маълумотлар беради.

Китобда астрономия, астрология, тиб ва доришунослик, ўсимликлар дунёси ва гиёҳларнинг номлари ҳақида ҳам қимматли маълумотлар бор.

“Санглох” да ўзбек тили (асосан, феъл туркумли сўзлар) лексикасининг орфографик ва орфоэпик ҳолатлари акс эттирилган. Унда феълларнинг шахси, замони ва майллари берилган. Буларни ўрганиш ўзбек тилини чуқурроқ ўрганишга олиб келади.

[1] Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи: П.Шамсиев. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 40.

Resume. This article says that the study of the works of Alisher Navoi and the compilation of dictionaries has begun since the time of Navoi, and that the most perfect dictionary of Mirza Muhammad Mahdikhon is the work “Sangloh”.This work was compiled as a result of the study of more than twenty works by A. Navoi.

The article considers the problem that Alisher Navoi used the word bootmoқ (bitmoқ) in five meanings in his work “Five”. On the basis of the bates (couplets) discharged from the Fivefold, the verb bootmaқ was used in its own and figurative meanings. In “Sangloh”, it is demonstrated that Alisher Navoi masterfully applied one word in different meanings.

Резюме. В данной статье утверждается, что изучение произведений Алишера Навои и составление словарей началось ещё со времени Навои, и что самым совершенным словарём Мирза Мухаммада Махдихона является труд “Санглох”. Это произведение составлено в результате изучения более двадцати произведений А.Навои.

В статье рассматривается проблема, что Алишер Навои в своём произведение “Пятерица” слово *бутмоқ* (битмоқ) применял в пяти значениях. На основе выписанных из Пятерицы бейтов(двустиший) глагол *бутмақ* использовался в своём и переносном значениях. На примере данного словаря “Санглох” демонстрируется мастерство Алишера Навои в применении слов в разных их значениях.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘QUV LUG‘ATINING LEKSIKOGRAFIK JANR SIFATIDA O‘RGANILISHI

Abduraxmonova Nilufar,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori,filologiya fanlari doktori

Boysariyeva Saodat,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Latipova Gulasal,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Manbalarda ko‘rsatilishicha[1], XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ingliz tilining dunyo miqyosida ommaviylashuvi natijasida keng miqyosda o‘quv leksikografik tadqiqotlar uchun uchun stimul vazifasini bajardi. Unga ko‘ra 1930-yillarda talaffuz qilinuvchi simvollar tizimini qayta ishlash borasida dastlabki leksik minimum tushunchasi paydo bo‘ldi. Rus va ingliz tillarida o‘quv lug‘atlarini yaratish ancha oldinroq boshlangan bo‘lsa-da, uning tom ma’noda shakllanish taraqqiyoti XX asrning 2-yarmiga to‘g‘ri keladi. Tilni xorijiy til sifatida o‘qitish metodologiyasining alohida fan sifatida shakllanishi natijasida ta’limga yo‘naltirilgan lug‘atlarni yaratish xususiy maqsadlardan kelib chiqqan deb aytish mumkin.

Tabiiyki o‘quv lug‘atlarini boshqa lingvistik lug‘atlardan alohida belgilari mavjud. Xususan, V.V. Morovkin o‘quv lug‘atdagi so‘zlarni saralashdagi eng asosiy tamoyillardan biri sifatida muayyan chet tilini o‘qitishning maqsad, vazifalari, bosqichi va real sharoiti, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va ularning millatini hisobga olish zarurligi, qolaversa, lug‘atning strukturasi va kontenti o‘quv-uslubiy maqsadga muvofiqligi, ona til va xorijiy tillar o‘rtasidagi tizimli munosabatni nazarda tutadi[2] .

Tarixiy faktlarga asoslanilsa, Rossiyada o‘quv lug‘atchiligi XVIII asrdan rivojlana boshlangan[3]. O. Petrushova o‘z tadqiqotida dastlabki ingliz-rus tarjima lug‘ati ingliz tili grammatikasi uchun ilova tarzda nashr ettirilganligi, keyinchalik o‘quv lug‘atlarining sohaviy ko‘lami xususiylashganini ta’kidlaydi.

Shuningdek, muayyan ma’noda o‘quv lug‘atini filologik maqsadga yo‘naltirilgan lug‘atlardan farqlash lozim. Boshqa fan va sohalarning ta’limiga yo‘naltirilgan lug‘atlar ham shular sirasiga kiradi. Bunday lug‘atlar ko‘proq terminologik xarakterga ega. O‘zbek tilidagi birinchi sohalashtirilgan o‘quv lug‘ati sifatida 1953-yilda nashr etilgan “O‘zbek klassik adabiyoti asarlarini o‘qish uchun qisqacha lug‘at”ini namuna sifatida keltirish mumkin.

O‘quv lug‘atchilikka doir tadqiqoqtlar nafaqat til o‘qitish sohasining, balki pragmalingvistika, lingvokulturologiya, tarjimashunoslik, qolaversa, madaniyatlararo muloqot nazariyasining ham o‘rganish obyekti hisoblanadi. Shu jihatdan ushbu yo‘nalishda olimlar turli nuqtai nazardan tilni tushunish va uni kommunikatsiyada qo‘llash masalasida muammoli jihatlarga alohida e’tibor qaratishadi. O‘quv lug‘atlarni shakllantirishning psixolingvistik yondashuv asosida o‘rganish bugungi tilshunoslikning eng munozarali nuqtasiga aylangan. Zero tilni tushunish va uni tafakkur doirasida nutqda qayta yaratish jarayoni uchun muayyan darajada amaliy eksperimental tadqiqotlar olib borish zaruriyati borligini ko‘rsatadi. Manbalarda ta’kidlanishicha, lug‘atdan topilgan ma’lumot foydalanuvchining semantik xotirasiga aniq va qanday ta’sir qiladi[4]. Lug‘at yaratishda leksikograflar tomonidan yuqoridagi savollar kesimida lug‘at yaratishning psixolingvistik jihatlariga e’tibor qaratiladi. Til o‘rganayotganda o‘quvchilar turli xildagi lug‘atlarga murojaat etarkan psixolingvistik omillar birlamchi sanaladi. U yoki bu turdagi lug‘at turi qaysi auditoriyaga mo‘ljallanishi hisobga olinadi.

Bizningcha, muayyan xorijiy tilni tushunish 4 turdagi jarayonda voqelanadi:

– u yoki bu so‘z haqida avvaldan ma’lumotga ega emaslik;

[1] Петрушова О. Л. Учебные словари в межкультурной коммуникации: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ярославль, 2009. – С. 9.

[2] Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Автореф. дис. ... доктора филол. наук. – М.: Ин-т рус. яз. им. А. С. Пушкина, 1990. – 72 с.

[3] Петрушова О. Л. Учебные словари в межкультурной коммуникации: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ярославль, 2009. – С. 9.

[4] https://euralex.org/elx_proceedings/Euralex1986/022_Henri%20Bejoint%20(Lyon)%20-Psycholinguistic%20evidence%20and%20the%20use%20of%20dictionaries%20by%20L2%20learners.pdf

– so‘zni avval eshitgan yoki ko‘rgan, lekin ma’nosi anglashilmaslik;

– biror so‘z xususiy konteksdagina anglashilishi;

– ayrim so‘zlar alohida iste’molda qo‘llanganda ham tushunarli bo‘lishi.

O‘quv lug‘ati foydalanuvchilarga mavhum tushunchalarni konteksda tushunish maydonini aniqlab beradi.

Psixolingvistikaning *rivojlantiruvchi psixolingvistika va pedogogik psivolingvistika* sohalari inson tilni o‘zlashtirish (ona tilini va ikkinchi til) orqali bilim olishda tilning roli haqidagi nazariyalarni taqdim etadi. Keyingi vaqtlarda til o‘zlashtirishda o‘qitishning psixologik konsepsiyasini o‘rganishga ko‘proq urg‘u berilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganish faqatgina kognitiv jarayon emas, balki affektiv jarayon hamdir. Demak, til o‘zlashtirishda emotsional- ekspressiv jihatlar ham ahamiyatli sanaladi. Til o‘qitishning psixolingvistik nazariyalarni o‘rganish ishlab chiqish va amalga tadbiq etish zarur. Bu yo‘nalishda jahon tilshunosligida bir qancha fikr-mulohazalar mavjud. O‘quv lug‘atchiligining psixolingvistik nazariayalari oid fikrning aksariyati ona tili ta’limiga emas, balki chet tilini o‘rganishga qaratilgan. Xususan, Nemis olimi Sven Tarp[1] o‘quv lug‘atchiligining nazariyasi, ya’ni tilni xorijiy til sifatida o‘qitishning muammolariga bag‘ishlagan maqolasida o‘quv leksikografiyasini tilshunoslikning o‘quv jarayoniga bag‘ishlangan bo‘limini chet tili didaktikasi bilan ko‘p umumiyliklarga ega ekanligini ta’kidlab, o‘quv lug‘ati yaratishda foydalanuvchining quyidagi jihatlariga e’tibor qaratishni taklif etadi:

– malaka darajasiga ega mutaxassis;

– kattalar yoki bolalar;

– migrant yoki xorjiy til o‘rganuvchisi.

Tilni o‘rgatishda boshqa madaniyat sohibi ekanligi hisobga olish zarurligini olim yuqorida keltirib o‘tgan kishilar misolida tushuntirishga harakat qiladi. Tarp o‘quv lug‘ati foydalanuvchilarini uchga: *boshlang‘ich* darajadagi bilimga ega bo‘lgan foydalanuvchi, *o‘rta* darajadagi bilimga ega bo‘lgan foydalanuvchi, *ilg‘or* darajadagi bilimga ega bo‘lgan foydalanuvchilarga ajratib, ular matn tuzish, matnni tushuna olishi bu o‘quv lug‘atining ma’lumot olishi uchun mo‘ljallangan vazifasi ekanligini va yana har uch turdagi foydalanuvchi grammatikani hamda leksikani o‘ragnishiga yordam berishi lug‘atning bilim olishga yo‘naltirilgan vazifasi deb qaraydi. Bundan tashqari, u o‘quv lug‘atlarining yangi nazariyasini yanada rivojlantirishning ba’zi usullarini taklif etadi. O‘quv lug‘atlari bilan shug‘ullanadigan nazariy adabiyotlarning ayrim kamchiliklaridan biri lug‘at mualliflarinining aksariyati hali ham leksikografiyani tilshunoslikning kichik sohasi sifatida qaraydi va leksikografiya muammolariga tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashadi. Shuning uchun mualliflar leksikografiya va o‘quv leksikografiyasining mustaqil nazariyasini ishlab chiqishi zarur. Bunday turdagi lug‘atlarning yaratilishida ko‘zga tashlanadigan eng katta muammo ularda leksikografik yondashuvning yo‘qligidir.

XX asrda lug‘atdagi leksik birliklar madaniy komponent sifatida qaralgan. Lingvomadaniy leksokografiyaning tamoyillari asosida kelsak fonning semantizatsiya obyekti sifatida, faol lingvistik idrokka mo‘ljallanganlik, actual tarixiylik, o‘quvchi nuqtai nazariga yondashish, sarlavhali so‘zning sinatgamatik va paradikmatik jihatdan moslashishi, chuqur mazmunni ifodalshda filologik mezonlarga amal qilish, ta’limga yo‘naltirilganlik hamda umumsohaviy birliklarning berilishi kabilar hisobga olinishi ta’kidlangan[2].

O‘quv lug‘atchiligining paydo bo‘lishi har bir tilshunoslikda o‘ziga xosdir. Masalan, ingliz tilida XX asrning so‘nggi choragi yaratilgan “katta beshlik” (COBUILD, Oxford Advanced Learner’s Dictionary, Cambridje International Dictionary, Macmillan English Dictionary, Advanced Learners Dictionary) lug‘atlar asosiy o‘quv lug‘atlar sifatida tan olinadi. 1948-yil yaratilgan Oksford o‘quv lug‘ati (Oxford advanced learner’s dictionary) ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan. Hozirda yuqorida qayd etilgan lug‘atlar onlayn tarzda foydalanuvchilarga havola etilgan.

Barchamizga ma’lumki, lingvistik lug‘atlar oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra ikki turga ajratiladi:

– akadem lug‘atlar;

– o‘quv lug‘atlari.

Akadem lug‘atlar tildagi so‘zlarni jamlashga yoki ma’lumot berishga mo‘ljallangan bo‘lsa, o‘quv lug‘atlari ta’limga yo‘nalgan bo‘ladi va akadem lug‘atlarga asoslangan holda yaratiladi. O‘quv lug‘atlari pedogogika va tilshunoslik o‘rtasidagi bog‘lanishni hosil qiladi. Akadem lug‘atlarda kata hajmli leksikon qamrab olinsa, o‘quv lug‘atlarining so‘zligi chegralangan bo‘ladi. Bunday lug‘atlar kamroq ma’lumot orqali muyyan ma’noda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni amalga oshirishga mo‘ljallanadi.

O‘quv lug‘atlarning tasniflasi lug‘atning umumiy maqsadidan kelib chiqadi, ya’ni o‘quv lug‘ati til o‘rganish uchun mo‘ljallangaligi yoki biror sohani o‘qitishga xizmat qilishi nazarda tutiladi.

O‘quv lug‘ati leksikografiyada o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan, chet tili foydalanuvchilarga ma’lum bir tilni o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan maqsadli auditiroyaga qaratilgan yoki mustaqil o‘rganish uchun resurs vazifasini bajaruvchi manba. Ko‘pchilik “o‘quv

[1] Tarp, Sven. (2010). Basic problems of learner’s lexicography. Lexikos. 14. 10.4314/lex.v14i1.51421.


[2] O‘sha joyda. – C. 14.

lug‘ati” atamasi til o‘rganuvchilar, ayniqsa, chet tilini o‘rganivchilar uchun yaratilgan leksikografik janr sifatida baholaydi.

Yuqoridagi xususiyatlarni hisobga olib o‘quv lug‘atlari filologik va sohalashtirilgan o‘quv lug‘atlari sifatida o‘rganialdi.

Filologik o‘quv lug‘atlarini boshqa til egasi uchun (bunday lug‘atlar kommunikativ ehtiyoj uchun mo‘ljallangandir) til o‘rganishga va ona tili ta’limiga qaratilgan lug‘atlar sifatida tasniflashimiz mumkin. Filologik o‘quv lug‘atlarining har ikkala (boshqa til egasi va ona tili vakili uchun mo‘ljallangan) turi qattiy cheklangan so‘zlar ro‘yxati, leksik birliklarning nutqda ishlatilishi, so‘zlarning chastotasiga e’tibor qaratilishi kabi prinsiplarga asoslangan bo‘ladi (1-chizma).

1-chizma



*1-chizma.***Lug‘atlar tipologiyasi**

Til o‘rganish uchun mo‘ljallangan lug‘atlarning funksiyalari quyidagilardan iborat:

– matnni tushunishga ko‘maklashish;
– matn tuzishga ko‘maklashish;
– grammatikani o‘rganishga ko‘maklashish;
– so‘z boyligini oshirishga ko‘maklashishdir.

Ona tili ta’limiga yo‘naltirilgan o‘quv lug‘atlari maktabda o‘quvchilar matn yaratishda va uni tushunishda so‘z, ibora, sinonimlar, antonimlar qo‘llash bilan bog‘liq muammolarni bartaf etish bilan bir qatorda imlo, talaffuz, so‘z yasalishi, sintaktik xususiyati kabi grammatik ma’lumotlarni ham taqdim etadi.

O‘quv lug‘ati deganda faqat filologik maqsadga yo‘naltirilgan lug‘atlarni tushunish noto‘g‘ridir. Boshqa fan va sohalarning ta’limiga yo‘naltirilgan lug‘atni ham o‘quv lug’atlari qatoriga qo‘shamiz. Bunday lug’atlar ko‘proq terminologik xarakterga ega bo‘ladi. Fan- texnikaga oid bilimlarni puxta o‘zlashtirishda sohalashtirilgan o‘quv lug‘atlarga ehtiyoj katta. Bu lug‘atlardagi atamalar shu soha bo‘yicha kalit so‘zlar vazifasini ham o‘taydi.

O‘quv lug‘atlari foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

til bilishning og‘zaki kompetensiyasidan yozma nutqni shakllantirshga yordam beradi;

o‘quvchi so‘zning ma’nosini o‘z xotirasida mavjud bo‘lgan avvalgi ma’nosi bilan solishtira oladi. unda solishtirish, qiyoslash ko‘nikmalari shakllanadi;

hozirgi o‘quv lug‘atlari korpuslar bilan birlashgani sababli so‘zning ma’nosini matndagi kontekst orqali tushunish imkonini beradi (tildagi ayrim so‘zlarning ma’nolarini faqat kontekst orqali tushunish mumkin);

o‘quv lug‘atlari o‘quv materiali sifatida mashqlar bilan boyitiladi va interaktivligi ta’minlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek tili o‘quv lug‘atlarini turli lingvistik aspektda o‘rganish juda muhim sanaladi. Bu kabi tadqiqotlar kelgusida fodalanuvchilar auditoriyasini yanada kengaytirish, qolaversa, ularning zamonvaiy yangi avlodlarini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan o‘zbek tili o‘quv lug‘atchiligini yanada rivojlantirish istiqbollarini belgilash va ularni doimiy ravishda yangilab borishni ta’minlash zamonaviy lingvistikaning oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir[1].

[1] Abduraxmonova N., Abduvaxobov G‘. O‘quv lug‘atini tuzishning nazariy metodologik asoslari // “Сўз санъати” халқаро журнали. – Тошкент, 2021. – №4/4. – Б. 103-108; Abduvaxobov G‘. Amaliy tilshunoslik: elektron lug‘atlar yaratish konsepsiyasi // FaDU ilmiy xabarlari. – Farg‘ona, 2022. – № 1. – B. 251-258; Abduvaxobov G‘. About The Concept OF Computer Lexicography // “Theoretical & Applied Science” International Scientific Journal. – Philadelphia, USA 28.06.2021. – Volume 98, Issue 06. – P. 664-668; Abduraxmonova N., Abduvaxobov G. Til pedagogikasida mobil lug‘atlardan foydalanishning amaliy masalalari // “Ona tili ta’limida o‘qitish va baholash muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 255-262; Абдувахобов Ғ. Тилшуносликда компьютер лексикографиясининг ўрни хусусида // “Филологиянинг долзарб масалалари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари I қисм. – Фарғона, 2022. – Б. 118-121.

Resume: In this article, one of the main genres of lexicography is devoted to the analysis of theoretical issues of educational lexicography. The tasks faced by lexicographers in creating educational dictionaries, the study of such dictionaries in the framework of other areas of linguistics, the structural specificity of educational dictionaries at the field and academic level from philological research, in addition, for English and Russian languages scientific views about the significant aspects of the mentioned dictionaries are discussed.

Резюме: В данной статье анализу теоретических вопросов учебной лексикографии посвящен один из основных жанров лексикографии. Задачи, стоящие перед лексикографами при создании учебных словарей, изучение таких словарей в рамках других направлений языкознания, структурная специфика учебных словарей на полевом и академическом уровне со стороны филологических исследований, кроме того, для английского и русского языков научные взгляды обсуждаются существенные аспекты упомянутых словарей.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725


O'ZBEK TILIDAGI GAPLARDA SO'Z TARTIBI VA SINTAKTIK TAHLIL QILISH ALGORITMI

Abdullayeva Oqila Xolmo'minovna,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Raxmonova Mohira Abdusattor qizi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti


So'z tartibi - gap bo'laklarining o'zaro ma'lum grammatik qonun qoidalar asosida, ma'lum sintaktik, mazmuniy, uslubiy jihatdan joylashuvi[1].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab amerikalik tilshunos Greenberg, ko'plab tillarni o'rganishga asoslanib, jumlada komponentlarning oltita asosiy tartibi mavjud degan xulosaga keldi. Bular SOV, SVO, VSO, VOS, OVS, OSV, bu yerda S (ingliz tilida subject) – ega, O (ingliz tilida object) – ikkinchi darajali bo'laklar, V (ingliz tilida fe'l) esa kesim[2].



O'zbek tilida gaplar **SOV** tartibiga asosan tuziladi.

SUBJECT – OBJECT - VERB



[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/So%CA%BBz_tartibi
[2] Журинская М. А. Типологическая классификация языков // Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В. Н. Ярцева. Советская энциклопедия, 1990. – Р. 511–512.

So‘zlar tartibi gap bo‘laklarining nutqda o‘rinlashishini bildiradigan sintaktik hodisadir. O‘zbek tilida so‘zlar tartibi asosan erkin, lekin unda so‘zlarning bog‘liq tartibi ham uchraydi. Bu hol o‘zbek tili gap qurilishining o‘ziga xos xususiyatini ko‘rsatadi. Ba’zi bo‘laklar gapda turli o‘rinlarda kela olsa, ayrim bo‘laklar faqat muayyan o‘rinda keladi. So‘zlarning sintaktik vaziyati, funksiyasi maxsus grammatik vositalar (turlovchilar, tuslovchilar, ko‘makchilar kabi) asosida belgilanganda, so‘zlar tartibi erkin bo‘ladi. So‘zlarning sintaktik vaziyati, funksiyasi maxsus grammatik vositalar asosida emas, balki gapdagi o‘rniga ko‘ra belgilanganda, so‘zlar tartibi bog‘liq bo‘ladi. So‘zlar tartibi sintaktik va stilistik funksiyalarni bajaradi. O‘zbek tilida tartib so‘zlarning sintaktik munosabatlarini belgilovchi vositalardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan: *Chaqqon bolalar yugurishdi*. Bu gapda *chaqqon* so‘zi *bolalar* so‘ziga tartib vositasida birikkan. Bunda bo‘laklar o‘rnining o‘zgarishi grammatik munosabatni ham, mazmunni ham boshqa qilib yuboradi: *Bolalar chaqqon yugurishdi*. Ko‘rinadiki, bunday vaqtda so‘zlar tartibi sintaktik funksiyani bajaradi. Tenglikni bildiruvchi otli gaplarda (bosh bo‘laklar ifodalaydigan tushunchalar bir-biriga teng bo‘lganda) bosh bo‘laklar o‘rnining o‘zgarishi ularning sintaktik funksiyasini ham o‘zgartiradi (bunda bog‘lama, kesimlik affiksi qo‘llanmaydi); Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti; O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent. Aniqlovchi va aniqlanmishdan iborat bo‘lgan bir tarkibli gapdagi bo‘laklar o‘rnining o‘zgarishi ega va kesimdan iborat bo‘lgan ikki tarkibli gapni hosil qiladi. Oppoq paxtazor! – Paxtazor oppoq. Bular so‘zlarning bog‘liq tartibidir. Erkin tartibda so‘zlar o‘rnining almashinishi grammatik holatni va gapning mazmunini butunlay boshqa qilib yubormaydi, balki gapdagi biror bo‘lakka alohida diqqat qilinganini ko‘rsatib, umumiy fikrga qo‘shimcha bo‘yoqdorlik, stilistik vazifa yuklaydi[1].

Gapda ega va kesimning o‘rni. O‘zbek tilida odatda ega o‘ziga oid so‘zshakllar bilan birga gapning boshida keladi, kesim esa o‘ziga birikib keladigan so‘zshakllar bilan birga gapning oxirida keladi. Demak, ega va kesimning tartibi “*ega+kesim*” shaklida bo‘ladi: *Gullar ochildi*. Har qaysi bosh bo‘lakning gapda birikib keladigan so‘zshakllari bo‘lishi mumkin. Bu so‘zlar bosh bo‘laklardan oldin keladi: egaga tobe so‘zlar egadan oldin, kesimga tobe so‘zlar kesimdan oldin turadi: *Supada o‘tirgan onam menga qarab kuldi.* Gapda eganing kesimdan oldin, kesimning egadan keyin kelishi odatdagi to‘g‘ri tartibdir. Aksincha, eganing kesimdan keyin, kesimning egadan oldin kelishi teskari tartib – inversiyadir. Ega bilan kesimning inversiyasi quyidagi hollarda ro‘y berishi mumkin:

1. Adabiy tilda nutqning ta’sirini, emotsionallikni oshirish uchun: *Xalqlarimiz do‘stligi mangu yashasin va yashnasin!*

2. So‘zlashuv nutqida: *Hammani ovora qildi bu shumtakalar* («Mushtum»).

3. Ko‘chirma gapdan so‘ng qo‘llangan muallif gapida: *Bu qog‘ozlar taxminlarga asoslangani uchun hujjat bo‘lolmaydi, – dedi Yagona, uning so‘zini kesib* (I. Rahim).

4. She’riyatda vazn, qofiya va turoq kabi talablar natijasida: *Keldi bahor, gul bahor, Erib bitdi oppoq qor* (Sh.Sa’dulla)[2].

Gapda to‘ldiruvchining o‘rni. To‘ldiruvchining o‘rni to‘ldirilmishga nisbatan tayinlanadi. To‘ldiruvchi bilan to‘ldirilmishning tartibi odatda “to‘ldiruvchi + to‘ldirilmish” shaklida bo‘ladi. Bir to‘ldirilmishga bir necha to‘ldiruvchi tobelanib bog‘langan bo‘lsa, obyektni bildiruvchi to‘ldiruvchi to‘ldirilmishga yaqin turadi. Demak, vositasiz to‘ldiruvchi vositali to‘ldiruvchiga nisbatan to‘ldirilmishning oldida turadi: *Men sizga qadimgi Buxoroning yodgorliklarini ko‘rsataman.* Vositali to‘ldiruvchi logik urg‘uli bo‘lsa, yuqoridagining aksi bo‘ladi: *Buni senga oldim.* O‘zbek tilida to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilmishning inversiyasi ham uchraydi. Bunda to‘ldirilmish kesim funksiyasida bo‘ladi. Bundagi inversiyaning shartlari ham ega bilan kesim inversiyasining shartlariga o‘xshab, emotsionallik, she’riy talab va ko‘chirma gapdan so‘ng kelgan muallif gapining kesimiga bog‘liq: *Ko‘rmayin bosdim tikonni, tortadirman jabrini* (Uyg‘un)[3].

Gapda holning o‘rni. Hol hollanmishdan oldin turadi. Bir hollanmishga tobe bo‘lgan bir parcha holning gapdagi o‘rinlari quyidagicha bo‘ladi: ravishdosh va ravish bilan ifodalangan tarz holi hollanmishga yaqin joylashadi: *U ғşhiқdąn şęvińiь kirib keldi.* Miqdor-daraja holi hollanmishga yaqin turadi: *Biz şizńiқiga қo‘p borganmiz*. Payt va o‘rin hollari hollanmishdan avval, odatda gap boshida yonma-yon keladi. Bunda payt holi oldin, o‘rin holi keyin qo‘llanadi. *Ķęçhą Ķięvdąn bir o‘rtog‘im telefon qildi*. Sabab

[1] Abdurahmonov G‘.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh., Hojiyev A.P. O‘zbek tili grammatikasi II T. Sintaksis. – Toshkent, 1976. – B. 181.

[2] Abdurahmonov G‘.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh., Hojiyev A.P. O‘zbek tili grammatikasi II T. Sintaksis. – Toshkent, 1976. – B. 181.

[3] Abdurahmonov G‘.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh., Hojiyev A.P. O‘zbek tili grammatikasi II T. Sintaksis. – Toshkent, 1976. – B. 181.

va maqsad hollari hollanmishdan oldin gapning turli o‘rinlarida kela oladi: *Ķąşąļ þọ‘ļąąņįņ ụçḥụņ ishga vaqtida yetib kela olmadim.* Bu odatdagi to‘g‘ri tartib logik urg‘uning talabi bilan o‘zgarishi mumkin. Logik urg‘uli hol hollanmish(kesim)ga yaqin turadi. Bunda to‘liqsiz inversiya ro‘y beradi. Holning hollanmish (kesim)dan so‘ng qo‘llanishi to‘liq inversiyani keltirib chiqaradi. To‘liq inversiya jonli tilda, emotsional nutqda, ko‘chirma gapli konstruksiyalarda, she’riyatda uchraydi: *Ayta bersam shuki, bu o‘rtoq... qovunga piyoz qo‘shib yeganlar ąźþąŗọyį ọ‘ŗţọą. Ṇụŗṃąţọyṇį ķụļḍįŗįşḥ ụçḥụņ* (A.Qahhor)[1].

Gapda aniqlovchining o‘rni. O‘zbek tilida aniqlovchi bilan aniqlanmishning odatdagi, to‘g‘ri tartibi “aniqlovchi+aniqlanmish” shaklida bo‘ladi. Bu tartib sifatlovchi bilan sifatlanmish uchun qat’iy bo‘lib, qaratuvchi bilan qaralmishda, ba’zan izohlovchi bilan izohlanmishda o‘zgarishi mumkin. Sifatlovchi bilan sifatlanmish prozaik nutqda to‘g‘ri tartibda bo‘ladi, poetik nutqda esa ba’zan inversiyaga uchraydi: *Ona sevmas farzand topilmas, Farzand yo‘qdir onani sevmas* (H.Olimjon). Sifatlovchi-sifatlanmish tipidagi bog‘lanishning ega-kesim tipida o‘zgartirilishi inversiya hisoblanmasligini yuqorida aytgan edik. *Bayroq, havorang, mag‘rur hilpirab turar* (H.G‘ulom) tipidagi konstruksiyalarda ham sifatlovchi va sifatlanmish tartibining o‘zgarishini inversiya hodisasi deb baholab bo‘lmaydi. Chunki inversiyada birikma bo‘laklarining grammatik va semantik munosabatlari, gapdagi funksiyalari o‘zgarmasligi kerak. *Havorang bayroq mag‘rur hilpirab turar* gapida *havorang bayroq* birikmasi bitishuv yo‘li bilan aloqaga kirishib, atributiv munosabatni hosil qilsa, *Bayroq, havorang, mag‘rur hilpirab turar* gapida esa izohlov yo‘li bilan aloqaga kirishib, yarim predikativ munosabatni hosil qiladi. Keyingi holda *havorang* so‘zi murakkab gap konstruksiyasini tashkil etuvchi bo‘lak – ajratilgan bo‘lak sanaladi. Qaratuvchi bilan qaralmishning odatdagi to‘g‘ri tartibi «qaratuvchi-qaralmish» shaklida bo‘ladi: *mening ukam*. Bu tartib jonli so‘zlashuvda emotsionallik bilan bog‘liq holda va poetik nutqda vazn, qofiya va turoq kabilarga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin, natijada qaratuvchi va qaralmish inversiyasi ro‘y beradi: So‘zi qursin o‘shaning (Uyg‘un)[2].

Sintaktik tahlil metodlari.

Sintaktik parsing - tabiiy tilning sintaktik tuzilishini avtomatik tahlil qilish va gapga sintaktik tuzilmani, ayniqsa, sintaktik munosabatlarni (tobelik grammatikasida) va tarkibiy qismlarning oraliqlarini belgilash (guruhlarga ajratish grammatikasida) vazifasini bajaradi[3]. Bu tabiiy tildagi strukturaviy noaniqlik muammosi bilan izohlanadi: gapda bir nechta grammatik birikmalar mavjud bo‘lishi mumkin, shuning uchun qaysi bo‘lak tahlil qilish mo‘ljallanganligini aniqlash uchun formal grammatika qoidalari bo‘yicha ba’zi bilimlar kerak bo‘ladi. Sintaktik parsing kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash(NPL)ning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, XX asr o‘rtalaridan EHM paydo bo‘lishi bilan birga tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda[4].

Parsing metodlarining ikki turi mavjud:

1. Tobe bog‘lanishni tahlil qilish (Dependency parsing)

2. Guruhlarga ajratib tahlil qilish (Constituency parsing)[5].

Tobe bog‘lanishni tahlil qilish (Dependency parsing) – so‘zlar orasidagi sintaktik va semantik munosabatlarni aniqlash orqali gapning grammatik tuzilishini topish. Bog‘liqlikni tahlil qilish boshqa ko‘plab NLP loyihalarida qo‘llanilgan, masalan, mashina tarjimasi (machine translation), munosabatlarni ajratib olish (relation extraction), obyektni tanib olish (named entity recognition), ma’lumot olish (information extraction) bularning barchasi ma’lum darajada tabiiy tilni tushunishni o‘z ichiga oladi. Har bir tobelik munosabati bosh so‘z va gapdagi bosh so‘zni o‘zgartiruvchi tobe so‘z o‘rtasida aniqlanadi. Bunday munosabatlar sintaktik deb hisoblansa-da, ular tabiiy ravishda so‘zlar orasidagi semantik munosabatlarga asoslanadi. Misol uchun, har bir tobe o‘zining bosh so‘zini o‘zgartirish roliga ega, bu butunlay semantik ta’sir natijasi. Tobe bog‘lanish tuzilmalari bog‘liqlik daraxtlari (dependency tree) deb ataladigan ierarxik tuzilmalar bilan ifodalanadi yoki yo‘naltirilgan grafiklar (directed graph) deb ataladigan bog‘liqlik grafiklar ko‘rinishida ifodalanadi. Masalan, bog‘liqlik grafigi: *Men yaqin do‘stimni ko‘rdim.*


[1] Abdurahmonov G‘.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh., Hojiyev A.P. O‘zbek tili grammatikasi II T. Sintaksis. – Toshkent, 1976. – B. 182.

[2] Abdurahmonov G‘.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh., Hojiyev A.P. O‘zbek tili grammatikasi II T. Sintaksis. – Toshkent, 1976. – B. 183.

[3] Jurafsky, Dan, Martin, James H. Speech and Language Processing An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition. – New Jersey: Prentice Hall, 2000. – 927 p.

[4] https://en.wikipedia.org/wiki/Syntactic_parsing_(computational_linguistics)#CITEREFJurafskyMartin2021

[5] Ersin Ihsan Unkar (2007). Parsing turkish sentences for natural language watermarking. – Bo´gazici University, 2007. – 154 b.



Men yaqin do‘stimni ko‘rdim


So‘zlar orasidagi sintaktik munosabatlar, odatda, har bir hokim so‘zni tobe so‘zga bog‘laydigan bog‘liqlik daraxtidagi (depeendency tree) chiziqlar bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, *men → ko‘rdim* kabi birikmada; “Men” tobe so‘z va “ko‘rdim” hokim bo‘ladi va ular orasidagi chiziq ikki so‘z orasidagi bog‘liqlikni bildiradi. Gap ildizi (root) bog‘liqlik daraxtining ildizini ifodalaydi (ya’ni, bog‘liqlikni tahlil qilishning boshlang‘ich nuqtasi yoki to‘liq gapning boshi). Garchi bog‘liqlikni tahlil qilish qoidalari keyinroq muhokama qilinadigan bo‘lsa ham, bu yerda har bir gapda bog‘liqlik daraxtida ROOT belgisi bo‘lishi kerak. Bog‘lanishni tahlil qilish - bu gapdagi so‘zlar orasidagi leksik bog‘liqlikni topadigan va shu bilan gapning grammatik tuzilishini chiqaradigan vazifa. Bo‘liqlikni tahlil qilish muammosiga ikkita asosiy yondashuv qo‘llaniladi:

O‘zgarishga asoslangan (Transition-based)

Grafikka asoslangan (Graph-based)[1].

O‘zgarishga asoslangan yondashuvlar (Transition-based), odatda, o‘zgarish buyruqlari va ikki to‘plamli tuzilmaga asoslangan bo‘lib, unda bog‘liqlik to‘plami va so‘z to‘plami mavjud. So‘z to‘plami jumladagi so‘zlarni o‘z ichiga oladi. So‘zlar to‘plam so‘zidan olinadi va bog‘liqlik to‘plamiga yuboriladi. Agar bog‘liqlik to‘plamining yuqoridagi ikkita so‘zi o‘rtasida o‘zgarish sodir bo‘lsa, u holda ular o‘rtasida bog‘liqlik hosil bo‘ladi va bu hodisa bog‘liqlik to‘plamida so‘zlar qolmaguncha davom etadi. Bog‘liqlik to‘plamidagi oxirgi so‘z ROOT bo‘ladi, bu Bog‘liqlik daraxtining (dependacy tree) ildizi hisoblanadi; butun bo‘liqlikni tahlil qilish jarayonining boshlang‘ich nuqtasi[2].

Grafikka asoslangan yondashuvlar (Graph-based), odatda, butun tahlil jarayonini grafik chizmalar orqali bajarishga asoslanadi, bu yerda grafikdagi nuqtalar gapdagi so‘zlarni ifodalaydi. *John saw Mary* gapi uchun to‘rtta belgi bo‘lgan G grafigini tasavvur qiling, bunda ularning har biri ROOTni o‘z ichiga olgan so‘zga ishora qiladi. Chizma ko‘rsatkichlari so‘zlar orasidagi bog‘liqlik darajasini bildiradi.



Grafikka asoslangan bog‘liqlik tahlili[3]

Bog‘liqlikni tahlil qilish bo‘yicha olib borilgan ishlar


Eryigit va Oflazer [Eryigit, Oflazer, 2006] bog‘liqlikni tahlil qilish uchun inflektiv guruhlardan (IG) foydalanish g‘oyasi bilan chiqishadi. O‘z tadqiqotida mualliflar birinchi navbatda birliklar, so‘zlar yoki IGlar bo‘lgan birlik munosabatlarini hisoblaydigan statistik tahlilchidan foydalanadilar va keyin ushbu hisoblangan munosabatlardan maksimal chegara daraxtini topadilar. Ular uchta asosiy modelga ega: So‘zga asoslangan, IG-asosli va IG-so‘zli yakuniy IG kontekstli IG-asoslangan, bu qat’iy natijalarga ega IG-asosidagi model. Kutilganidek, IG-ga asoslangan modellar eng yaxshi natijalarni beradi.

Eryigit, Oflazer va Nivre [Eryigit, Nivre, Oflazer, 2008: 357–389] turkcha bog‘liqlikni tahlil qilishda morfologik tuzilma hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Mualliflar so‘zning subleksik birliklari bo‘lgan IGlarni hisobga olgan holda gapni tahlil qilish, gaplarning so‘z belgilariga asoslangan bog‘liqlikni tahlil qilishdan ustun ekanligini ko‘rsatadi.

[1] Salih Tunch. Neural dependency parsing for Turkish, 2020. – P. 66.

[2] Salih Tunch. Neural dependency parsing for Turkish, 2020. – P. 66.

[3] Salih Tunch. Neural dependency parsing for Turkish, 2020. – P. 68.




Bog‘liqlik tahlilida inflektiv guruhlar (IG)[1]

Oflazer (2014)[2] turk tilidagi turli NLP loyihalarini tahlil qiladi. Bog‘liqlikni tahlil qilish bo‘yicha muallif IG va morfologik birliklarning bog‘liqlikni tahlil qilishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Eryigit[3] turk tilidagi ma’lumotlar to‘plamida tahlil qilish bo‘yicha tadqiqot olib borib, so‘zlarning gapdagi joylashuvini tahlil qilishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Guruhlarga ajratib tahlil qilish (Constituency parsing)

Guruhlarga ajratib tahlil qilish daraxti Context-free (bu tildagi barcha to‘g‘ri tartibda tuzilgan gaplar to‘plamini belgilaydigan qoidalar ro‘yxati) grammatikasining formalizmiga asoslanadi. Daraxtning bu turida gap tarkibiy qismlarga, ya’ni grammatikadagi muayyan turkumga mansub bo‘lakchalarga bo‘linadi[4]. Masalan, o‘zbek tilida “qiziqarli kitob”, “chiroyli kiyingan qiz” va “ajoyib kun botishi” iboralari otli birikma (NP), “pitsa yemoq” va “sohilga bormoq” esa fe’lli birikma (VP). Grammatika qoidalar to‘plamidan foydalanib, qanday qilib to‘g‘ri tartibdagi gaplarni tuzishga xizmat qiladi. Misol tariqasida, VP–>V NP qoidasi fe’l (V) va undan so‘ng ot so‘z birikmasi (NP) yordamida fe’l so‘z birikmasini (VP) yaratishimiz mumkinligini bildiradi. Ushbu qoidalardan to‘g‘ri tartibdagi gaplar yaratish uchun foydalanishimiz mumkin bo‘lsa-da, grammatikaga muvofiq berilgan gapning sintaktik tuzilishini olish uchun ularni boshqa yo‘l bilan ham qo‘llashimiz mumkin. Misol uchun, “Men tulkini ko‘rdim” degan oddiy gap uchun guruhlarga ajratib tahlil qilish daraxtiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri misol keltiraylik[5]:



Sodda gap uchun guruhlarga ajratib tahlil qilish daraxti

[1] Gulshen Eryigit, Joakim Nivre, and Kemal Oflazer. Dependency parsing of turkish. Computational Linguistics, 2008. – P. 357 – 389.

[2] Kemal Oflazer. Turkish and its challenges for language processing. Lang. Resour. Eval., 48(4):639–653, 2014.

[3] Gulshen Eryigit. The impact of automatic morphological analysis & disambiguation on dependency parsing of Turkish, – Istanbul: European Language Resources Association, 2012. – P. – 1960–1965.

[4] https://www.baeldung.com/cs/constituency-vs-dependency-parsing

[5] https://www.baeldung.com/cs/constituency-vs-dependency-parsing

Tobe bog‘lanish tahlili va guruhlarga ajratib tahlil qilishning farqlari:

Guruhlarga ajratib tahlil qilish gapning ot so‘z birikmalari va fe’l so‘z birikmalari kabi tarkibiy tuzilishini aniqlashga qaratilgan.	Bog‘likni tahlil qilish gapdagi so‘zlar o‘rtasidagi grammatik aloqalarni, masalan, ega – kesim munosabatlarini aniqlashga qaratilgan.
Guruhlarga ajratib tahlil qilishda Context-free grammatikasi yoki bog‘liqlik grammatikasi kabi iboralar tuzilishi grammatikasidan foydalaniladi.	Bog‘liqlikni tahlil qilish tobelik grammatikasidan foydalanadi, bu so‘zlar orasidagi munosabatlarni belgilangan yo‘nalishlar sifatida ifodalaydi.
Guruhlarga ajratib tahlil qilish yuqoridan pastga yondashuvga asoslanadi, bunda parse daraxti ildiz nuqtasidan pastga qarab oxirigacha quriladi.	Bog‘liqlikni tahlil qilish pastdan yuqoriga yondashuvga asoslanadi, bunda parse daraxti oxiridan ildizgacha quriladi.
Guruhlarga ajratib tahlil qilish bir-biriga mos kelmaydigan tarkibiy qismlarga ega bo‘lgan daraxt tuzilmasi sifatida gapni ifodalaydi.	Bog‘liqlikni tahlil qilish gapni yo‘naltirilgan grafik sifatida ifodalaydi, bu yerda so‘zlar tugun sifatida, grammatik munosabatlar esa qirralar sifatida ifodalanadi.
Guruhlarga ajratib tahlil qilish tabiiy tilni tushunish vazifalari uchun ko‘proq mos keladi.	Tobelikni tahlil qilish tabiiy tillarni yaratish vazifalari va tobelikka asoslangan mashinani o‘rganish modellari uchun ko‘proq mos keladi.
Guruhlarga ajratib tahlil qilish yanada ifodali va ko‘proq sintaktik ma’lumotni qamrab oladi, lekin hisoblash va izohlash uchun murakkabroq bo‘lishi mumkin.	Tobelikni tahlil qilish oddiyroq va samaraliroq, lekin sintaktik ma’lumotni Guruhlarga ajratib tahlil qilish kabi to‘plamasligi mumkin.
Agglutinativ tillar kabi morfologiyasi boy tillar uchun saylov okrugi tahlili ko‘proq mos keladi.	Tobelikni tahlil qilish ingliz va xitoy kabi kamroq morfologik burilishli tillar uchun ko‘proq mos keladi.
Guruhlarga ajratib tahlil qilish ko‘proq an’anaviy NLP vazifalari uchun ishlatiladi, masalan, nomlangan obyektni aniqlash, matnni tasniflash va hissiyotlarni tahlil qilish.	Tobelikni tahlil qilish Mashina tarjimasi, tilni modellashtirish va matnni umumlashtirish kabi ilg‘or NLP vazifalari uchun ishlatiladi.
Guruhlarga ajratib tahlil qilish sintaktik tuzilishga boy tillar uchun ko‘proq mos keladi.	Tobelikni tahlil qilish unchalik murakkab bo‘lmagan sintaktik tuzilmalarga ega bo‘lgan tillar uchun ko‘proq mos keladi.

Sintaktik tahlil (Parsing) algoritmi

Yuqorida 2 xil sintaktik parsing turi mavjud ekanligi keltirilgan edi. Bular:

Guruhlarga ajratib tahlil qilish (Constituency parsing)

Tobe bog‘lanishni tahlil qilish (Dependency parsing)

Quyida ushbu 2 xil parsing metodlarining algoritmi ko‘rsatilgan:

Guruhlarga ajratib tahlil qilish (CP)

CKY (Cocke-Kasami-Younger) algoritmi

O‘zgarishga asoslangan yondashuv (Transition-based)

Ketma-ketlikka asoslangan yondashuv (Sequence-to-sequence)

Tobe bog‘lanishni tahlil qilish (DP)

O‘zgarishga asoslangan yondashuv (Transition-based)

Grammatikaga asoslangan yondashuv (Grammar-based)

Grafikaga asoslangan yondashuv (Graph-based)

Kompyuter sohasida Cocke-Younger-Kasami algoritmi (muqobil ravishda CYK yoki CKY deb ataladi) 1961-yilda Itiroo Sakai tomonidan nashr etilgan Context-free grammatikalarni tahlil qilish algoritmidir[1]. Algoritm uni qayta kashf etgan insonlar sharafiga nomlangan: Jon Kokk, Daniel Yanger, Tadao Kasami va Jeykob T. Shvarts. U pastdan yuqoriga tahlil qilish va dinamik dasturlashdan foydalanadi[2].

CYK ning standart versiyasi faqat Chomskiy normal shaklida (CNF) berilgan Context-free grammatikalarda ishlaydi. Biroq har qanday Context-free grammatika algoritmik ravishda bir xil tilni ifodalovchi CNF grammatikasiga aylantirilishi mumkin[3].

[1] Sakai, Itiroo. Syntax in universal translation. – Teddington, England: International Conference on Machine Translation of Languages and Applied Language Analysis, 1961. – P. 593–608.

[2] https://en.wikipedia.org/wiki/CYK_algorithm#cite_note-1

[3] Sipser, Michael. Introduction to the Theory of Computation (1st ed.). – 1997. – p. 99.

Context-free Chomskiy grammatikasi (CFG) tabiiy tillarda tarkibiy tuzilmalarni modellashtirish uchun eng keng tarqalgan formal tizimdir. CFG bir qator qoidalardan iborat bo‘lib, ularning har biri til belgilarini guruhlash, tartibga solish usullarini, so‘zlar va belgilar leksikasini ifodalaydi. CFG da G to‘rtta parametr bilan aniqlanadi:

$G = <Ns, S, Ts, R>$,

bu yerda Ns – terminal bo‘lmagan belgilar to‘plami;

$S \in N$ – boshlang‘ich terminal bo‘lmagan belgi;

Ts – terminal belgilar to‘plami; $R - A \rightarrow \alpha$ shaklidagi qoidalar to‘plami, $A \in N$ – terminal bo‘lmagan belgi, $\alpha \in (Ns \cup Ts,)$ * – cheksiz $(Ns \cup Ts,)$* stringlar to‘plamining belgilar ketma-ketligi[1].

CFG – bu tilni sintaksis tuzilmalarining barcha mumkin bo‘lgan kombinatsiyalarini yaratadigan ishlab chiqarish qoidalari to‘plami sifatida tavsiflovchi formal grammatikaning bir turi. Keyinchalik bu tuzilmalar gaplarni va ular bilan bog‘liq ma’nolarni modellashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

Tabiiy tilni qayta ishlashda CFG gap tuzilmalarini aniq tahlil qila oladigan va tushuna oladigan tahlilchilarni (Parser) yaratish uchun ishlatiladi. Bir qator so‘z tartibi qoidalarini belgilab, CFG gapda mavjud bo‘lgan nutqning turli qismlarini, iboralarni va gaplarni aniqlashga yordam beradi.

Masalan, “S -> NP VP” CFG qoidasini “gap – (S) otli birikmadan – (NP) keyin fe’lli birikmadan – (VP) iborat” deb talqin qilish mumkin. Umuman olganda, CFG grammatikasi gaplarni modellashtirish va tabiiy tilni qayta ishlash uchun muhim vositadir, chunki u tabiiy tilning murakkab tuzilmalarini tavsiflash va tushunish uchun asos yaratishi mumkin.

Eshref Adali va Ilknur Do‘nmezning tadqiqot ishlarida turk tilini ifodalovchi eng maqbul formal grammatika tili tekshiriladi. Ikki xil korpusda ishlab chiqilgan grammatika qoidalarining to‘g‘riligi baholanadi. Ushbu tadqiqot UBMK (Uluslararası Bilgisayar Bilimleri ve Mühendisleri Konferansı) 2016 Informatika va muhandislik xalqaro konferensiyasida taqdim etilgan “Turk tilidagi Context-free grammatika qoidalari”ning takomillashtirilgan versiyasidir[2].

Altynbek Sharipbay, Banu Yergesh, Bibigul Razakhova, Gaziza Yelibaye va Assel Mukanovalar tomonidan taqdim etilgan “Qozoq tili sodda gaplari uchun sintaktik parsing modellari” nomli maqolada qozoq sodda gaplarining semantikasini hisobga olgan holda sintaktik tahlil qilishni taklif qilinadi. Buning uchun, birinchi navbatda, gaplarning sintaktik qoidalari rasmiy grammatika yordamida tavsiflanadi, so‘ngra ularning tarkibiy qismlarining semantikasini va ular orasidagi munosabatlarni aniqlash uchun tahlil qilish daraxtlari va ontologik modellar quriladi. Formal grammatika sifatida Chomskiyning Context-free grammatikasidan foydalanilgan va ontologik modellar qurilgan[3].

Ushbu tadqiqot ishida o‘zbek tilidagi sodda gaplar uchun sintaktik parsing modelini yaratish uchun birinchi navbat, barcha sodda gaplar kombinatsiyalari uchun modellar ishlab chiqiladi. So‘ngra, ishlab chiqilgan sodda gap modellariga asoslangan holda Context-free grammatikasidan foydalaniladi va sodda gaplar uchun kompyuter dasturlari tushunadigan formal grammatika qoidalari tuziladi.

T/R	Sodda gaplar	O‘zbek tilidagi POS tegging	Ingliz tilidagi POS tegging	Gapning sintaktik qolipi
1	Poyezd keldi	N+VB_di	N+V	E+K
2	Kitobni o‘qidi	N_ni+VB_di	N+V	T +K
3	Dalaga boryapman	N_ga+VB_yapman	N+V	H+K
4	Men taqdimga kechikdim	P+N_ga+VB_dim	PRON+N +V	E+H+K
5	Ali kimyo kitobini o‘qiyapti	N+N+N+ni+VB_ yapti	N+N+N+V	E+A+T+K
6	Ali qo‘shiqni kuyladi	N+N_ni+VB_di	N+N+V	E+T+K
7	Ali bu yomon qo‘shiqni kuyladi	N+P+JJ+N_ni+VB_ di	N+PRON+ADJ+N+V	E+A+A+T+K

[1] Chomsky, N. Syntactic Structures, – Mouton de Gruyter, 2002.

[2] Dönmez, ˙I., & Adalı, E. Türkçe Hal Ekleri ve Öbekleri Kapsayan Ba˘glamdan Ba˘gımsız Dil Temsili Kuralları. – Türkiye Bili¸sim Vakfı Bilgisayar Bilimleri ve Mühendisli˘gi Dergisi, 2017. – 10(1), 33-40.

[3] Altynbek Sharipbay, Assel Mukanova, Banu Yergesh, Bibigul Razakhova, Gaziza Yelibayeva. Syntax parsing model of Kazakh simple sentences, 2019.

8	Anna kecha omadli edi	N+RR+N_li+VB	N+ADV+N+V	E+H+K
9	Oq bulutlar bilan qoplangan	JJ+N_lar+II+VB_n_gan	Adj+N+Aux+V	A+T+K
10	Sabrina kecha to‘pni dribling qildi	N+RR+N_ni+N+VB_di	N+ADV+N+N+V	E+H+T+K

Navbatdagi bajaradigan ishimiz – yuqoridagi jadvalda tuzilgan sodda gap modellarini Context-free grammatikasida formal grammatika ko‘rinishiga keltirish. Otli birikma –NP va Fe’lli birikma – VP ko‘rinishida keladi.

Gap: *Poyezd keldi*
CFG: S–> NP VP
VP–>V_di
NP–>N
N–>Poyezd
V_di–>keldi

Gap: *Dalaga boryapman*
CFG: S–>VP
VP–> N_ga V_yap_man
N_ga–>Dalaga
V_yap_man–>boryapman

Gap: *Kitobni o‘qidi*
CFG: S–>VP
VP–>N_ni V_di
N_ni–>Kitobni
V_di–>o‘qidi

CFG grammatikasiga asoslanib, sodda gaplarning to‘g‘ri tartibi algoritmi tuziladi.

O‘zbek tilida gap qurilishining murakkabligi avtomatik sintaktik tahlil jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Gaplardagi bo‘laklarning kelish tartibini o‘rganish, istisnoli holatlarni aniqlash va shu asosda gaplarning modelini ishlab chiqish, avvalo, sodda gaplarning to‘g‘ri tartibi algoritmini ishlab chiqish kelajakda o‘zbek tili sintaktik analizatorining qurilishiga xizmat qilishi, parser va treebank dasturlarini ishlab chiqishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Resume. In this article, the word order and the place of sentence fragments in Uzbek language sentences, determining the correct order of sentences, the algorithm of syntactic analysis (parsing) of Uzbek language texts and the treebank structure are analyzed. Dependency parsing and Constituency parsing, which are syntactic analysis methods, are described. Simple sentence models, POS tagging, and part-of-speech tagging are shown. The Context-free grammar calculated by the syntactic parsing algorithm and graphs based on this grammar are given.

Резюме. В данной статье анализируются порядок слов и место фрагментов предложений в предложениях узбекского языка, определение правильного порядка предложений, алгоритм синтаксического анализа (парсинга) текстов на узбекском языке и структура древовидного банка. Описаны синтаксический анализ зависимостей и синтаксический анализ составляющих, которые являются методами синтаксического анализа. Показаны модели простых предложений, теги POS и теги частей речи. Приведены контекстно-свободная грамматика, рассчитанная с помощью алгоритма синтаксического разбора, и графы, основанные на этой грамматике.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

БАДИИЙ СИФАТЛАШ – ЭПИТЕТЛАР ПОЭТИК МАТННИНГ ПЕРДИКАТИВ-АҲАМИЯТЛИ БИРЛИГИ СИФАТИДА

Мардонова Раъно,
Термиз давлат университети инглиз тили ўқитиш методикаси кафедраси катта ўқитувчиси

Фанда эпитетни илова сифатида тушуниш ҳолати мавжуд. Зотан, предмет ёки ҳаракат белгиларини образли тасвирлаш, шу белгиларни тасвирланаётган воқеликнинг хос белгилари сифатида унинг табиатига бириктириш ҳам мавжуд воқелик белгиларига қўшимча сифатида юклатилган сифатий ахборот ҳисобланади. Олимларнинг фикрича, муайян сўзга боғланиб, уни сифатлаб келаётган сўз ўзи боғланган сўзни семантик тўйинтиради, эмоционал бўёқдорлик билан таъмин этади. Эпитетларни ўзига хос "тоифалаш" деб тушунган В.Я. Пропп эса, сифатлаш остидаги бу ихтисослашувни "инсонларнинг дунёга муносабати ва дунёқарашини акс эттирувчи" деб баҳолайди[1]. Бошқача тарзда, *троп* саналувчи эпитет, яъни бадиий сифатлашлар таркибан кўчма маъноли ифодалар ёхуд таркибан кўчма маънода келган сўзлардан иборат синтактик қурилмалар(ўзб.: *олтин водий, жароҳатланган қалб, маъюс кўзлар;* инг.: *surly sullen bells* (маъюс қўнғироқлар; *my poor name* (ўзимдан ўзимгача)) дир ва улар ўз маъносида келган оддий сифатлашлар(*қизил ручка*, *тиниқ сув, кенг дала;* инг. *red pen, clear water, Wide Field*)дан шу жиҳатига кўра фарқ қилади.

Т.М.Ономриенкога кўра, семантик жиҳатдан епитетлар учта функционал майдонни ташкил этиб, қуйидагича таснифланади: 1) таққослаш соҳаси: қиёсий, метафора, гипербола; 2) туташув майдони: метонимия, перифрастик епитетлар; ва 3) контраст майдони: ирония, оксиморон[2].

Аниқланадики, бадиий сифатлаш тавсифни ёркинлаштирувчи, унга бадиийлик бахш этувчи ҳодисадир. Шу каби, бадиий сифатлашни бадиий дискурнинг когнитив-семиотик белгиси, поэтик матннинг пердикатив-аҳамиятли бирлиги сифатида тушунтиришга бўлган ҳаракатларда ҳам илмий ҳақиқат мавжуд[3]. Жумладан, бадиий матнда эпитетларнинг воқеланиш табиатини чуқур ўрганган С.А.Губанов бадиий сифатлаш матннинг сифатий доминантаси марказини ташкил этишини ва бунда сифатлаш ўзининг бор ички имкониятларини намоён этишини таъкидлайди[4].

Бинобарин, субстанцивация жараёнида бадиий сифатлашлар турли гап бўлаклари ўрнида келиб, ифодавийликнинг оригинал, мазмундор шаклларини юзага келтиради. Бадиий сифатлашнинг асосан сифат туркумидаги сўзлар орқали воқеланиши унинг бадиий матнда бажарган вазифасига тўла мос келади, ҳолбуки, равиш, сифатдош, от, сон, феъл, ҳолат феъллари ва энг кам ҳолларда олмош ўрнида келган сифатлашлар ҳам тегишли жумлани эпифраза ҳолатига яқинлаштиради ва унинг бадиий жозибадорлик даражасини оширишда алоҳида аҳамиятга эга бўлади. Масалан, *О, ота маконим, Ўзбекистоним, Жоним тўшай сенинг соянгга* (М.Юсуф)*; Эрка кийик, майлими, бир эркаласам* (М.Юсуф), *Азизим, дунёга бевақт келибмиз* (Уйғун, Навоий) Мазкур мисолдаги *ота маконим, эрка кийик* бирикмалари ундалма ўрнида келиб, муаллиф ифодаламоқчи бўлган фикрларни битта ўринда – йиғиқ ва лўнда тарзда англатишга хизмат қилган (шу каби, инглиз тилидаги *eye candy* (кўзим қувончи), *Honey Bun, Cherry* (*булкача, олча* – аёлларга нисбатан)). Ваҳоланки, *азизим* ундалмасида ҳам сифатлаш мавжуд, бироқ энди бу бўлакни эпитет деб таърифлашга шошилмаймиз. Негаки, бу бирлик семантик кўламида коннотатив силжиш рўй бермаган ва қадрли инсонларнинг барчаси тилда *азиз, қадрдон, яқин* сифатлари билан воқеланади.

Одатда бадиий сифатлашлар лексема, эпифраза ва эпитетик мажмуа тарзида гуруҳланади[5] ҳамда алоҳида лексема орқали воқеланган сифатлашга эпитетни ташкил этувчи яхлит қурилма эмас, нега-

[1] Aripov M. P. Linguocultural Units in Turkish Wishes and Praise (Epithets) /International Journal of Social Science And Human Research. Issue 06, June, 2020 P.: 60-63.

[2] Onopriienko T. M. Epitet u systemi tropiv suchasnoi anhliiskoi movy (Semantyka. Struktura. Prahmatyka), Kharkivskyi natsionalnyi un-t im. V. N. Karazina. 1-19, 2002.

[3] Губанов С.А. Эпитет и его семантические особенности в творчестве Марины Цветаевой. – Самара: САГМУ, 2015. – 252 с.

[4] Губанов С.А. Эпитет в творчестве М.И. Цветаевой: семантический и структурный аспекты: Автореф. дис… канд. филол. наук. – Самара, 2009. – С. 24.

[5] Губанов С.А. Эпитет и его семантические особенности в творчестве Марины Цветаевой. – Самара: САГМУ, 2015. – 252 с.

дир тобе сўз ўрнидаги алоҳида сўзлар мисол қилинади (*Выкипит чайник. Окислится медь. Дымом взовьется* ***бетонная*** *твердь; Что топорщится за голенищем?Что так* ***странно*** *и* ***страшно*** *он свищет?* (мисоллар Т.Кибировнинг “Исторический романс” асаридан)).

Бизнингча эса, сифатлаш тарзида талқин қилинган *бетонная, странно, страшно* лексемаларига бу тоифа ёндашиш нотўғри бўлиб, мазкур сўзлар ёлғиз ҳолда эпитет вазифасини бажара олмайди, негаки сифатлаш ўрнида аниқланмишсиз аниқловчини тушуниш – ўша-ўша сифат ҳақида хулоса бериш билан баробар. Бинобарин, лексемага тенг сифатлашлар ўзбек тилида мавжуд бўлиб, уларнинг лисоний мақоми кўпроқ “эскирган сифатлаш”ни эслатади ҳамда табиатига кўра “эскирган метафора”га яқин туради. Бу тоифа сифатлашлар тегишли тил тизимида узоқ даврлардан мавжуд бўлиб келган, бирор кўчим эвазига таркиб топгану, йиллар давомида унинг метафорик ёхуд метонимик асосли экани унутилган бирликлардир. Ўзбек тилидаги *мажнунтол, Тентаксой, Боғишамол, Заркент, Тошкент* сингари атоқли ва турдош отлар туркумидаги бу сўзларни эпитет-лексемалар сифатида тилга олсак тўғри бўлади.

Бу каби лексема-сифатлашлар инглиз тилида ҳам мавжуд бўлиб, жумладан, шу тилга XIX асрда кириб келган *boss* сўзи голландиялик кема капитанига *baas* деб мурожаат қилиш орқали пайдо бўлган. Baas – *босс* (бошлиқ) сўзи коннотатив жиҳатдан *устоз* (*‘master’*) маъносини ҳам беради ҳамда кимнингдир кимгадир буйруқ бериши эвазига ҳазиломуз тарзда қўлланади. Ёки *canary* (*канарейка*) америкалик аёллар нутқида “машҳур қўшиқчи аёл” маъносида қўлланилади[1].

Жаҳон тилшунослигига оид илмий манбаларда морфологик бўлакларнинг ўрнида келган эпитетларнинг қўлланиш қоидасига тегишли қарашлар мавжуд бўлиб, хусусан, 1) ҳаракат номи (инфинитив) шаклли отлар ёнида сифатнинг келиши (*маҳобатли қурилиш*), 2) феъл туркумидаги сўзлар билан равишларнинг келиши (...), 3) агар от бўлса, унинг ёнида сифатдош ёки сифат туркумидаги сўзларнинг бирга келиши (*кечиккан ҳаёт*, *сўнгган орзулар, мудраган шуур, ошуфта нигоҳ, болли дудоқлар* ёки инг.: *lovely voice, latest fashion, merry wind, nice smile*) таъкидланади. Бироқ кузатувларимиз ўзбек тилидаги эпитетлар орасида ушбу қоидалардан иккинчисининг, яъни от+феъл модели учрамаслигини кўрсатди.

Гарчи сифатлашлар нутқ кўламида нисбатан барқарорлик касб этувчи лексик-синтактик қурилмаларга ўхшаб кетса ҳам, манбаларда кесим ўрнида келиб, отдан ажратилган перифрастик бирикмаларга ҳам *эпитет* дея хулоса бериш ҳоллари ҳам кузатилади. Масалан, *Алишер Навоий – ғазал мулкининг султони, Ватан – муқаддас саждагоҳ* (ёки англ. *Your style is unique; The advances of the age in mechanism – in radio and television, in electronics and jet planes (L. Rosen)*) каби. Аммо эпитет – ўз табиатига кўра эркин сифатлашдир ва шу хусусияти билан барқарорлашган ва фразеологизмларга яқин турувчи перифразалардан фарқ қилади.

Бироқ мана бу мисоллар юқоридагидек табиатга эга эмаслиги билан ажралиб туради. Яъни *Шодлик – уйинкарок, гусса – тамизли...* Бунда қиёс эркин табиатли бўлиб, бўлаклар ўрни алмаштирилиб, гап шаклидаги қурилма бирикма ҳолатига ўгирилса, *ўйинқароқ ғусса, тамизли ғусса* ифодалари келиб чиқади. Гарчи *ғазал мулкининг султони, муқаддас саждагоҳ* бирикмаларида аниқланмишнинг очиқланиши талаб қилинмайди – субъектнинг айнан келтирилиши баъзи ўринларда тафтологияга сабаб туғдириши мумкин.

Масаланинг бу жиҳати асосан эга ва кесимнинг ажратилишига доир нозик ҳолат бўлганидан, уни ўзбек ва инглиз тиллари мисолида алоҳида мавзу доирасида кўриб чиқмоқ лозим бўлади, чунки инглиз тилидаги *is* тусланиш шакли қўлланган жумлаларда тире қўлланилмайди. Зотан, тиниш белгиларнинг қўлланилиш меъёрлари ўзбек ва инглиз тилларида яхшигина фарқликка эга ҳамда бу вазиятда гап таркибида келган бадиий сифатлашларнинг синтактик мақоми уларнинг қай ўринда ва қайси тиниш белгиси билан ажратилишига ҳам боғлиқ бўлади.

Хуллас, мавжуд ҳолатлар бадиий сифатлаш – эпитет тўғрисида муфассал хулоса қилиш имконини бермайди, негаки унинг табиатидаги баҳсталаб, ёндош ҳодисаларга уйғунлик белгиларини яна кўплаб мавзулар доирасида тадқиқ этиш мумкин.

Resume. The article examines in detail the linguistic nature of the artistic characteristics of the word - epithets, and draws conclusions based on analytical materials of the Uzbek and English languages.

Резюме. В статье подробно рассматривается лингвистическая природа художественной характеристики слова – эпитетов, и даются выводы на основе аналитических материалов узбекского и английского языков.

[1] A dictionary of epithets and terms of address. British Library Cataloguing in Publication Data Dunkling, Leslie, 1935.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

OLAM MANZARASIDA ASTRONIMLAR

Qurbonova Gavxar Xurramovna,
Termiz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Tabiiy bilimlarning eng qadimiysi bo'lmish astronomiya fani miloddan avvalgi bir necha ming yillar kishilarning ijtimoiy-hayotiy ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi sa'y-harakatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lib, bizlarni Koinotning ming yillik sirlaridan ogoh etadi. Qadim Sharqda sayyohlar, savdogarlar kunduzi jazirama oftobdan saqlanib, salqin tunda yo'lga chiqqanlarida yulduzlar ularga yo'l ko'rsatar, vaqtning qaysi mahali kechayotganidan darak berar, qolaversa, yulduzlar osmoni ularni go'zalligi, jozibasi va sirliligi bilan o'ziga rom qilardi. Kishilar osmonni kuzatib, yil fasllarining almashinish vaqtlarini aniq biladigan bo'ldilar. Ular osmon hodisalaridan voqif bo'lganlari sayin hayratga tushishar, bu hodisalarning sabablarini bilishga intilar edilar. Va ular shu o'rinda o'zlarining tasavvurlari doirasida ularni talqin qilar edilar.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr sanasida Respublikaning yetakchi olimlari bilan uchrashuvida so'zlagan nutqida barcha fanlar sohasida ilmiy nazariy va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish zarurliginiligini ta'kidlab o'tgan edi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z nutqida uchinchi renisans davrida o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasida ko'p asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ilmiy va madaniy merosiga tayanishimizni ta'kidlab o'tdilar[1]. Haqiqatdan ham xalqimiz va tilimiz tarixini, madaniyatini o'zida saqlab kelayotgan samoviy jismlar va ularning nomlarining o'rganilishi, ularning xalq madaniyati va leksikasining bir qismi sifatida talqin etilishi ham ajdodlar boy me'rosini davom ettirishda bugungi kun uchun anchayin ahamiyatlidir.

Astronomik nomlar onomastik ko'lamdagi lingvokulturologik tadqiqotlar ichida juda qimmatli material hisoblanadi, chunki ular onomastik nominatsiyalarning milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Onomastikada astronomik nomlarni belgilash uchun ikkita raqobatdosh atama qo'llanadi: *kosmonim (kosmonimika)* va *astronim (astronimika).*

N.V. Podolskaya muallifligidagi "Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii" nomli lug'atda *astronim* nomlarning bir ko'rinishi, ma'lum bir samoviy jismning asl nomi, jumladan, yulduzlar sayyoralar, kometalar, asteroidlar (planetoid), kosmonim esa kosmos zonasining tegishli nomi sifatida belgilab beriladi[2]. Bunday yondashuv boshqa rus va milliy tilshunosligimiz vakillarida ham uchraydi: V.A. Nikonov *kosmonimlar* atamasini qo'llashni afzal ko'radi[3], M.E.Rut esa *astronimlar*ni[4].

V.D.Bondaletov *kosmonim, kosmonimika, astronim, astronimika* atamalariga o'z munosabatini bildirib, onomastikaning bu qismi ayrim tadqiqotchilar asarlarida astronimika, boshqa tadqiqotlarda kosmonimika terminlari bilan yuritilayotganligi to'g'risida yozadi[5]. Shu bilan birga, u har ikkala terminni bir-biridan farqlash uchun N.V.Podolskaya lug'atidagi ma'lumotlarni qiyoslab, unda osmon jismlari nomini o'rganadigan bo'lim ikki nom – kosmonimika va astronimika terminlari bilan nomlanganligini ta'kidlaydi[6]. Rus lingvisti Beryozkin ham tungi yoritgichlar uchun kosmonim atamasini qo'llaydi[7].

Rus tilshunosi A.V.Superanskaya ham astronimika va kosmonimika atamasi bilan qayd etilayotgan onomastikaning bu bo'limi juda oz tadqiq etilganligini va bu yo'nalish bo'yicha aniq terminologiya etarli darajada emasligini ta'kidlab o'tadi[8].

O'zbek tilining izohli lug'atiga murojaat qilsak, *astro* – (*yun.* **astron** – *yulduz*) qo'shma so'zlar tarkibidagi birinchi so'z bo'lib, yulduz va sayyoralarga aloqadorlikni bildiradi[9], *onim* esa lingvistik lug'atlardagi izohga ko'ra nom demakdir. Anglaganimizdek, astronimlar yulduz va sayyoralar nomi ekanligi ma'lum bo'ladi.

[1] Мирзиёев Ш.М.Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарові (2016-йил 7-декабрдаЎзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза). – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 23.

[2] Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988.

[3] Никонов В.А. Имя и общество. – М., 1974.

[4] Рут М.Е. Образная номинация в русском языке. – Екатеринбург, 1992.

[5] Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М.: Просвещение, 1983. – С.198.

[6] Yuqoridagi manba. – Б. 198.

[7] Берёзкин Ю.Е. Рождение звездного небо. – Санк Петербург, 2017.

[8] Суперенская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С. 188.

[9] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Б.111.

O‘zbek tilshunosligida ham astronim va kosmonim terminlari izohiga nisbatan turlicha yondashuvlar va qarashlar bor: Masalan, tilshunos olim B.Yo‘ldoshev “O‘zbek onomastikasi masalalari” nomli uslubiy qo‘llanmasida kosmonim va astronimlarga bir xil nazar bilan qaraydi va asosan kosmonim atamasi izohiga urg‘u beradi[1].

E.Begmatov va N.Uluqovlar hammualliflarigidagi lug‘atda ham *astronimlar* alohida olingan osmon jismlari, obyektlari – yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar, kometalar kabilarni anglatuvchi atoqli otning bir turi sifatida qayd qilinadi[2]. *Astronimika* atamasiga esa “onomastikaning samoviy jismlarning atoqli oti (astronimlar) ni o‘rganuvchi tarmog‘i” deb izoh berildi[3]. Mualliflar kosmonim terminini ham – kosmik fazodan o‘rin olgan samoviy ob’yektlar (kosmik fazo, galaktika, yulduzlar, sayyoralar va ular yuzasidagi tabiiy ob’yektlar) ning atoqli oti deb ta’rif berishadi[4]. Ammo mazkur lug‘atda biror o‘rinda ham kosmonimika atamasining izohi keltirilmaydi.

Filologik nuqtai nazardan o‘zbek tilida osmon sferasi va undagi osmon jismlari nomlari kam tadqiq qilingan bo‘lsa-da, quyidagi yondashuvlar mavjud: *astronimlar* – X.Dadaboyev[5], Sh.Yoqubov[6], *samoviy yoritgichlar* – Z.Q.Yunusova[7], *kosmonim* – A.Primov[8], *kosmonim, astronim* – B.Yo‘ldoshev[9] kabi

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan va o‘z qarashlarimizni ifoda etgan holda *kosmonimlar* osmon jismlarining ko‘zimizga ko‘ringan va ko‘rinmagan barcha kosmik obyektlari va jarayonlari hisoblansa, astronimlar esa bir muncha torroq doirada, ya’ni yerdan turib kuzatish mumkin bo‘lgan osmon jismlarini ifodalaydi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Biz esa tadqiqotimizda “astronim” terminini qo‘llashni afzal bildik. Chunki bu atama boshqa soha egalari uchun ham “astronomiya” atamasi orqali ma’lum.

Osmon jismlari, ya’ni astronimlar onomastikaning bir turi sifatida tilshunoslikda shu paytgacha turli nuqtai nazardan biz o‘qishimiz va tushuna olishimiz mumkin bo‘lgan rus, qolaversa, o‘zbek tilshunoslari qarashlarida tahlil qilingan.

IX-XV asrlar oralig‘ida Sharq va Markaziy Osiyo hududlarida katta rasadxonalar barpo etildi. Ularda Al-Battoniy, Абу Райҳон Беруний, Al-Farg‘oniy, Al-Xorazmiy, Abu Mahmud Ho‘jandiy, Mirzo Ulug‘bek kabi mashhur ilm egalari ijod qildlar. Bu kabi olimlar fan sohasida o‘z yangiliklari bilan takrorlanmas iz qoldirdi.

Shunday olimlardan biri Beruniy ham o‘z asarlari orqali osmon jismlari haqidagi juda qimmatli ma’lumotlarni avlodlarga qoldirdi. Beruniy faqat astronomik jismlarning harakati va tabiati to‘g‘risida so‘z yuritibgina qolmasdan, ularning atalish tamoyillari va etimologiyasi to‘g‘risida ham ma’lumotlar beradi. Masalan, uning *Surayyo* yulduzining atalishi haqidagi: “*Surayyo oltita yulduzdan iborat bo‘lib, uzum shingiliga juda o‘xshaydi*” degan fikrlari asoslidir[10]. Sababi o‘zbek tilining izohli lug‘atida “Savr - yulduzlar turkumiga kirgan bir guruh yulduzlar nomi”, Beruniy o‘z asarlarini arab tilida bitganligi sababli u qo‘llagan astronimlar ham, asosan, arab tiliga mansubdir. Ammo uning asarlarida turkiy astronimlar ham uchraydi. Olim tomonidan ishlatilgan arabcha astronimlarning aksariyat qismi hozirgi kunda ham faol. Masalan, *Hamal, Surayyo* kabi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham *Erantuz* (Yupiterning nomi), *Baqir soqum* (Mars planetasi), *Temur qazunguq* (Qutb yulduzi), *Yetikan* (Etti qaroqchi yulduz turkumining boshqa nomi), *Ulkar* (Surayyo yulduz turkumi, Hulkar), *Qaraqush* (Yupiter), *Ay* (Oy) kabi astronimlar izohlangan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” sof badiiy asar bo‘lishi bilan bir qatorda ilmiy qimmatga ham ega hisoblanadi va asarda astronimlar haqida qimmatli ma’lumotlar taqdim etiladi. Asarda *Sekantir* (Saturn), *Ongay // Qaraqush* (Yupiter), *Korud // Baqir soqum* (Mars), *Yashiq* (Quyosh), *Sevit* (Venera), *Arzu* (Merkuriy), *Yalchiq* (Oy), *Ulkar* (Hulkar), *Yildiriq // Ayg‘ir* (Sirius), Yetikan (Etti qaroqchi yulduz) kabi bir qancha astronimlarni uchratish mumkin[11].

R.Doniyorov muallifligidagi “O‘zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminlari tarixidan” asarida milliy tilimizningning astronomik terminlari tarixi va rivojlanishi to‘g‘risida juda qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan va asarda Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Farg‘oniy, Chag‘miniy, Ibn Sino, Usturlobiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib kabi yirik olim va ijod egalari asarlarida aks etgan astronomik terminologiyaga oid mate-

[1] Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд, 2011. – Б. 23.

[2] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 18-19.

[3] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 41.

[4] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 41.

[5] Дадабойев Х. Астрономик терминлар тарихидан. Ўзбек тили терминологияси ва унинг перспективалари. – Тошкент: Фан, 1996.

[6] Ёқубов Ш. *Навоий асарлари ономастикаси*. Филол. фан. ном. дисс...автореферати. – Тошкент, 1994.

[7] Юнусова З.Қ. Ўзбек тилида луғавий микросистеманинг таркиби ва ривожланиши (самовий ёритгичлар луғавий гуруҳи асосида): Филол. фанлари номзоди … дисс. – Тошкент, 2005.

[8] Примов А.И. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009.

[9] Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд, 2011. – Б. 21.

[10] Абу Райҳон Беруний. Ҳикматлар. – Тошкент, 1973. – Б. 31.

[11] Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 80-82.

riallarni keltirish orqali turkiy tillarga doir astronomik terminlarning millat uchun yangilik emasligi isbotlandi. Tadqiqotchi bu o‘rinda biz o‘rganmoqchi bo‘layotgan osmon jismlari nomlarini astronomik terminlar qatoriga kiritadi va biz tanlagan “astronimlar” atamasini qo‘llash aniq manzilda ekanligiga yana bir isbot bo‘ladi[1].

XIII–XIV asrga oid muhim lingvistik asar “At-tuhfa” lug‘atida ham muallif u yoki bu so‘zlarni, qoidalarni isbot etish uchun *Ay*, *Aq Ayg‘ir* (yulduz nomi), Ariq Taq (Javzo yulduzi), *Oq Ayg‘ir* (yulduz nomi), *Yashiq yamli* (Suhayl yulduzi), Yitkir (yulduz nomi), Quyash, Temir qazuq (yulduz nomi), Cholpan (Venera sayyorasi) kabi turkiy astronimlarni obyekt qilib oladi[2].

XIV–XV asrda astronomiya fanining rivojlanishi Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Alovuddin Abulhasan Ali Ibn Muhammad Samarqandiy (Ali Qushchi), Salohiddin Muso ibn Mahmud (Qozizoda Rumiy), kabi buyuk qomusiy olimlarning nomi bilan bog‘liqdir. Bu kabi olimlar o‘z kitoblarida ayrim o‘rinlarda osmon jismlari nomlarining ma’nolariga qisman bo‘lsa-da izoh berishga harakat qilishgan.

Taxminan XIV-XV asrlarda yashab ijod qilgan Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh Turkiyning turkiy tillarni o‘rganuvchi arablarga mo‘ljallab yozgan “Kitob bulg‘at al-mushtoq fi lug‘atit-turk va-l-qifchoq” (“Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qoniqtiruvchi kitob”) nomli asari ham osmon jismlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumot beruvchi manba. Kitobning birinchi bobida *Quyash, Qush yoli* (Somon yo‘li), *Yaraq* (Yoy burji), *Aq Ayg‘ir* (Oq ayg‘ir yulduzi), *Aruq taq* (Orion yulduzlar turkumi), *Ikki bozat* (Kichik ayiq yulduzlar turkumi) kabi osmon jismlarining turkiy nomlari keltirilgan[3]. Alisher Navoiy asarlarida ham osmon jismlari hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan predmetlar, voqeahodidalar nomlari oltmishga yaqin so‘zlar bilan ifoda etilgani haqida B.Bafoyev o‘z tadqiqotida keltirib o‘tadi[4].

Noilmiy asarlarda ham yozuvchi va shoirlar astronimlardan unumli foydalandilar hamda bu jarayon xalqning astronimlar, osmon jismlari to‘g‘risidagi tasavvurlarining kengayishiga sabab bo‘ldi. Olimlar esa ana shu adabiy jarayondagi astronimlar ishtirokini talqin qilishga harakat qildilar: A.Primov Z.Hamidovning Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni leksikasidagi koinot ilmi sohasiga tegishli so‘z va atamalar xususida so‘z yuritganini va osmon jismlarining sof turkiy nomlari arabiy, forsiy terminlar qatorida shoir asarlarida o‘z va ko‘chma ma’nolarda ko‘p qo‘llaganligini ta’kidlab o‘tganligini va maqola muallifi Alisher Navoiyning osmon jismlarini turli uslubiy vositalar asosida o‘z va majoziy ma’nolarda foydalanganligini asosli ma’lumotlar bilan tahlil qilganligini o‘z dissertatsiyasida tahlilga tortadi. [5].

I.Bakirovaning “Navoiy asarlarida sayyora nomlari”, Z.Yunusovaning “Navoiy asarlarida qo‘llangan “yulduz” leksemasining ma’no qirralari” nomli maqolalari ham osmon jismlarining asarda bajargan uslubiy vazifalarini izohlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. I.Bakirova shoir asarlarini tahlil qila turib, asarda ishlatilgan Merkuriy sayyorasiga mifologik qarashlar orqali “shoir va yozuvchilar homiysi” deya ta’rif berganligining guvohi bo‘lamiz[6]. Sh.Egamova Uvaysiy ijodidagi samoviy timsollarni tadqiq etishga bag‘ishlangan maqolasida apellyativ leksika (*apellyativ* lotincha *appellativum* - turdosh ot so‘zidan olingan bo‘lib, atoqli otga qarama-qarshi qo‘yiluvchi, atoqli ot yasash uchun lisoniy baza bo‘luvchi turdosh ot va boshqa til leksemalari[7])ga tegishli astronomik tushunchalarni tahlilga tortgan[8]. I. Yoqubov, T. Matyoqubovalar tomonidan e’lon qilingan maqolada ham Ogahiy nasriy asarlarida qo‘llangan kosmonimlar va astronomik terminlarning badiiy va lisoniy xususiyatlari to‘g‘risida fikrlar bildirilgan[9].

M.Jo‘raevning “O‘zbek xalq samoviy afsonalari” nomli monografiyasida (garchi adabiyotshunoslik sohasida bo‘lsa-da, tadqiqotimiz uchun qimmatli manba bo‘ldi) tabiat hodisalari, osmon yoritqichlari, olamning yaratilishi to‘g‘risidagi samoviy afsonalarning tarixiy asoslari, samoviy mifologiyaga munosabati, obrazlar tarkibi tadqiq qilingan bo‘lib, unda Yetagan, Temir qoziq, Oq bo‘zot, Ko‘k bo‘zot, Tarozi, Hulkar, Qambar yulduzi singari yulduz va yulduz turkumlari, Cho‘lpon planetasi va Somon yo‘li bilan bog‘liq samoviy afsonalar ilk bor monografik tarzda o‘rganildi[10].

---

[1] Дониѐров Р. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1973.– Б. 92.

[2] Аттуҳфатуз закияту филлуғатит туркия. – Тошкент: Фан, 1968. – 280 б.

[3] Фозилов Э. Шарқнинг машҳур филологлари. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 21, 25, 50.

[4] Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 152.

[5] Примов А.И. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009. – Б.25.

[6] Бакирова И. Навоий асарларида сайѐра номлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари.

Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2008. №2. – Б.128; Юнусова З. Навоий асарлари тилидаги “юлдуз” лексемасининг маъно қирралари. // Навоийга армуғон. Тўртинчи китоб. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 147-152.

[7] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек окомастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган. 2006. – Б. 16.

[8] Эгамова Ш. Увайсий шеъриятида самовий тимсоллар // Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 98.

[9] Ёқубов И., Матѐқубова Т. Огаҳий ижодида космогоник мифология талқини // Огаҳий абадияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 118.

[10] Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. – Тошкент: Фан, 1995. –108 б.

Olima Z.Yunusova bir maqolasida yulduz leksemasini giponimik va sinonimik qurshovlari jihatdan tahlil qila turib, “yulduzning quyosh va oy leksemalari bilan kelgan katta yoritgichlardan boshqa jami osmon yoritgichlarining umumiy nomi” deya fikr yuritadi[1]. Bizningcha ham kichik yoritgichlarni umumiy nom bilan yulduzlar nomi ostida birlashtirish ma’qul va osmon yoritgichlari tadqiqotning markaziy obyekti bo‘lganligi uchun sayyoralar, ya’ni planetalar tadqiqotchi e’tiborida emasligini ko‘ramiz. Giponimik qator doirasida esa planetlar ham obyekt qilib olinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shuni alohida qayd etish kerakki, tadqiqotchi o‘z nomzodlik ishida astronimlarni turdosh otlar bilan aralash holda lug‘aviy mikrosistema tabiatini ochish uchun tahlil qilgani biz tahliliga kirishmoqchi bo‘lganimiz astronimlar obrazlari tadqiqiga anchayin yaqinligi seziladi[2].

Tadqiqotchi A.Primov o‘z tadqiqotida milliy tilshunosligimizda birinchi bo‘lib osmon yoritgichlarining lisoniy xususiyatlarini o‘rganib chiqib, astronim va kosmonimlarni yaxlit bitta nom, ya’ni kosmonim termini ostida birlashtirdi[3].

Tilshunos olim A.Rustamov ham “So‘z xususida so‘z” nomli kitobining bir o‘rnida iboralar tarkibida kelgan astronimlarni lisoniy tahlil qiladi. Misol sifatida *“istarasi isssiq”* va unga ma’nodosh *“mehrigiyosi bor ”*kabi iboralardagi *istara* so‘zining o‘zagi *sitora (yulduz), mehrigiyo* so‘zidagi birinchi qism *mehr(quyosh)* so‘zlari bilan bog‘liqligini aytib o‘tadi. Va yana bir fikrni “*astronomiya”,* “*astrologiya”* terminlarining *“astro”* qismi ham *“istora”* ya’ni *“sitora”*ga tarixan aloqadorligini aytadi[3]. Ammo keyingi fikrga qo‘shilishimiz uchun boshqa biror joyda bunday ma’lumotni uchratmaganligimiz sababli asosga ega emasmiz. Shu o‘rinda masalaning ikkinchi tomoniga ham e‘tibor beradigan bo‘lsak, yulduz so‘zining turli tillardagi aytilishi – *astro (yun.), sitora (fors.), star (ing.)*, *stern (nem.)ni* tahlil qilsak, bu so‘zlarning tarixan bir so‘z asosida shakllanganganligi va *istara* so‘zining ham shu so‘zlarga aloqasi borday ekanligi seziladi.

Xozirgi kungacha o‘zbek tilshunosligida kam tadqiq qilingan osmon jismlarining tarixiy va xozirgi nomlanishlarini taqqoslash, ularning obrazli ifodalanishi masalalari bilan bog‘liqlik nuqtai nazaridan, xalq ijtimoiy hayotida astronimlarning tutgan o‘rnini chuqurroq o‘rganish ayni vaqtdagi zarurat ekanligini ko‘rsatadi. Va bu kabi jihatlarni yoritishni keyingi tadqiqotlarimiz mavzusi sifatida qoldirdik.

Resume. Ushbu maqolada astronim va kosmonim atamalarining izohi, farqi, tadqiqotlar doirasidagi turli yondashuv masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Резюме. В данной статье рассматриваются толкование терминов астроном и космоном, разница и вопросы различных подходов в рамках исследования.

[1] Юнусова З. Навоий асарлари тилидаги юлдуз лексемасининг гипонимик ва синонимик қуршовлари // Айюб Ғулом ва оъзбек тилшунослиги. – Тошкент, 2004. – Б. 124-130.

[2] Юнусова З.Қ. Ўзбек тилида луғавий микросистеманинг таркиби ва ривожланиши (самовий ёритгичлар луғавий гуруҳи асосида): Филол. фанлари номзоди … дисс. – Тошкент, 2005.

[3] Примов А.И. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009.

[4] Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 85-95.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ETNOGRAFIZM TALQINI VA MUAMMOLARI: O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNOGRAFIZMLARNING TADQIQ VAZIFALARI

Raxmonov Botir Abdurasulovich,
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Bugungi, dunyodagi integratsiyalashuv jarayoni, barcha sohalarga axborot texnologiyalarining kirib kelishi, sanoatlashish jarayonining misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etishi, madaniyatlar va dinlar o'rtasidagi o'zaro kurash hamda zamonaviy dunyoning bugungi tendensiyasini belgilaydigan boshqa bir qator omillar insoniyatning o'tmishi, turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyat va an'analariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmayapdi. Bu esa o'z navbatida xalqlarning etnomadaniy merosi, jonli so'zlashuv tili, etnik o'ziga xosliklarini xavf ostiga qo'ymoqda. Har bir millatning madaniyati, mental belgilari, etnomadaniy hayot tarzi ma'lum bir tarixiy taraqqiyot davomida shakllanishi tabiiy. Milliy qadriyatlar, millatga xos belgi va xususiyatlar uning tilida, aniqrog'i, etnografizmlarida saqlanadi. Etnografizmlarni to'plash va ularni ilmiy asosda chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Etnografizmlarni tilshunoslik sohasi sifatida o'rganish ishlari dastlab Yevropa va Rossiya olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

Chunonchi, V. fon Gumboldt, Y.L.Vaysgerber, N.I.Tolstoy, D.K.Zelenin, A.A.Potebnya, V.Teliya, Ye.F.Karskiy, A.A.Shaxmatov, A.N.Afanasev, A.I.Sobolevskiy kabi tilshunos olimlar tomonidan dastlabki tadqiqotlar olib borilagan. Shuningdek, Rossiya va uning hududidagi bir qator milliy tillarda: slavyan[1] kuban[2], boshqird[3], tatar[4], buryat[5], qorachoy-bolqar[6], chuvash[7], mari, udmurt va boshqa tillar etnoleksikasiga doir etnolingvistik, etnoleksikografik aspektdagi ilmiy tadqiqotlar yaratildi.

Keyinchalik Turkolog olimlar tomonidan ham etnolingvistikaga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Xususan, S.M.Abramzon[8], A.Jikiev[9], E.Janpeysov[10], M.S.Atabaeva[11], kabi olimlarning etnografizmlarga doir ilmiy izlanishlari ancha e'tiborga molik ishlar sanaladi.

Qardosh tillar orasida ozarbayjon va qozoq tillarida mazkur sohada samarali tadqiqotlar olib borilgan. Bu jarayonda ozarbayjon tilining maxsus etnografik terminlar lug'ati yaratilishini katta voqelik sifatida e'tirof etadigan bo'lsak[12], qozoq tilshunosligida ham bu borada talay ishlar amalga oshirilgan va jarayon davom etmoqda[13].

O'zbek tilshunosligida sof etnografizmlarga doir ilk tadqiqotlar XX asrning 80-90 yillarida olib borilgan bo'lsada, milliy urf-odat, an'ana va marosimlar bilan bog'liq leksika ancha oldingi yillarda tadqiqot olib bor-

[1] Славянские древности: этнолингвистический словарь: в 5 т.// под ред. Н.И.Толстого. – М.: Международные отношения, 1995–2012; Плотникова А.А. Этнолингвистический словарь как лингвистически, этнографический и фольклорный источник (на материале славянских языков и традиции): Дисс. кан. фил. наук. – М., 1990.

[2] Финько О. С. Лексика свадебного обряда Кубани (на материале обрядовой практики станицы Черноерковской Краснодарского края): Автореф. дис. кан. фил. наук. – Курск, 2011.

[3] Багаутдинова М.И. Этнографическая лексика башкирского языка. – Уфа: РИО РУНМЦ, 2002. – С. 11; Ишбердин Э.Ф. Названия животных и питц в башкирских говорах: Автореф.дисс.канд.фил.наук. – Уфа, 1970; Самситова Л.Х. Безэквивалентная лексика башкирского языка: Автореф.дисс. канд.фил.наук. – Уфа, 1999.

[4] Этнография татарского народа. – Казань: Магариф, 2004. – С. 287; Татар теленең диалектологик сүзлеге. – Казан, Тат. кит. нәшр., 1993.

[5] Дондокова Д.Д. Лексика духовной культуры бурят. – Улан-Удэ, 2003; Манжигеев И.А. Бурятские шаманистические и дошаманистические термины. – М.: Наука, 1978.

[6] Аппоев А.К. Этнографическая лексика карачаево-балкарского языка: Дисс. кан. фил. наук. – Нальчик, 2003; Семенова И.Дж. Параметрический анализ лексики карачаево-балкаркого языка на тюркском фоне: Дисс. кан. фил. наук. – Воронеж, 2017.

[7] Дегтярев Г.А. Лексика земледелия в чувашском языке. – М., 1987.

[8] Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Л.: Наука, 1971.

[9] Джикиев А. Этнографический очерк населения Юго-Восточного Туркменистана (конец XIX– начало XX в).

[10] Жанпейсов Э. Этнокультурная лексика казахского языка. – Алма-Ата: Наука, 1989.

[11] Атабаева М.С. Қозоқ тили диалектик лексикасининг этнолингвистик негизи. – Алмати: Билим, 2006.

[12] Азербайжанча-русча етнография терминлэри лугати. – Бакы, 1987.

[13] Шамшатова А. Лексика злаковых культур в казахском языке: Дис. канд. фил. наук. – Алма-Ата, 1966; Жанпейсов Е.Н. Қозоқ тилининг этник-маданий луғати. – Алма-Ата, 1983; Жилкубаева А.Ш. Термины питания в казахском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1991.

gan turkolog va dialektolog olimlar asarlarida uchraydi. Faqat ushbu yig‘ib olingan va tadqiq qilingan etnografik leksika dialektologik aspektda o‘rganilagan bo‘lib uning etnolingvistik va lingvomadaniy imkoniyatlari ochilmagan. Bu davrda etnografizmlar shevalarning bir qismi sifatida o‘rganilgan. Aslida ularning bir-biridan alohida tushuncha ifodalashi, ma’no doirasi, ularning yondosh hodisa ekanligi e’tibordan chetda qolgan. Bu boradagi dastlabki ishlar Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Ishaev, E.Urazov, S.Ibrohimov, F.Abdullaev, T.Qudratov, B.Jo‘raev, S.Rahimov va boshqa bir qator olimlarning tadqiqotlarida ko‘zga tashlanadi[1]

Biroq bir narsani alohida qayd etish kerakki, yuqoridagi va yana o‘nlab olimlar tomonidan dialektologik tadqiqotlar doirasida minglab noyob so‘z va iboralar yig‘ib olingan va lug‘at holatiga keltirilgan. Mazkur lug‘atlardan joy olgan dialektal leksemalarning bir qismini etnografizmlar tashkil qiladi. Hozirda bu dialekt va etnografizmlarning aksariyat qismi mahalliy sheva vakillari nutqida ishlatilmaydi.

Aslida o‘tgan asrning 70-yillaridayoq dialektolog olim Sh.Shoabdurahmonov ushbu masalaga olimlar e’tiborini jalb qilgan va quyidagi fikrlarni bayon qilagan edi. “*Agar yaqin kelajakda o‘zbek traditsion leksikasi to‘laligi bilan qayd etib olinmasa, barcha mas’uliyatni hisobga olgan holda aytish mumkinki, keksa avlod tugab borishi bilan, tilning ular hofizasida saqlanib, bizgacha yetib kelgan qimmatli materiallarning bir qismi hamishalikka yo‘qolishi mumkin*”[2]. Alohida qayd etish kerakki, XX asr boshlaridan to hozirgacha o‘zbek tilshunosligida xalq jonli so‘zlashuv tili, xususan, dialekt va shevalarni o‘rganish borasida yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borildi. O‘zbek tilining uch lahjasi viloyatlar kesimida o‘rganildi. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati yaratildi[3]. Shu bilan xalqimiz jonli so‘zlashuv tilidagi minglab noyob so‘z va iboralar saqlab qolindi, ularning bir qismi umumadabiy tilga qabul qilindi. E’tiborlisi, o‘sha davrdagi dialektal tadqiqot materialarining bir qismini etnografik leksika (etnografizmlar) tashkil etsada, ular faqat dialektal va lingvogeografik aspektda o‘rganildi xolos. Ayrim olimlar tomonidan etnografizmlarni dialektal hodisa sifatida alohida o‘rganish zarurligi qayd etib o‘tilgan. Xususan, dialektolog olim A.Ishaevning ta’kidlashicha, tilda dialektizmlarning bir qancha turlari mavjud, lekin bu turlar o‘zbek dialektologiyasida uzil-kesil tarzda aniq hal etilmagan. Hatto ayrim dialektizmlar tilga olinmagan va dialektizm sifatida qayd qilinmagan. Bunga etnografik dialektizmlar yaqqol dalildir[4].

1971 yilda Qashqadaryolik olim N.Mirzaev[5] tomonidan himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasini hisobga olmaganda, istiqlolgacha bo‘lgan davrda etnografizmlar tadqiqiga oid boshqa manba deyarli uchramaydi. Eng qizig‘i tarixchi olimlar tomonidan olib borilgan etnografiya bilan bog‘liq tadqiqotlar ham mustaqillikdan keyingi davrda jonlanganiga guvoh bo‘lamiz. Buni ikki holat bilan izohlash mumkin. Birinchisi Sobiq ittifoq davrida xalqlarning etnogenezi, etnomadaniyati, urf-odat va an’analari, milliy marosimlari o‘rganish o‘sha davrdagi hukmron mafkura (kommunistik) tamoyillariga zid bo‘lganligi bo‘lsa, ikkinchisi etnografizmlarni tadqiq etuvchi etnolingvistika hamda lingvomadaniyat sohalari ijtimoiy zarurat hamda davr talabi bilan keyingi taraqqiyot natijasi o‘laroq o‘zbek tilshunosligiga kirib kelganligidadir.

Bugungi kunda tarixchi olimlar tomonidan mamlakatimizning turli hududlarida olib borilayotgan etnografik tadqiqotlar va izlanishlar ushbu sohani boshqa fan vakillari qatori tilshunos olimlar bilan birga, kompleks tadqiq etish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Xususan, tarixchi olim A.Qurbonovning fikricha mustaqillik yillarida mamlakat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar tarixni keng, xolisona tarzda hamda yangicha tafakkur asosida ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda. Albatta o‘zbek xalqining etnogenezi, etnik nomlanish tarixi masalalarini boshqa soha vakillari bilan chuqur va uyg‘un holda o‘rganish ustuvor vazifalardan biridir[6]. Olimning fikriga qo‘shimcha sifatida shuni qayd etamizki, o‘zaro etnografik tadqiqotlar natijasi minglab etnografik so‘z va iboralar, matal, maqol hamda aytimlarning mazmun-mohiyatini chuqur va haqqoniy aks ettirish imkonini beradi. Masalan, Surxondaryo

[1] Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык // К современной стадии узбекского литературного строительства. – Ташкент, 1933; Боровков А.К. Ўзбек шева-лаҳжаларини текширишга доир савол-жавоблар. – Тошкент, 1944; Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области (фонетическая и морфологическая система): Авторефер. дисс. докт. фил. наук. – Ташкент, 1951; Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1975; Ўрозов Э. Жанубий Қорақолпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978; Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961; Шоабдураҳмонов Ш.Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: ЎзФА, 1962; Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 80-81; Рахимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари луғати. – Термиз, Термиз давлат университети нашриёти, 1995.

[2] Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек шевалари. – Тошкент, 1962. – 325 б.

[3] Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент, 1971.

[4] Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. Тошкент: Фан, 1990. – Б. 91

[5] Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси (Қашқадарё вилояти ўзбек шевалари материаллари асосида) кан. Дисс.– Тошкент, 1971.

[6] Қурбонов А. Сурхон воҳаси аҳолиси этник тарихи ва тарихшунослиги. Бойсун баҳори очиқ фольклор фестивали... Халқаро илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами. Тошкент, 2019

hududida joy nomi sifatida uchraydigan “Yomchi” etnotoponimini izohlash uchun, ushbu etnografizm bilan bog‘liq qishloq tarixini ham bilish kerak.

Avvalo ushbu leksemaning etimologiyasi haqida Akademik, B.Ya.Vladimirsov[1] quyidagi fikrni bildiradi. “Yom” so‘zi mo‘g‘ul tilida yo‘l, bekat ma’nolariga ega va keyinchalik turkiy tilga o‘zlashgan. Yana bir rus olimi A.K.Dmitrievning aytishicha, bu so‘z XII asrgacha bo‘lgan turkiy manbalarda uchramaydi. Olim Vladimirsovning fikrini tasdiqlab, “Yom” pochta stansiyasi ma’nosidagi mo‘g‘ulcha so‘z ekanligi, rus tilidagi “Yamchik” so‘zi ham “Yom” leksemasi bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi[2]. Mo‘g‘ul tilidan o‘zlashib eski turkiy tilda faol iste’molda bo‘lgan “Yomchi” etnografizmi haqida o‘zbek tilshunos olimlarining qarashlari ham rus hamkasblari fikrlari bilan hamohangdir. Yurtimizda qishloq yoki ma’lum bir shaxs tarixi “Yom” leksemasiga aloqador bo‘lgan yana bir qator joy nomlarini uchratish mumkin. Masalan, Asbobi Ali yomchi (Toshkent viloyati), Ali yomchi (kanal Buxoro viloyati), Yomchi, Josbuzqutchi, Jombuloq (Qashqadaryo viloyati), Jom (Samarqand viloyati), Yom (Jizzax viloyati)[3] kabi.

Xullas “Yom” bilan bog‘liq joy nomlari qishloqning tarixiy voqeligi bilan aloqadordir. Yom (Yomxona) – qadimda choparlar uyi, bekati, ular almashlab minadigan otlar saqlanadigan joy, hududlar o‘rtasidagi xabar tashuvchi markaz bo‘lgan. Qadimda mo‘g‘ullar katta hududni bosib olgach joylardagi vaziyatni bilib turish va o‘z vakilllari bilan doimiy alaoqada bo‘lish maqsadida, shaharlar va katta yo‘llarning qulay joylariga aloqa vositasini bajaruvchi saroylar, bekatlar,qarorgohlar qurdirgan. Har bir bekatda maxsus otlar saqlangan va yomchilar (xabarchi) bir bekatdan ikkinchi bekatga kelganida holdan toygan otlarni boshqasiga almashtirib yo‘lda davom etishgan. Boysun tumanidagi Yomchi qishlog‘ida ham qadimda, hatto yaqin o‘tmishda ayni shunday yomxonalar bo‘lganligi o‘z tasdig‘ini topgan. Bunday joy nomlari bilan tarixiy aloqadorlikka ega etnotoponimlar mamlakatimiz hududida juda ko‘p va ularni chuqur ilmiy asosda o‘rganishda etnograf va tilshunos olimlar hamkorligi yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz.

Fikrimizni tilshunoslikning etnolingvistika va lingvomadaniyat yo‘nalishda tadqiqot olib borayotgan bir qator olimlar ham tasdiqlaydi. Namanganlik olim D.Ashurov bu borada quyidagicha fikr bildiradi: *“Etnografizmlarni o‘rganish tilshunoslik, etnografiya, folklorshunoslik, arxeologiya va madaniyatshunoslik fanlari hamkorligida amalga oshirilgandagina kutilgan natijalarga to‘laqonli erishiladi[4]”*

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zbek xalqining etnomadaniy hayot tarzi, urf-odatlari, an’analari, marosim va ijod namunalari asosan tarixchi va folklorshunoslar tomonidan ko‘proq o‘rganilgan. Xususan, O‘zbek marosim folklorining o‘ziga xos tabiati, janrlar tarkibi, tasnifi va marosim qo‘shiqlarining badiiy xususiyatlari kabi masalalar M.Alaviya, B.Sarimsoqov, N.Qurbonova, M.Jo‘raev, S.Davlatov, N.Qurbonboeva, O.Ismonova, G.Mardonovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Etnografizmlarni tilshunoslikning yangi talablari asosida tadqiq etish va o‘rganish borasida oxirgi o‘n yillikda bir qator ilmiy ishlar yaratildi va bu yo‘nalishdagi izlanishlar davom ettirilmoqda. Mirzaev, Bobojonov va Jo‘raboev kabi olimlarning etnografizmlarni o‘rganish bilan bog‘liq ishlarida dialektalogik va etnolingvistik tamoyillar ustuvor hamda tavsifiy xarakterga ega bo‘lsa, oxirgi yillarda sistem[5], leksikografik[6], antropotsentrik[7], semantik[8] sathdagi bir qator ilmiy tadqiqotlar yakunlandi. Shuningdek, dialektal maqol va matallar bilan bog‘liq etnografizmlarni o‘rganishga doir[9], hamda Shimoliy Afg‘onistonda yashovchi o‘zbeklar to‘y marosimlariga aloqador[10] ilmiy tadqiqotlar yaratildi.

Albatta, tilshunoslikdagi har bir tadqiqot davrning va sohaning eng dolzarb muammolarini o‘zida qamrab olishi va uning yechimiga qaratilishi zarur. Oxirgi yillarda globallashuv jarayonining shiddat bilan kechishi, keyingi avlodlarning zamonaviy hayot tarziga moyilligi, sanoatlashish va shaharlashish jarayonining tezlashishi natijasida turli xil tarixiy kasb-hunarlarning kundalik hayotdan chiqib ketishiga hamda, milliy qadriyatlar, an’analar, xalqlarning mahalliy urf-odatlari va marosimlarga salbiy ta’sirini yuzaga chiqarmoqda. Bu esa o‘z navbatida xalqlarn-

[1] Владимирцов Б.Я. Заметки к древнетюрским и старамонгольским тестам, ДАН, В., 1929, с. 191-192.

[2] Дмитриев А.К. Строй тюркских языков, М., 1962, стр. 554.

[3] Носиров Ш.Ём шеваси. Ўзбек диалектологиясидан материаллар, т, 11, Т, 1960, 229-бет

[4] Ашуров Д. “Алпомиш” достонининг лингвокультрологик хусусиятлари, Наманган, 2021.

[5] Қахарова М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи. филол.фан.номзод.дисс. Т., 2009.

[6] Амантурдиев Н.Р. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. – Гулистон, 2021.

[7] Нуржонов О.Э. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари этнографизмларининг антропоцентрик тавсифи. Фил.фан. бўйича фалс.док. (PhD) дис. – Нукус, 2021.

[8] Қурбоназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. – Термиз, 2021.

[9] Омонтурдиев А. Раҳмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг қисқача изоҳли луғати. Тошкент, 2019. –Б. 10.

[10] Муҳаммад Ҳумоюн Надим. Шимолий афғонистон ўзбеклари тўй маросими этнографизларининг тизимий ва лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. – Термиз, 2022.

ing milliy qadriyatlari, chekka qishloqlarda saqlanib kelayotgan urf-odat va an'analar, marosimlarning yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi. Mazkur jarayon ijtimoiy soha olimlariga ham o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi. So'nggi yillarda tilshunoslikning etnolingvistika, lingvokulturologiya, areal lingvistika, antropologiya, sotsiolingvistika, etnopsixolingvistika, va boshqa sohalarining rivojlanishi ham yuqoridagi omillar bilan bevosita bog'liq. Qolaversa, so'nggi yillarda alohida yo'nalishlarga e'tibor qaratilib, etnolingvistik, etnopsixolingvistik, antropotsentrik, dialektologik, folklor, lingvomadaniy sohada tadqiqotlar ko'lamining kengayganligi ham muammoning dolzarbligini anglatadi. Bu xavotir yuqorida etnografizm sohasida izlanish olib borgan tilshunoslar asarlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, Nurjonov bu jarayonga quyidagicha yondashadi: "*Haqiqatan, bugungi globallashuv jarayoni har bir xalqdan madaniy o'ziga xosligini saqlab qolishga jiddiy e'tibor qaratishini, buning uchun esa millatning ilg'or qatlami tilning madaniyatda aks etishi va, aksincha, madaniyat belgilarining til tizimida ifodalanishini anglab yetishi hamda millat barcha vakillariga yetkazib bilishi talab qilinadi*".

Ushbu fikrlarga tayangan holda, etnografiyaning tilshunoslik sifatidagi rivoji, etnolingvistika fanining mavqeyi, etnografizmlarni keng miqyosda tadqiq etishga rag'bat bugungi kunda har doimgidanda zarurat ekanligii ko'rish mumkin.

Yuqorida nomlari qayd etilgan tilshunoslar va boshqa olimlar tomonidan etnografizmlar tadqiqiga oid ishlar natijasida bir qator yutug'larga erishilgan bo'lsada, etnografizm termini bilan bog'liq bir-biriga zid qarashlar va chalkash fikrlar ham yetarli. Bu hali o'zbek tilshunosligida etnografizmlarni lingvistik sathda o'rganish bilan bog'liq tajribaning kamligi, uning nazariy jihatdan aniq chegarasini belgilab qo'yuvchi metodologik tadqiqot manbalarining deyarli yaratimaganligi bilan ham bog'liq. Fikrimizcha, etnografizmlarni o'rganishda avvalo muvofiqlashtiruvchi tadqiq markazini yaratish zarur. Misol uchun bir paytlar O'zbekiston Fanlar Akademiyasida Dialektologiya sektori mavjud bo'lgan hamda ushbu markaz shevashunoslik bilan bog'liq barcha tadqiqotlarni kuzatib borgan va yaxlitlagan. Dialektologik sathda o'rganilishi zarur bo'lgan eng dolzarb jihatlarni, muammoli masalalarni tadqiqotchilar e'tiboriga havola qilgan.

Xuddi shunday mazkur etnolingvistik markaz ham lingvistik tadqiqotlar doirasida etnografik faol va nofaol mintaqalarni aniqlab olish, umumadabiy etnografizmlar va dialektal etnografizmlarni farqlash, dialekt va etnografizm tushunchalarining o'zaro chegarasini belgilash, maqol, matal va aytimlar shaklidagi etnografik birliklarning lingvistik maqomini belgilash kabi masalalarni hal etishi zarur.

O'zbek tilining etnografik leksikasi mintaqaviy asosda to'la tadqiq qilinmagan bo'lib, bu holat biz o'rganayotgan hudud shevalariga ham taalluqli. Ushbu muammoni to'la tadqiq etish xalq hamda til tarixining haligacha mavhum ayrim jihatlarini ochishga yordam beradi. Mazkur hududda ham turli millat vakillari yashaganligi sabab ularning tillarida o'ziga xos nomushtarak tomonlar mavjud bo'lib, bu ularning etnografik leksikasida ham ko'zga tashlanadi.

Yuqoridagi sabab va omillarga asoslanib, etnografizmlarni o'rganish, etnografik birliklarni yig'ish va ularni lug'at holatga keltirish, ularni tilshunoslik obekti sifatida lingvomadaniy aspektda tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Resume. The article discusses the interpretation of ethnographies, different approaches and views, important tasks of researching ethnographies in Uzbek linguistics.

Резюме. В статье рассматриваются толкование этнографии, различные подходы и взгляды, важные задачи исследования этнографии в узбекском языкознании.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"АЛПОМИШ" ДОСТОНИДА УЧРАЙДИГАН ЭТНОГРАФИК АТАМАЛАР

Мадаминова Раъно Юсупбаевна,
Қорақалпоқ давлат университети ўзбек тили ва адабиети кафедраси ўқитувчиси

"Алпомиш" достони туркий халқларнинг бой маънавий мероси бўлиб унда миллий қадриятларимизни акс эттирадиган кўплаб урф-одатлар, дастур ва анъаналар сақланиб қолган.

Халқ оғзаки ижоди намуналаридан ҳисобланган – "Алпомиш" достонининг тилини ўрганиш айниқса, ундаги этнографик лексика халқимизнинг турмуш тарзи, урф одатлари, анъана ва дастурларини акс эттириши билан ажралиб туради. Бу эса миллий қадриятларимиз, ўзлигимизни англашга ёрдам беради.

"Алпомиш" достонига холисона ёндашиш унда то ҳанузгача ўз қимматини йўқотмаган беҳад кўп ижобий томонлар мавжудлигини назарда тутиш билан бирга, у яратилган замонлар хусусиятлари билан тақозо этиладиган қатор хусусиятлар ҳам йўқ эмаслигини эътироф этишни талаб қилади.

Достонда учрайдиган этнографик атамаларни тузилишига кўра турларга ажратиш мумкин:

1. Содда этнографик атамалар.
2. Қўшма этнографик атамалар.
3. Жуфт этнографик атамалар.
4. Бирикмали этнографик атамалар.

1. Достонда учрайдиган содда атамалар ўз навбатида туб ва ясама атамаларга ажратилади. Содда атамалар бир ўзакдан иборат. Масалан: *эл, юрт, ўзбак, қалмақ, уруғ, ука, ака, эна, тоға, келин, бий, тўра, бой, шой, бек, чеча, езна, закот, жузъя, инъом, тўй, марака, сеп, кўпкари, тўш, чимилдиқ, улоқ, серка, дуо, туш, ул, қиз, қуда, анда, қайин* кабилар.

Демак, содда этнографик атамаларни ҳозирги нуқтаи назардан морфемаларга ажратиб бўлмайди. Лекин уларнинг айримларини тарихий жиҳатдан маъноли қисмларга ажратиш яъни этимологиясини аниқлаш мумкин. Масалан, *кўпкари* синоним *улоқ* этнографик атамаси "ўғил тўйида боланинг отаси томонидан ташкил этиладиган мусобақа ўйин номи". Бунда чавандозлар тўдаси ўртасига эчки ёки улоқ ташланади. Тўдадан шу улоқ ёки эчкини биринчи бўлиб олиб чиққан ва даврани бир айланган чавандоз ғолиб саналади ва соврин берилади. *Улоқ* сўзининг этимологияси ва таркиби ҳақида ҳар хил фикрлар мавжуд. Жумладан, Э.В.Севортян бу сўзнинг қирқдан ортиқ маъносини борлигини санаб ўтади ва булар асосан "ҳайвон", "улов" кабилари билан боғлиқ дейди[1]. Туркий тилларда "ула" феълининг "етишмоқ", "узоқлашмоқ" маъносини ҳам бир шундан "етишиш (совринга)", "узоқлашилар яъни тўдадан ажралиб чиқиш" маъносида – *ғ/қ* аффикси билан "улоқ" номи ҳосил бўлган бўлиши мумкин. Бу мантиқан тўғри бўлса керак. Масалан, "Алпомиш" достонида Ҳакимбекдан йигитлар кўпкари уларнинг "куёв улоқ" сўрайди:

Чошка-тушда соф йигитлар келади,
Ҳакимбекдан "куёв улоқ" сўради.
Сўраган одамлар қуруқ қолмади,
Буларга ҳам битта сарка беради (164-б.)[2]

Аслида қипчоқ гуруҳи шеваларида улоқ-эчкининг боласи маъносини англатади. Достондаги "куев улоқ" миллий спорт ўйини номи билан боғлиқ. Шунингдек, "қайин" сўзининг этимологияси ҳақида ҳам ҳар хил қарашлар мавжуд. Бу сўзнинг маъноси никоҳ орқали ҳосил бўладиган барча қариндошларнинг номи. Масалан, *қайнота, қайнона, қайин сингил, қайноға* шаклида бирикиб келади. "Қайин" сўзи никоҳ, яъни эр ёки хотин томонининг қариндошлари маъносида XI асрда ҳам ишлатилган.

Жумладан, М.Қошғарийнинг "Девону луғотит турк" асарида "қада", "қон-қариндош" ва "қайин" – "никоҳ қариндош" бир-бирига қарама-қарши маънода кўлланилган.

Шунингдек, "қаллиғ" сўзи ҳам "қайни-лиқ" шаклида талқин этилади[3]. "Қайин" сўзининг ўзини эса хатунлар, қатинлар сўзи билан боғлайдилар. Демак, "қаллиғ" сўзида "қайин" сўзининг энг қадимги маъноси сақланган. Қаллиғ, қайинлиғ яъни "хотин бўлишга мўлжалланган" деган маънода қўлланган.

Хуллас содда этнографик атамалар ҳам тарихий жиҳатдан чуқур ўрганишни талаб қиладиган лексик бирликлар саналади. Шунингдек, улар-

[1] Севортян Э.В. Этимологической словарь тюрских языков 1т. – Б. 588-590.
[2] Алпомиш. Ўзбек халқ достонлари. 1т. Т., 1992. – 164 б.
[3] Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. 2 т. 1963. – 263 б.

нинг бир қисми ясама ва қўшма сўзлардан иборат эканлигини англаш ҳам қийин эмас. Масалан: *совчи, энчи, элчи, синчи, жарчи, суюнчи, жиловдор, элат, меросхўр, дастурхон, табгир, бойбича* ва бошқалар.

Демак, шахс отини ясовчи *–чи* аффикси ёрдамида *совчи, элчи, жарчи, суюнчи* каби этнографик атамалар ҳосил бўлган. Масалан: *элчи* – содда ясама отининг ўзаги *эл, -чи* шахс отини ясовчи аффикс, *эл, юрт, халқ* сўзлари билан боғлиқ. Лекин элчи сўзи ўзагини эл шаклида тарихан ажратиш мумкин.

Элчи сўзининг туркий тилларда, “ҳоким”, “ҳукмдор” деган маъноси ҳам бор. В.В.Радлов “алчи”, “элси” сўзининг бош маъноси “халқ ҳоким”, “халқ ҳукмдори” маъносига тўғри келишини кўрсатган[1]. Бу ерда *–чи* эл, юрт ишлари билан шуғулланувчи элчи (посол маъноси ҳам бор. Лекин тўй маросим атамаси маъносидаги “элчи сўзи тарихан *–ил* (эл ал-)” олд томон, олдин)) сўзлари билан боғлиқ келиб чиққан. Тил тарихида *ил* (эл), *ал* ўзагидан илгари, олдин сўзлари ҳосил бўлгани маълум. Натижада бу сўз “олдин борувчи шахс” маъносида қўлланади. Шунинг учун энг аввало келинникига борувчи, улар билан гаплашувчи, “айттириб борувчи” одам “элчи”, “совчи” деб юритилган.

Жиловдор сўзининг ўзаги жилов, *-дор* эса шахс отини ясовчи аффикс. Жиловдор отларга қараш унинг ажратган аскар ёки отнинг жиловини тутувчи шахс маъносини англатади.

Дастурхон – ўзаги дастур бўлиб, *-хон* аффикси билан ясалган. Луғавий маъноси ўртага ёзиб устига овқат қўйиладиган махсус мато, рўзғор буюми маъносида изоҳланади.

Хуллас, достонда учрайдиган этнографик атамаларнинг бир қисми ясама отлардан иборат бўлиб, ҳозир ҳам унинг маъноларини изоҳлаш мумкин.

Айримларининг этимологиясини аниқлаш анча мураккаб бўлиб, уларнинг тарихий манбалар, луғатлар ёрдамида аниқлаш мумкин.

2. Қўшма этнографик атамалар асосан от туркумига мансуб сўзлардан иборат. Масалан: *Келинмоли, бешиккирити, бекгачча, бойбича, оқсоқол* кабилар. Бу сўзлар кўпчилиги от+от, сифат+от, от+феъл шаклидаги қўшимча сўзлар саналади. Қўшма этнографик атамаларнинг бир гуруҳи тарихан сўз бирикмаларидан келиб чиққан. Уларни ташкил этган қисмлар ўзининг синтактик муносабатини йўқотиб қўшма сўзга айланганлигини кўрамиз.

Масалан: *бўй етмоқ, куёв улоқ, тўққиз товоқ, йил ағдармоқ, кўнгил қўймоқ, этагига солмоқ, коса берар, қиз сўйлатар, қўл ушлатар, чоч сийпатар, қуллук бўлсин* каби.

Достонда учраган этнотрафик атамалар от+феъл шаклидаги феълли сўз бирикмаларидан ёки от+от шаклидаги отли сўз бнрикмалардан юзага келганини кўрамиз. Кўпинча от+от шаклидаги қўшма сўзлар ўзаро тез бирикиб, битта қўшма сўзга,яъни қўшма этнографик атамага айланади. Масалаи: *куёв новкар. тўққиз товоқ* каби гапга тенг бирикмалар, яъни кампир ўлди, кўнгил қўйди, қиз ўтирсин, қиз сўйлатар кабиларда эса ҳам ҳар бир қисм ўз мустақиллигини йўқотиб қўшма сўзларга ўтиш яъни лексикализацияланиш жараёни давом этаётганлини кўрамиз.

Хуллас, қўшма сўзлардан иборат этнографик атамалари бир бутун ҳолатда битта маънони англатадиган лексик бирлик саналади.

3. Достонда жуфт ва такрорий этнографик атамлар жуда кам учрайди уларни қуйидаги мисоллар орқали кўрсатишимиз мумкин. Асосан, улар тўй номлари ва қариндошликка оид атамаларга хос. Масалан ***Бойсун-Қўнғирот*** элатига етди. *Қирқ кечаю қирқ кундуз тўй томоша бериб ётди* (7-б.). *Шуни элга тоза эркин бўламиз, болаларни **тоға-жиян** қиламиз* (54-б.). ***Оға-ини**, элимда депги бушим, ҳизмат қилинг онсон бўлғай бул ишим* (62б). ***Нормодалар** сенда камроқ бўлами. Мардниинг ёри тўй-талашда қалами?* (69-б.) каби.

Демак, достондан тўпланган мисоллар орқали урф-одат, дастур ва удумлар жуфт ҳолда кам учрайдиганлигини, фақат тўй номлари ва қариндош-уруғ билан боғлиқ этнографик атамаларгина жуфт ҳолда қўлланишини кузатдик.

4. Достонда бирикмали этнографик атамаларни ҳам учратиш мумкин. Уларнинг асосий қисмини қўшма феъллардан тузилган этнографик атамалар ташкил этади. Биз буларни қуйидаги қисмларга ажратиб ўргандик. 1. Тўй ва маросимлар билан боғлиқ бирикмали этнографик лексика: *бўй етмоқ, кўнгил сўрамоқ*. Масалан:

Барчинойим бўй етгандир қаламкаш,
Золим билан ҳаргиз бўлмагин йўлдош. (11-б.)

2. Урф-одат, дастур ва аънаналар билан боғлиқ бирикмали этнографик атамалар: куев навкар, тўққиз тавоқ каби.

Куёв навкар бўлиб бунда туради.
Ўзбекнинг расми шундай бўлади.
Аёллар тўққиз товоқ қилади.
Куёвнинг олдига шундай боради. (162-б.)

Хуллас, этнографик атамалар тузилиши жиҳатидан хилма-хил бўлиб содда, қўшма, жуфт ва бирикмали шаклларда учрашини кузатиш мумкин. Айниқса, қўшма ва бирикмали атамалар тил-тараққиёти натижасида сайқал топиб, такомилла-

[1] Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Т.1. – СПБ, 1983. – 286.

шиб боради. Ўзбек халқ достонлари тилини ўрганиш қипчоқ тарихини, маданияти анъаналарни ўрганишга якиндан ёрдам беради. Бу эса миллий қадриятларимизнинг жуда қадимги даврлардан буён сақланиб келаётганлигидан далолатдир. Ҳозир ҳам Қорақалпоғистон қипчоқ ўзбеклари орасида “Алпомиш” достонида қўлланилган этнографик атамаларнинг кўпчилиги сақланиб қолган.

Resume. It can be seen in the article that the ethnographic terms used in the Alpomysh epic are diverse in structure and occur in simple, complex, double and complex forms. In particular, compound and compound terms are polished and improved as a result of language development. Learning the language of Uzbek folk epics helps to learn the history, culture and traditions of the Kipchaks. This is proof that our national values have been preserved since ancient times.

Резюме. В статье можно заметить, что этнографические термины, использованные в эпосе “Алпомыш”, разнообразны по структуре и встречаются в простых, сложных, двойных и сложных формах. В частности, составные и составные термины отшлифовываются и совершенствуются в результате развития языка. Изучение языка узбекских народных эпосов помогает узнать историю, культуру и традиции кыпчаков. Это доказательство того, что наши национальные ценности сохранились с древних времен.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MAVHUM TUSHUNCHA IFODALOVCHI ARABCHA O‘ZLASHMALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

(o‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillari misolida)

Orazbayev Ergash Yuldashevich,
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

Turkiy tillarda bir qancha mavhum tushuncha ifodalovchi so‘zlar arab tilidan o‘zlashgan lug‘aviy birliklar hissasiga to‘g‘ri keladi. Darhaqiqat, insonlar tomonidan tasavvur va tafakkur orqali idrok qilinadigan, anglanadigan tushunchalar mavhum so‘zlar hisoblanadi hamda bunday lug‘aviy birliklarning til lug‘at fondidagi miqdori o‘sha tilning rivojini, taraqqiysini ko‘rsatuvchi xususiyatlardan sanaladi. Ya’ni ma’lum bir tilga xos mavhum ma’no qatlariga yashiringan inson ichki his-tuyg‘u (emotsiya)lari, hayolot va tasavvur olamining namoyon bo‘lish shakllari, ifoda birliklari o‘sha tilning ma’no nozikliklarini, tushunchalarini, ilg‘amlarini aks ettirish barobarida o‘zida so‘z boyliklarini namoyon qiladi. Mavhum tushuncha ifodalovchi so‘zlarning ko‘pchiligi so‘z o‘zlashishning dastlabki bosqichida yozma manbalar orqali o‘zlashib, keyingi bosqichlarda bu xalqlarning og‘zaki so‘zlashuv tilida ham faol qo‘llaniladigan lug‘aviy birliklar sifatida keng istifoda etila boshlagan va hozirgi davrda ham ushbu tillarning asosiy lug‘at qatlamidan o‘rin olgan. Darhaqiqat, har qanday so‘z o‘zida til sohiblari bo‘lgan etnosning madaniy xususiyatlarini aks ettiradi, ya’ni “madaniy kod” sifatida katta ahamiyatga ega. Zotan, ma’lum bir millat lug‘aviy fondi o‘sha xalq vakillari bosib o‘tgan uzoq tarixga xos milliy-mental o‘ziga xosliklarni tashiydi, xalq turmush tarzi, o‘y-tafakkuri, an’analarini namoyon qiladi. Ana shu ma’noda arab tilidan o‘zlashgan mavhum ma’no ifodalovchi so‘zlarni antroposentrik paradigma asosida, xususan, lingvokulturalogik aspektda o‘rganish juda muhim.

O‘zbek tili leksik qatlamida arabcha o‘zlashmalar asosida hosil bo‘lgan mavhum ma’noli so‘zlar qoraqalpoq va turkman tillariga qaraganda miqdor jihatdan ko‘p. Qoraqalpoq va turkman tillarida mavhum tushuncha ifodalaydigan so‘zlar arabcha o‘zlashmalar bilan birga umumturkiy qatlam va ruscha-baynalmi-

lal o‘zlashmalar asosida yuzaga kelgan lug‘aviy birliklardan iborat. Masalan, o‘zbek tilida: *adolat, istihola, mo‘tabar, kamolot, ma’sum, muqaddas, salobat, takabbur, mag‘rur, qabih, harom, halol, tabassum, tantana, halovat, huzur, alam, dahshat, mashaqqat, mojaro, hijolat, iltifot, ishtiyoq, muruvvat, muhtaram, shafqat, ehtirom, adovat, istehzo, riyo, tajovuz, hurmat, g‘ayrat, e’tibor, jasorat, muhtasar, raqam, laziz, muattar, muallaq, tanqis, tansiq, xolis, shaffof, qanoat, muammo, mubolag‘a, idrok, ikrom, iltijo, sabot tabarruk* va boshqalar. O‘zbek tilidagi arabcha o‘zlashmalarning ko‘pchiligi abstrakt ma’no ifodalovchi so‘zlardir. Hattoki konkret predmet va hodisalar nomi bo‘lgan so‘zlarda ham qandaydir mavhumlik ottenkasi mavjud: *g‘alayon, miqyos, mavj, sohib, ayyom, g‘ubor* va boshqalar[1].

Qoraqalpoq tilidagi arab va fors tilidan o‘zlashgan o‘zlashmalarni N.A.Baskakov oltita lug‘aviy-mavzuviy guruhga ajratgan: diniy mazmunli so‘zlar, ilmiy terminologiya va mavhum tushunchalar, ishlab chiqarish va iqtisodiy terminologiya, ijtimoiy-siyosiy so‘zlar, maishiy leksika, grammatik ma’no ifodalovchi yordamchi so‘zlar. Ushbu so‘zlar tarkibida mavhum tushuncha anglatadigan leksik birliklar ham ancha miqdorni tashkil qiladi: *адил ~ әдил, азап, ар, ғайрат ~ қайрат, ғәрез, дәўлет, қумар, қыял, қымбат, мақсет, имкан, қанағат, пикир, сабыр, нийет* кабилар[2].

Turkman tilida ham bir qator mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar arabcha o‘zlashmalar asosida shakllangan: *sogap, däp, edep, laýyk, jemal, adalat, ähmiýet, hormat, külpet, sabyr, takyk, şert* va boshqalar. Y.Chungayevning “Hozirgi zamon turkman tili. Leksika” darsligida arapcha o‘zlashmalar quyidagicha tasniflangan: 1. Islom dini bilan bog‘liq o‘zlashgan so‘zlar: *azan, ajal, alla, din, mazar, metjit, sadaka, sogap, pitre, täret, şerigat, şükür, remezan, haç*. 2. Arab yozuvining keng tarqalishi bilan bog‘liq holda o‘zlashgan so‘zlar: *elip, elipbiy, ders, bap, zarp, imla, kesir, kitap, molla, medrese, mekdep, mugallym, magaryf, nokat, talyp.* 3. Inqilobdan oldingi davrdagi boshqaruv bilan bog‘liq o‘zlashgan so‘zalar: *häkim, emir, esger, mejlis, memleket, jemhuriýet, halypa, kätip, kazy, hökümet, wezir, ymam, edara*. 4. Oziq-ovqat nomlari bilan bog‘liq so‘zlar: *asal, halwa, tagam, hamyr, gant, nabat, mürepbe, şerap, şeker*. 5. Tabiat hodisalari bilan bog‘liq so‘zlar: *howa, nur, şemal*. 6. Harakat-holat, hol-ahvol nomlari bilan bog‘liq so‘zlar: *däp, edep, edebi, ajap, ajaýyp, pakyr, pukara, syýasy, medeni, jemel, zalym, gadym, möhüm, laýyk, ylmy, taryhy, wagşy*. 7. Narsa otlari bilan bog‘liq so‘zlar: *hasa, şem, jisim*. 8. Umumiy tushunchalar nomlari bilan bog‘liq so‘zlar: *adalat, ähmiýet, emel, bela, hakykat, habar, haraba, hormat, pikir, delil, jeza, zelel, keyp, külpet, mazmun, nazar, wepa, sabyr, surat, takyk, şert, ynsan*[3]. Shuningdek, turkman tilining leksikasi bo‘yicha keyingi davrlarda yaratilgan adabiyotlarda arabcha o‘zlashmalarning farqli tasniflarni ham kuzatamiz[4], ya’ni: 1. Din bilan bog‘liq so‘zlar: *arypulla, arwah, inabet, müfti, zekat, kazy.* 2. Maktab-madrasa bilan bog‘liq so‘zlar: *mektep, medrese, ders, depter, müderris.* 3. Ilm, madaniyat bilan bog‘liq so‘zlar: *alym, ylym, mugallym, medniýet, münejjim*. 4. Harbiy so‘zlar: *zülpükar, jöwşen, jünt*. 5. Predmetlerning, tabiiy hodisalalrning nomlari: *arş*. 6. Odam ismlari: *Äşe, Abdylkadyr, Abdulla, Zekerýa, Zelili, Idris, Züleýha, Isgender*. 7. Ma’danlarning nomlari: jöwher. 8. Maishiy so‘zlar: *asa, arwat, adam, akmak, aýýar, jeset, jümle, jüpbe, zabt, zarp, iblis, lagnat.*

Turkiy tillardagi arabcha o‘zlashmalar asosida hosil bo‘lgan mavhum ma’noli so‘zlar o‘ziga xos lingvomadaniy ma’no ifodalaydi. Ularning ba’zilarini tahlil qilamiz.

Adolat (odil, adl) so‘zi arabcha adalat (un) so‘zidan olingan va o‘zbek, qoraqalpoq va turkman tillarida ayni bir xil ma’noda qo‘llaniladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “odilona ish tutish, odillik” deya izohlangan[5]. Ushbu so‘z asosiga so‘zga umumturkiy va fors-tojikcha yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib, *adolatli, adolatparvar, adolatsiz, adolatsizlik* kabi so‘zlar yasalgan hamda adolatlilik belgisiga egalik yoki ega emaslik ma’nolarini ifodalovchi lug‘aviy birliklar hosil qilingan[6].

Shuningdek, o‘zbek tilida *adolat* so‘zi bilan bir xil asosga va yaqin ma’noga ega bo‘lgan *adl, odil* lug‘aviy birliklari ham qo‘llaniladi: *adl qaror, odil rahbar.*

Qoraqalpoq tilining izohli lug‘atida *adalat (ádil, ádillik)* so‘zi “tenglik, to‘g‘rilik, yaxshilik, haqiqat” ma’nosida izohlangan: *Dúnya jaman adalatlıq zaman joq, Dúnya ótse, serpilejaq duman joq (Berdaq)*[7]. Qoraqalpoq tilida *adalat~ádillik* so‘zlari fonetik variant sanaladi va mazkur so‘z asosida *ádilsiz, ádilsizlik* kabi lug‘aviy birliklar yasalgan.

Adalat (adyl) so‘zi turkman tilining izohli lug‘atida “haqiqat, har qanday vaziyatda to‘g‘ri harakat qilishni ifodalaydigan tushuncha” ma’nosida izohlan-

[1] Ўзбек тили лексикологияси. Масъул муҳаррирлар: Ҳожиев А., Аҳмедов А. –Тошкент: Фан, 1981. – Б. 119.

[2] Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. IV лексика. – Нукус: Билим, 1996. – С. 57.

[3] Чөңңәев Я. Хәзирки заман түркмен дили (Лексика). – Ашгабат: Магарыф, 1988. 66-67-нжи с.

[4] Nartyýew N. Häzirki zaman, türkmen dili (leksika). Ýokary okuw mektepleri üçin okuw kitaby. – Aşgabat, 2010. 155-nji s.

[5] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 538.

[6] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Тошкент: Университет, 2003. – Б. 99; Баранов Х.К. Арабско-руский словарь. – М.: Русский язык, 1976. – С. 268.

[7] Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 4 томлық, I том. – Нукус: Каракалпакстан, 1982. – Б. 28.

gan va o‘zbek, qoraqalpoq tillaridagi ma’nolar bilan bir xil semaga ega[1]: *adalata esaslanmak, adalaty durmuşyň baş yörelgesi edip almak*. Turkman tilida ham *adalat* so‘zi asosida so‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali *adalatly, adalatlylyk, adalatsyz, adalatsyzlyk* kabi lug‘aviy birliklar yasalgan.

O‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillarida *adolat* so‘zi ma’no tarkibini lingvomadaniy aspektda tahlil qilganimizda ushbu so‘z tor va keng ma’noda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. 1. *Adolat* so‘zi keng ma’noda ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb etib, odatda mamlakat rahbari, vazirlik, idora, korxona, muassasa rahbarlarining, mahalliy boshqaruv organlari boshliqlari, lavozimli shaxslarining, shuningdek, huquqni himoya qiluvchi organlar xodimlari: sud, prokuratura, ichki ishlar xizmatchilarining biror huquqiy akt, xatti-harakat yoki voqealikni qonun talablari, normalariga mutlaqo mos shaklda baholashlarini, hukm qilishlarini (chiqarishlarini), ijro etishlarini ifodalovchi so‘z sifatida tushuniladi, qo‘llaniladi. Ushbu holat ma’lum bir mamlakatdagi ijtimoiy voqealikni aks ettiradigan qonunchilik me’yorlariga asoslanganlik, o‘sha me’yorlarni aniq vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llaganlik, asosli baholanganlik sifatida qaraladi. 2. Tor ma’noda esa *adolat* tushunchasi insonlar o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlardagi ma’lum masalalar bo‘yicha xatti-harakatlarning, munosabatlarning, chiqarilgan qarorning o‘sha vaziyatga yoki insoniylikka, gumanizmga mosligini ko‘rsatuvchi belgi sifatida qaraladi. Mazkur ma’noda *adolat* so‘zi kam qo‘llaniladi, ya’ni ushbu ma’noda *vijdon, insof, iymonlilik* kabi lug‘aviy birliklardan foydalaniladi.

Mavhum so‘zlar asosida ushbu tillarda atoqli otlar ham hosil bo‘lgan. Jumladan, *Adolat* – o‘zbek tilida ayollar ismi, *Odilbek, Odilboy, Odiljon* – o‘zbek tilida erkaklar ismi; *Ádilbek, Ádilbay* – qoraqalpoq tilida erkaklar ismi sifatida ishlatilishi ham bu lug‘aviy birliklarning lingvomadaniy xususiyat ifodalashi bilan bog‘liq. Aniqrog‘i, har bir xalq, millat o‘zi orzulagan, muhim deb hisoblagan, go‘zallik, nafosat belgisi hisoblanadigan so‘zlarni farzandlariga ism qilib qo‘yishadi va tug‘ilgan chaqaloqning ana shu ezgu maqsadlarni, orzu-istaklarni o‘z hayotlari asosi sifatida olib yurishlarini istashadi.

Shuningdek, *adliya (o‘zb.), ádillik (qqalp.), adylyýet (turkm.)* so‘zlari *adolat, adl* lug‘aviy birliklari bilan asosdosh bo‘lib, huquqiy terminologik ma’no anglatadi: mamlakatdagi, jamiyatdagi qonun ustuvorligini ta’minlaydigan, qonunlarga rioya qilinishini nazorat qiladigan, qabul qilinadigan huquqiy me’yorlarning qonunchilikka mosligini ko‘rib chiqadigan davlat organi ma’nosida qo‘llaniladi. O‘zbek tilida: *Adliya vazirligi*; qoraqalpoq tilida: *Ádillik ministrligi*; turkman tilida: *Harby adylyýet edarasy*.

Haqiqat so‘zi arabcha haqïqat(un) (АРС, 185) so‘zidan olingan bo‘lib, turkiy tillar imlosida ba’zi fonetik o‘zgarishlar bilan olingan hamda ‘chinlik, rostlik, to‘g‘rilik; chin to‘g‘ri ma’no‘ (ЎТИЛ, 5-581), ‘rost bo‘lgan voqea, to‘g‘ri, aniq, to‘g‘ri ahvol’ (ҚТТС, 4-464), ‘to‘g‘rilik, rostlik holati’ (TDDS, 2-540) ma’nolarini ifodalaydi: *Inson baxti mehnatda ekanligi haqiqat* (o‘zb.). *Sózim zaya boldı talay gereńge, Haqıyqat dos búgin ózin bildirdi (I.Yusupov. qqalp.)*. *Hakykaty yaşyrmak mümkin däl* (turkm.).

Turkiy tillar lisoniy manzarasida *haqiqat* so‘zi ko‘proq barcha insonlar uchun umumiy bo‘lgan falsafiy ma’nodagi obyekt va moddiy ashyolarga nisbatan mavjudlik, obyektiv yaratilganlik; ijtimoiy jihatdan voqea-hodisa, jarayonlarga nisbatan chinlik, haqiqiylik, rostlik; to‘g‘riligi qonun bilan asoslangan, ilmiy jihatdan isbotlangan voqealik ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llaniladi. *Haqiqat* so‘zi bilan sinonim sifatida turkiy tillarda umumturkiy asosli *to‘g‘ri,* xitoycha *chin*, fors-tojikcha *rost* so‘zlari ham qo‘llaniladi va ushbu lug‘aviy birliklar assosatsialari, valentligiga, uslubiy xoslanish belgisiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi: *to‘g‘ri* yoki *to‘g‘rilik* moddiy narsalarga, vertikal va gorizontal yo‘nalishdagi harakatga, insonning xarakter-xususiyatlariga nisbatan qo‘llaniladi. Masalan: *to‘g‘ri tayoq, to‘g‘ri yo‘l, to‘g‘ri gap* kabilar. *Haqiqat, rost, chin* lug‘aviy birliklari esa odatda voqealikka, hodisa va jarayonlarga nisbatan qo‘llanilib, “kishi ongida voqealikning, obyektiv borliqning haqqoniy to‘g‘ri aks etishi” (ЎТИЛ, 5-581) ma’nosini ifodalaydi.

Shuningdek, *haqiqat, haq* so‘zlari ko‘chma ma’noda diniy, jumladan, islom dini nuqtayi nazardan Allohning mavjudligiga ishonish, imon ma’nolarini ham aks ettiradi. O‘zbek tilida *biru bor,* turkman tilida *biribar* so‘zlari ushbu ma’noda umumturkiy asosda hosil qilingan birliklar hisoblanadi: *Qayerga borsang ham, biru bor seni o‘z panohida asrasin* (ЎТИЛ, 1-280). *Biribar näme ajap bolsa, şony hem ýaradypdyr* (TDDS, 1-156). Qoraqalpoq tilining izohli lug‘atida ushbu so‘z izohlanmagan.

Davlat so‘zi arabcha davlat(un) so‘zidan olingan[2] va o‘zbek tilida omonimlikka ega bo‘lagan lug‘aviy birlik hisoblanadi: davlat I – hokimiyat, davlat II – boylik. Davlat so‘zi birinchi ma’noda “o‘z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo‘lgan mustaqil mamlakat[3]” ma’nosini ifodalay-

[1] Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi. I tom. – Aşgabat: Ylym, 2006. 305-nji s.

[2] Баранов Х.К. Арабско-руский словарь. – М.: Русский язык, 1976. – С. 268. Бу ҳақда қаранг: Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 99.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 538.

di: *O‘zbekiston davlati, davlat mulki, mustaqil davlat* va hokazolar.

Qoraqalpoq tilining izohli lug‘atida *дәўлет* so‘zining bir ma’nosi, ya’ni “rizq, boylik, dunyo (mol), barakat” ma’nosida izohlangan: *Еккен пахта ел дәўлети*[1]. Ushbu so‘zning o‘zbek va turkman tillaridagi birinchi ma’nosi – ijtimoiy-siyosiy termin ma’nosida qoraqalpoq tilida boshqa bir arabcha o‘zlashma – *мәмлекет* so‘zi ishlatiladi: *мәмлекетлик уйымлар, мәмлекетлик басқарыў, ғәрезсиз мәмлекет* va hokazolar.

Döwlet so‘zi turkman tilining izohli lug‘atida ham omonim so‘z sifatida izohlangan va o‘zbek tilidagi ma’nolar bilan bir xil semaga ega[2]: *garaşsyz döwlet, döwlet edaralary, döwlet harby gullygy* va h.

O‘zbek tilida *davlat* va *mamlakat* lug‘aviy birliklari sinonim so‘zlar sifatida bir xil ma’noda qo‘llaniladi, farqli ma’noga ega emas. Hozirgi turkman adabiy tilida *memleket* so‘zi faol qo‘llanilmaydi, eskirgan qatlamga o‘tgan va hozirda badiiy asarlarda tarixiy davrni ifodalash, tarixiy sharoitni tasvirlash maqsadidagina qo‘llaniladi.

Davlat so‘zi o‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillarida ko‘chma ma’nolarni anglatib, lingvomadaniy xususiyat ifodalab keladi. Bunda ikki xil ma’noni alohida ajratish zarur:

1. Boylik, mol-dunyoga egalik, moddiy jihatdan yaxshi ta’minlanganlik ma’nolarida predmet, narsa-buyumga xos so‘zlar bilan valentlik hosil qiladi. Masalan, o‘zbek tilida: *Davlat tugar – bilim tugamas*. Qoraqalpoq tilida: *Бийдәўлеттиң басы сынады, дәўлетлиниң тасы сынады.* Turkman tilida: *Meniň malym, döwletim hem bar, emma munuň ýaly janly aşygym yok.*

2. Ilohiydan berilgan boylik, martaba (*davlat qushi*), obro‘, ota-ona, farzandlar kabilar: *Davlating – ota-onang*. *Açyldy talyg ýyldyzyň, Saňa döwlet geldi bolgaý (Görogly).* Turkiy tillarda ushbu ma’no bilan bog‘liq holda ota-onasi ulug‘ yoshga yetgan va hayot bo‘lgan, farzandlari (ayniqsa, o‘g‘il farzandlari) ko‘p oilalar, obro‘yi, martabasi ulug‘, el-xalq ichida hurmat qozongan va hurmat qilinadigan, shuningdek, barakali moddiy ta’minlangan insonlarga nisbatan so‘zlashuv uslubida “davlatli, davlatga ega, piri badavlat, badavlat” so‘zlari qo‘llaniladiki, bu so‘z ma’nosi orqali sifatlanib kelgan ot (ko‘proq aniq bir shaxs) ilohiydan berilgan, toleyiga yozilgan, Alloh taqdir qilgan va suygan insonlar sifatida qaraladi. Shuningdek, *davlat* el-yurt, xalq, mamlakat farovonligi, baxt-saodati sifatida ham ma’no ifodalaydi. Ayniqsa, turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti vakillari ijodida *davlat* so‘zining yuqordagi ma’nosi namoyon bo‘lgan misollarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Quyida Alisher Navoiy, Ajiniyoz, Maxtumquli she’rlaridan olingan namunalarga murojaat qilamiz:

O‘zbek tilida: *Bor-u yo‘qning mehnatin chekmas bu davlat basdurur,*

Har kishi olamda qone’ bo‘lsa yo‘q-u bor ila (Navoiy[3]).

Qoraqalpoq tilida: *Ǵosh yigittiń dáwleti bar bashında,*

Hám aǵası, hám inisi qashında (Ajiniyoz[4]).

Turkman tilida: *Ile döwlet geler bolsa,*

Başdan-burun ozan geler.

Döwlet ilden gider bolsa,

Molla bilen tozan geler (Maxtumquli[5]).

Umuman, o‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillarida mavhum ma’no ifodalovchi arabcha o‘zlashma so‘zlar bu tillar lug‘at fondidan barqaror o‘rin olgan lug‘aviy birliklar bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy xususiyatlar bilan chambarchas holda lingvokulturologik mazmun kasb etadi. Bunday xususiyatlarning lisoniy tabiatini o‘rganish bir tomondan xalq madaniyatini tadqiq qilishda muhim hisoblansa, ikkinchi tomondan alohida olingan xalqlar va tillarining moddiy, ma’naviy taraqqiyoti asoslarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Resume: In this article, the general characteristics, integral and differential meanings of Arabic loanwords, which mean abstract concepts in the Uzbek, Karakalpak, and Turkmen languages, are analyzed.

Резюме: В данной статье анализируются общая характеристика, интегральное и дифференциальное значения арабских заимствований, обозначающих отвлеченные понятия в узбекском, каракалпакском и туркменском языках.

[1] Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 4 томлық, II том. – Нукус: Каракалпакстан, 1984. – Б. 68.
[2] Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi. I tom. – Aşgabat: “Ylym”, 2006. 305-nji s.
[3] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 436.
[4] Әжинияз. Таңламалы шығармалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1994. – Б. 33.
[5] Magtymguly. Saýlanan eserler ýygyndysy. – Aşgabat: Türkmen döwlet neşiriýaty gullygy, 2014. 319-njy s.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DISKURSIV YONDASHUVGA DOIR NAZARIYALARDA SIYOSIY DISKURS IFODASI

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

XX asarning 90-yillaridan boshlab o'zbek tilshunosligida antroponestrik nazariya jarayonlari bo'yicha tadqiqot ishlari boshlandi. N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi va yo'llarini izlab", D.Xudoyberganovaning "Matnning antroposentrik tadqiqi"[1] kabi ishlarida zamonaviy lingvistik yo'nalishlarni o'zbek tilshunosligiga olib kirish va qo'llash masalalari ilmiy jihatdan ifodalab berildi. Shu asosda XXI asr o'zbek tilshunosligida bir qancha yangi fanlar: lingvokulturologiya, psixolingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi, areal lingvistika, ontolingvistika fan tarmog'i sifatida kirib keldi. Jamiyatning demokratlashuvi va ijtimoiy ong hamda tafakkurning taraqqiyoti natijasi jamiyatni boshqaruvchi rahbar shaxslar nutqini ham tadqiq etish dolzarbligini ifodalamoqda. Shu asosda tilshunoslikda yangi soha – siyosiy lingvistika, siyosiy tilshunoslik sohasi yuzaga keladi. Siyosiy lingvistika hozirgi zamon tilshunosligida faol rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida qaralmoqda. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bakalavriat, magistratura dasturlarida "Siyosiy lingvistika" alohida fan sifatida ham o'rgatilmoqda[2]. Uning fan sifatida obyekti, predmeti ishlab chiqildi. Siyosiy lingvistikada asosiy e'tibor siyosiy til, siyosiy kommunikatsiya va diskurslarning muhim xususiyatlarini tadqiq etishga qaratiladi. Shuningdek, siyosiy lingvistikada mafkuraviy g'oyalarning siyosiy matnda ifodalanishining eng muhim metodlari, ularning ilmiy mazmuni tahlil etiladi. Siyosiy lingvistikada "diskurs" tushunchasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Muloqotning dikurs nazariyasi mustaqil fan sohasi sifatida 1960-yillarning o'rtalarida shakllana boshladi. Bu davrda olimlarning tilni ajralmas aloqa vositasi sifatida qarashga intilishi matnlarni o'rganishda o'z ifodasini topdi. Tilshunoslik asta-sekin gapni o'rganish doirasidan chetga chiqib, keyingi bosqich gaplar zanjiri – to'liqlik, yaxlitlik, izchillik va hokazo kabi belgilovchi xususiyatlarga ega bo'lgan matnni tahlil qilishga o'tdi[3]. Diskurs atamasiga lingvistik lug'atlarda ham turlicha izohlar keltirib o'tilganini kuzatishimiz mumkin. Xususan, T.Jerebilo tomonidan yozilgan "Lingvistik terminlar lug'ati"da diskurs terminiga atroflicha to'xtalib o'tilgan. Discurse (nemischa diskurs, fransuzcha diskurs, inglizcha discourse). 1) asl ma'no - oqilona fikrlash. 2) Keyin bu atama dialog ma'nosida qo'llanila boshlandi[4]. Shuningdek, dunyo tilshunosligida diskurs so'zining quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

a) yozma matnlarda yoki og'zaki nutqda qayd etilgan, ma'lum bir kognitiv va tipologik shartli makonda amalga oshiriladigan o'ziga xos kommunikativ hodisa;

b) situvatsion kontekst bilan uzviy bog'langan matn.

Nemis tilshunosligining avstriya maktabida diskurs ma'lum bir ijtimoiy amaliyotning lisoniy ifodasi, tilning o'ziga xos tarzda tartiblangan va g'oyaviy, tarixiy jihatdan shartlangan mentalitetni ifoda etuvchi tizimlashtirilgan qo'llanishi sifatida belgilanadi.

Ingliz olimlarning asarlarida diskurs atamasining ma'nosi dastlab izchil matn sifatida berilgan bo'lsa, undan keyin matnning og'zaki-so'zlashuv shakli, dialog, ma'no jihatdan bir-biriga bog'langan gaplar guruhi kabi ma'nolarni ifodalagan.

Tilshunos A.Kibrik diskursni og'zaki nutqni qurish va tushunish jarayonlari sifatida izohlasa, E. Ben-Veniste so'zlovchi tomonidan ifodalangan nutq, hayotga singib ketgan nutq sifatida ifodalaydi. Golland tilshunosi T.A.van Deyk diskursni bir nechta darajada ko'rib chiqishni taklif qiladi. U keng ma'noda diskursga kompleksli kommunikativ voqea, tor ma'noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. Ta'kidlash kerakki, T.A.van Deyk diskurs va matn o'rtasidagi farqni shunday belgilaydi: diskurs –

[1] Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab…// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012; Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.

[2] https://kpfu.ru/pdf/portal/oop/19970.pdf

[3] Темнова Е.В. Современные подходы к изучению дискурса // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. - М.: МАКС Пресс, 2004. – С. 32.

[4] Жеребило Т. В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр.и доп. – Назрань: ООО "Пилигрим", 2010. – 94 с.

aktual aytilgan matn, ya'ni faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir. Diskurs – aniq suhbat, aniqlik esa diskurs tushunchasi qo'llanadigan vaziyatga, matnga va obektga ham birday talluqlidir. Diskurs – suhbat turi[1].

"Diskurs" atamasining o'zbek tilida keltirilgan izohlarida unga, loticha diskurs – muhokama so'zidan olingan bo'lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokama talab bilimdan farqli o'laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil – isbotli bilim[2] yoki so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro suhbat, savolga yarasha javob berish[3] deya izohlar keltirilgan. Ikkinchi keltirilgan lug'atda pragmalingvistikada diskurs tushunchasining mohiyatini ancha keng yoritib berilgan. Jumladan, muloqot jarayonida so'zlovchi (diskurs nazariyasida bu kommunikator deb ataladi) tinglovchiga (adresatga) o'z nutqi yoki muloqot jarayoni orqali o'zini tanishtirishi hamda diskurs fikrni bayon qilish jarayoni, lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og'zaki shakli moddiy voqelanishi, lisoniy va nolisoniy vositalarning birgalikda ishlatilishi hamda uning lingvo-etno-psixo-situasion omillar majmui ekanligi bildirib o'tilgan. Demak, diskurs tilshunoslikda gap yoki nutqda bog'langan va kelishilgan oqibat sifatida vujudga kelgan bo'lsa, hozirgi zamonaviy lingvistikada murakkab komunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda.

Diskursning ijtimoiy tabiati yangilikli diskurs, publitsistik diskurs, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, badiiy diskurs, baholovchi diskurs kabi yangi tushunchalarning yuzaga kelishiga imkon beradi. Talqin va izohlarning xilma-xilligi diskurs tushunchasining ko'p qirrali va keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi. Insonning nutq orqali amalga oshadigan barcha ijtimoiy faoliyati diskursiv xarakterga ega. Nutqning ijtimoiy mohiyati matn bilan bog'langan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari matnning u yoki bu ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Diskursning tarmoq sohalari orasida siyosiy diskurs ham muhim o'ringa egaligi bilan ajralib turadi. Siyosiy diskursga oid bir qancha tadqiqotlarda bu tushunchani turli xil tarzda nomlash holatlarini kuzatish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ushbu atama "siyosiy diskurs" ("политический дискурс"; E.I.Sheygal, A.N.Baranov), "ijtimoiy-siyosiy nutq" ("общественно-политическая речь"; T.V.Yudina), "siyosiy-tashviqot" ("агитационно-политическая речь"; A.P.Chudinov), jamoatchilik fikri tili (язык общественноймысли; P.N.Denesov), siyosiy til (политический язык; O.I. Vorobeva) kabi ta'riflanadi[4].

Diskursiv amaliyotning eng muhim elementi siyosiy diskursdir. Siyosiy diskurs har doim siyosiy tizimning muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Siyosiy diskursda vositalar va usullar bilan ifodalangan xalqchillik ruhi kuchli bo'ladi. Bu siyosiy diskursning oldiiga qo'ygan maqsadlariga mutanosib ravishda vazifalariga bog'liq bo'ladi. Negaki, xalq ruhiyatiga hamda tiliga mos so'zlar va iboralar auditoriyani o'ziga jalb qila oladi. Siyosiy nutq institutsional aloqa sifatida talqin etilib, shaxsga yo'naltirilganidan nutqdan farqli o'laroq, u ma'lum bir professional yo'naltirilgan belgilar tizimdan ya'ni lug'at, frazeologiya va paremiologiyadan foydalanadi.

Siyosiy diskursda siyosiy ritorika ham muhim o'ringa ega hisoblanadi. Siyosiy ritorika siyosiy diskursda insonning siyosiy notiqlik ko'nikmasi orqali namayon bo'ladi. Siyosiy diskursda muloqot matni ham muhim sanaladi. Siyosiy muloqot matnini yaratishda milliy tildan foydalanish zarur bo'ladi. Siyosiy diskursda siyosiy tilining quyidagi turkumlarini keltirib o'tish muhimdir[5]. Ular:

1. Assertorlik siyosiy til – siyosiy fikrni o'ziga xos tarzda ifodalash tili. Uning yordamida siyosiy til nazariyasining asosiy g'oyalari ta'riflanadi. Assertorlik siyosiy til formallashgan va formallashmagan bo'ladi. Formollashtirilgan siyosiy tilga har qanday siyosiy voqelikni ifodalovchi formal mantiqiy dalilalar misol bo'lishi mumkin. Formallashtirilmagan siyosiy tilga obyektiv siyosiy o'zgarishlarning tasdiqlovchi, siyosiy bashoratlarni o'z ichiga oluvchi siyosiy atamalar bilan to'ldirilgan fragmentlari kiradi.

2. Siyosiy model tili. U yangi siyosiy model va model- reprezentatsiya siyosiy matnning boshqa elementlarini yaratish uchun xizmat qiladi. Bu til ancha mukammal tavsiflash tiliga ega bo'lib, u yuqorida aytilganidek ham formallashgan va formallashtirilmagan tillarga bo'linadi. Formallshtirilgan siyosiy model tillari siyosiy matnni yaratishda matematik belgi va vositalardan foydalanishga asoslanadi.

3. Siyosiy prosedura tili. U ikkinchi darajali siyosiy til turkumiga kiradi va o'lchash sanash proseduralari hamda hamda siyosiy til iboralarini o'zgartirish qoidalarini, vazifalarini qo'yish va yechish jarayonlarini tavsiflashga xizmat qiladi.

4. Aksiologik siyosiy til. U siyosiy nazariya unsurlariga berilgan turli baholarni tavsiflash uchun imkoniyat yaratadi, yangi siyosiy nazariya, tajriba struktur-

[1] Дейк Т.А. ван. Язык, познание, коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 372.

[2] Абдуллаева М., Абдурашидов М., Абилов У. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Шарқ. – Б. 126.

[3] Тоирова Г. Прагмалингвистика. Ўқув луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 9.

[4] Анна У. Стилистические и лингво-прагматические характеристики публичной речи политических лидеров россии конца XX и начала XXI веков, diss.канд. филол. наук. – М., 2019. – С. 26.

[5] Синева Г. Сиёсий дискурс (фалсафий тадқиқот). – Toshkent: Akademiya, 2016. – Б. 54.

asidagi jarayonlar va proseduralarni taqqoslash vositalarini o‘z ichiga oladi.

5. Erotetik siyosiy til. U siyosiy savollar, siyosiy masalalar, siyosiy muammolar, siyosiy vazifalar yoki topshiriqlarni ta’riflashni o‘z ichiga oladi.

6. Evristik siyosiy til. U siyosiy nazariyaning evristik qismini, ya’ni nomuayyanlik sharoitidagi siyosiy maqsadlarni tavsiflashni amalga oshiradi. Ya’ni siyosiy muammoni qo‘yish aynan evristik siyosiy til yordamida amalga oshiriladi.

Xulosa sifatida shuni aytish o‘rinliki, bugungi kun tilshunosligida diskurs, uning turli sohalarda voqelanishi borasida izlanishlari hozirda ham faol davom etmoqda. Xususan, uning siyosiy diskurs tarmog‘ini tadqiq etish, siyosiy matnlarning diskursiv holatdagi ma’no xususiyatlari ochish borasidagi ishlar ham dolzarb hisoblanib, bir qancha tadqiqotlar uchun obyekt vazifasini bajarmoqda.

Resume. In this article, when studying the term discourse in modern linguistics, great importance is attached to the expression and analysis of scientific theories. The development processes and features of political linguistics are discussed.

Резюме. В данной статье при изучении термина дискурс в современной лингвистике большое значение придается выражению и анализу научных теорий. Обсуждаются процессы развития и особенности политической лингвистики.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TERMINOLOGIYADA POLISEMIYA HODISASINING TALQINI

Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi kunda inson ijtimoiy faoliyatining barcha jabhalarida: iqtisod, san’at, madaniyat kabi ko‘plab boshqa sohalarda jadal taraqqiyot va o‘zaro integratsiya to‘xtovsiz davom etib kelmoqda. Bu o‘z navbatida yangi fan tarmoqlarining paydo bo‘lishi bilan birga yangi tushuncha va terminlarni yuzaga keltirmoqda. Terminosistemaning bunday boyib borishi tilshunoslar oldiga ushbu sohani har tamonlama puxta o‘rganish zaruratini qo‘ymoqda. Bu zarurat asosida esa yangidan yangi tadqiqotlar maydonga kelmoqdaki, buning natijasida, yangi monografiyalar, dissertatsiyalar, umumlingvistik va maxsus lug‘atlar dunyo yuzini ko‘rmoqda. Bajarilayotgan bu ishlarning barchasi, albatta, inson va uning manfaatlari uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

Mazkur maqola tilshunoslik fanlari orasida alohida mavqega ega bo‘lgan terminologiya sohasida kuzatiluvchi polisemiya hodisasi haqida rus va o‘zbek tilshunoslarining fikr-mulohazalari tahliliga e’tibor qaratiladi.

Terminologiya sohasida birichi bo‘lib chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus olimi D.S.Lottening ta’kidlashicha, terminda “nisbiy aniqlik” bo‘ladi. Muayyan bitta termin muayyan soha terminologiyasida bir ma’noli bo‘lishi lozim[1]. O.S.Axmanova ham o‘zining “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati” nomli kitobida ta’kidlashicha, terminlar polisemiya va kontekst o‘rtasidagi munosabatlar masalasi bilan bog‘liq atama” ekanligini ta’kidlab, terminlar asosan monosemantik tabiatli bo‘lishi mumkin[2].

A.V.Superanskaya esa “Termin – bu professional bilimlarning muayyan sohasi atamalar tizimiga kiruvchi tushuncha hisoblanib, u so‘z bilan ifodalanadi. Termin – maxsus maqsadlar uchun mo‘ljallangan tilning asosiy ma’noviy elementidir. Termin bir ma’noda qo‘llaniladi. Turli maydonlarning bir xil aytiladigan terminlari – omonimlardir”[3], degan fikrni ilgari suradi.

Rus tilshunoslarining ilmiy tadqiqot ishlarini kuzat-

[1] Лотте Д.С., Основы построения научно-технической терминологии. – Москва: Изд-во АН СССР, 1961. – 160 с.

[2] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-е. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.

[3] Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: УРСС, 2009. – С. 5.

adigan bo‘lsak, bunda terminlarning monosemantikligi haqidagi fikrlar ustuvorlik kasb etganining guvohi bo‘lamiz. Lekin bu tadqiqotlardan olingan xulosalarga qo‘shilmaydigan olimlarning ilmiy maqolalarida bayon etgan fikrlari bilan ham tanishib chiqish o‘rinli nazarimizda.

Xususan, rus tilshunosi V.A.Tatarinov terminologiyada monosemiyaga zid bo‘lgan polisemiya hodisasi ham mavjudligini, terminologik birlik polisemiyasi salbiy xususiyat sifatida baholanmasligini ta’kidlaydi[1].

Ko‘p ma’noli leksemalarda semalar miqdori turlicha bo‘ladi. Ikki va undan ortiq ma’noga ega polisemantik leksemada hosila ma’nolar uchun asos bo‘lgan ma’no har doim umumiy bo‘lavermaydi. O‘zbek tilining terminologik tizimlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda berilgan ilmiy fikrlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, aksariyat terminologik tizimlarda mavjud terminlarning ko‘pchiligi monosemantik ekanligini kuzatamiz. Ammo bu hol terminosistemada polisemiya mavjud emas, degan xulosani bermaydi. Leksemalarga xos monosemiya va polisemiya hodisalari terminologik tizim leksemalarida o‘ziga xoslik kasb etadi. Bu terminga qo‘yiladigan talab bilan bog‘liqdir. Ya’ni terminlarda zarur hisoblangan aniqlik xususiyati uni ma’no ko‘lamining umumiste’mol leksemalar ma’no ko‘lamiga nisbatan tor bo‘lishiga olib keladi. Mana shu jihatdan ham turli sohalarda qo‘llab kelinayotgan terminlarning ma’no ko‘lamini maxsus o‘rganish muhim ilmiy va amaliy (xususan, lug‘atshunoslik) uchun xulosalar bera olishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Terminologiya sohasida tadqiqot olib borgan o‘zbek tilshunos olimlarining ilmiy xulosalriga e’tibor qaratar ekanmiz o‘zbek tilshunosligida ham terminga bir ma’nolilik xos xususiyat ekanligi qo‘llab-quvvatlangan. Bu fikrning isboti tariqsida professor Said Usmonovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinli.

“Termin hamma vaqt – gapda ham, gapdan tashqarida ham bir ma’noli bo‘ladi. Uning bir ma’noli bo‘lishi ma’lum fan yoki maxsus sohadagina qo‘llanish xususiyati orqali yuzaga keladi”[2] deb ta’kidalaydi olim. Termin ilm-fan, texnika, inson faoliyatining muayyan sohasi yoki o‘zaro yaqin bo‘lgan sohalar doirasida bir ma’noli bo‘ladi. Bu esa tilshunoslikda terminlarning monosemantikligi haqidagi qarashlar ustuvor ekanini bildiradi.

Ma’lumki, fan aniqlikni talab qiladi va o‘z-o‘zidan fan sohasida qo‘llanuvchi terminlar ham aniqlikka intiladi. Akademik Azim Hojiyev ta’kidlaganidek, “terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressiv va emotsionalikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan umumiste’moldagi so‘zlardan farqlanadi[3]. Ya’ni terminda ijobiy yoki salbiy ma’no ottenkalari, birdan ortiq semalarning mavjudligi terminning aniqligiga putur yetkazadi.

Terminlararo ko‘p ma’nolilikni tilda mavjudligini e’tirof etish va tan olish lingvistikaning turli tilshunoslik maktablarining tadqiq yo ‘nalishiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Tilshunos olim I.Islomovning qayd etishishicha, ko‘p sonli terminlarning polisemantikligi, ularning kontekstga bog‘liqligi terminlarning qo‘shimcha lingvistik tabiati, ularning nazariya, ilmiy yo‘nalishlar va maktablar bilan aloqadorligi bilan izohlanadi va u bilan aloqador[4].

Sh.Safarov hamda X.Saitqulovlarning fikricha, aynan terminlar bir ma’noli ekanligi bilan so‘zlardan farq qiladi. Uning semantikasida konnotativ sema yuzaga kelmasligi terminning tabiatiga xos. Boshqa tilshunoslar esa bir ma’nolilik faqat matn bilan aloqadorlikda namoyon bo‘lishi, ya’ni har qanday matnda aynan bir tushunchani ifodalab, matn ichidagina bir ma’noli bo‘lishini ta’kidlaydilar”[5].

Terminologik polisemiya barcha soha terminologiyasida kuzatiladi. Bu holat umumfilologik va maxsus lug‘atlarda ham keng holda o‘z aksini topmoqda. Ayrim terminlarning semantik strukturasi umumleksik ma’no, terminologik ma’nodan tarkib topgan bo‘lsa, ba’zi terminologik birliklarda birdan ortiq tushuncha bilan bog‘liq ma’nolar mujassamlashganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu esa leksik-semantik munosabatlarning terminologiyadagi o‘rnini, terminologik polisemiyaning shakldoshlik va polifunksionallik bilan munosabati masalasini alohida yondashuv asosida baholash va tavsiflash hamda terminologiyada yuzaga kelayotgan ko‘p ma’nolilikning oldini olish, tartibga solish bilan bog‘liq vazifalarning dolzarbligini ko‘rsatib turadi.

Bir guruh tilshunos olimlar biror so‘zning termin bo‘lishi uchun uning qo‘llanish doirasi cheklanishi shart emasligi, biror soha doirasida terminlik kasb etishi qat’iy talab emasligini ta’kidlaydi. Muayyan tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalari termin bo‘lavermasligi to‘g‘risida fikrlarini bayon etadi. Ta’kidlash lozimki, terminning bir ma’nolilik xususiyati muayyan soha terminosistemasida namoyon bo‘ladi. Ushbu terminologik tizim doirasidagina monosemantiklik kasb etadi. Bosh-

[1] Татаринов В.А. Теория терминоведения:в 3 т./ В.А. Татаринов. – М.:Московский Лицей, 1996. – 366 с.

[2] Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – Б.7.

[3] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 104.

[4] Исломов И. Ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси,семантик структураси ва лексикографик талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. – Қарши, 2021. – Б. 125. – 216 б.

[5] Сафаров Ш.С., Саиткулов Х.С. Теория и практика терминологической номинации. Учебное пособие. – Самарканд: СамГУ, 1986. – С. 59.

qa soha terminosistemasida qo‘llanganda esa bir ma’nolilik jihatini yo‘qotadi.

Terminosistemada polisemiya hodisasi mavjudligini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ni tadqiq obyekti sifatida kuzatganimizda duch kelishimiz mumkin. Lug‘atda ko‘p ma’noli sifatida berilgan so‘zlar oldidan uning termin ekanligini ko‘rsatib beruvchi pometalar bilan kelgan. So‘zimizning isboti tariqasida lug‘atdan olingan quyidagi misolga e’tibor qaratamiz:

Agglyutinatsiya 1 *biol*. Suyuqlik ichida mual-laq suzib yuradigan zarrachalarning, mas, qizil va oq qon tanachalari, mikroblar va sh.k. ning bir-biriga yopishib, qumoq-qumoq bo‘lib cho‘kishi.

2 *tlsh*. So‘z yasalish yoki shakl (forma) yasalish asosini o‘zgartmagan holda unga standart affikslarni qo‘shish orqali so‘z yoki shakl yasalishi. Agglyutinatsiyada har bir affiks faqat bir grammatik ma’noga ega bo‘ladi. Mas, terimchilarimizga so‘zidagi har bir qo‘shimcha (-im, -chi, -lar, -{i)miz, -ga) o‘ziga xos ma’no va vazifaga egadir[1].

Tilshunoslarga ko‘proq lingvistik termin sifatida ma’lum bo‘lgan *agglyutinatsiya* atamasi biologiya fanida ham qo‘llanishini lug‘atdan bilib olishimiz mumkin.

Fikrimizni misollar bilan davom ettiradigan bo‘lsak, *dislokatsiya* termini izohli lug’atda polisemantik termin sifatida berilgan. Uning semalari harbiy termin sifatida harbiy qismlarning mamlakat bo‘ylab belgilangan joylarga o‘rnashtirilishi, harbiy-havo kuchlarining tegishli aerodromlarga, harbiy-dengiz floti kemalarining portlarga taqsimlab joylashtirilishi ma’nosini anglatsa, geologiyada tog‘ jinslari dastlabki joylanishining buzilishi, o‘zgarishi izohi bilan berilgan. Bu terminning uchinchi semasi tibbiyot termini sifatida sinish yoki chiqish paytida suyakning joyidan siljishi deb ta’riflangan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, tilshunoslik sohasi mutaxassislari, xususan, terminologlar tomonidan terminning monosemantik yoki polisematik bo‘lishi masalasi yechimi hali to‘liq hal etilmagan. Obyektiv jarayon shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim terminlarning semantik tarkibi birdan ortiq ma’nodan tashkil topganligini, ya’ni terminologik polisemiyaning mavjudligini ko‘rsatib turbidi.

Resume: This article analyzes the scientific isoxes of information provided by the Russian and Uzbek languages of the police service, which provides information about terminology. While much information in terms has been refuted by terminological scientists, the object has considered that the state-separated terms are polysemantic.

Резюме: В данной статье анализируются выдающиеся научные объяснения феномена многозначности, зафиксированные в области терминологии, со стороны русских и узбекских лингвистов. Хотя многозначность терминов отвергается учеными-терминологами, объективная ситуация предполагает, что некоторые термины являются многозначными.

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-5-жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2006. – 680 б.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI IQTISODIY TERMINLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI


Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti
xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Terminlarni yaratish bo'yicha amaliy faoliyat xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyatini rivojlantirish jarayonida amalga oshiriladi. "Ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish faoliyatining har qanday soha terminologiyasi tarixi shu bilan birga tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlarni rivojlantirish qonunlari haqidagi tarixdir"[1]. Terminologiya fan tilining asosidir. Ishlab chiqarish yoki fanning har bir maxsus sohasi o'z terminologiyasiga ega.

Terminologiya tilning so'z boyligining eng harakatchan qismidir, ayniqsa so'nggi o'n yilliklarda ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi natijasida u ham jadal rivojlanmoqda. Uning rivojlanishi va faoliyatida ijtimoiy omillarning hal qiluvchi roli, ayniqsa, ilmiy va texnik jihatdan yaqqol namoyon bo'ladi. Terminlar shakllanishining haqiqiy sur'atini o'rganish uchun terminologiya va tegishli bilim sohasini o'zaro bog'liq o'rganish zarur.

Ilmiy terminologiya tilning leksik semantik tizimining eng dinamik qismidir. Turli tillar materiallari asosida olib borilgan terminologik tizimlarning ko'plab tadqiqotlari doimiy ravishda ularda ma'lum bir bilim sohasining lug'atiga ta'sir qiluvchi umumiy lingvistik qonunlar va o'ziga xos holatlarning o'ziga xos o'zaro bog'liqligini ochib beradi.

Rieltorlik faoliyati iqtisodiy tarmoqlardan biri bo'lib, rieltorlik faoliyatiga oid terminlarni rivojlanish tendensiyalari bevosita iqtisodiyot bilan ham bog'liqdir. Iqtisodiyot fanining inglizcha asosiy atamalarini o'rganish, iqtisod fanining o'zini va nazariy asoslarni o'rganmay turib, imkonsizdir. Avvalambor iqtisodiy sohalarni rus tilshunos olimi E.A.Xudinshina 3 ta katta yirik tarmoq[2]qa ajratgan:



1-rasm. **Maxsus iqtisodiy sohalar**

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyot sohasi boshqa barcha sohalar uchun asos bo'lib, sohaning asosini ifodolovchi terminlarni o'rganish unda sodir bo'layotgan jarayonlarni tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy terminlarning kelib chiqish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi va ingliz tilidagi iqtisodiy terminlarning shakllanishiga bir qancha iqtisodiy-ijtimoiy hodisalar ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyot insonlarning mehnat faoliyati natijasidir. Insoniyat ilk paydo bo'lgan davrlardayoq bir-biri bilan kunlik ehtiyojda kerak bo'ladigan mahsulotlarni ayriboshlash bilan shug'ullanib keladi. Kimdir tovarlar yoki xizmatlar ishlab chiqarish, yetkazib berish va tarqatish bilan shug'ullanar ekan iqtisodning ma'lum bir turi mavjud edi desak adashmagan bo'lamiz. Xu-

[1] Виноградов В.В. Вступительное слово // Вопросы терминологии. - М.: Изд- во АН СССР, 1961.- с.6(С.3-10.)

[2] Худинша Е.А. Особенности становления и развития английских базовых терминов в подъязыке экономики: дисс. – Омск, 2011 – с.42.

susan, qadimgi dunyo tarixida shumerlar tovar pullariga asoslangan keng miqyosli iqtisodiyotni rivojlantirdi, bobilliklar va ularga qo‘shni shahar shtatlari esa, qarz va xususiy mulk to‘g‘risidagi qonun-qoidalar, yuridik shartnomalar va tadbirkorlik amaliyotiga oid qonun kodekslar nuqtai nazaridan keyinchalik iqtisodiyotning eng qadimgi tizimini ishlab chiqdilar[1]. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdi iqtisodiy terminlarning ildizi ilk insoniyat paydo bo‘lgan davrdan ildiz otib boshlagan.

Bobilliklar va ularning shahar-davlat qo‘shnilari hozirgi paytda qo‘llanilayotgan fuqarolik jamiyati (huquq) tushunchalari bilan taqqoslanadigan iqtisodiyot shakllarini ishlab chiqdilar. Ular sudlar, qamoqxonalar va hukumat yozuvlari bilan to‘ldirilgan birinchi ma’lum kodlangan huquqiy va ma’muriy tizimlarni ishlab chiqdilar[2].

Qadimgi iqtisod asosan dehqonchilikka asoslangan edi. Shu bois, *Shekel (arpa)* birinchi bo‘lib semit xalqlari ritomonidan ishlatiladigan og‘irlik va pul birligi terminlaridan biri bo‘lib[3], bu atamaning birinchi qo‘llanilishi miloddan avvalgi 3000-yillarda Mesopotamiyadan kelgan kumush, bronza, mis kabi metrikada qo‘llaniladigan boshqa qiymatlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos massasi deb ataladi. *Shekel* dastlab pul birligi va og‘irlik birligi edi, xuddi Britaniya funti dastlab bir funt kumush massasini ifodalovchi birlik bo‘lgan kabi[4].

Aksariyat odamlar uchun tovarlar almashinuvi ijtimoiy munosabatlar orqali amalga oshirilgan. Bozorlarda ayirboshlagan savdogarlar ham bor edi. Hozirgi inglizcha “iqtisod“ so‘zi paydo bo‘lgan Qadimgi Yunonistonda ko‘p odamlar erkin yer egalarining qullari bo‘lgan[5]. Iqtisodiy munozara kamchilik insonlar o‘rtasida amalga oshirilar edi.

Ushbu omillarning kombinatsiyasini tahlil qilish uchta asosiy tarixiy davrlar[6]ni ajratib ko‘rsatishga imkon berdi:

1. Sanoatdan oldingi davr – V asr. Miloddan avvalgi e. - VII asr. n. e. iqtisodiy munosabatlarning paydo bo‘lishi, ular asosida iqtisodiyot va ayrim asosiy iqtisodiy atamalar rivojlandi.

2. Sanoat davri. VII-XVIII asrlar – iqtisod fanining shakllanishi va uning asosiy iqtisodiy atamalari ingliz tilida.

3. Postindustriya davri. XIX - XXI asrlar – sanoat inqilobi va ishlab chiqarishning kontsentratsiyasi munosabati bilan iqtisodiy terminologiyaning rivojlanish davri va uning asosiy atamalari.

Sanoatdan oldingi davr terminologiyasi. Bu davr iqtisod fanining vujudga kelgan paytdan boshlab, qadimgi Rimda va – Gretsiyada Ksenofont (miloddan avvalgi 430-355 yillar) va Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 yillar) davriga to‘g‘ri keladi. *Oykonomiya* yunoncha so‘z - iqtisodiyot, uning paydo bo‘lishining zaruriy sharti qul egalarining hukmron sinfi bo‘lib, ular doimo o‘z mulklarini mustahkamlashdan manfaatdor edilar. Qadimgi Rim va Yunoniston olimlari va siyosatchilari Ksenofont va Aristotel iqtisod fanining vazifalarini belgilashga intilganlar. Ularning ta’rifiga ko‘ra, iqtisod shunday fan bo‘lib, uning yordamida siz o‘z iqtisodingizni boyitishingiz mumkin. Iqtisodiyotning predmeti uy xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligi edi, lekin uy xo‘jaligi deganda uydan tashqarida, hatto boshqa shaharda ham, ya’ni qul egasining butun uy xo‘jaligi tushunilgan[7].

O‘sha davr iqtisodiyoti erkin mehnat va kredit tamoyillari bilan emas, bosqinchilik yo‘li bilan, ya’ni boshqalarning mehnati bilan, qullar yordamida amalga oshirilar edi. Aynan shu davrda rivojlanayotgan iqtisodiy fanda o‘ziga xos asosiy atamalarga aylangan va yunon va lotin tillaridan o‘zlashtirilgan jarayonlar va atamalar tushunchalari paydo bo‘ldi. Masalan, lotincha nomenclatores so‘zi *e’lon qilingan nom/ mehmonxonalar, nomenklator (qul, navbatchi – bu o‘z xo‘jayiniga shahar fuqarolari va uydagi barcha qullarning ismlarini bilishi va aytishi, shuningdek, taqdim etilgan taomlarning nomlarini e’lon qilishi kerak edi*)[8] 1610 yilda nomzodlikka ko‘rsatilgan ingliz tilidagi nomenklatura atamasi biror narsani nomlash ma’nosida, 1664 yilda esa – nomlar guruhiga[9], keyinchalik - nomenklaturaga[10] aylangan.

---

[1] Sheila C. Dow. Axioms and Babylonian thought: a reply // Journal of Post Keynesian Economics, 2005 27 (3), p. 385-391.

[2] Charles F. Horne. The Code of Hammurabi: Introduction. Yale University, 1915.

[3] Aragón, Fernando M.; Oteiza, Francisco; Rud, Juan Pablo. Climate Change and Agriculture: Subsistence Farmers’ Response to Extreme Heat. American Economic Journal: Economic Policy (inglizcha). 2021-02-0113-jild, № 1. 1–35.

[4] *Bronson, Bennet. Cash, Cannon, and Cowrie Shells: The Nonmodern Moneys of the World. Chicago: Field Museum of Natural History, November 1976, p. 3–15.*

[5] „Economy“ Merriam-Webster. 26-aprel 2022-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 12-aprel 2023-yil.

[6] Худинша Е.А. Особенности становления и развития английских базовых терминов в подъязыке экономики: дисс. – Омск, 2011 – С. 59.

[7] Каратаев, Н. К. История экономических учений Западной Европы и России / Н. К. Каратаев. - М.: РАГС, 2001. – С. 24-25.

[8] Дворецкий, И. Х. Латинско - русский словарь / - 3 -е изд., испр. - М.: Рус.яз., 1986. – С. 514.

[9] Barnhart Robert K. Dictionary of Etymology: The origins of American English. Words, 1995. P. 508.

[10] Graham Bannock, R.E. Baxter Evan Davis. Dictionary of Economics Sixth edition. – London, 1998. – С. 455.

Qullik nasroniylik ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadigan yangi shaklga o'tgandan so'ng tenglik g'oyalari tarqala boshladi. Agar dastlabki odamlar "boylikka nisbatan nafratlanishni his qilishsa, keyinchalik uni qo'lga kiritish uchun birinchi urinishlar paydo bo'ldi va shu bilan bir qatorda o'sha davr iqtisodiy terminlari ham rivojlandi. Jumladan, lotincha *dominium* so'zi *davlat yerlariga mulkchilikning alohida turi*[1] sifatida 1425-yilda inglizcha *domination,* ya'ni *biror narsaga ega bo'lish, egalik qilish*[2] atamasi sifatida ingliz tiliga kirib keldi, zamonaviy ingliz tilida esa – *hukmronlik* ma'nosida qo'llaniladi. Lotin tilidagi *capitula* – boblar termini qadimgi Rimda *capitulyar* odatda Buyuk Karl (miloddan avvalgi 929 yil)gacha bo'lgan frankon qirollarining umumiy farmonlari *Kapitulariyalar* deb nomlangan, chunki ular boblarga bo'lingan - *capitula*[3] va inglizcha *"capital-kapital"* (*pul miqdori*) terminlari 1430 yilda kapitulariyalar asosida paydo bo'lgan[4]. Lotincha *heredium – xususiy yer mulklari, mulk bo'yicha meros*[5] termini 1540-yilda *meros* ma'nosini egallab, inglizcha *heredity* atamasiga aylantirilgan. Milodiy 784 yilda uning yangi ma'nosi – *irsiyat* yoki *xarakter* paydo bo'ldi[6].

Qadimgi Yunonistonda Rim moliyaviy boshqaruvida cheksiz qat'iylik bilan soliqlarni undirish usullari mavjud edi. Ushbu soliqlardan biri "*publicani"* (Lotincha *publicanus* so'zidan olingan)[7] deb nomlangan va u asosan dehqonlardan olinadigan soliq turi bo'lgan. Keyinchalik, Angliyada 1200 yilda lotincha *publicanus* terminidan *soliqchilar* so'zi paydo bo'ldi. 1728 yilda soliq yig'uvchining ma'nosi boshqa ma'noga o'zgardi va 60-yildan hozirgi *qovoqxona* yoki *piva sotadigan do'kon xo'jayni* sifatida qo'llanila boshlandi[8].

Sanoat davri terminologiyasi. Bu davrga xos leksik birliklarning aksariyati oddiy leksik birliklardir. VIII-XIII asrlarda feodal iqtisodiyotining boshlanishi bilan sanoat davri terminologiyasi shakllanadi. IX asrda Angliyada *manor* termini paydo bo'ldi va u katta yerga egalik qilish ma'nosini bildirar edi, lekin shu bilan birga, XI asrda qaytarib olish huquqiga ega bo'lgan jamoa a'zolarining kichik (10 gektargacha) shaxsiy mulki ham paydo bo'ldi. 1066 yilda Normand gertsogi Uilyam Angliyani bosib olgandan so'ng, ishlab chiqarish munosabatlarida feodal tushunchasi kirib keldi: yer qirolning nominal mulki, baronlar, lordlar, monastirlar va dehqonlar esa faqat shartli egalari edi. Yerga egalik qilish shakli o'zgargandan so'ng ular bilan bog'liq barcha terminologiya o'zgargan, ko'plab leksik birliklar fransuz tilidan olingan. Fransuz tilining "mamlakat boshqaruvini o'z qo'llariga olgan "g'oliblar" tili bo'lganligi ko'plab o'zlashtirilgan fransuz so'zlarining paydo bo'lishiga olib keldi va bu so'zlar alohida, yakka birlik sifatida emas, balki semantik yoki strukturaning katta, integral tizimlariga kiritilgan. Masalan, *business, credit, stock, natural price, fixed and floating capital, total and net profits* so'zlari sanoat davri terminologiyasi tarkibida shakllangan so'zlardir.

XVIII asrda sanoatdan keyingi davr. Sanoat to'ntarishi davri terminologiyasi. "Iqtisodiy fikrning yuksalishi" uchun keng imkoniyat ochdi[9]. Kambag'allardan olinadigan daromad soliqlari Buyuk Britaniyada 1601 yildan, Irlandiyada 1838 yildan paydo bo'lgan. 1834 yildagi islohotdan so'ng soliq yig'ish uchun qulay Angliya *ittifoqlar* (*unions*)ga bo'lingan, bu leksik birlik lotin tilidagi *unionem* birligidan olingan bo'lib, 1410 yilda paydo bo'lgan[10]. Hozirgi vaqtda *unionem* atamasi *an organization of employees working in the same industry or doing similar jobs, that represents its members in discussions with management*[11] (bir sohada ishlaydigan yoki shunga o'xshash ishlarni bajaradigan xodimlarning tashkiloti bilan muzokaralarda o'z a'zolarini ifodalovchi tashkilot) ma'nosini anglatadi va ko'pincha *trade union* terminologik birikmasida qo'llaniladi.

Muayyan adabiy tilning leksikasi o'z tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik so'zlarni u yoki bu darajada qamrab olishi lingvistikada e'tirof etilgan voqelik hisoblanadi. O'zbek terminologiyasi tizimi ham bundan mustasno emas. Adabiy so'zlardan farqli ravishda doim maxsus tushunchalarni anglatish, ifodalash uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan terminlar o'zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari zamirida tarkib topdi va takomillashdi.

---

[1] Дворецкий, И. Х. Латинско - русский словарь: ок. 50000 слов / - 3 -е изд., испр. - М.: Рус.яз., 1986. – С. 265.

[2] Barnhart Robert K. Dictionary of Etymology: The origins of American English. Words, 1995. – С. 218.

[3] Бланки. А. История политической экономики в Европе. Т. 1. – Спб., 1869. – С. 25-27.

[4] Barnhart Robert K. Dictionary of Etymology: The origins of American English. Words, 1995. – P. 246.

[5] Дворецкий, И. Х. Латинско - русский словарь: ок. 50000 слов / - 3 -е изд., испр. – М.: Рус. яз., 1986. – С. 361.

[6] Barnhart Robert K. Dictionary of Etymology: The origins of American English. Words, 1995. –p. 350.


[7] Дворецкий, И. Х. Латинско - русский словарь: ок. 50000 слов / - 3 -е изд., испр. – М.: Рус.яз., 1986. – С.634.

[8] Barnhart Robert K. Dictionary of Etymology: The origins of American English. Words, 1995. –P.615

[9] Сурин А. И. История экономики и экономических учений / А. И. Сурин. - М.: Финансы и Статистика, 1998. – С. 28.

[10] Robert K. Barnhart. Dictionary of Etymology: The origins of American English. Words, 1995. – С. 846.

[11] Oxford Dictionary of Business English for learners of English, Oxford University Press, 1994. - p.441.



2-rasm. **O‘zbek terminologiyasining rivojlanish davrlari**

O‘zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (V1I-X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi, eski o‘zbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminlogiyasi, sho‘rolar davri o‘zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o‘zbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam o‘n to‘rt asrlik vaqt mobaynida terminlogik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo‘lgan jarayonlami anglab yetish imkonini beradi[1]. O‘zbek tili terminologiyasi negizida o‘zbek tili iqtisodiy terminologiyasi ham rivojlanib bordi.

O‘zbekiston hududida ham ko‘p asrlar mobaynida bank-moliya munosabatlari mavjud bo‘lganligi ma’lum. Xususan, F.M.Mullajonov tahriri ostida nashr qilingan – O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi kitobida – bu o‘lkada pul muomalasi vositasida tovar almashuv munosabatlari –Avesto zamonidan ham oldinroq, ya’ni milloddan avvalgi II ming yillikdayoq mavjud bo‘lgan[2], deyiladi. I.To‘xtiyev O‘zbekistonda tanga pullarning zarb qilinishi xususida fikr bildira turib, juda qadim davrlarda dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti yuzaga kelganda odamlar o‘rtasida o‘zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni almashish natijasida ayrboshlash yuzaga kelgani, turli mahsulotlar tanqis bo‘lgan joylarda ularni juda katta qiymatlardagi narsalar bilan almashtirganlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tadi[3].

Qolaversa, moliya munosabatlari Somoniylar, Qoraxoniylar davrida ham yuqori darajada bo‘lganligi tarixiy manbalar: Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarlarida ham aks etgan[4].

I.To‘xliyevning Amir Temur va temuriylarning moliya-pul siyosati asarida hozirgi o‘zbek tilidagi *tanga* so‘zi qadimgi turkiy tildagi *tamg‘a* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, qadimda hukmdor hokimlar turli metall, oltin, kumush yoki mis kabi turli metallarga o‘z tamg‘asini bosib muomalaga chiqarganlar va bu pullar *tamg‘a pul* deb yuritilgan, keyinroq borib bu tanga so‘ziga aylanib qolgan. Rus tilidagi *деньги* so‘zi ham tanga so‘zidan olingan ba’zi tadqiqotchilar rus tilidagi *копейка* (tiyin) so‘zi Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan Chig‘atoy xonlaridan Kepakxon (1318-1326) nomi bilan bog‘liq deb tushunadilar[5] singari etimologik taxminlar keltiriladi.

Eng muhimi, ushbu kitobda bank-moliya tizimining shakllanishi xususida qat’iy bir xulosani ko‘ramiz: Agar aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda Yevropada birinchi budjet tuzilishi Angliya va Fransiyada XVII asrda paydo bo‘lgan deb qayd qilingan bo‘lsa, mustaqillik davrida nashr qilingan ilmiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temur o‘z davlatida undan 3 asr avval mamlakatni idora etishda budjetning dastlab-

[1] Dadaboyev H. O‘zbek tili terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 6-7.

[2] Ўзбекистон Республикаси банк тизими./ Ф.М.Муллажонов таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.6.

[3] Ma’lumot uchun: rus olimi akademik A.E.Fersmanning yozishicha, Afrika qit’asining tuz tanqis joylarida bir hovuch tuzga bir hovuch tilla almashtirish mumkin bo‘lgan. Arab sahrolaridagi ko‘chmanchilar uchun ayirboshlash vazifasini xurmo mevasi o‘tagan bo‘lsa, Mo‘g‘ilistonda bir taxta xitoy choyiga bitta qo‘y yoki echki yoxud 2 ta mol terisi, yoki bitta kigiz almashtirish mumkin bo‘lganligini Marko Polo o‘z sayohatnomasida yozib qoldirgan). Muallifning keltirishicha, qadimgi turkiy tildagi mo‘ynasi qimmat jonzot – olmaxon —”tiyin” deb atalgan. Uning terisi natural ayirboshlashda muhim rol o‘ynaganligi uchun –tiyin so‘zi pul qiymat birligini ko‘rsatadigan atama bo‘lib qolgan.

[4] Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси: фил.фан.док.дисс. – Тошкент, 2020 – Б. 34.

[5] Тўхтиев И. Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиёсати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 12.

ki kurtaklarini ishlab chiqdi va joriy qildi[1] va bundan xulosa qilishimiz mumkinki, turkiy tillar termonologiyasida iqtisodiy terminlar XIV asrdan buyon qo‘llanilib kelingan.

Qadimdi turkiy til terminologiyasi. Hozirgi qardosh turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili leksik xazinasida muayyan darajada qo‘llanishda davom etayotgan yoki bugun iste’moldan butunlay chiqib ketgan qadimgi turkiy tilga taalluqli leksik birliklar tarkibida terminologik leksika ham sezilarli o‘rinni egallaganligi bilan xarakterlidir. Qadimgi turkiy til manbalarida qayd etilgan turfa soha terminologiyasi asosan sof turkiy tub va yasamalar hamda buddizm va moniyizm ta’sirida sug‘d, sanskrit, xitoy tillaridan kirib kelgan o‘zlashmalardan tashkil topgan edi. Jumladan, *bargu* “o‘lja”, *qargii* “soqchi, dozor”, *tamga* “tug‘ro”, *korug* “ayg‘oqchi”, *elci* “elchi; hukmdor, yurtboshi”, *yolci* “sardor”, *cigay* “yo‘qsil, kambag‘al, *qislag* “qo‘shinning qishki qarorgohi”, *ayguci* “davlat maslahatchisi” singari asl turkcha, *cerig/cerik* “qo‘shin, armiya”, *sart* “tojir, savdogar” kabi sanskritcha, *xatun/ qatun* “malika”, *kent* “qishloq; shahar” singari sug‘dcha, *qagan* “hukmdor”, *xan* “hokim”, *tegin* “xonzoda, shahzoda”, *yabgu* “xoqondan keying oliy lavozim egasi”, *setjiin* “xitoy generali”, *tarqan* “tarxon”, *lit tug* “tuman hokimi” kabi xitoycha, *sad* “Turk xoqonligida oliy lavozim”, *sadapit* singari eroncha terminlar faol qo‘llanishda bo‘lganligini manbalar so‘z boyligi yaqqol ko‘rsatadi.

Ayni chog‘da e’tirof etish joizki, sanskrit, eron, xitoy tillarida bitilgan asarlaming turkiy tilga qilingan tarjimalarida qayd etilgan ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, sotsial, hayvonot dunyosi-fauna, o‘simlik dunyosi-fiora, ilmi nujum-astronimiya va sh.k. sohalarga xos terminlar keyinchalik deyarli qo‘llanilmadi, turkiy tillar, chunonchi, o‘zbek tili ularni qabul qilmadi. Sakkizinchi asrdan e’tiboran arab tili, arab xati va islom mafkurasining Turonzaminda qaror topishi, bir qator mahalliy sulolalar (Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar)ning birin-ketin siyosat sahnasiga chiqishi singari obyektiv jarayonlar ostida o‘zligini yo‘qotmagan eski turkiy til (XI-XIV)da terminologik leksika ko‘lamining bir qadar kengayganini kuzatish mumkin.

Eski turkiy til terminologiyasi mavjud lisoniy qonun-qoidalar doirasida shakllandi va rivojlandi. Uning qadimgi turkiy til davriga nisbatan yanada taraqqiy etishida jonli so‘zlashuv tili, turfa sheva materiallari qatori, so‘z yasash andozalari – modellari asosida yuzaga chiqqan istilohlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi turkiy tildan farqli o‘laroq eski turkiy tilda sanskrit, sug‘d, xitoy tiliga oid o‘zlashmalaming ishlatilish sur’ati pasaydi, aksincha, arabcha va fors-tojikcha o‘zlashmalarning qo‘llanilish chastotasi va ko‘lami ancha kengaydi. Biroq eski turkiy til terminologiyasining o‘zagini asl turkiy qatlam tashkil qilishda davom etdi[2]: *alim* – qarz, kredit, *herim* – to‘lov, qarzni qaytarish, *beglig* – beklik, *bitigci* – mirza, munshiy, kotib, *yatgaq* – tungi soqchi, *yarisa* – ko‘rshapalak, *yargu* – ajrira, *yarguci* – *qozi,* sudya, *qaliq* – havo, *obuz* – qattiq yer, *tirgas* – ko‘lmak suv kabi turkcha, *rabat* – karvonsaroy, *malik* – hukmdor, *siyasat* – siyosat, *‘amil* – ish yurituvchi, *tib* – meditsina, tibbiyot, *nujum* – astrologiya, *handasa* – geometriya singari arabcha, *la’skar* – qo‘shin, *mayfurus* –may ichuvchi; may sotuvchi singari forscha-tojikcha, *daruga* – qal’a, qo‘rg‘on komendanti, *мŭeaп* – daryo, *niikdr/navkar* – navkar, askar kabi mo‘g‘ulcha terminlar bu davr terminologik tizimida nisbatan keng ko‘lamda ishlatilgan.

Eski o‘zbek adabiy til iqtisodiy terminologiyasining takomillashuvida, uning yanada yuqoriroq bosqichga ko‘tarilishida tilning ichki qonuniyatlari qatori tashqi ta’sir, ya’ni ekstralingvistik omillarning roli salmoqli bo‘lgan. O‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy, uning Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Yaqiniy singari salaflari, Bobur, Muhammad Solih, Ogahiy, Munis kabi izdoshlari tomonidan ta’rif etilgan badiiy, tarixiy, ilmiy asarlar leksik boyligi tahlilidan kelib chiqqan holda aytish joizki, o‘zbek tili ichki imkoniyatlaridan keng foydalanilgan tarzda termin yaratish bu davr uchun ancha sermahsul usul hisoblangan. Ona tiliga millatning bosh ko‘zgusi tarzida munosabatda bo‘lish zaruriyatining Alisher Navoiy tomonidan ziyolilar, olimlar, shoir-u yozuvchilar oldida kun tartibiga qat’iy va ro‘yi rost qo‘yilishi o‘z ijobiy aksini terminlar tizimida ham topgan edi. Aniq fanlar qatori, ijtimoiy-gumanitar fan sohalarining shakllanib borish jarayoni ularga taalluqli maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminlar yaratilish bilan ham kechdi. Bunda, birinchi galda, eski o‘zbek adabiy tili, jonli so‘zlashuv tili, lahja va shevalarda mavjud leksik birliklar terminlar safini kengaytirdi, o‘zbek tilda so‘z yasashda keng qo‘llanilgan affikslar yordamida katta miqdorda terminlar hosil qilindi.

Arab, fors-tojik, mo‘g‘ul tillaridan o‘zlashgan terminlar soni shiddat bilan oshib bordi. Xususan, arab tilidan kirib kelgan *xiroj, mutavalliy, zakot, vaqf, iqto‘, ushr* kabi iqtisodiy terminlar jamiyat a’zolarining ma’lum qatlami tilidan o‘rin oldi.

Sho‘rolar davri o‘zbek tili terminologiyasi. XIX asming 70-yillaridan e’tiboran o‘zbek terminologiyasi rus tili orqali G‘arbiy Yevropa tillaridan o‘zlashgan terminlar asosida rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ydi. O.Usmonov, Sh.Hamidovlar tomonidan 1981-yilda “Fan” nashriyotida e’lon qilingan “O‘zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri – XX asrning

[1] Тўхтиев И. Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиѐсати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 32.

[2] Dadaboyev H. O‘zbek tili terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 10.

boshlari)"[1] nomli asarda *atishma, atishuv* – otishma, *axtarish* – tintuv, *ariq* – kanal, *ashula oyuni* – konsert, *basma* – bosma, nashr etilgan, *bash vazir* – bosh vazir kabi asl o‘zbekcha istilohlar qatori, *barja* – yuk kema, *prizident* – prezident, *pratakol* – bayonnoma, *sayuz* – ittifoq, *iliktir* – elektr, *ikiskursiya* – sayohat, *fonograf, samavar, sod//sud* – sud singari o‘zlashmalar ham aksini topgan. Ashyoviy misollar o‘zlashmalarning o‘zlashtiruvchi o‘zbek tili tovush tizimiga moslashtirilganidan dalolat beradi. Sobiq sho‘rolar hukmronligi vaqtida o‘zbek tili terminologiyasi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi haddan tashqari ko‘p miqdordagi o‘zlashma terminlar hisobiga kengaydi. Soha terminologiyasi tizimining vujudga kelishida sof o‘zbekcha leksik birliklar bilan birga ruscha-baynalmilal terminlarning roli yuqori bo‘ldi. Bu jihat ayniqsa, tabiiy fanlarga xos terminologik sistemada yaqqol ifodasini topdi. Mustaqillik davri o‘zbek terminologiyasi globallashuv va internetga qadam qo‘yilgan XXI asrda har tomonlama takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Hozirgi o‘zbek terminologiyasining shiddat bilan taraqqiy etishi til lug‘at tarkibining boyishi va takomillashuviga olib keldi.

Istiqlol davri o‘zbek tili terminologiyasi. Terminga xos belgilardan biri uning izohi va ta’rifiga oydinlik kiritish, terminning m a’noviy qurshovida mavjud qo‘shimcha semalarni yuzaga chiqarish ilm-fan tilining rivojlanishida, o‘zga sohaga oid terminologik tizimlar tarkibida yaqqol seziladi[2]. Bugungi o‘zbek terminologiyasining boyishida yuqorida zikr etilgan jihatlar hamon ustunlik qilmoqda.

O‘z qatlamning salmoqli o‘rni qatori, o‘zlashmalarning ham sezilarli mavqeyi saqlanib qolmoqda o‘zlashmalarning til terminologiyasi boyishidagi o‘rnini birgina iqtisodiy terminlari misolida ko‘rish mumkin. Olib borilgan izlanishlar o‘zbek tili iqtisodiy terminologiyasining rus, ingliz, lotin va boshqa tillardan kirib kelgan o‘zlashmalar hisobiga ham boyib borganini ko‘rsatadi.

Xullas, ingliz va o‘zbek tillari terminologiyasi bir necha asrlik shakllanish va tarqqiy etish bosqichlarini bosib o‘tdi. Bu bosqichlarda ikkala til terminologiyasi nafaqat o‘z ichki resurslari, shuningdek, qarindosh bo‘lmagan tillar boyliklaridan o‘rni bilan foydalangan holda rivojlanish yo‘lida davom etdi. Terminlaming shakllanish hamda yasalish yo‘llari xususida so‘z ketganda quyidagi jihatlami inobatga olish taqozo etiladi[3]:

– o‘z milliy tilning tayyor leksik boyliklaridan unumli foydalanish;

– boshqa tillarning so‘z boyliklaridan o‘rni bilan istifoda etish (o‘zlashtirish);

– tayyor standart termin elementlar (baynalmilal) ni qo‘llash;

– morfologik (affiksatsiya, abbreviatsiya);

– sintaktik (kompozitsiya) va semantik so‘z yasalishi vositalariga murojaat qilish.

Resume. This article is aimed at researching the development trends of economic terms in English and Uzbek languages, studying them by periods.

Резюме*:* Данная статья направлена на исследование тенденций развития экономических терминов в английском и узбекском языках, изучение их по периодам.

[1] Usmonov 0.,Sh.Hamidov Sh. 0 ‘zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asming oxiri - XX asming boshlari).-Toshkent: Fan, 1981. – B.34

[2] Dadaboyev H. O‘zbek tili terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B.6-7

[3] Dadaboyev H. O‘zbek tili terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B.19

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIL BIRLIKLARI VA MADANIYATLARARO MULOQOT BIRLIKLARI SIFATIDA ANTROPONIMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Berdiyeva Zulfiya Safarovna,
Termiz davlat pedagogika instituti
xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Bizga ma'lumki, azaldan inson ismining qanday talqin etilishiga qiziqishlar bildirilgan. Chunki inson ismi nafaqat estetik, balki ma'naviy, madaniy va lingvistik masala deb ham hisoblangan. Ya'ni, bolalarni ularning tug'ilgan yurtiga xos bo'lgan ismlar bilan atash kerak, shunda ularning taqdiri baxtli bo'ladi, degan ishonch bo'lgan. Bu rostmikan? Ism o'zi nima, uning mohiyati va ma'nosi qanaqa? O'z – o'zidan shu kabi savollar paydo bo'ladi. Bu kabi savollarga javob topish uchun onomastikaning bir qismi hisoblangan antroponimika sohasiga murojaat qilamiz.

Har qanday tildagi o'ziga xos nomlar asrlar davomida tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, ma'lum bir etnik guruh yoki xalq yashaydigan ma'lum hudud, uning madaniyati, ularning hayot kechirish tarzi, e'tiqodi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish uchun noyob imkoniyat yaratadi.

To'g'ri nom (onim) tilshunoslikning alohida sohasi - onomastikaning o'rganish obyekti bo'lib, u har qanday nomlarni, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi va amal qilish tarixini, shuningdek, onimlarning til va nutqda tarqalishi va tuzilishini o'rganadi, ayniqsa, adabiy va sheva sohalarida.

Dastlab, V.Tatishev onimlarga alohida e'tibor qaratdi. Biz M.Barsov, M.Nadejdin, I.Filevichlarning asarlarida bu sohaning qanchalik o'rganilganligini uchratishimiz mumkin. XIX – XX asr oxirlariga kelib, ko'zga ko'ringan rus sharqshunoslari V.Radlov va Bartoldlar onimlarning o'rganish ustida ish olib borishdi[1].

Antroponimlar va ularning hosilalari nafaqat tilshunoslik, balki falsafa, psixologiya, adabiyot, san'at, tabiiy fanlarning ham o'rganish predmeti hisoblanadi. Ko'pgina taniqli tilshunos olimlardan G. S. Ginzburg, N. D. Arutyunova, V. V. Lopatin va boshqalar antroponimlarni dunyoning lingvistik ko'rinishining bir qismi sifatida o'rgandilar.

Boshqa filologiya fanlari bilan solishtirganda, onomastika hali juda yosh. Shu sababdan uning ayrim jihatlari hali tadqiq etilmagan bo'lib, ko'plab zamonaviy tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga tortadi, bu esa uning dolzarb ekanligidan dalolatdir.

Bugungi kunda onomastika sohasidagi tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri antroponimlarning funksional jihatini o'rganish hisoblanadi.

Ko'p yillar davomida ismlarning mohiyati va kelib chiqishi, onimlarning tevarak-atrofdagi voqelik, etnik guruh an'analari va uning tarixi bilan bog'liqligi kabi masalalar bilan qiziquvchi olimlarning tadqiqot obyekti hisoblanib kelgan.

Tilshunoslik umumiy nomlarni, xususan, antroponimlarni, ularning vazifalarini o'rganuvchi yagona fandan yiroqda. Genealogiya, adabiyotshunoslik, etnografiya, tarix va yana bir qator fanlar ham ushbu leksik birlikka alohida qiziqish bildirib kelishmoqda.

Antroponimika masalalari juda ko'plab tilshunos olimlarning e'tiborini o'ziga tortgan.

Izlanish doirasini "Ism va familiyalarni o'rganishning adabiy jihati" iborasini tor doirada o'rganilgan desak ham, bu sohada juda ko'plab misol keltirishimiz mumkin. (N.V. Aleynikova, L.I. Andreyeva, T.V. Bakastova, I. A. Bannikova, V.V. Bardakova, L.V. Belaya, L.M. Bogoslavskaya, I.B. Voronova, E.A. Garanina, M.V. Gorbanevskiy, K.B. Jogina, V.M. Kalinkina, Yu. Karpenko, T.N. Markova, T.I. Ornatskaya, A.I. Sobolevskiy va boshqalar)[2].

Hozirgi vaqtda onomastika (yunoncha *onomastike* – nom berish san'ati; onomastikos – ism bilan bog'liq), ya'ni tilshunoslikning otlarni o'rganuvchi bo'limi katta ahamiyatga ega.

Ayni damda onomastika (yunoncha onomastike – nom berish san'ati; onomastikos – ism bilan bog'liq), inson ismlarini o'rganadigan tilshunoslikning eng muhim bo'limi hisoblanadi.

Asl ism sirlariga bag'ishlangan turli kitoblar, shaxs va insonlrning ismlari va familiyalarining juda ko'p

[1] Рубцов, С.С. Никнейм в информационном пространстве как игровая разновидность антропонимов // Сборник научных статьей "Человек и язык в коммуникативной пространстве". №7. – Красноярск-Лесосибирск, 2016. – С. 35-41.

[2] Рубцов, С.С. Современные английские антропонимы / Дипломная работа, Сибирский федеральный университет, Лесосибирский педагогический институт. – Лесосибирск, 2017. – С. 7-15.

lug‘atlari nashr etilgan, turli xil ilmiy maqolalar nashr etilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, onomastika fan sifatida til falsafasi vakolatiga kiradigan masalalar qatoriga kiradi hamda bu g‘arb faylasuflari L.Vitgenshteyn va V.Rassellar tomonidan V.fon Gumboldtning umumiy, ontologik muammolari tubidan ajratilgan ajratilgan falsafiy fikrning alohida sohasi ham hisoblanadi.

Bizga ma’lumki, onomastika tilshunoslikning fanlararo sohalaridan biri hisoblanadi, chunki u madaniy, tarixiy, etnografik, sosiologik, psixolingvistik va boshqa bilimlarni o‘zaro birlashtiradi.

Muhim leksik birliklar toifasiga kiritilgan tildagi onimlarning alohida maqomi, ularning ahamiyati va faoliyat doirasi hamda hajmi jihatidan ikkinchisiga keskin qarama-qarshi bo‘lib, har qanday tilning so‘z boyligida periferik o‘rin egallaydi, shuningdek ular tilshunoslarda ham katta qiziqish uyg‘otadi, ya’ni aniq belgilangan o‘rganish obyektlari bilan onomastikaning turli sohalarini shakllantirishga olib keladi, ko‘p qirrali muammolar va tadqiqot usullarini ham o‘rganadi.

Antroponimika antroponimlarni (*odamlarning ismlari, otasining ismi, familiyalari, taxalluslari, laqablari*) ni o‘rganadi. U antroponimlarning shakllanishining etimologik, semantik va so‘z yasalish xususiyatlarini, odamga nom qo‘yishning asosiy tamoyillarini, apellativning antroponimlarga o‘tish yo‘llarini yoki aksincha, antroponimlarning diaxronik xususiyatlarini, shuningdek, uning rivojlanishining turli bosqichlarida tilda ma’lum bir antroponimlarning ishlatilishini o‘rganadi.

Yigirmanchi asrning oxiriga kelib, alohida e’tiborni o‘ziga tortadigan onomastikaning eng yosh sohalariga quyidagilar kiradi, bular: adabiy yoki she’riy onomastika hamda kognitiv onomastika.

Adabiy onomastika yaqin davrlarda ilmiy intizomga aylandi va har qanday badiiy matnlarda onomastik makonning o‘ziga xos xususiyatlarini, ya’ni barcha onimlarning umumiyligini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

E’tibor qilish zarurki, yangi sohaning nomi – adabiy onomastika (*adabiy va badiiy onomastika yoki she’riy onomastika*) hali ham munozarali va noaniq bo‘lib kelmoqda. Poetik onomastikani o‘rganish mavzusi poetonimlar, badiiy asarning o‘zgartirilgan xos nomi bo‘lib, unda quyidagi muhim jihatlar o‘z aksini topishi zarur: 1. Ikkilamchi (“*fikr*”). 2. Nutqqa bog‘liqlik. 3. Semantikaning harakatchanligi. 4. Termin yaratishdagi asosiy belgi.

Poetik onomastikani o‘rganish predmeti poetonimlar, badiiy asarning o‘zgartirilgan xos nomi bo‘lib, unda quyidagi muhim jihatlar o‘z aksini topishi kerak: 1)ikkilamchi (“*xayoliy*”); 2)nutqqa bog‘liqlik; 3)semantikaning harakatchanligi; 4)atamani yaratishda asosiy belgi.

Demak, onomastika fanining predmeti turli xos nomlar hisoblanadi. To‘g‘ri nomlarga odamlar, hayvonlar, tashkilotlar, kompaniyalar, geografik xususiyatlar va boshqa turli obyektlar ega bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri nomlar filmlar, kitoblar, qo‘shiqlar va boshqa san’at va adabiyotlarning nomlarini o‘z ichiga oladi. Hozirgi “antroponim” tushunchasining bir nechta ta’riflari mavjud, boshqa tomondan esa, uning mazmuni bahs va munozaralarga sabab bo‘la olamaydi. Shunday qilib, antroponim quyidagicha ta’riflanadi, bu “shaxsning o‘z (xos) ismi”; “onimning bir turi”.

A.V. Superanskayaning ta’kidlashicha, har xil turdagi tegishli ismlar “Inson hayoti va faoliyatining barcha sohalariga singib ketgan”, ismlar tarkibi va “Ularning ijtimoiy va mafkuraviy yuki asosan ijtimoiy, tarixiy, iqtisodiy va boshqa omillar bilan belgilanadi”.

Tegishli ismlar yoki onimlar – bu alohida alohida, ya’ni yakka predmetlarning xos nomlaridir. Onomastika, ya’ni o‘ziga xos ismlar haqidagi fan bo‘lib, ularning rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Onomastika o‘z mohiyatiga ko‘ra, tarixiy, geografik, etnografik, madaniy, sotsiologik, adabiy jihatlarni birlashtiradi, bu esa obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, nomlar bilan bog‘liq an’analarni aniqlashga yordam beradi.

To‘g‘ri nomlar tabiat va jamiyatdagi o‘zgarishlarga yorqin ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun onimlar matnlar, shuningdek, tarixiy va arxeologik yodgorliklarning xronologizatori bo‘lib xizmat qiladi.

N. B. Garbovskayaning yozishicha, turli xalqlar orasida onomastikon ichki va tashqi til omillarini hisobga olgan holda o‘z qonunlari asosida o‘ziga xos tarzda shakllanadi. Biroq jamiyatning tarixiy rivojlanishi va o‘zgarishi bilan birga ijtimoiy-madaniy reja, izchil harakat va ilmiy-texnik taraqqiyot, globallashuv, onomastikon makonning asta-sekin o‘zgarib borishi va yangi onomastik obyektlarning paydo bo‘lishi tufayli asta-sekin kengayib bormoqda.

O‘zbek tili so‘z boyligining yirik qismi insonlarga qo‘yiladigan maxsus nomlar hisoblanadi. Kishilarning xos nomlari fanda antroponimlar deb yuritilishini yuqorida biz rus tili misolida ko‘rib chiqdik. O‘zbek tilida ham xuddi rus tilidagidek, inson ismlariga xos xususiyatlarni o‘rganuvchi onomastikaning bir bo‘limi, ya’ni uning antroponimikasi mavjud. Bu xususda I.K. Koziyeva o‘zining “O‘zbek va rus tillaridagi antroponimlarning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli maqolasida yozishicha, antroponimlar til lug‘at tarkibida o‘z o‘rniga va tizimli xususiyatlariga ega ekanligini, jumladan, atoqli otlar tizimiga kiruvchi antroponimlar ham o‘z navbatida boshqa bir kichik tizimlarga bo‘linadi. Bular quyidagilar: ismlar, familiyalar, otasining ismi, taxalluslar, laqablar.

Antroponimika onomastikaning bo‘limi sifatida va antroponimiya murakkab lingvokulturologik va

leksiko-semantik tadqiqotlar obyekti sifatida qaralishi, ko‘p millatli ko‘p madaniyatli dunyoda faoliyat ko‘rsatuvchi ijtimoiy-madaniy belgi sifatida antroponimika va uning o‘rni. Milliy antroponimikaning shakllanishiga ta’sir etuvchi ekstralingvistik va lingvistik omillar Milliy antroponimikalarda

- shaxs ismlari va hosila yasalish yo‘llarining qiyosiy strukturaviy tahlili - Milliy antroponimikalardagi oddiy, hosila va murakkab antroponimlarning nisbati, milliy antroponimikalardagi gipokoristik nomlar[1].

O‘zbek va rus antroponimlarining semantikasi va etimologiyasi masalalari bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib brogan o‘zbek olimlari Ya.Menajiev, X.Azamatov, D.Abdurahmonov hamda E.Begmatovlar “Ismingizning ma’nosi nima?” nomli risolasida bu masalani yoritib berishga harakat qilishgan. Bundan tashqari, E.Begmatovning “Kishi nomlari imlosi” (Toshkent, 1970), “O‘zbek ismlari imlosi” (Toshkent, 1972), «Literaturnye imena i familii uzbekskix avtorov v russkoy transkripsii» (Tashkent, 1981) kabi asarlarida tilshunoslikda o‘zbekcha ismlarning ruscha yozilishi va uning imlo muammolari masalalarini yoritib bergan.

Hozirda jadal rivojlanayotgan tarmoqlar sirasiga ergonomika va taxalluslar ham kiradi, qaysiki, “taxalluslar obyekti sifatida tan olinishi mumkin bo‘lgan tilshunosligining bir qismi hisoblanadi (ing. *nickname* – taxallus, kichraytiruvchi ism) – ya’ni, internetdagi adresatlarning nomlanishi, ularning kompyuter jargonida taxalluslar deb atalishidir”. Ma’lumki, ismlar tilni real olam bilan bog‘lovchi zarur bilish va muloqot vositasi hisoblanadi. Qadim zamonlardan buyon xos nomlarga katta e’tibor berilgan. Biror kishiga ma’lum bir ma’noga ega bo‘lgan ism beriladi. Ism va xos nomlar har doim alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslanib, antroponimlarning lug‘aviy ma’nosi umumiy otlarning lug‘aviy ma’nosidan sifat jihatidan farq qiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Miqdoriy jihatdan shaxs nomlarining murojaat, denotativ va konnotativ ma’nolari umumiy otlarga qaraganda kengroq, ma’nosi esa torroq (signifikativ ma’no) bo‘ladi. Lekin, shu bilan birga, u bir tomondan, individuallashtiradi (nutq paytida, nutqda), ikkinchi tomondan esa, umumlashtiradi (bu tilda kuzatiladi va lug‘atlarda o‘z aksini topadi). Shunday qilib, individuallashtiruvchi ma’noni lug‘atlarda aks ettirish mumkin emas, shuning uchun biz antroponimik lug‘atlarda ismlarning murojaat, denotativ va signifikativ (*signal*) ma’nolarini uzatishga e’tiborni qaratamiz.

1) Yo‘naltiruvchi qiymat lug‘atlarning faqat kichik bir qismida ushbu ismni olgan yoki unga ega bo‘lgan ma’lum bir shaxsni eslatib o‘tish orqali ifodalanadi. Ma’nosi esa lig‘atning kichik tuzilishida, lug‘at yozuvida ko‘rsatib o‘tiladi. Masalan, Angela Merkel (1954) – die erste Bundeskanzlerin der Republik Deutschland. (*Angela Merkel* – Germaniyaning birinchi ayol federal kanzleri[2])

2) Denotativ ma’no lug‘atning megastrukturasida, uning nomida ko‘rsatiladi. Lug‘atlarning har biri o‘z nomida “ism” (*der Name*) komponentiga ega bo‘lib, u shaxsning ismini anglatadi. Masalan, xos nomlarning lug‘ati. (Wörterbuch der Personennamen).

3) Signifikativ ma’no (*jinsi va millati*), ya’ni shaxsning jinsi quyidagicha ifodalanishi mumkin: lug‘atning megastrukturasida (ya’ni uning sarlavhasida). Masalan, qizlarning ismlari (Namen für Mädchen), o‘g‘il bolalarning ismlari (Namen für Jungen)

Lug‘atning makrostrukturasida (alohida boblarning sarlavhalari, masalan A-Z kabi), mikrostrukturasida esa Demak, lug‘atning makrostrukturasida milliy mansublik quyidagicha ko‘rsatiladi: alohida boblarning nomlari

Familiyalar o‘ziga xos nomlar guruhini tashkil qilganligi sababli, ularni boshqa so‘zlardan, ya’ni joy nomlari yoki ismlar kabi boshqa guruhlaridan bir qarashda tanib olish mumkin bo‘lsa, bu nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.

Resume: Ushbu maqolada antroponimiya mavjud xalq va butun insoniyatning madaniy-tarixiy hayoti taraqqiyotining in’ikosi bo‘lib, tilning nominativ vositalari taraqqiyotining bitmas-tuganmas manbai ekanligi yoritilgan. Demak, antroponimlar va ularning hosilalari dunyoning lingvistik ko‘rinishining muhim qismidir. Antroponimiya onomastikaning terminologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu xos nom tanlash imkonini beradi.

Резюме: В данной статье объясняется, что антропонимия является отражением развития культурно-исторической жизни существующей нации и всего человечества, неиссякаемым источником развития номинативных средств языка. Поэтому антропонимы и их производные составляют важную часть языковой картины мира. Антропонимика – одно из терминологически упорядоченных направлений ономастики, позволяющее выбрать конкретное имя.

[1] Koziyeva I.K. O‘zbek va rus tillaridagi antroponimlarning o‘ziga xos xususiyatlari/ “Talqin va tadqiqotlar” respublika ilmiy-uslubiy jurnal, №6. – S. 83-87.

[2] https://de.wikipedia.org/wiki/Angela_Merkel

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ҲОЗИРГИ ТОЖИК ТИЛИ КОНСОНАНТИЗМ ТИЗИМИНИНГ ФОНОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Ҳомитов Диловар Лутфуллозода,
Термиз давлат университети тожик филологияси ва шарқ тиллари кафедраси таянч докторанти

Тил ижтимоий ҳодиса ва у доимо ҳаракатда бўлганлиги боис, тиллар шаклланиб ўзгараверади. Баъзи тиллар фойдаланишда пассив бўлиб йўқолишгача боради ва айрим тиллар эса шаклланиб бир лаҳжадан мустақил бир тилга айланади. Худди шундай, тилнинг товуш сатҳида ҳам баъзи фонемалар вақтлар ўтиб фойдаланишдан чиқса, баъзи аллафонлар мустақил фонемага айланади. Шундай экан, ҳозирги тожик тили ҳам ўзининг мустақил шаклланиш йўли ва қонун-қоидаларига эга. Бугунги кунда тожик тилининг фонологиясини ўрганиш тожик тилшунослигининг долзарб масалаларидан ҳисобланади. Чунки тил ўз ички қонунлари асосида ривожланиб ўзгаради ва бу ўзгаришларнинг олдини олиб бўлмайди[1]. Янги алифболар ўша шаклланган янги фонемаларни ўзида акс эттириб, фойдаланишдан қолган фонемаларни чиқариб ташлайди. Шу тариқа ҳар замонда алифболар янгиланиб тилга яқинлашади. Қанчалик ёзувни тилга яқинлаштирсак ҳам вақт ўтиши билан тил ривожланади ва ёзув эса ўзгармаслиги сабабли ёзув ва тил ўртасидаги масофа узоқлашаверади.

Академик Б.Ғафуров таъкидлаганидек "... Марказий Осиёнинг икки буюк давлати Хўқанд хонлиги ва Бухоро амирлиги 1864-1868 йиллар ичида русларга мағлуб бўлишди[2]". Табиийки, ҳар бир ҳоким миллат ўз тили ва маданиятини ҳукмронлик қилаётган ерларида сингдиради. Ҳукмрон тилдан янги сўзлар жадал ўзлаштирилади. XX асрнинг охирги ўн йиллигигача рус тили тожикларнинг иккинчи тилига айланган эди. Бунинг натижасида тожик тили ҳам баъзи ўзгаришларни бошидан кечирди.

Садриддин Айний ҳам ҳозирги тожик адабий тилининг бойиши ва ўзгаришига ўз ҳиссасини қўшган, яъни ёзувчи қишлоқларда юриб, шева ва лаҳжалардан кўпчиликка тушунарли бўлган сўзларни адабий тилга киритади. "У бутун тожик халқининг классик тили ва лаҳжаларидан фойдаланиб, энг сараларини тилга киритган"[3] дейди Ш.Рустамов. Юқоридаги сабаблар ва тожикларнинг XX асрда 1928-1940-йиллар лотин алифбоси ва 1941 йил рус алифбосига асосланган кирилл ёзуви (1953[4], 1972[5], 1998[6], 2011[7] ва 2021[8] йиллар беш маротаба ўзгартиришлар киритилган) ҳам классик форс ва ҳозирги тожик адабий тилларини бир-биридан узоқлаштирди.

Бугунги кунда оғзаки тилдан оммавий тарзда мажлисларда, конференция ва радиоларда фойдаланилади. Бунда эса сўзларни тўғри талаффуз этиш катта рол ўйнайди.

Ҳар бир тилнинг энг асосий вазифаларидан бири бу фонемалар сонини аниқлаш ва уларнинг фонологик низомлар асосида муносабатини аниқлаш ҳисобланади. Бу масаланинг ечими фонемани нутқ товушларидан, фонемани унинг турли вариантларидан фарқлай олишдадир. Албатта, агар қайсидир тил фонемаларини ўрганиш керак бўлса, аввало уни бошқа фонемалардан ажратиб, унинг мустақиллигини таъминлаш керак.

Тожик тили фонемалари ҳам кўпгина дунё тиллари каби унлилар ва ундошларга бўлиб ўрганилади.

Ҳозирги тожик тилининг охирги бир асрлик тарихий тараққиётида тилшунослар унинг фонемалари устида кўп баҳс олиб бордилар. Баъзи бир тилшунослар тожик тили фонемаларини ўттизта[9] деса, баъзилари ўттиз

[1] براتی.م. سرگزشت خط فارسی. //پژوهشنامه زبان و ادبیات فارسی. –تهران. 1389. ص 109.

[2] Ғафуров Б. Тоҷикон. 2-қисм. –Душанбе, 2008. – 330 с.

[3] Рустамов Ш. Забони адабии ҳозираи тоҷик. – Душанбе, 1982. – С. 9.

[4] Қоидаҳои асосии орфографияи забони тоҷикӣ. – Сталинобод, 1953. – 17 с.

[5] Қоидаҳои асосии имлои забони адабии тоҷик. – Душанбе: Ирфон, 1972. – 32 с.

[6] Имлои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Ирфон, 1999. – 36 с.

[7] Қоидаҳои имлои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Шарқи озод, 2011. – 48 с.

[8] Қоидаҳои имлои забони тоҷикӣ ва Аломатҳои китобати забони тоҷикӣ. – Душанбе: Хирадмандон, 2021. –64 с.

[9] Хаскашев Т.Н. Фонетикаи забони адабии ҳозираи тоҷик. – Душанбе, 1983. – С. 49.

битта[1] деб айтишган, учинчи гуруҳдаги тилшунослар фонемалар сонини ўттиз иккита[2] деб таъкидлашган. Тожик тилидаги фонемаларни белгилаш учун қуйидаги транскрипциядан фойдаланилди[3].

Тожик тилида ундошларнинг тиниқ сезиладиган ўрни унлидан олдин келадиган ўрни ҳисобланади. Тожик тили ундошлари 24 фонемани ташкил этади: b, p, m, n, v, f, d, t, z, s, ž, š, č, j, l, r, y, k, g, ɣ, x, q, ‘, h[4].

1956 йилда олий ўқув юртлари учун ёзилган дарсликда 25 та ундош фонема борлиги кўрсатилган[5]. Бугунги кундаги ундошлардан фарқли жиҳати шуки, унда /щ/, /ц/ тожик тилидаги фонемалар қаторига киритилган. Шунингдек, тожик тилида бор ва баҳсли ундошлардан саналган /‘/ фонемаси киритилмаган.

Д.Н.Каримова ўзининг номзодлик диссертатциясида Тожик тили ундошлари уч асосий хусусиятига кўра ўрганилишини таъкидлайди:

1) артикуляция ўрнига кўра;

2) артикуляция усулига кўра;

3) товушнинг иштирокига кўра.[6]

Т.Н.Хаскашевнинг “Фонетикаи забони адабии ҳозираи тоҷик” китобида “Тожик тилидаги ундошлар ўзининг тўрт асосий хусусияти билан фарқланади:

а) фаол аъзоларининг иштирокига кўра (ёки махраж);

б) ҳосил бўлиш усулига кўра;

в) резонаторларнинг иштирокига кўра;

г) товуш пайчаларининг иштирокига кўра[7]” деб келтиради.

Ўз навбатида, фаол аъзоларнинг иштирокига кўра: тожик тилида ундошларнинг ҳосил бўлиши учун лаблар, тил, чуқур тил орқа ва бўғиз кўпроқ хизмат қилганлиги сабабли улар фаол аъзолар ҳисобланади. Лекин Ш.Рустамовнинг “Ҳозирги тожик адабий тили” номли китобида ундошларни ҳосил қилувчи фаол аъзоларга учта орган: тил, бўғиз, лабларни[8] киритилган. Ш.Рустамов чуқур тил орқани фаол органларга қўшмаган. Тилшунослар /q/, /ɣ/, /x/ фонемаларини ҳосил қилишда фаол иштирок этадиган орган бўйича бир фикрда эмаслар. Бир гуруҳ тилшуносларнинг фикрича, бу ундошлар ҳосил бўлишида бўғиз фаол деб айтишади. Бошқа бир гуруҳ олимлар бу фонемаларнинг ҳосил бўлишида чуқур тил орқани фаол орган ҳисоблайдилар. Бу масаланинг жавоби экспериментал тажрибаларни талаб қилади.

Бу масала ечимида Т.Н.Хаскашевнинг фикрлари ҳақиқатга яқинроқ ва уни шундай шарҳлайдилар: ”Биринчидан, ушбу фонемаларнинг ҳосил бўлишида чуқур тил орқа бўғизга нисбаттан кўпроқ ҳаракатдадир, бўғиз ҳарактланиши қийинроқдир, чунки у эркин эмас, қалинлиги, ҳажми ва шакли унга ҳаракатланишига имконият бермайди. Чуқур тил орқа эса ҳолати, вазни ва ҳажмига кўра ҳаракатланишга имконияти кўпроқ. Иккинчи далил эса бу юқоридаги ундошларни талаффуз этиш пайтида тилни максимал даражада ташқарига чиқариб ҳам, яъни одатий жойини ўзгартириб ҳам талаффуз этиш мумкин”[9]. Шунинг учун /q/, /ɣ/, /x/ фонемаларининг ҳосил бўлишида бўғизни фаол иштирокчи деб бўлмайди ва чуқур тил орқа эса фаол иштирокчидир.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, фаол аъзоларининг иштирокига кўра ундошлар тўрт гуруҳга бўлинади:

а) лаб: /b/, /p/, /m/, /v/ ва /f/. Ушбу гуруҳ ўз навбатида яна икки гуруҳга бўлинади: лаб-лаб (b, p, m) ва лаб тиш (v, f).

б) тил ундошлари: тожик тилининг катта консонантизм гуруҳини ташкил этади. Унда 14 ундош мавжуд: /d/, /t/, /n/, /z/, /s/, /l/, /ž/, /š/, /č/, /j/, /r/, /y/, /g/, /k/.

Тожик тилида ундошларни бир-биридан фарқлаш учун тилнинг уч қисми: тил олди, тил орқа, тил ўртасини ҳисобга олиш керак. Тилниг бу қисмлари ундошларни учга бўлади:

1) тил олди ундошлари: /d/, /t/, /z/, /s/, /ž/, /š/, /č/, /j/, /r/, /l/, /n/

2) тил ўрта ундоши: /y/

3) тил орқа ундошлари: /g/ ва /k/[10].

---

[1] Бузургзода Л., Ниёзмуҳаммадов Б. Грамматикаи забони тоҷикӣ. – Сталинобод, 1949. – С. 21-22.

[2] Бузургзода Л. Фонетикаи забони адабии тоҷик. Сталинобод: – Ленинград, 1940. – С. 39-41; Забони адабии ҳозираи тоҷик, қ. 1, лексикология, фонетика, морфология (китоби дарсӣ барои факультетҳои филологияи мактабҳои олӣ). – Душанбе, 1973. – С. 92-93.

[3] Бу ҳақида қаранг: Расторгуева В.С. Основы иранского языкознания. Новоиранские языки: западная группа, прикаспийские языки. – М.: Наука, 1982. – С. 97-98.

[4] Грамматикаи забони адабии ҳозираи тоҷик. – Душанбе: Дониш, 1985. – С. 21; Хаскашев Т.Н. Фонетикаи забони адабии ҳозираи тоҷик. – Душанбе, 1983. – С. 64, Маҷитова С. Забони адабии муосири тоҷик (фонетика(савтиёт)). – Самарқанд: Нашри ДДС, 2020. – С. 76.

[5] Ниёмуҳаммадов Б., Ниёзӣ Ш.Н., Тоҷиев Д.Т. Грамматикаи забони тоҷикӣ (фонетика ва морфология). – Сталинобод: Наш.дав. Тоҷ. – 232 с.

[6] Каримова Д.Н. Сопоставительный анализ систем вокализма и консонантизма в таджикском и английском языках: Дисс. ...канд. филол.наук. – Душанбе, 2002. – С. 121.

[7] Хаскашев Т.Н. Фонетикаи забони адабии точик: Китоби дарсии донишчуёни мактабдои олй. – Душанбе: Маориф, 1989. – С. 75.

[8] Рустамов Ш. Забони адабии ҳозираи тоҷик. – Душанбе, 1982. – С. 89.

[9] Хаскашев Т.Н. Фонетикаи забони адабии ҳозираи тоҷик. – Душанбе, 1983. – С. 64.

[10] Рустамов Ш. Забони адабии ҳозираи тоҷик. – Душанбе, 1982. – С. 89.

в) чуқур тил орқа: уч фонемани (γ, x, q) ўз ичига олади.

г) бўғиз фонемасига /‘/ ва /h/ товуши киради.

Юқоридаги ундошларни гуруҳлашда фақат фаол аъзолар ҳисобга олинган лекин товуш ҳосил бўлиши учун фаол бўлмаган пассив органлар иштироки ҳам керак.

б) Ҳосил бўлиш ўрнига кўра. Тожик тили ундошлари ўзининг шовқини билан ҳам бир-биридан фарқ қилади. Ундош шовқинлари ўпкадан чиқаётган ҳавонинг турли нутқ органларига урилиши натижасида ҳосил бўлади. Бу тўсиқлар товуш органларининг уч хил ҳамкорлигида пайдо бўлади:1) бир-бирига тегишидан, 2) бир-бирига яқинлашишидан 3) органларнинг тебранишидан. Ушбу уч хил тўсиқни келтирувчи омилларга кўра тожик тили ундошлари уч гуруҳга бўлинади:

1) зич(портловчи) ундошлар: /b/, /p/, /m/, /d/, /t/, /n/, /č/, /j/, /g/, /k/, /q/, /‘/;

2) роғ(сирғалувчи) ундошлар: /v/, /f/, /z/, /s/, /ž/, /š/, /l/, /y/, /γ/, /x/, /h/;

3) титроқ ундоши: /r/[1].

в) резонаторларнинг иштирокига кўра ундошлар иккига бўлинади:

1) бурун ундошлари: m ва n

2) оғиз ундошлариЖ .и.б ..б. .м.б .а.б .в.б .е.б .я.б .ы.б .ž.б .š.б .о.б .č.б .д.б .к.б .н.б .л.б .п.б .ү.ю.

г) Товуш найчаларининг иштирокига кўра тожик тили ундошлари:

1) жарангли: Ж .и.б .м.б .в.б .я.б .ž.б .о.б .п.б .ү.б .ь.б .т.б .д.б .к.б .н.

2) жарангсиз: Ж .з.б .а.б .е.б .ы.б .š.б .č.б .л.б .х.б .й.б .р.б .э.ю.

Тожик тилидаги консонантларининг сифатларини ўрганиб, қуйидаги жадвалда жойлаштириш мақсадга мувофиқ деб топилди (1-жадвал):

[1] Хаскашев Т.Н. Забони адабии тоҷик. Китоби дарсии донишҷўёни мактаби олӣ. –Душанбе: Маориф, 1989. – С. 83.

Ҳозирги тожик адабий тилидаги ундош фонемалар тавсифи

1-жадвал

		Фаол аъзоларнинг иштирокига кўра							
		лабиал	тил			чуқур тил орқа	бўғиз		
			тил олди	тил ўрта	тил орқа				
портловчи	содда	b	d		g			жарангли	шовқинли
		p	t		k	q	‘	жарангсиз	
	мураккаб		j					жарангли	
			č					жарангсиз	
сирғалувчи	бир манбали	v	z			γ		жарангли	
		f	s			x	h	жарангсиз	
	икки манбали		ž					жарангли	
			š,					жарангсиз	
портловчи		m	n					сонант	
сирғалувчи			l	y					
титроқ			r						

Фаол аъзоларининг иштирокига кўра тожик тилидаги ундошлар тўрт гуруҳга бўлинади: лабиал (b, p, m, v, f), тил ундошлари ва у яна уч гуруҳга бўлинади:

а) тил олди (d,t, z, s, č, j, ž, ŝ, l, r, n),

б) тил ўрта (y),

в) тил орқа (g, k), чуқур тил орқа (γ, q, x), бўғиз (‘, h).

Фаол аъзоларнинг иштирокига кўра тожик тили ундошлари қуйидаги бир белги билан фарқланувчи оппозицияларга эга:

Лабиал-тил: жаранглиларда b-d (bôd-dôd), v-z (vôra-zôra), жарангсизларда p-t(pir-tir), f-s(far-sar), p-k(par-kar), сонантларда m-n(mur-nur), тил олди бўлмиш /j/, /č/, /ž/, /š/, /l/, /r/, /y/ фонемалари лабиал жуфтларга эга бўлмаганлиги боис оппозицияларга эга эмас.

Лабиал-чуқур тил орқа: p-q(pir-qir), v-γ(vay-γay), f-x(far-xar) лабиал b ва m фонемаларнинг чуқур тил орқа жуфтларига эга бўлмаганлиги боис оппозицияга эга эмас.

Лабиал-бўғиз: p-‘ тожик тилининг ҳозирги имлосида икки унли ўртасида тутуқ белгиси келмаслиги ва ундошларни тиниқ кўриниши унлидан

кейинги ўрни эканлиги сабабли тожик тилида бир бўғинли р-‘ оппозициясини кўрсатувчи сўзлар топилмади, f-h(fôl-hôl), /b/, /v/, /m/ фонемаларининг бўғиз жуфтлари йўқ.

Чуқур тил орқа-бўғиз: q-‘(taqsir-ta’sir), x-h (xam-ham), /ɣ/ фонемасининг бўғиз жуфти йўқ.

Тил олди-тил орқа: d-g(dir-gir), t-k(tôr-kôr), қолган тил олди ундошлари тил орқа жуфтларига эга эмас.

Тил олди-тил ўрта: l-y(lôl-yôl), қолган тил олди ундошлари тил ўрта жуфтларига эга эмас.

Ҳосил бўлиш усулига кўра ундошларнинг фарқланиши тожик тили консонантизм тизимининг ажралмас ва муҳим белгиси ҳисобланади. Тожик тили консонантизм тизими ҳосил бўлиш усулига кўра зич(портловчилар)(b, p, m, d, t, n, j, č, g, k, ‘), роғ(сирғалувчилар)(v, f, z, s, ž, ŝ, l, y, ɣ, x, h) ва титроқ(r) фонемаларга бўлинади. Ушбу фонемалар ҳосил бўлиш усули бўйича бир белги билан фарқланувчи қуйидаги фонологик оппозицияларга эга:

Зич-роғ: b-v(bôra-vôra), p-f(panj-fanj), d-z(dôr-zôr), t-s(tir-sir), q-x (qôr-xôr), ‘-h(qa’r-qahr), n-l(nôm-lôm), /g/, /k/, /ɣ/ фонемалари ўз жуфтларига эга эмас ва бу жараёнга қатнаша олмайди.

Тожик тилида барча роғ ундошлари икки товуш аъзосининг бир-бирига етиши натижасида вужудга келади. Лекин икки аъзо бир-бирига тегди дегани бу товуш ҳосил бўлди дегани эмас, улар бир-биридан ажралганда товуш ҳосил бўлади. Ушбу ҳолат барча зич ундошларда бир хил вужудга келмайди баъзиларида товуш аъзолари бирданига ажралиб кетади ва уларни портловчи ундошлар (b, p, d, t, g, k, q, ‘, m, n) дейишади, баъзиларининг ажралиш жараёни секинроқ амалга ошади ва бундай ундошлар *африкат ундошлар* (j, č) деб аталади.

Портловчи-африкат: d-j(dam’-jam’), t- č(tun-čun).

Бир манбали-икки манбали: z-ž(bezan-bežan), s-ŝ(sir-ŝir).

Портловчи сонант-титроқ:n-r(nôm-rôm).

Сирғалувчи сонант-титроқ:l-r(lôy-rôy).

Резонаторларнинг иштирокига кўра тожик тилидаги ундошлар иккига бўлинади назал(m, n) ва назалмас(қолган барча ундошлар).

Назал-назалмас: m-b(mômô-bôbô), n-d(nahr-dahr).

Шовқин ва сонорнинг иштирокига кўра тожик тили консонантизм тизимининг икки фарқланувчи белгиси асосланган: нисбий ва ҳамнисбий.

Нисбий фарқланувчи белгисига кўра тожик тили ундошлари икки гуруҳ шовқинлилар(b, p, v, f, d, t, z, s, ž, ŝ, j, č, g, k, x, q, ‘, h) ва шовқинсиз(-сонор)лар (m, n, l, r, y,)га бўлинади. Шовқинли ва сонорларнинг фарқи шундаки синтагматик ўринларда сонорлар барча фонемалар билан кела олади лекин шовқинлилар бундай имкониятга эга эмаслар[1].

Ҳамнисбий фарқланувчи белгисига кўра тожик тили ундошлари жарангли(b, v, d, z, ž, j, g, ɣ) ва жарангсиз(p, f, t, s, ŝ, č, k, x, q, ‘, h)га бўлинади[2]. Фақат шовқиндан ташкил топган ундошлар *жарангсиз* дейилади, шовқин ва товушдан иборат ундошлар *жарангли* дейилади. Тожик тилидаги ундош фонемалар жарангли-жарангсиз белгисига кўра саккизта оппозицияга эга:b-p(bôr-pôr), v-f(vôm-fôm), d-t(dôr-tôr), z-s(zar-sar), ž-ŝ(žôla- ŝôla), j-č(jôy-čôy), g-k(gard-kard), ɣ-x(ɣam-xam). /y/, /‘/, /h/ фонемаларининг жарангли жуфти бўлмаганлиги сабабли оппозицияга кириша олмайда.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки тожик тили консонантизм тизимида бир фонологик белги билан фарқланувчи 39 та оппозиция бор. Тилдаги фонемалар аслида икки ва кўп фонологик белги билан фарқланганда тиниқ кўринади. Тожик тилидаги ундош товушлар жарангли-жарангсиз белгисига кўра саккизта оппозицияга эга. Тожик тилидаги y, ‘, h фонемаларининг жарангли жуфти бўлмаганлиги сабабли оппозицияга кириша олмайда. /q/ фонемаси аслида тожик тилига хос бўлмасада, лекин кўп асрлик фойдаланишдан сўнг ўзига фонологик оппозициялар яратаган.

Resume: This article considers the problem of classification of consonantisms and vocalisms in the Tajik language. Also, the question of the phonological properties of these phonemes is considered.

Резюме: В данной статье рассмотрена проблема классификации консонантизмов и вокализмов в таджикском языке. Также, рассмотрен вопрос о фонологических свойствах данных фонем.

[1] Ўша манба. – Б. 85.
[2] Ўша манба. – Б. 85.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILI IBORALARIDA SINONIMIYA, OMONIMIYA HAMDA ANTONIMIYA HODISALARI

Bo‘riyev Islom Eshmirzayevich,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Inson lisonida leksemalar bilan bir qatorda tarkibi jihatdan barqaror (turg‘un) bo‘lgan hamda nutqda tayyor holda aks ettiriladigan frazeologik birliklar yoki frazeologizm (iboralar)lar mavjud. U yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko‘z ilg‘amas rang-barang ko‘rinishlarini o‘zida aks ettiradi. Bunda insonning ijobiy-salbiy xususiyatlari: to‘g‘riso‘zligi, iroda kuchi, halollik, oliyjanoblik, aql, harakatchanlik, qaysarlik, ahmoqlik, sergaplik, xasislik, badjahllik kabi. Shular bilan bir qatorda, baxt, sevgi, nafrat, ajablanish, istehzo, qiziqish, havotir, ko‘p yoki kamlik, kurash, kelishmovchilik, tug‘ilish, muvaffaqiyat, tartib va tartibsizlik, xatolar, jazo, o‘xshashlik va farq kabi boshqa juda ko‘p tushunchalarning ham tavsif va tasvirlari uchraydi.

Umuman, frazeologik birliklar dunyoning barcha tillarida mavjud va bu obyektiv holat kishilar tomonidan ancha ilgari anglangan bo‘lsa-da, bevosita frazeologiya haqidagi ilmiy qarash – yaxlit ta'limot o‘tgan asrning boshlarida yuzaga kelganligi fanda e'tirof etiladi[1]. Xususan, mashhur shvetsar tilshunosi Sharl Balli birinchilardan bo‘lib ilk nashri, 1909-yilda amalga oshirilgan kitobida “bo‘linmas birliklar” – frazeologik birliklarning ichki va tashqi belgilari, o‘ziga xos xususiyatlari, ekspressiv imkoniyatlarini tadqiq qilgan, bu birliklarning xorijiy tilni o‘rganishdagi zaruriyatini ta'kidlagan, ularning emotsional-ekspressiv mohiyatidan kelib chiqqan holda stilistika tarkibida tahlil va talqin qilgan[2]. Shundan so‘ng ko‘plab tilshunoslar tomonidan frazeologiya sohasida ko‘plab izlanishlar olib borilgan va olib borilmoqda. Jumladan, V.V.Vinogradov, B.A.Larin, N.N.Amosova, A.V.Kunin, E.D.Polivanov, A.I.Molotkov, N.M.Shanskiy, V.N.Teliya, V.P.Jukov, L.P.Smit, A.M.Babkin kabi olimlar tomonidan frazeologiyaning qator nazariy va amaliy masalalari ishlab chiqildi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiyaning o‘rganilishi Sh.Rahmatullayev, Abdi Mamatov, B.Yo‘ldoshev, X.Berdiyorovlarning nomlari bilan bog‘liq. Mazkur olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy-amaliy hamda monografik tadqiqotlar o‘zbek tili frazeologiyasi rivojlanishida muhim manbaalar hisoblanadi. Iboralar hozirgi zamon frazeologik sistemasining asosiy birligi bo‘lib, nutqda hosil qilinadigan so‘z birikmalaridan qiyinchilik bilan farqlanadigan, murakkab, ko‘p aspektli til hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham tilshunoslikda iboralarning lingvistik mohiyati masalasi haligacha munozarali. Iboralarning semasi rang-barang ma'nolarni ifodalash bilan birga, murakkab ham hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida iboralarning leksik-semantik munosabatlari bo‘yicha bir qancha izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Sh.Rahmatullayev, Abdi Mamatov, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, Y.Pinxasov kabi olimlar iboralar grammatikasi, semantikasi, strukturasi bo‘yicha qimmatli ma'lumotlar berishgan.

Mazkur tadqiqotimizni yoritish uchun, ya'ni o‘zbek tili iboralarini leksik-semantik munosabatlariga ko‘ra tavsiflashda substitutsiya, morfologik distributsiya, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish, komponent tahlil, “maydon” kabi metodlardan foydalanildi.

Iboralar leksemalar kabi lisoniy birlik bo‘lganligi sababli ularda ham sinonimiya, antonimiya hamda omonimiya hodisalari mavjud. Quyida iboralarda ro‘y beruvchi bunday hodisalarda uchraydigan ba'zi muammolarni yoritishga hamda tahlil qilishga harakat qilamiz:

Iboralarda sinonimiya. Iboraning so‘zga o‘xshash jihatlardan biri sinonimiyada ko‘rinadi. Shaklan har xil, ammo aynan bir tushunchani turli bo‘yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan birliklar sinonim (gr. synonymos – “bir nomli”) deyiladi[3]. Iboralarda sinonimiya polisemiyadan ko‘ra ko‘proq: kuzatilgan iboralarning taxminan 25 foizi o‘zaro sinonim[4].

O‘zbek tilshunosligida iboralarni semantik jihatdan klassifikatsiyalash masalalari haqida xilma-xil qarashlar mavjud. Iboralarning semantik strukturasi rang-barang hamda murakkabligi bilan boshqa lisoniy birliklardan farqlanadi. Iboralarni ko‘p hollar-

[1] Mahmudov N. Iboralar va ularning ma'no tarkibi tavsifi // Til va adabiyot ta'limi. 2022-yil, 8-son. – B. 14-17.

[2] Balli Sh. Фрацузская стилистика, изд 2. стереотипное. – М.: Эдиториал УРСС, 2011. – С. 87-111.

[3] Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yo‘ldosheva D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Innovatsion-Ziyo, 2020. – B. 131.

[4] Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. – Toshkent: Fan, 1970. – B. 50.

da so‘zlar bilan muqobil sifatida, ya’ni ikkalasining ma’nosi teng deb qaraladi. Biroq ular hech qachon teng emas. Agar ibora bilan so‘zning ma’nosi teng bo‘lsa, unda ibora ortiqcha bo‘lib qolar edi. Bu o‘rinda tilshunos olim A.Hojiyevning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joizdir: “frazeologizmlar o‘z sinonimlari bo‘lmish so‘zlarga nisbatan, birinchidan, ma’noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ular obrazlilik ottenkasiga ega”[1]. Bundan ma’lum bo‘ladiki, ibora nominativ ma’no va qo‘shimcha ottenkalardan iborat. Masalan, “ilonning yog‘ini yalagan”, “tulkilik qilmoq”, “pixini yorgan”, “ichidan pishgan” iboralarining nominativ ma’nosi “mug‘ombir” so‘zidan anglashiladigan ma’noga teng bo‘lishi mumkin. Ammo ko‘rib turganingizdek, bu yerda iboralarda “mug‘ombir” nominativ ma’nosidan tashqari qo‘shimcha “o‘ta darajada”, “so‘zlashuv uslubiga xos” “bo‘yoqdorlik” semalariga ega.

Ikki iborani ma’nodosh deyish uchun ular ayni bir ma’noni anglatishi shart. Biroq ayni bir ma’nolilikni teng ma’nolilik deb tushunish yaramaydi. Chunki har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma’no o‘zanidan tashqari, o‘ziga xos ma’no qirrasiga egadir[2]. Masalan, bir yostiqqa bosh qo‘ymoq, turmush qurmoq, oila qurmoq iboralari “oilaviy hayot kechirmoq” ma’nosini anglatadi. Ammo ko‘rib turganimizdek, mazkur iboralar asosida har xil obrazlar yotadi. Shuningdek, bularning ma’no qirrasida ham farq mavjud: birinchi va ikkinchi iborada oilaviy hayot kechirishning “boshlang‘ich, dastlabki davr” ma’nosi anglashilsa, uchinchisida “davomlilik, asoslilik” ma’no qirrasi ta’kidlanmoqda. Ushbu sinonim iboralar ma’no qirrasidan tashqari uslubiy jihatdan ham farqlanadi: birinchi ibora so‘zlashuv va badiiy uslubga xos bo‘lsa, qolgan ikki iborada esa rasmiylik belgisi bor.

Iboralar sinonimiyasi so‘zlar kabi lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqib aniqlanadi. Chunki polisemantik iboraning bitta ma’nosiga sinonim bor, ammo boshqasiga bo‘lmasligi mumkin[3]. Masalan, **bo‘yniga olmoq** iborasi uch ma’noli bo‘lib, birinchi ma’nosi(“e’tirof qilmoq”)da **tan olmoq** iborasiga sinonim: 1. O‘z aybalrini vijdonan **bo‘yniga oladigan** kuni ham bo‘larmikin? (P.Qodirov “Uch ildiz”); 2. Mana shularning birontasini ham sezmay qolding, aytsalar, tan olmading. (SH.Rashidov. “Bo‘rondan kuchli”). Uchinchi ma’nosi(“biror ishni bajarishga mas’ul bo‘lmoq”) da **zimmasiga olmoq** iborasining birinchi ma’nosiga sinonim: 1. Zokir o‘z **bo‘yniga olgan** tashvishning naqadar qiyinligini endi sezdi. 2. …tegirmonchi Mirza Ahmadni chopiqqa o‘tkazib, uning ishini o‘z zimmasiga olgan edi. (Oybek “Quyosh qoraymas”).

Keltirilgan misollar va fikrlar iboralarning lug‘aviy sinonimiya ekanini tasdiqlaydi. Bu fikrni dalillovchi yana bir hodisa mavjud. Sinonimiya munosabati so‘zlar orasida yoki iboralar orasida bo‘lganidek, ibora bilan so‘zlar orasida ham mavjud. Bunday sinonimiya leksik-frazeologik sinonimiya deb yuritiladi. Masalan, “yog‘ tushsa yalaguday” iborasi “toza, ozoda” so‘zi bilan sinonim.

Iboraning so‘zga sinonim bo‘lishi iboralarning o‘zaro sinonimiyasidan ancha ko‘proq. Ibora va so‘zlarning o‘zaro sinonimiyasi taxminan 40 foizida uchraydi[4].

Demak, iboralardagi sinonimiya munosabati ularning aniq anglatgan lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqib aniqlanadi. Chunki ko‘p ma’noli iboralar o‘zicha sinonimiga ega bo‘lishi yoki ega bo‘lmasligi ham mumkin.

Iboralarda antonimiya. Iboralarning so‘zga ekvivalentligini tasdiqlovchi hodisalardan biri antonimiyadir. Antonimiya leksemalar orasidagi zidlikni ifodalovchi hodisadir: oq-qora, katta-kichik, baland-past kabi. Ta’kidlanganidek mazkur hodisa so‘z kabi iboralarda ham uchraydi. Bu hodisa so‘zlarda bo‘lganidek, iboralarda ham u qadar ko‘p emas (2-3 foizni tashkil qiladi)[5]. Iboralardagi antonimiyani aniqlash so‘zlardagi antonimiyani aniqlash bilan deyarli bir xil. Farqi so‘zlarda leksik asoslarning har xil yoki farqli bo‘lishi shart, iborada esa bittadan ortiq leksik asoslarning qatnashganligi uchun asoslarning har xil bo‘lishi talab qilinmaydi. Masalan, yerga urmoq-ko‘kka ko‘tarmoq, dunyoga kelmoq-ko‘z yummoq kabi.

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so‘zlar bilan ifodalangan iboralardagi antonimiyani aniqlash oson. Masalan, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan – yerga ursang, ko‘kka sapchiydigan, og‘zi qulog‘ida – qovog‘idan qor yog‘moq kabi. Ammo quyidagi iboralarga e’tibor qiling: 1) yuragi tor – yuragi keng, qo‘li uzun – qo‘li kalta, ko‘ngli oq – ko‘ngli qora; 2) ko‘ngli joyiga tushdi – yuragiga g‘ulg‘ula tushdi, dili yorishdi – ko‘ngli g‘ashlandi. Ko‘rib turganingizdek, birinchi antonim iboralar tarkibida birinchi so‘z komponentlar ayni bir so‘z ikkinchi so‘z-komponentlar esa zid ma’noli so‘zlar qatnashgan va iboralar antonimligini ta’minlagan, ikkinchi guruh antonim iboralarda dastlabki so‘z-komponent sinonim so‘zlar, ikkinchi so‘z-komponentlar o‘zaro ma’no munosabati hosil qilmagan lekin antonimlik ta’minlangan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, antonim iboralarni belgilashda tarkibidagi so‘zlar muhim hisoblanadi. Ammo barcha

[1] Hojiyev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Frazeologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – B. 180.

[2] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 6.

[3] Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. – Toshkent: Fan, 1970. – B. 51.

[4] Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. – Toshkent: Fan, 1970. – B. 51.

[5] Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. – Toshkent: Fan, 1970. B-52

antonim iboralar tarkibida zid ma’noli so‘zlar qatnashmasligi mumkin. Shuning uchun iboralar antonimiyasini belgilashda ulardan anglashiladigan yaxlit lug‘aviy ma’noga asoslanishi kerak.

Sinonimiyada bo‘lganidek, antonimik munosabat ham ko‘p ma’noli iboralarda har bir ma’noga nisbatan alohida belgilanadi. Chunki ko‘p ma’noli iboraning bir ma’nosiga antonim bor bo‘lishi, boshqa bir ma’nosiga yo‘q bo‘lishi mumkin.

Antonim iboralarning deyarli yarmiga leksik antonim mavjud va bu leksik-frazeologik antonimiya deyiladi[1]. Masalan, **fe’li keng** – ziqna, **qovog‘idan qor yog‘adi** – xursand, **dunyoga kelmoq** – vafot etmoq kabi.

Iboralarda omonimiya. Til birliklarining shaklan teng kelib qolish hodisasi omonimiya deyiladi. Bu hodisa leksemalar bilan bir qatorda iboralarda ham uchraydi. Iboralar o‘zaro omonim bo‘lishdan tashqari erkin birikmalar bilan ham omonimlik hosil qila oladi. Quyidagi jadvallarda ularni ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval

1-jadval. **Iboralarning o‘zaro omonimligi**

T/r	Ibora	Ma’nosi	Misol
1.	Ko‘zi ochiq I	Ishning mohiyatini tushunadigan; yaxshi-yomonni farqlaydigan	Yaralarimizga, dardlarimizga malham qidirgan va olamdan xabardor, ko‘zi ochiq odamlarimiz bor. Yurt qayg‘usiga ular chora ko‘radi. (Oybek. Tanlangan asarlar).
	Ko‘z ochiq II	O‘lmagan, hayot	xudoga ming qatla shukr, ko‘zim ochiq paytda qizginamning to‘yini ko‘radigan bo‘ldim. (A.Qahhor “Og‘riq tishlar”)
2.	Jon bermoq I	Barhayot qilmoq	“Odamzotga jon bergan ham, jonini oladigan ham yaratganning o‘zi”. (P.Tursun “O‘qituvchi”)
	Jon bermoq II	O‘lmoq, so‘nggi marta nafas chiqarmoq	Semiz va hamisha yurak kasalidan qiynalib yurgan xotin arava ustida yulduz to‘la osmonga termilib jon berdi. (Sh.Rashidov “Bo‘rondan kuchli”)
3.	Boshga ko‘tarmoq I	Qattiq shovqin qilmoq, to‘palon qilmoq	Atrof-tevarakda ko‘chani boshiga ko‘tarib yurgan bolalarning shovqini tingan. (R.Fayziy “Qayanana”)
	Boshga ko‘tarmoq II	Yuksak darajada iz-zat-hurmat qilmoq	Bilaman, Komila ularni o‘z boshiga ko‘taradi, keragidan ortiqcha sharoit hozirlaydi. (Oybek “Oltin vodiydan shabadalar”)

[1] Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. – Toshkent: Fan, 1970. B-53

2-jadval. **Iboralarning erkin birikmalar bilan omonimligi**

Ibora	Erkin birikma
Og‘iz ochmoq – gap boshlamoq. Ba’zi raislar borki, tanqiddan og‘iz ochsang, naq tavba qilguningcha yoqalashadi.	*Og‘iz ochmoq* – Ona qushni ko‘rgan polaponlari ovqat ilinjida tez-tez og‘izlarini ochishardi.
Ko‘z yummoq – ko‘ra bila turib e’tiborsiz qoldirmoq. Men raykom sekretari o‘rtoq Ro‘ziyevning bizga ko‘rsatgan yordamidan ko‘z yummoqchi emasman.	*Ko‘z yummoq* – Malika og‘riqqa chidolmay ko‘zlarini yumdi.
Qo‘l ko‘tarmoq – urmoqchi bo‘lmoq. jerkidim alamimni sendan olmoqchi bo‘ldim, qo‘l ko‘tardim… (A.Muxtor “Opa-singillar”).	*Qo‘l ko‘tarmoq* – Bola qo‘lini ko‘targancha qarab qoldi.
Yoqasini ushlamoq – nihoyat darajada ajablanmoq, hayratda qolmoq. Bugungi yangilik hammaning yoqasini ushlatib qo‘ygan edi. (S.Ahmad “Hukm”).	*Yoqasini ushlamoq* – Yigit oynaga qarab yoqasini ushlab to‘g‘rilab qo‘ydi.

Omonim munosabatdagi iboralarning leksik tarkibi ikki xil bo‘ladi:

1) har ikki ibora tarkibidagi bir komponent omonim bo‘ladi, boshqa komponent esa bir so‘zning ayni o‘zi bo‘ladi: **o‘ng kelmoq I** va **o‘ng kelmoq II** iboralaridagi fe’l komponentlari ayni bir so‘z bilan, ism komponentlar esa omonim so‘zlar bilan ifodalangan.

2) omonim iboralar tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu so‘zlarning o‘zi bo‘ladi. Bunda ikki holat bor; a) iboralar tarkibidagi so‘zlar har xil leksik ma’nosi bilan qatnashadi. Masalan, **dam bermoq I** va **dam bermoq II** iboralari tarkibidagi ot komponentlar (dam – “havo”, dam – “istirohat”) har xil leksik ma’nosi, fe’l komponentlar esa ayni bir leksik ma’nosi bilan qatnashgan. b) iboralar tarkibidagi so‘zlar ayni bir leksik ma’nosi bilan qatnashadi. Bu turdagi omonim iboralarni izohlashda ularning tarkibidagi so‘z-komponentlarga asoslanib emas, balki iboralar asosida yotgan voqelikka asoslanadi. (Aslida yuqorida sanab o‘tilgan turlarini ham shu yo‘l bilan izohlansa asosli bo‘ladi)[1]. Masalan, **ko‘z yummoq I** va **ko‘z yummoq II** iboralari tarkibidagi so‘zlar ayni bir leksik ma’nosi bilan qatnashgan, lekin mazkur iboralar asosida boshqa-boshqa obrazlar yotadi: birinchisida ko‘zni yumish natijasida hech narsani ko‘rmay qolish, ikkinchisida esa vafot etgandan keyin ko‘zning yumilishidan obraz olingan.

Iboralarda xuddi so‘zlardagidek omonimlardan tashqari omoformalar ham uchraydi. Bir-biriga shaklan teng ikki ibora ko‘pincha biror grammatik tomoni bilan o‘zaro farq qilib, frazeologik omoformalarni hosil qiladi[2]. Iboralardagi omoforma bilan leksik omoformaning asosiy farqi, leksik omoformalar har xil so‘z turkumi orasida bo‘ladi, frazeologik omoformalar esa bir “turkum” iboralari bo‘ladi[3]. Masalan **so‘z ber I** (“muzokarada gapirishga rasmiy ruxsat bermoq”) iborasi bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarda ishlatiladi: 1. “Menga **so‘z bering**, o‘rtoq Toshpo‘latov”, – dedi keksa brigadir Ortiqov joyidan qo‘zg‘ala turib. (R.Fayziy “Cho‘lga bahor keldi”). 2. “Men ayta qolay, ona!”, –

[1] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 9.

[2] Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. – Toshkent: Fan, 1970. – B. 54.

[3] Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. – Toshkent: Fan, 1970. – B. 54.

degan edi, o‘qituvchi **so‘z bermadi**. (H.Nazir “O‘jar qizlar”). **So‘z berma II** (“boshqalarga imkon bermay nuqul o‘zi gapir-”) iborasi esa faqat bo‘lishsiz shaklda ishlatiladi: Xolmirza hammani og‘ziga qaratib olibdi, hech kimga **so‘z bermay** gap ma’qullamoqda. (I.Rahim “Hilola”). Ko‘rib turganingizdek, **so‘z ber I** shakli bo‘lishsiz holatda **so‘z berma II** iborasiga omonim bo‘lmoqda. Ya’ni ikki ibora o‘rtasidagi omonimiya bo‘lishsizlik shakli orqali voqe bo‘lmoqda.

Demak, so‘zlarda ro‘y beruvchi leksik-semantik munosabatlar iboralarda ham mavjud hamda umumiy qoidalar ham deyarli bir xil ammo iboralarda bu jarayon biroz murakkabroq. Chunki iboralar bir necha so‘z-komponentlardan tarkib topgan bo‘ladi hamda ibora tarkibida ishtirok etayotgan mazkur so‘z-komponentlar o‘zlari anglatgan ma’no emas, balki ustama ma’no sifatida gavdalanadi, bu ma’no ishtirok etayotgan so‘zlar ma’nosiga umuman suyanmasligi ham mumkin[1]. Tilimizdagi sinonim iboralar bir xil tushunchani ifodalashi mumkin lekin buni ayni teng ma’nolilik deb tushunilmasligi kerak, sababi sinonim sifatida olinayotgan iboralar o‘ziga xos ma’no qirrasiga ega, shuningdek, ular uslubiy jihatdan ham farqlanishi mumkin.

O‘zbek tilidagi antonim iboralarni belgilashda tarkibidagi so‘zlar muhim hisoblanadi ammo har doim ham emas. Chunki ibora anglatayotgan ma’no umuman tarkibidagi so‘z-komponentlar anglatgan ma’noga suyanmasligi ham mumkin. Bunday holatda ibora anglatgan yaxlit lug‘aviy ma’noga asoslanadi.

Omonim iboralarni aniqlash birmuncha murakkab hisoblanadi, sababi iboralarda omonimiyadan tashqari so‘zlardagidek omoformalar (ma’lum bir grammatik shakl orqali hosil qilingan) ham uchraydi. Omonim iboralarni belgilashda ham tarkibidagi so‘zlarga e’tibor qilinadi, chunki ibora tarkibidagi so‘z-komponentlardan biri omonim bo‘lib bu hodisani yuzaga chiqarishi yoki tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu so‘zlarning o‘zi bo‘lib ham omonimiyani hosil qilishi mumkin. Iboralardagi omoforma hodisasida esa grammatik shakl qo‘shimchalarining qo‘llanilishi orqali aniqlash to‘g‘riroq bo‘ladi, sababi omoforma hodisasida grammatik shakl qo‘shilgach iboralar shaklan o‘xshash bo‘lib qoladi.

Iboralardagi sinonimiya, antonimiya yoki omonimiyani belgilashda birinchi navbatda ularning aniq anglatgan lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqib aniqlanishi shart. Chunki ko‘p ma’noli iboralar o‘zicha sinonim, antonim yoki omonimiga ega bo‘lishi yoki ega bo‘lmasligi ham mumkin.

Resume. This article analyzes the lexical-semantic relations of phrases in the Uzbek language. Also, the opinions expressed about the synonymy, antonymy and homonymy of expressions in the literature of Uzbek linguistics are presented and studied in a comparative way, and some opinions about them are given.

Резюме. В данной статье анализируются лексико-семантические отношения словосочетаний в узбекском языке. Также в сравнительном плане представлены и изучены мнения, высказанные о синонимии, антонимии и омонимии выражений в литературе узбекского языкознания, и приведены некоторые мнения о них.

[1] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 6.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SAVDOGAR NUTQI LEKSIKASINING GENEALOGIK TARKIBI TAHLILI

To'raliyev Baxodir Erali o'g'li,
Termiz davlat universiteti magistranti

Ma'lumki, har bir soha leksikasi lisoniy nuqtayi nazaridan o'z tasnifiga ega hamda bugungi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi savdogar nutqi leksikasi ham shakllanib ulgurdi. Hozirda ushbu leksikani har tomonlama tahlil qilish, ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, ushbu soha leksemalarining umumlug'atda va "O'zbek tilining izohli lug'ati" da qanday aks etishini tahlil va tadqiq etish, bu guruh leksemalarining jonli nutqdagi variantlarini o'rganish o'zbek tilshunosligi va ortologiyasi uchun dolzarb hisoblanadi.

Jumladan, o'zbek tili leksikasi tarkibiga ko'ra o'z va o'zlashgan qatlamga ajraladi. O'z qatlam ham ikki guruhga ajraladi: a) turkiy tillarga oid bo'lgan tub so'zlar b) turkiy so'zlardan qo'shimcha yordamida yasalgan yasama so'zlar. O'zbek tili leksik qatlamida o'zlashgan so'zlarning o'rni ham sezilarli darajada. O'zlashgan so'zlardan qo'shimcha qo'shish orqali so'z yasash holati ham mavjud. O'zbek tilida savdogar nutqi leksikasidagi umumturkiy so'zlar, asosan, quyidagi qoliplarda yasalgan:

- *chi* affiksi yordamida: *sotuvchi, noschi, oluvchi, somsachi, sutchi, soliqchi* va boshqalar;

- *iq* affiksi yordamida: *soliq, sotiq* v.b.;

- *lik* affiksi yordamida: *somsachilik, sotuvchilik, olibsotarlik* v.b.;

- *lash* affiksi yordamida: *silkilashmoq, tortqilashmoq, talashmoq* v. b.;

O'zbek tilida savdogar nutqi leksikasida boshqa tillardan o'zlashgan so'zga o'zbekcha qo'shimcha qo'shib so'z hosil qilishning quyidagicha modellari mavjud:

o'zbek tilida iste'molda bo'lgan fors-tojikcha so'z + o'zbekcha so'z yasovchi affiks: *bozorbop, bozorlik, bozorlamoq; narxlamoq*; *pulsiz, pulli, pulsizlik; savdogarlik, savdolashmoq; xaridchi; chekchi; arzonlashmoq, arzonsinmoq, arzonchilik* va boshqalar;

O'zbek nutqida faol bo'lgan arabcha so'z + o'zbekcha yasovchi affiks: *foydali, foydasiz; zararli, zararsiz, qimmatlashmoq, qimmatsiramoq, qimmatsinmoq, qimmatchilik, qimmatlamoq, qimmatsizlanmoq; hisobchi, hisoblamoq* va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan qoliplar eng faol qoliplar bo'lib, qo'llanilishi nofaol qoliplar ham uchraydi.

Fors-tojikcha yasovchi affikslar o'zbek tilida mavjud arabcha va turkiycha so'zlarga qo'shilib yangi so'z yasaydi:

turkiycha so'z + fors-tojikcha yasovchi qo'shimcha: *oshpaz, pistafurush, nonfurush* va hakozolar.

o'zbek tiliga o'zlashgan arabcha so'z + fors-tojikcha yasovchi affiks: *bezarar, qimmatfurush, qarzdor, hisobdon* va boshalar.

Savdogar nutqida o'z va o'zlashgan qatlam leksemalarining qo'shilishidan gibrid so'zlar ham hosil bo'lgan:

Fors-tojikcha so'z + o'zbekcha so'z: *arzon-garov, arzonqo'l, pulparast, savdo-sotiq, xarid qilmoq, xaridorbop, bozorboshi, bozor-o'char, baho bermoq va boshqalar;*

Arabcha so'z + o'zbekcha so'z: *qarz bo'lmoq, qarz-qurz, jazman bo'lmoq, foyda qilmoq, dallolboshi va boshqalar*;

Ruscha-baynalminal so'z + o'zbekcha so'z*: pochin qilmoq*;

Arabcha so'z + fors-tojikcha so'z: *foydaxo'r, qimmatbaho, qimmatfurush, qiymatshunos va boshqalar.*

Kuzatish jarayonida xulosa qilindiki, savdogar nutqidagi leksikani ikki guruh: umumiste'moldagi leksema va iqtisodiy aloqalar natijasida o'zlashayotgan terminlarga bo'lish mumkin. Genealogik tahlilda har ikki guruh leksikasiga murojaat qilishni o'rinli deb bildik.

Savdogar nutqi leksikasidagi turkiy qatlamga oid so'zlarni ikkiga bo'lish o'rinli: 1) tub turkiy so'zlar, 2) yasama turkiy so'zlar. Boshqa tillarda mavjud bo'lgani kabi o'zbek tilida ham tub so'zlarning o'rni katta va ularga yasovchi affiks qo'shish orqali yuzlab yangi so'zlar hosil qilinadi. "O'zbekcha so'zlar tub turkiy leksika negizida o'tmishda ham ko'plab hosil qilingan. Bu so'zlarning ko'pchiligi shu kunda ham hozirgi o'zbek adabiy tilida saqlangan va ular keng qo'llanilmoqda"[1]. Savdogar nutqi leksikasi tarkibida ham turkiycha so'zlarning o'rni katta. Biroq bu soha-

[1] Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 131.

da qo‘llaniladigan so‘zlarning katta qismini o‘zlashgan qatlam leksikasi tashkil qiladi. Savdogar nutqi leksikasida quyidagi tub va yasama turkiy leksemalar faol qo‘llaniladi[1].

Oluvchi – biror narsani qo‘lga kirituvchi; xaridor: *Sotuvchi oluvchi, oluvchi sotuvchi axtaradi*. (H. Olimjon, Tanlangan asarlar (O‘TIL III tom, 119)) Bu leksemaning og‘zaki nutqda sifatdosh ko‘rinishi ham uchraydi. *Bozor qanday ekan? Sotarga qimmat ekan, olarga arzon* (Sho‘rchi bozoridan yozib olindi).

Olibsotar – arzonga mol olib, qimmatga sotuvchi, mayda savdogar*: Paxta suvrati solingan chinni idishlar olibsotarlarning uyida qalashib yotsa.* (Mirmuhsin, Ildizlar va yaproqlar (O‘TIL III tom, 111)) *Bozorga olib borgan molingni olibsotarga berma, u narxini pastga uradi* (Termiz shahar bozoridan yozib olindi).

Olibsotarlik – arzonga mol olib, qimmatga sotishlik va shu ish bilan shug‘ullanish. *Zebo xola uncha-muncha bozorga aylanib turadi. Olibsotarlik qilmaydi.* (Gazetadan. (O‘TIL III tom, 111)) *Men olibsotarlik qilmayman, O‘zim dehqonman. Arzon narxda sotyapman. Qimmatsiramang*. (Termiz shahar, “Yashil dunyo” bozoridan yozib olindi).

Oldi-berdi 3 – savdo-sotiq, savdo muomalasi. *U* [Teshaboy] *savdo-sotiq, oldi-berdi masalalarida, ya’ni birni o‘n qilish bobida ikki onani emgan quv buzoqlardan*. (M. Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha (O‘TIL III tom, 119)) *Siz bilan birinchi marta oldi-berdi qilmayapmiz, kelishtirib narx ayting*. (Angor bozoridagi, xaridor nutqidan)

Oldi-sotdi 1 – narsa, mol olish va sotish, savdo muomalasi; savdo. Oldi-sotdi qilmoq. *Noib janoblarining yasovullari hayhaylashib, omadi yurishmay, oldi-sotdisini tugatolmay qolgan bozorchilarni ham haydab kelmoqdalar*. (X.To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar) *Ko‘rgazma davomida tadbirkorlar o‘zaro sheriklik bitimlarini tuzishlari, oldi-sotdi shartnomalarini imzolashlari ham mumkin*. (Gazetadan. (O‘TIL III tom, 111))

Sotuvchi 1va 2 – sotmoq fe’li. sfdsh. *Olma sotuvchi*.

2. Magazinda savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi xodim. *Sotuvchilar xaridorlarga xolis xizmat ko‘rsatish bilan band*. (O‘TIL III tom, 554) *Sotuvchining yomon moli bo‘lmaydi. Qaysi sotuvchi o‘z molining aybini aytadi?!* (Xaridor nutqidan)

Savdo-sotiq – Oldi-sotdi muomalasi. Bozor sotuvchi va oluvchilar bilan gavjum, savdo-sotiq ishlarini terim mavsumida dalaga ko‘chirish g‘oyatda muhimdir. Gazetadan. (O‘TIL III tom, 415). Karantin boshlangan vaqtda savdo-sotiq ishlari birdan to‘xtab qolgandi (Sotuvchi nutqida).

So‘ramoq 10 – savdoda, oldi-sotdida o‘z moli uchun biror narxni aytmoq. Qimmat so‘ramoq. – *Toychangizga necha pul so‘raysiz? – Egasi yuz so‘m so‘radi. Men yetmish so‘m dedim*. (A. Qahhor, Qanotsiz chittak) – *Ketamiz, – dedi [Otabek] bir oz o‘ylangandan keyin, – mol baholari to‘g‘risida bitisholmay turamiz – olg‘uvchilar arzon so‘raydilar*. (A. Qodiriy, O‘tgan kunlar (O‘TIL III, 618)) *Pachakilashib so‘ramang. Insof bilan so‘rang-da*. (Sho‘rchi mol bozoridagi sotuvchi nutqidan yozib olindi)

Silkilashmoq 1 – qiyishmoq, talashmoq, talashib-tortishmoq (savdoda, bitishuvda). – *Bir qancha silkilashishlardan keyin boy menga xizmat haqi uchun oyiga ona sutidan halol ikki pud un, xom-pishiq aralash yetti qadoqdan olma beradigan bo‘ldi, – dedi Shum bola*. (G‘. G‘ulom, Shum bola (O‘TIL III tom, 501))

O‘zbek xalqi juda uzoq davrlardan boshlab fors-tojik tilida so‘zlashuvchi aholi bilan yonma-yon yashab kelgan, shu bois, ularning ijtimoiy, madaniy, e’tiqodiy, iqtisodiy hayot tarzlarida ko‘plab o‘xshashliklari bor. Millatlar orasidagi bu yaqinlik ikki tilga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Shunga asosan: “O‘zbek tiliga qadimiy davrlarda ta’sir etgan eroniy tillar so‘g‘d va qadimiy Xorazm tilidir. Somoniylar dinastiyasi davrida arab tili o‘rniga “forsiyi dariy” yoki forsiy til ya’ni dariy deb atalgan mahalliy til adabiy til sifatida keng yoyilgan. “Forsiyi dariy”, ya’ni fors dariy tiliga Xurosonda yashovchi tojiklarning tili asos bo‘lgan”[2]. Shuning natijasida o‘zbek tilining rivojlanishida fors-tojik tilining o‘rni katta bo‘ldi.

“O‘zbek tili leksikologiyasi”da shunday e’tirof etiladi: “Hozirgi o‘zbek tili leksikasida anchagina tojikcha so‘zlar bo‘lib, o‘zbek tili leksikasida turkiy so‘zlardan keyingi miqdor jihatidan ikkinchi o‘rinda turadi”[3]. Biroq bu fikr o‘zbek tilining barcha sohalari uchun ham taalluqli emas. Chunki turli sohalarda fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarning foizi turlichadir. Yuqoridagi fikr esa o‘zbek tilining umumiy leksikasi nuqtayi nazaridan aytilgan. Masalan, tadqiqotchi I.Yo‘ldoshev[4] kitobatchilik sohasidagi leksikani o‘rganib, undagi fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar arab tilidan o‘zlashgan so‘zlardan ancha kam ekanligini asoslaydi. Q.Sapayevning nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek quruvchilik terminologiyasida fors-tijik tilidan o‘zlashgan so‘zlar arab tilidagidan ancha ko‘p ekanligini tahlillar asosida ko‘rsatib berilgan[5]. Xususan, savdogar nutqi leksikasida ham fors-tojik tilidan o‘zlashgan

[1] Izohlanayotgan so‘zlarning tahlilini berishda o‘zbek tilining besh tomlik izohli lug‘atidan foydalanildi (1-2-3-4-5-tomlar).

[2] Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 95.

[3] Ko‘rsatilgan manba. – Б. 97.

[4] Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси. – Тошкент: Фан. – Б. 146.

[5] Сапаев Қ. Строительная терминология узбекского языка: Автореф… дисс… канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – С. 14.

leksemalar arab tilidan o‘zlashgan so‘zlardan ancha ko‘p. Savdogar nutqi leksikasidagi o‘zlashma qatlam 3 guruhni tashkil etadi:

– fors-tojik tilidan o‘zlashgan qatlam;

– arab tilidan o‘zlashgan qatlam;

– rus tili va u orqali yevropa tillaridan o‘zlashgan qatlam.

Shu nuqtayi nazardan quyida bu qatlam so‘zlarining qisqacha tahlilini olib boramiz. Savdogar nutqi leksikasida bugungi kunda faol bo‘lgan quyidagi fors-tojikcha o‘zlashmalarni misol qila olamiz:

Arzon 1 – bahosi past, qadri kam. Bahosi, narxi yuqori bo‘lmagan. Arzon mol. *Qarang, hammasi arzon narsalar*. S. Zunnunova, Olov. 2. Me’yordagidan past narx, past narxda. *Bizning Qalandarboy kuzda kambag‘allarning paxtasini arzon-arzon sotib olib, saroyiga bosib qo‘yadi*. (M. Ismoiliy, Farg‘ona t.o. (O‘TIL I tom, 97)) *Kelib qoling, ko‘katlar arzon bo‘lib qoldi. Uchtasi ming so‘mdan bo‘ldi*. (Termiz shahar “Barchinoy” dehqon bozoridan yozib olindi)

Bozor – savdo rastasi1. Aholi savdo-sotiq qiladigan maxsus joy, maydon. *Otang – bozor, onang – bozor*. Maqol. *Aql bozorda sotilmas*. Maqol. *Yurt boy bo‘lsa, uning bozori ham to‘kin bo‘ladi*. (U. Normatov, Talant tarbiyasi) *Bir aylanib kelay, deb Quva bozoriga chiqdim*. (S. Ahmad, Ufq. (O‘TIL I tom, 288)) *Yakshanbada hammani bozordan topasan, uka!* (Termiz shahar mol bozoridagi sotuvchi nutqidan).

Baho 1 – narx, qiymat Biror narsaning pul bilan o‘lchanadigan qiymati; narx. Yuqori baho. Past baho. Chakana baho. Bozor bahosi. Kelishilgan baho. Qat’iy baho. *Uydagi narxni bozordagi baho buzar*. Maqol. *Otimning o‘mildirig‘iga ularning havasi kelib, bahosini so‘radilar*. (A. Qodiriy, Kichik asarlar. (O‘TIL I tom, 194)) *Bahosi tillaga teng bo‘lsa ham shu ho‘kizni men sotib olaman.* (“Zang” mol bozoridagi sotuvchi nutqidan yozib olingan)

Daromad 1 – kirim; foyda; Savdo-sotiq, mehnat, ishlab chiqarish sohalaridan davlat yoki ayrim shaxslar hisobiga kelib tushadigan sof pul va boshqa xil tushumlar; kirim. Bir kunlik daromad. Davlat daromadi. Milliy daromad. *Daromadga qarab buromad*. Maqol. *Unumli mehnat – katta daromad*. Maqol. *To‘g‘rilik, halollik tufayli topilgan daromad oilaga baxt keltiradi*. “Saodat”. *O‘zbekiston sharoitida asalarichilik yaxshi daromad beradigan soha hisoblanadi*. (M. To‘ychiyev, Asalarichilik) *Daromadga yarasha buromad deganlaridek, to‘y ham shunga qarab juda dabdabali o‘tdi*. (“Mushtum”. (O‘TIL I tom, 568)) *Bizning tirikchiligimiz shu savdodan keladigan daromaddan-da, uka*. (Termiz shahar “Yubileyniy” bozoridagi sotuvchi nutqidan)

Kamomad – kam keldi; yetishmaslik. Mol, pul va shu kabilarning tegishli miqdordan kam chiqqan qismi. Kamomadni aniqlamoq. Kamomadni qoplamoq. *O‘sha reviziyadan chiqqan bir yuzu o‘ttiz uch ming kamomadni ko‘plashib to‘lab yubora qolsak-chi*… (N. Aminov, Yolg‘onchi farishtalar) *Pixi qayrilgan taftishchilar qasd qilganlarida ham, biron marta kamomad topolmaganlar*. (Y.Shamsharov, Toshqin. (O‘TIL II tom, 309))

Chek 3 – pul muomalasiga doir hujjat, shartnoma; veksel. Ma’lum yuridik shaxsning joriy hisob raqamidan muayyan mikdordagi pulni berish yoki o‘tkazish haqidagi yozma farmoyishdan iborat maxsus xujjat. Chek bilan pul olmoq. 2. Kassa tomonidan beriladigan, tovar uchun to‘langan summa ko‘rsatilgan talon, shuningdek, to‘lanishi lozim bo‘lgan summa ko‘rsatilgan va kassaga taqdim etiladigan kvitansiya. *Sotuvchining qo‘li-qo‘liga tegmas, chek olib, odamlarga sut, kefir berardi*. (Mirmuhsin, Ildizlar va yaproklar. (O‘TIL IV tom, 473)) Bundan tashqari, hududlarda tashkil etilgan mol bozorlarida ham chek sotib olinadi. Maqsad – o‘z molini sotish uchun bozordan joy egallash. Mol bozoridagi chek pulini, asosan, mol egasi, ba’zan kelishuvga ko‘ra xaridor to‘laydi. Agar sotuvchi molini sota olmasa, bozordan chiqishda chek pulini o‘zi to‘laydi. Masalan, savdoda “Chekini ham to‘lashim kerak, biroz arzonroq bering”; “Chekini o‘zim to‘layman, bering”, kabi gaplar tez-tez ishlatiladi.

Narx – baho, qiymat. Narsaning, buyumning pul bilan o‘lchanadigan qiymati; baho. *Ibodilla katta-kichik taroqlarning narxlarini birma-bir aytdi*. (H.G‘ulom, Mash’al) [Maxdum bolaga:] *Yigirma dona non kerak ekan. Narxi qanchadan? – deb darrov so‘rab kel!* (A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. (O‘TIL III tom, 20)) *Narxini kelishtirib bersangiz, ko‘proq non olar edim* (“Yubleniy” bozoridagi xaridor nutqidan)

Narx-navo – narx + yashash vositalari; farovonlik, boylik; garov. Narx, baho; narxlar, baholar. *Bozorda narx-navo ko‘tarilib, xaridoru sotuvchining tortishuvlari avjga mingan edi*. (Sh. Xolmirzayev, Qil ko‘prik) *Savdo xodimi – dunyoning qay burchida nimalar bo‘lyapti, narx-navo qalay – hammasidan xabardor, turli xil odamlar bilan muomala qila oladigan ilmli va diplomat odam*. (Shukrullo, Javohirlar sandig‘i. (O‘TIL III tom, 20)) *Bozorda narx-navo osmonlab ketdi. Shunga biz ham narxni ko‘tarishga majburmiz.* (“Barchinoy” dehqon bozoridagi sotuvchi nutqi)

Pul 1 – pul, aqcha; Oldi-sotdi yoki to‘lov muomalalarida narx, baho, qiymat o‘lchovi bo‘lgan metall yoki qog‘oz belgi; aqcha. Qog‘oz pul. Tanga pul. Naqd pul. Pul maydalamoq. *Pul bo‘lsa, changalda sho‘rva*. Maqol. *Puli kuygan qalampir chaynar*. Maqol. *Sidiqjon kechki payt ko‘chaga chiqmoqchi bo‘lgan edi, Anzirat xola, uning puli yo‘qligini bilganday, soch oldirgani pul berdi*. (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari) *Yo‘lkiraga pulimiz, piyoda qaytishga ilojimiz bo‘lmaganidan qolib ketdik*. (M. Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha) *Sanavbar Xayrinisoga: Sizga ham gapiraman, pul*

uchun imoni va qizini sotadigan otamga ham gapiraveraman. (Hamza, Tuhmatchilar jazosi. (O‘TIL III tom, 320)) *Bu qo‘chqoringizni necha pul deyapsiz?* (Termiz shahar mol bozoridagi xaridor nutqidan).

Rasta 1 – qator; qatorga qo‘yilgan, qatorda turgan. Bozorlarda bir turdagi mol bilan savdo qiladigan do‘konlar qatori va ular o‘rtasidagi bozor, ko‘cha, yo‘lak. Chit rastasi. *Chamasi, kasalxona yaqinidagi bu bozorcha o‘zidan-o‘zi paydo bo‘lgan, keyinchalik bir qator rasta qurilib, ustiga rangdor plastmassa shifer yopib qo‘yilgan edi*. (O‘. Hoshimov, Nur borki, soya bor) *Keltirilgan qop-qop guruchlarni tushirish kerak, rastalarga joylash kerak*. (Sh.Xolmirzayev, Og‘ir tosh ko‘chsa) *Bashirjon rasta oralab yurarkan, yon tomondan tanish bir ovoz keldi: – Ho, jiyan!* (N.Aminov, Suvarak. (O‘TIL III tom, 355))

Savdo 1 – oldi-sotdi, savdo-sotiq; oldi-sotdi bitimi. Tovarni sotish, ayirboshlash bilan bog‘liq bo‘lgan ikki tomonlama munosabatga doir muomala; oldi-sotdi, savdo-sotiq. Savdo xodimi. Savdo korxonasi. Tashqi savdo. *Bir kuni qaynotasi Yodgorga maslahat soldi: – Qachongacha qishlik-qirovlik kunlardayam loy changallab yurasiz. Savdoga kiring. Savdoda gap ko‘p*. (O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol) *O‘zingizga ma’lum, savdo ahli zararni yoqtirmaydigan, foydatalab xalq bo‘ladi*. (K.Yashin, Hamza) *Birorta odam savdo sohasida ishlasa, darrov odamlarning miyalariga egri fikr keladi*. (F.Musajonov, Himmat)

Savdomiz kelishmay turibdi. Siz biroz qimmat aytyapsiz. Kelishilmagan savdoga baraka berilmaydi. (Termiz shahar mol bozoridagi xaridor nutqidan)

Savdo 3 – ko‘chma. Savdo-sotiqdan tushgan pul. *Bugungi savdo yuz ming so‘mga yetdi*. (O‘TIL III tom, 414).

Savdogar – savdo qiluvchi, tijoratchi. Xususiy savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi, savdo-sotiqni kasb qilib olgan kishi. Yirik savdogar. Mayda savdogar. *Qo‘qon savdogarlari faqat Turkistondagina emas, balki Moskva va Rossiyaning boshqa shaharlarida ham savdo-sotiq bilan shug‘ullanar edilar.* (K.Yashin, Hamza) *Har kun mol narxi oshadi, bozorda savdogarlarning qulog‘i tikkaygan.* (Oybek, Tanlangan asarlar) *Mayda savdogarlar saqich, gilvata sotishardi.* (I.Rahim, Ixlos. (O‘TIL III tom, 414)) *Savdogar – qilgan ishi hiylagar*. (Maqol)

Savdo-sotiq – oldi-sotdi muomalasi. *Bozor sotuvchi va oluvchilar bilan gavjum, savdo-sotiq ishlarini terim mavsumida dalaga ko‘chirish g‘oyatda muhimdir.* (Gazetadan (O‘TIL III tom, 415))

Xarid – sotib olish; sotib olingan narsa. Sotib olish, sotib olingan narsa. Molning xarid narxi. Aholining xarid quvvati. Xarid qilmoq. *Ahmad o‘zi yaxshi ko‘rgan shaftolidan bir kilo xarid qildi.* (F. Musajonov, Ximmat) (Oshno) *Biror o‘n kuncha o‘tib, bir quchoq xarid bilan kirib keldi.* (M. M. Do‘st, Lolazor. (O‘TIL IV tom, 385)) Xarid qilish kishining bahru dilini ochadi. (“Barchinoy” dehqon bozori, ayol xaridor nutqidan).

Xaridor 1 – sotib oluvchi. Xarid qiluvchi, sotib oluvchi. Har holda, xaridor degani olayotgan molining fe’lini tuzuk-quruq bilib olgani ma’qul. (M. M. Do‘st, Lolazor. (O‘TIL IV tom, 385)) *Xaridor hamma joyda haq. Qilayotgan muomalangizni to‘g‘ri qiling.* (“Yubileyniy” bozoridan yozib olingan)

Xaridorgir – Sotib olinadigan, xaridor tez oladigan. Xaridorlarning didiga, talabiga mos, tez sotilib ketadigan. *Mana shu chevar qizlar xaridorgir mahsulot tayyorlashadi.* (“Saodat” (O‘TIL IV tom, 385)).

Savdogar nutqida arabcha o‘zlashmalarning ham sezilarli o‘rni bor. Arab tilidan o‘zllashgan so‘zlar boshqa sohalar kabi savdo-sotiq sohasida ham o‘zlashgan. Bugungi kunda quyidagi arabcha o‘zlashmalardan faol foydalaniladi:

Dallol 1 – jarchi; vositachi. Savdo-sotiqda oluvchi bilan sotuvchi o‘rtasida vositachilik qiluvchi, molga narx qo‘yib, ularni kelishtiruvchi kishi. *El nazar qilmasa, eshak bozoriga dallol ham bo‘lolmaysan!* (Maqol) *Tilning uzuni dallolga kerak. Maqol. Muhsin guppi avvaldan dallol yollab olgan shekilli, ikkovlashib bir turkmandan gilam savdolashardi.* (“Sharq yulduzi” (O‘TIL I tom, 549)) Mazkur leksema konteksga qarab turli mazmunda ishlatilish holatlari kuzatiladi. Ayrim o‘rinlarda bu so‘z salbiy mazmun ham ifodalaydi. Yuqorida berilgan izoh faqat savdo sohasida ishlatiladi.

Foyda 2 – qilingan xarj bilan olingan daromad o‘rtasidagi farqdan tashkil topgan summa, mablag‘; daromad. *Qamishkapalakliklar Zokirxo‘ja qassob to‘g‘risida gap borsa, “har bir so‘yilgan qo‘ydan ikki hissa foyda ko‘rmasa, o‘zini changakka osadi”, deb ta’riflar edilar*. (P.Tursun, O‘qituvchi) *Menimcha, tijorat paydo bo‘lgan zamondan boshlab bunday mo‘l foydani hech kim ko‘rgan emas.* (Oybek, Tanlangan asarlar. (O‘TIL IV tom, 353)) *Savdoda foyda va zarar yonma-yon yuradi. Goh unisi goh bunisi* (Sho‘rchi mol bozoridagi savdogar nutqidan).

Jazman – qat’iy ishongan, ishonchli holda. Qat’iy qaror qilgan, qaror bergan. Jazman – xaridor. (O‘TIL II tom, 65) *Molni jazmaniga bering-da. Jazman bo‘lib so‘rasangiz, savdolashamiz, narxini kelishamiz. Molni jazmaniga beramiz-da.* (Sho‘rchi shaharidagi mol bozoridan yozib olingan).

Nasiya – muhlatni cho‘zish, kechiktirish; qarz, kredit. Naqd pulsiz, pulini keyin to‘lash sharti bilan bo‘lgan yoki bo‘ladigan savdo muomalasi; kredit. Molni nasiyaga olmoq. Nasiyaga sotmoq. *Mirzakarimboy: …naqd pulga mol chaqqon bo‘lgan zamonda siz ancha molni nasiyaga sotibsiz*. (Oybek, Tanlangan asarlar) *Jahon ota allakimning boqib qo‘ygan qo‘zisini nasiyaga olib keldi*. (R. Rahmonov, Changalzordagi sharpa) 2.Shunday savdo muomalasiga

muvofiq to‘lanadigan pul, qarz. *Endi gap shu: oyoqni qattiq tirang. Qozoqlardan nasiyani tezroq undiring, durustmi?* (Oybek, Tanlangan asarlar. (O‘TIL III tom, 21)) *Nasiya munosabatni buzadi, biz qarzga ishlamaymiz* (Machay qishlog‘idagi do‘kon sotuvchisining nutqidan).

Qarz 1 – qarz; nasiya. Ma’lum muddat o‘tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan narsa (pul, buyum, g‘alla va sh. k.). Qarz(ga) olmos. Qarz ko‘tarmoq. Qarz(ga) bermoq. Qarzni to‘lamoq. Qarzdan qutulmoq. *Men sizdan yuz so‘m qarzman. Afandining bir baqqoldan ellik uch tanga qarzi bor edi*. (“Latifalar”. (O‘TIL V tom, 247)) *Biz qarzga savdo qilmaymiz. Qarz munosabatni buzadi.* (Do‘kon sotuvchisi nutqidan).

Qiymat 1 – boylik, qimmatbaho narsa; qadriyat; narx, baho; qiymat. Tovar narxi. 2.Pulning xarid qobiliyati; muayyan bozor narxlari darajasida pul birligi hisobiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori. Binokorlik ishlarining qiymati ancha kamaytirildi. *3.iqt.* Tovar ishlab chiqaruvchilarning tovarda gavdalangan va unda moddiylashgan ijtimoiy mehnati. 4 Savdo-sotiqda: narx, baho. Mollarning qiymati. (O‘TIL V tom, 284)

Qimmat – boylik, qimmatbaho narsa, qadriyat; baho; qiymat. Nisbatan yoki me’yor, mo‘ljaldagidan katta pul turadigan, narxi baland. Qimmat mol. Qimmat buyum. *Qimmat bo‘lsa xam, noiloj olar edim-a, lekin puldan hemiri ortmadi.* (Oybek, Tanlangan asarlar) *Shunaqa qimmatidan olmasdan, gazmol olib kelsangiz-ku, bir xil qilib tikib berardim*. (R. Fayziy, Sen yetim emassan) *Etigingiz qimmat, usta. Biz talabalarning qudratimiz yetmaydi.* (Mirmuhsin, Me’mor. (O‘TIL V tom, 283)) *Qimmatsirang, sizga shu narxga beryapman. Boshqa hech kimga bu narxga bermaganman* (Angor tijorat bozori sotuvchisi nutqidan).

Zarar – savdo-sotiqda(n) ko‘rilgan ziyon; umuman, moddiy yutqiziq. *Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgan direktor teatrga bir yuz yetmish so‘mu to‘rt tiyin zarar keltirgan shu tomoshabinning yoqasidan bo‘g‘ib, ko‘chaga opchiqib tashlagudek o‘qraydi.* (S.Ahmad, Saylanma) *O‘zingizga ma’lum, savdo ahli zararni yoqtirmaydigan, foydatalab xalq bo‘ladi*. (K. Yashin, Hamza) *Bizdan Mirzakarimboy hech vaqt zarar ko‘rgani yo‘q. Paxta yildan-yilga mo‘l bo‘lib, foydasi ham oshib turibdi*. (Oybek, Tanlangan asarlar. (O‘TIL II tom, 133))

O ‘zbek jamiyatidagi savdogar nutqidagi leksemalar turkey, forsiy va arabiy qatlamdangina iborat emas. Savdogar nutqi leksikasiga rus tili va u orqali yevropa tillaridan hamda boshqa tillardan ham ko‘plab so‘zlar o‘zlashgan:

rus tilidan: *pochin, pochin qilmoq, rastrat va h. k.;*

ingliz tilidan: *import, eksport va boshqalar*;

fransuz tilidan: *pavilion, parfyumer, parfyumeriya va boshqalar*;

yunon tilidan; *oligopoliya, monopoliya va hakozolar*;

lotin tilidan; *patent, faktura va boshqalar*.

Iqtisodiy aloqalar rivojlangan bir vaqtda sotuvchi nutqida turli tillardan olingan zamonaviy leksemaning mavjud bo‘lishi tabiiy holat. Bir so‘z bilan aytganda olinma so‘zlar leksik bazani boyituvchi eng muhim omillardan biri.

Tahlilga olingan so‘zlardan xulosa qilish mumkinki, savdo nutqida, asosan, ot, sifat, fe’l turkumidagi leksemalar faol ishlatiladi. Bu soha leksemasining asosini tub turkiy so‘zlar, undan keyingi o‘rinlarda forsiy va arabiy o‘zlashmalar tashkil qiladi. Savdogar nutqi boshqa soha vakillari nutqidan o‘zgacha xususiyatga ega. Ularning nutqida ko‘chim, dialektizm, qochirim, kinoya hamda saj (nasriy qofiya) kabilar qo‘llaniladi. Bunday vositalarning ishlatilishi sotuvchi va oluvchining qaysi qatlamga mansubligini, yashash hududini, yoshini, jinsini, kasbini ko‘rsatib beradi. Xulosa qilib aytganda, savdogar nutqi leksikasni o‘rganish shu soha bilan bog‘liq lingvistik eskpertiza tadqiqi uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Resume: In this article, an analysis of the genealogical structure of the lexicon actively used in the speech of the merchant was carried out. Comments were made on the languages from which the lexemes were adopted and the patterns of formation.

Резюме: В данной статье проведен анализ генеалогической структуры лексики, активно употребляемой в речи купца. Сделаны комментарии к языкам, из которых были заимствованы лексемы, и закономерностям образования.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

МУҲАММАД ЮСУФ МАҲОРАТИ СИРЛАРИ

Алимов Парда,
Термиз давлат педагогика институти ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, филология фанлари номзоди

Шоир ижодида сўзлар чарс – чарс ёнади. Инсон изтироби сой бўйидаги тошлардай чақнайди. Тошлар бўлмаса, сув тиниқ оқмайди, лойқаланади. Юртини севган киши чўл янтоғини ҳам атиргулни ҳидлагандек ҳидлайди. Сўз маъсулияти виждон қудрати билан баробарлашади. Шоирнинг туйғулари жиловланмай акс эттирилган шеърлари анчагина. У борлиғини қамраган, забт етган туйғулардан ташқарида бўлолмайди. Шоир юксак сезги, туйғуларини куйлабгина қолмай, балки ўзидан-ўзи уларга айланади. Дарёсиз жарликлар, қум тўзғиган соҳиллар ғариб ва сўниқ кўринади. Чегара билмас хаёлот, руҳни эзиб, кишини майда ҳислар комига отгувчи ташвишлардан йироқлик шоирга болаликда осмонни силкитиб, юлдузларни тўкадиган даражада қудрат бахш этади.

Баъзан хаёл уни алдайди, ўз комига олади, лекин шоир хаёллар гирдобига тушмайди. Ўз хаёли, туйғуси, қониқмаган олами бор.

Шоирларда қай даражададир башоратга мойиллик бўлади, албатта. Улар ўзлари ҳам охиригача англаб етмаган қандайдир сир-синоатни олиймақом бир манбадан ахбор олиб туради, гўё: Муҳаммад Юсуфнинг ўлим ҳақида ёзганларини ўқиб, беихтиёр шу фикрга келади, киши.

"Тузалмайди дардим менинг..." шеъридаги мана бу сатрларга диққат қилайлик:

Ўлим нима? Бу ҳам битта
Сайр, Она.
Ўғлинг қаро ерга кетди,
Хайр, Она...

"Хавотир" шеъри тамоман ўлимдан хавотир асосида дунёга келган. Унда лирик қаҳрамон ўлиб қолишидан қўрқиши, қизлари йиғлашини ҳам билмаслиги... ҳақида битади.

"Ҳазил" шеърида ўқиймиз:

Агар қирққа кирмай ўлсам, май эмас
Мени хароб этгай бевафо қизлар!..

"Мендай ғарибни кўролмаслар бор..." шеърида шундай сатрлар бор:

Дўстлар, дегим келар,
Бўлманг хавотир.
Узоқ яшамайман шундай ҳам ўзим.
Умрим бир боғ кезиб ўтган наводир,
Сўнар у бир очиб юмгунча кўзим.

Бир шеъри, ҳатто:

Ўлсам-у, унутсанг мендай йигитни -, деган сатр билан бошланади. У:

Кел, майли мен ўлмай, сен ҳам қийналма,
Шунга нима дейсан, бевафо ёрим?... дея тугалланади.

Шеърларини ўқийверсангиз, гўёки сизда ўлим шоирни доимий равишда "таъқиб" қилиб юргандек тасаввур пайдо бўлади. "Қизғалдоқ" шеърининг охирги банди-хулосасига қулоқ тутайлик:

Олдингга мен боролмасам, ўт гуноҳим,
Бир йўқлаб қўй, мен дунёдан ўтган чоғим,
Қабрим узра ҳилпираб тур, қизғалдоғим,
Муҳаммаддан бўлак дўсти девонанг йўқ.

"Капалаклар" шеъри шундай тугайди:

Муҳаммадга ишонган, эй мўминлар,
Ўлсам, сўзим эслаб, ўйга чўминглар.
Капалакнинг қанотига кўминглар,
Капалаклар одамлардан меҳрибон...

Шоир "Руҳ тўтиси" шеърида ҳам ўлим ҳақида мулоҳаза юритади. Мавжуд беш банд ҳам:

Худо билар ким олдин кетар мисраси билан якунланади. Унинг тўртинчи бандида:

Отам мени ҳеч бўлмаса, ўлимолди,
Эрка кийик, майлими бир эркаласам?...

"Розидил" шеърида бу оламдан ўтган икки буюк қалам соҳиби-Асқад Муҳтор билан Шавкат Раҳмонни эслайди-да:

Эртага мен борсам, қойимаймисиз,
Эртага мен борсам, орангиз бўшми? - дейди.

"Кўкламойим" шеърида:

Яна сенга етаманми-йўқми мен, - деган мисра бор.

Чунки шоир асарларида ўз идеалларини акс эттиради. Идеал – идеал-да. У ҳали реал воқелик дегани эмас-ку. Ҳеч бир қаламкашимиз кўнлига олиб, биздан ранжимасин-у, ишқ мавзусида қучоқ-қучоқ "куйдим-ўлдим"шеърлар битганларнинг севги бобидаги шахсий садоқатига кўп ҳам ишониб бўлмайди.

Бунинг сабабини ҳар ким ҳар ҳил шарҳласа керак, албатта. Чунки сабаб кўп. Муҳаммад Юсуф бунинг бир нозик сабабини топган ва шеърларида

очиқ-ошкор тан олган: шоир ҳалқи бировни эмас, ўзини ўзи кўпроқ яхши кўради...

“Севги бу...” шеърида:

Ва сени севмоқдан олдин бир куни
Дилдан севиб қолдим ўзимни ўзим...

Шоир табиатан синиққўнгил, ғамгингина йигит эди. Бу унинг асарларига шундоққина кўчган. Адиб шеъриятининг самимийлиги, тиниқлиги, жозибадорлиги, руҳияти шундан иборатдир.

“Янги йил кечаси” шеърида шундай сатрлар бор:

Сўрсанг, севинчимдан ўқинчим кўпроқ.

Шоирни энг кўп ранжитадиган нарса ёлғон эди.

“Шукур Бурҳонини ҳам кузатиб қўйдик...” шеърида:

Бордик дўстлари ҳам, душманлари ҳам,
Қабрин устида ҳам сўйладик ёлғон:
Санъат фидолари,
Мен сизга айтсам,
Ундай Шукур Бурҳон,
Бундай Шукур Бурҳон!...- деб ёзади.

“Сурат” шеърида:

Илон чақар,
Аммо

Гапирмас ёлғон!... тарзида бу иллатни қоралайди.

Таъбир жоиз тутилса, бу шоир шеъриятида меҳр асосий инсоний фазилат сифатида бўй кўрсатади. Хўш, шоир лирик қаҳрамон айнан кимга меҳрни ифода этган?

Жами 5 банддан иборат “Меҳр қолур” шеърининг ҳар банди:

Меҳр қолур, муҳаббат қолур, - деган мисра билан якунланади.

“Севги садоси” шеърида:

Гулим, меҳр кўзда дегани – ёлғон...

“Азизамсан...” шеърида:

Сочгум гулдай дунёга меҳрим,
Токи юрак уриб туради.

Сарлавҳасиз эълон қилинган бир шеърининг дастлабки банди мана бундай жаранглайди:

Атиргулдан юмалади капалак,
Бир силкиниб қўймади ҳам гул шохи.
Жон талашиб, қум ялади капалак,
Кўчди менинг кўксимга-да титроғим.

“Зебижон” шеърида:

Капалак ҳам сийлар гулнинг суйганини,- сатрини ўқиймиз.

Мана бу шеъри тўлиқ капалак ҳақида:

Жонимда жон қолмас югуриб-елуб,
Кўнгил айтганимга кўнади бир кун.
Туғишган синглимдек соғиниб келиб,
Капалак кафтимга қўнади бир кун...
Майсалар кун билан кўришгандек юз,
Турармиз жилмайиб, бусўз, беармон.
Мен унинг қанотин силарман маъюс,
У менинг кафтимни силар меҳрибон.
Капалак қўлимга қўнади бир кун

Шоирнинг лирик қаҳрамони – жуда раҳмдил инсон. Кўп нарсага раҳми келади. Бу нарса, (“Ёлғон ёмон дерлар...” шеърида) қари қиз ҳам бор:

Менимча, дунёда энг катта гуноҳ,-
Қари қиз ҳақида ғийбат тўқимоқ.

“Кристина” деган шеърида лирик қаҳрамон Кристина деган қўшнисининг мушугига меҳрибонлигини ҳам кўздан қочирмайди:

Ён қўшним-у, аммо мендан ҳам
Мушугига меҳрибон қўшним...

Бу шеърлари орқали шоир одамлар кўнглида меҳр туйғусини кучайтирмоқчи бўлади. Муҳаммад Юсуф шеърга муҳаббат қўйган шоирдир. У фикр қанотида эркин парвоз қилади.

Ҳар бир миллатнинг шон-шавкатини ўлмас қадрини белгилаб берадиган шундай бир мезон бор. Адабиёт мамлакат халқ номидан сўзлайди. Адабиёт халқ қалбининг юзи, унинг олий фикридир. Улуғ адибларга эга бўлган халқнинг тарихи ҳам, ҳозири ҳам, келажаги ҳам буюкдир. Ёзувчилар орзу ва умидларнинг улуғ куйчиларидир. Муҳаммад Юсуф шеъриятида ана шундай руҳият мавжуд. Унда ўзбекнинг дарди, қувончи, азоби, тарих кўмиб ташлаган изтироб, армонлари бор.

Улуғ ёзувчи Л.Толстойнинг бир гапи бор: “Мен санъаткорман ва менинг бутун ҳаётим гўзалликни излашдан иборат. Агар менга шу гўзалликни кўрсатганингизда эди, сиздан худди ана шу олий бахтга сазавор қилинг, деб тиз чўкиб ёлворган бўлардим”.

Ҳа, гўзалликни жилвасини хеч нарса боса олмайди. Шоирлар эса умр бўйи гўзаллик ишқида мубтало бўлишади, уни эса халқ юрагидан топишади. Гўзалликни излаш дард ҳамдир. Гўзаллик излаш жараёнида инсоннинг мураккаб, такрорланмас қирраларини топади. Шоир шеъриятга гўзалликни хассос руҳ ва тоза туйғулар тилида олиб киради. Муҳаммад Юсуф ўз шеърларида даволи, баъзан давосиз дардни айта олган.

Шоирнинг онаси изтиробдир. Бу эса шоирда субъектив туйғуларни акс этишига олиб келади.

Халқнинг “Узумини егин-у, боғини суриштирма!”– деган бир мақоли бор. “Мулланинг айтганини қил-у, қилганини қилма!” – мақоли ҳам эл орасида жудда машҳур бўлиб кетган. Шунга ўхшаш, унда-бунда: “Шоирнинг шеърини ўқигин-у, шахсига кўп ҳам қизиқма!” – деган даъватни ҳам эшитиб қоламиз.

Айрим шеърлар қўлма-қўл ўқилади. Баъзи шеърлар қўшиқ қилиб куйлангани учун шуҳрат топади. Бора-бора муаллифларнинг ўзи ҳам, билиб-билмай, ё ўқишга, ё куйлашга мослаб ёзадиган бўлиб кетади.

Муҳаммад Юсуф шеърларини қўшиқ қилиб эмас, балки, ўқиш учун ёзар эди. Лекин азбаройи халқоналиги, ҳаётийлиги, элнинг дилига яқинлиги, оҳангининг жозибадорлиги, кўпчиликка тушунарли, содда ва равон бўлгани учун уларнинг аксарияти тез фурсатларда қўшиққа айланар эди.

Ҳозир адабиётимизда ким кўп – шоир кўп. Бу яхши нарса. Чунки шоир чиқса, шошдан чиқади. Бироқ назаримизда, ижодда айтса-айтгудек айрим камчиликлар ҳам кўзга ташланяпти. Аввало, баъзи шеърларни ўқисангиз, уларнинг ижод столини қўлтиқлаб, қийналиб, луғат титиб, мажбуран ёзилгани билиниб туради. Қолаверса, баъзи шоирлар шеър ясашнинг муайян сир-синоати, техникасини ўрганиб олган, энди бир-бирига ўхшаш шеърларни тўқиб ташлайверади. Булардан ташқари, ёзганим қўшиқ бўлсин, хонандалар қийналмай талаффуз қила олсин, иложи борича, “тўйбоп” бўлсин, деб қалам отини тинмай қамчилаётганлар ҳам кўпайгандан-кўпайиб бораётир. Баъзи енгил-елпи қўшиқларни тинглаб “Нима бало, уларни яратаётган бастакору қўшиқчиларнинг савияси ҳам патлаб, ҳаминқадар бўлиб қолдимикан?” – деб ҳам ўйлайди киши.

Муҳаммад Юсуфда бунга ўхшаш иллатларнинг бирортаси ҳам йўқ эди. Унинг шеърлари халққа бадиий сўз айтиш илинжи билан ёзилган.

Такрор – шеъриятда азал-азалдан мавжуд бадиий санъат. Аммо такрорнинг хам тури, кўринишлари, анъанаси кўп. У сўзларнигина эмас, алоҳида-алоҳида парчаларни ҳам шу шеърнинг ўзида такрорлаб келтираверади.

“Биз бахтли бўламиз” шеърининг биринчи банди охиридаги мана бу тўрт мисра асар сўнггида мустақил бир банд янглиғ яна қайтарилади:

Биз бахтли бўламиз.
Худо ҳоҳласа.
Худо ҳоҳламаса,
Учрашармидик?!

Фақат биринчи бор келганда охирида уч нуқта, кейинги гал эса сўроқ ва ундов белгиси қўйилган, шу тариқа ҳиссиёт кучайтирилган.

“Муҳаббатим” шеъри бор-йўғи тўрт банддан иборат. Лекин биринчи банд тўртинчи банд сифатида айнан такрорланиб келган:

Муҳаббатим, қайдасан қалб ардоғим,
Жайронкўзим, қирларда қолган охум,
Қўлим тегмай тўкилган қизғолдоғим,
Энди сени излаб қандай топарман?...

“Лаганбардорлар” шеърида хам шу усул қўлланган – мана бу биринчи банд охирги (бу шеър олти банддан ташкил топган) бандда қайтарилган:

Каззоб Сталиндан зорланманг ҳадеб,
У ҳам фарзандидир битта инсоннинг.
Билмоқчи бўлсангиз, қабри қайда деб,
Лаганбардорлардан сўранг Чўлпонни...

Фақат энди охирги бандда “фарзандидир” сўзи “боласи-да” тарзида ўзгартирилган, холос.

Худди шундай усул “Синглимга мактуб” шеърида ҳам қўлланилади. Биринчи банд қуйидагича жаранглайди:

Қачон хат ёзгандим сенга, билмайман,
Қофия билан банд бугун тош кўнглим.
Ёлғиз аканг бўлиб,
Ёнингда юрмайман...
Қечир мени, синглим,
Кечир мени, синглим.

Уни айрим жузъий ўзгаришлар билан охирги банд тарзида ҳам ўқиймиз:

Қачон хат ёзгандим сенга,
Билмайман,
Қофия билан банд бугун тош кўнглим.
Ёлғиз аканг бўлиб,
Ёнингда юрмайман...
Қечир мени, синглим,
Кечир мени, синглим.

Шунингдек, “Муҳаббат” шеъри шундай бошланиб, айнан шундай якунланади:

Қалбга зардоб бўлиб тўлганинг – алам,
Гоҳи очилмасдан сўлганинг – алам.
Муҳаббат, муҳаббат, хаммасидан ҳам
Сочга оқ тушганда келганинг – алам!...

Кўриниб турибдики, анъана бошқа макон ва замонга кўчирилганда табиий равишда таждид хусусиятига эга бўла олади.

Бошқа ҳеч кимнинг кўнглига тегмасин-у, ўтган асрнинг иккинчи ярмида устоз қалам соҳиблари бўлмиш Ўзбекистон Қаҳрамонлари, Ўзбекистон халқ шоирлари Эркин Воҳидов ва Абдулла Ориповдан кейин бирон-бир шоир эл – улус орасида Муҳаммад Юсуфчалик машҳур бўлмади.

Назаримизда, Муҳаммад Юсуф шеъриятининг шуҳрати айнан унинг янгилигида ва оҳори тўкилмаганида эди.

Бу янгиликка у, бир тарафдан, анъаналарни тиклаш, иккинчи тарафдан, анъаналарни синдириш орқали эришди.

Бир сўз билан ифодалаб бўлмайдиган сўзни сўзга айлантириш анча мураккаб жараёндир. Унинг шеъриятида ана шундай интиқ, тансиқ, халқ дилидаги сўз топилган.

Бу сўз ҳақиқат меҳр-оқибат, диёнат, андиша, инсоф ва мурувватни қамраб олади. Бу нарса Муҳаммад Юсуф шеъриятининг безаги, қонидир. Шеърнинг вазифаси ўқувчи қалбини иҳота қилиб, асрамоқдир.

Озод Шарафиддиновнинг машҳур сўзи бор: адабиёт сўздан бошланади, сўз шеърият эшиги, уйга эшикдан кирилади. Атоқли шоира А.Ахматова шундай деган: “Мен аёлларни гапиришга ўргатдим, энди қандоқ жим қилай”.

Муҳаммад Юсуф ҳалқ қалбида изҳор этилмай қолган содда, жайдари туйғуларни мисраларга солди, улардан маржон тузди. Унинг шеърияти содда, лекин қуйма мисраларни ўз ичига олади, Л.Толстой ўзини рус халқининг адвокати деб билган. Муҳаммад Юсуф энг соф, мусаффо туйғулар ҳимоячиси, қўриқчиси, дилни нопок туйғулардан ҳимоя қилган ўзбек шоиридир.

Муҳаммад Юсуф шеърияти образларга бой, тиниқ, гўзал ифодаларни ўз ичига қамраб олади. Муҳаммад Юсуф шеъриятида жонланишни ифода санъати ва унинг кучайиши тасвирнинг ўзига хос кўринишларига хос бўлган XX аср – адабиётининг манзарасини кўрамиз. Мумтоз адабиётга кўпроқ ёпиқ тасвир мавжуд, шоир ижодида очиқ ифодани топамиз.

Гулни ким яхши кўрмайди? Лекин Муҳаммад Юсуфнинг лирик қаҳрамони гулларни аввал жонлантириб олиб, кейин унга меҳр кўрсатар эди. Тагига етсангиз, унинг гуллари шунчаки гул эмас, шоирнинг дил изҳорларидир...

Лолақизғалдоқни яхши кўрар эди. Бу тимсол воситасида кўп шеър битган. Биргина таҳлил қилиш орқали ҳам шоирнинг қандай соҳир маҳорат эгаси эканлигига унинг нақадар жонлантириб юрганига гувоҳ бўласиз.

Шеър қуйидаги банд билан бошланади:

Севги – бамисоли лолақизғалдоқ,
Тегинмай бўлмайди,
Тегсанг, тўкилар.
Алвон бир гумбазнинг ўртаси – оппоқ...
Буни бир мену бир капалак билар.

Ўқувчи ҳис қиладики, “алвон бир гумбаз” – лолақизғалдоқ, унинг “ўртаси” – даги “оппоқ” нарса – капалак.

Шеърнинг иккинчи банди ўта оҳорий, яъни ўзига хос:

Мен ўша гумбазга бошимни суқдим –
Қизил кўйлакли бир қизгина кулар:
“Бундай боқма менга, уқдингми?”
“Уқдим”...

Шеърнинг лолақизғалдоқ билан боғлиқ қисми шу ерда тугайди. Ўқувчига асар моҳияти тушунарсиз қолмасин учун давомини ҳам келтирамиз:

Сўнг у оқ - қанотим учдию кетди,
Унинг умри бир кун – чошгоҳда ўлар.
Момо ер айланиб, манзилга етди,
Буни бир мену бир чархпалак билар...
Севги – бамисоли ғарқ пишган шотут,
Тегинмай бўлмайди.
Тегсанг, тўкилар.
Севдингми, юз йил кут,
Севмасанг, унут!...
Бунисин бир мену бир малак билар.
У мени кутади юз йилдан сўнг ҳам,
Кўр бўлиб қолгунча йўлга термулар...
Севги мининг барча дардимга малҳам,
Буни бир ўзиму бир юрак билар.

Қизғалдоқлар қўйнида, - мисраси билан бошланадиган “Райхон”, “Қизилгул”, “Ялпиз” деган шеърлари бор.

“Сир” шеърида:

Соғинчдан ёқар-у райҳонлар иси,
Мени танлаганинг – ғалати...

“Уйқудаги қиз” шеърида:

Кўнгли тўла армони,
Қўйни тўла қизғалдоқ.

“Мухаббатим” шеърида:

Қўлим тегмай тўкилган қизғалдоғим,
Энди сени излаб қандай топаман?...

“Истак” шеърида:

Шотут соясида бешик бозори,
Саҳарлардан райҳон хиди анқийди.

деган сатрларни ўқиймиз.

Шу тариқа шоир лирикасида қайта-қайта гуллар эсланаверади. “Таниш терак. Ариқ ёқаси...” шеърида “Ялпиз ҳиди тутган далалар”ни қўмсаганини тасвирлайди. “Зўрлаб қиз узатмоқ-ку, аслида...” шеърида мажбурлаб қиз узатишни ариқ бўйидаги ялпизни юлиб, тошлоқ ёрга ёки телеминорага ўтказмоққа ўхшатади ва ҳоказо.

Айрим шоирларнинг тўпламини эринмай мутолаа қиласан. Рости гап, битта шеър ёдда қолмайди. Шундайлар Муҳаммад Юсуфни ўқисин, ундан ўрганса, арзийди.

Унинг аксар шеърларида ё ҳис-туйғу, ё нуқтаи назар, ё фикр-хулоса, ё шакл, ё ғоя... – янги.

Янги нарса кучли таъсир қилади, узоқ вақт эсда қолади.

Эҳтимол, бу таҳлилларимиз қайсидир бошловчи шоирга жуда асқотар. Чунки шеърга меҳр қўймай, сўз сеҳрини ўрганмай туриб яхши шоир бўлиш – қийин масала.

Муҳаммад Юсуф шеърларидан меҳрни ҳам, сеҳрни ҳам ўрганса бўлади.

Тил – хазина. Буни ҳаммамиз яхши биламиз. Кўп такрорлаймиз хам.

Аммо баъзан кишига бу бойлик гўё турли хос хоналарда қулфлоқлик ҳолда ётгандек туюлади. Қўлига қалам тутганларнинг ҳаммаси хам бу хазина яширинган хоналарга калит топавермайди. Муҳаммад Юсуф бу борада изланувчан эди.

Тилимиз – жуда бой-да. Тошкенту Андижон томонларда “юрдинглар” дейди. Фарғона томонларда “юрдингизлар” (қисқаргани – “юрдизла”) дейди. Қоракўлу Олот томонларда “юрдиларингиз” дейди.

Буларнинг маъноси – бир, аммо вазни (бўғинлари миқдори) ҳам, оҳанги (қофияси) ҳам бир эмас. Шоирга эса “туйғуларингиз” ва “кулгуларингиз” сўзларига тушунадиган қофия керак. Шундай

кезларда у гўёки “отга миниб”, керак бўлса, Қоракўлу Олотга боради:

Ёдимда соф туйғуларингиз,
Жаранглаган кулгуларингиз.
Ҳаётимда бўлмасангиз ҳам,
Хаёлимда юрдиларингиз.

Шеваларимиз – битмас-туганмас бойлигимиз. Лаҳжаларимизнинг ҳар бири бир мукаммал тизимдек гўё. Ҳалқнинг тилидаги бундай бойликларни шеърга қанча кўп олиб кирсак, шеър шунча янгилана боради. Шевадаги сўз ё шакл адабий тилда уч-тўрт марта ишлатилса, адабий меъёрга айланади, ўзининг тор доирасидан чиқиб оммалашади – умумхалқ мулки ҳисобланади.

Э.Хемингуей ўлимни ўрганиш учун ўлим олди туйғуларни билиш мақсадида Мадридга бориб, ўлим ва уруш ҳақидаги асарларни ёзди. Булбул нега сайрайди? Одамлар учун сайрайди деб ўргатишган. Йўқ, булбул ўзи учун сайрайди. Сайрамаса ўлади. Адабиёт бу табиий туйғу. Ибтидоий даврда одамни тарбия қилай деб сурат чизишгани йўқ.

Адабиёт бу эҳтиёжни, тинглаш, ҳам завқланиш, инсоннинг табиий эҳтиёжий заруриятидир.

Муҳаммад Юсуф шеърияти ана шу эҳтиёж самараси, қалбнинг қайноқ нафсидир. Шоирнинг қайноқ қалбида ватанга, онага, севгига, бўйи етган қизга, яна бир қанча қондирилмаган туйғуга меҳр ётади.

Инсониятнинг азалий ва абадий гўзаллиги унинг ҳаёсидир. Инсон ўзидан уялиши керак. Чунки ўзидан уялмаган одам ҳеч кимдан уялмайди, ўрни билинмайди. Инсоннинг ўзидан уялиши латофатдир, ўшанда нафосат хам мангудир.

Муҳаммад Юсуфни хаяжонга солган, қўлига қалам олдирган нарса латофатдир. Айниқса, бу унинг севги хақидаги шеърларида тиниқ жаранглаб туради. Шоир қалбини илиқ туйғулар безайди, сокинлик ҳамда сукунат бағишлайди. Унинг қалб тўридаги бисоти, мухаббат учқуни портлайверади, баъзан ширин, баъзан умидсиз туйғулар азобига чўмилади.

Одамдан одам мурувват ва меҳр кутади. Лекин ана шу мурувват ва меҳр қалбингизни безамай қолса-чи? Лекин шоир тушкунликка берилмайди, меҳр қолур муҳаббат қолур.

Тушунчалар иккига: мавҳум (ноаниқ) ва муайян (аниқ) турларга бўлинади. Шеърият табиатан мавхум тушунчаларни ҳуш кўради. Чунки ҳис-туйғуларнинг аксарияти мавҳум тушунчалар орқали ифодаланади.

Муҳаммад Юсуф ҳиссиётини имкон қадар муайян тушунчалар, тимсолий қилиб айтганда, қўл билан ушлаб кўрса бўладиган чизгилар билан ифодалашга қаттиқ интилди. Бу даъвони исботлаш учун узоққа боришнинг кераги йўқ. Биргина “Ватаним” шеърини олайлик. Бу мисраларни истеъдодли хонанда Севара Назархон маромигага етказиб ижро этганидан сўнг ҳалқимиз орасида жуда-жуда машхур бўлиб кетди.

“Улуғлардан улуғ Ватан” шеърининг ҳар банди охирида Офтобдан ҳам илиқ, минг бир ёғи очилмаган қўриқ, Широқларни кўрган чўпон чўлиқ, тарқаб кетган тўқсон олти уруғ, ғичир-ғичир тишимдаги сўлиқ, воҳ болам, деб айтолмаган дудуғим, олисларда куриб қолган қудуғим... тарзида таърифланади.

Она Ўзбекистонимизни хар бир шоир ўзича тавсиф этган, бисотидаги энг гўзал бадиий ифодаларни унга изҳор айлаган. Лекин Муҳаммад Юсуф оҳорий таърифлар топади. Тарихимизнинг қалбимиздан қолган нозик жиҳатларини қаламга олади. Бу мисраларда юрак бевосита иштирок этгани шеърнинг мана бу бандида янада яққолроқ намоён бўлган:

Ўғлим, десанг, осмонларга
Ғирот бўлиб учгайман.
Чамбил юртда Алпомишга
Навкар бўлиб тушгайман.
Падаркушдан пана қилиб,
Улуғбегинг қучгайман,
Ғирим-ғирим тишимдаги
Сўлиғимсан Ватаним...
Ёки ундаги биргина:
Сен – шохлари осмонларга
Егиб турган чинорим

сатрлари ҳам самимияти билан кишини ром этади.

Бу ютуққа шоир маҳорати орқали эришган.

Мозор сукунат, жимлик билан руҳни тарбиялайди, санъат эса мунг ёрдамида касал туйғуларни даъволайди.

Хаста туйғуларга шоир жон киритади. Унга ўз руҳиятини беради. Муҳаммад Юсуф ўз ижоди тимсолида буни санъаткорона акс эттирди. Шоирларнинг юраги илҳомга тўла туйғуга зор, уларлар меҳрга муҳтож. Биз дунёда камол топиш учун яшаймиз. “Ягона мақсадимиз ижод қилишдир”, деган фикрни Моцарт айтиб, билдирган.

Аристотель адабиёт одамни поклайди, ёрқин таассуротлар қолдиради деб адабиётнинг бош мақсадини белгилаб берган.

Ижод қилишнинг бош нияти – юртга, диёрга ёрга, ошиқликдир. Гўзаллик яхшининг ҳам ёмоннинг ҳам мулкидир. Лекин яхшилик фақат яхши кишиларнинг бисотидаги энг катта бойлик бўлиб қолаверади.

Энг гўзал хислат: ҳаё, мурувват, садоқат, тавозе, меҳнат, саҳийлик номус, омонатга вафо, юмшоқлик ва шижоат одамни безайди.

Аксинча: ҳасад, адоват, бахиллик, ёлғончилик, мунофиқлик, чақимчилик, хиёнат, жоҳиллик ва ялқовлик инсон юрагини кемиради, шаффоф туйғуларни занглатади.

Дунёда эскирмайдиган нарсанинг ўзи йўқ. Лекин Ватан тушунчаси эскирмайди. Уни елкага кўтариб кетиш мумкин эмас. У жойида тураверади, зангламайди, ўз саловатини йўқотмайди.

Арабий ва форсий, туркий лирика ғазал – энг асосий жанр. У арабий форсий ва туркий, сўз санъатида минг йилдан ошиқ даврда сайқалланa-сайқалланa, такомилга етган. Бурҳониддин Рабғузийнинг ўзбек тилидаги илк ғазални яратганига ҳам, мана, етти аср бўлди. Лекин унинг кўпкўп қулайликлари бор: шулардан бири, тахаллус қўллаш имкониятидир. Тахаллус баҳона шоир лирик қахрамоннинг ички дардларига яқинлашади. Муаллиф ундан ўқувчи билан янада дилдан дардлашиш учун зўр бир имкон янглиғ фойдаланади. Шуни ҳам унутмайликки, шеърда сўзлаётган шахс – шоирнинг лирик қахрамони. Тахаллус қўллаш орқали у асарга яна бир қахрамон – шоир тимсолини киритади. Шу тариқа гўё лирик қахрамон шоирга мурожаат ҳам қилади: уни нимагадир даъват этади, чорлайди, ундайди. Бу шоирнинг ўзи билан ўзи гаплашишига ҳам имкон туғдиради.

Асосан, бармоқ вазнида ривожланаётган замонавий ўзбек шеъриятида эса унча-мунча шоир тахаллуси (ёки исмини) шеърига қўшавермайди. Бу бармоқ шеъриятида оммалашмаган, урф бўлмаган. Муҳаммад Юсуф ғазалдаги шу анъанани бармоқдаги шеъриятига дадиллик олиб кирди. Унгача ўзбек шоирларининг ҳеч бирида бу даражада ўз номини қўшиб шеър битиш ходисаси учрамайди. Имкони топилди, дегунча шеърига исмини қўшиб ёзаверади. Таҳаллусни самимийликни юзага чиқаришнинг бир воситасига айлантирди. “Бошқалар нима дер экан?”- деб ўтирмади.

Муҳаммадга ишонган, эй мўминлар...

“Ўтинч” шеърида ўқиймиз:

Қизлар, ўлан айтиб гоҳида,

Эслаб қўйинг Муҳаммадни хам.

Ўзбек қизларига бағишланган бир шеърига, ҳатто “Содда Муҳаммадман...” деган сарлавха ҳам қўйган. У:

Содда Муҳаммадман,

Содда Муҳаммад

Туркман қизни мақтаб балога қолдим.. - деб бошланади.

Шоир меросида бундай мисралар жуда кўп.

Жаҳоннинг илғор адабиётшунослиги ҳозирги пайтда бадиий асарлар тилини ўрганишнинг жуда қулай ва самарали йўлларига ўтиб олган. Масалан, аввал бир шоир меросини компютерда тўлиқ териб чиқасиз. Унинг қайси сўзини неча бора, қаерларда ишлатганини билмоқчи бўлсангиз, тегишли тугмачани босангиз, бўлди – хаммасини аниқлаштириб беради. Шу тариқа Муҳаммад Юсуф - бутун ижодида айнан нечта шеърида тахаллус қўллаганини математик аниқликда муайянлаштириш мумкин.

“Ўлсам-у, унутсанг мендай йигитни...” шеърида шундай сатрларга дуч келамиз:

Оқ тулпордай миниб оппоқ булутни,

Уйининг устидан ўтади Руҳим...

“Қизғалдоқлар қўйнида ...” шеърида шундай деб ёзади:

Мен-ку тегмай ўтардим,

Отим тўҳтаб қолди-да...

“Яхши” шеърида:

Ўнта номард дўстингдан

Битта чўлоқ от - яхши,- деган мисралар мавжуд.

“Таниш терак, ариқ ёқасида...” шеърида шундай мисралар бор:

Тол кўчада отлар тақаси...

Анча бўлди кўрмаганимга...

“Амир Темур” шеърида:

Мен эл учун от устида ухладим,- дейилади.

“Оқ тулпор” шеърида-ку лирик қахрамон “отаг мехри бўлакча” экани, “отни деб ёрдан кечгани”ни айтди. Хулосасида:

Қайдан билсин от қадрин

От минмаган эркаклар?! - деган қатъий фикр ҳам илгари сурилади.

Замон ўзгара боргани сари табиий равишда одамларнинг дунёқараши, ҳар куни дуч келадиган тушунчалари, ашёллар ва ҳоказолар ҳам ортиб боради. Масалага шу нуқтаи назардан ёндашсак, от ҳам бугун киноларда, расмларда, циркда, ҳайвонат боғидагина кўриш мумкин бўлган ноёб жониворлар сафидан жой ола бораётгани аёнлашади. Шоирнинг тилга олинган бу асарлари бизни табиатга яқинлаштиради. От тимсоли соҳиби қаламга теша тегмаган, оҳорли, кутилмаган фикр-мулоҳазаю, ҳис-туйғуларни ифодалаш учун қулай бир восита вазифасини ўтаган.

Муҳаммад Юсуф ўзбек адабиётида ўзигга ҳос из-қолдирди. Ундан бизга дунё эмас, ўлмас қалбни чулғайдиган шеърият қолди. Шеърият унинг жони қолаверади. Расул Ҳамзатов шоирнинг ўз овози бўлиши хақида шундай бир гапи бор:

Қўшиғингни олиб кел,

Қўшиқ керак доимо.

Куйла фақат ўз созинг билан,

Қурбақадек бўлса ҳам хатто

Муҳаммад Юсуф шеърияти жонли назм таронаси. Халқ дилидаги шодлик, қувонч, изтироб, армон, ҳижрон, айрилиқнинг бадиий умумлашмасидир.

Унинг шеърияти ғояни тараннум этишдан бош тортган, инсонга яқин, унинг дардига малҳамдир. Бошқачароқ, айтганда, шоир кўнгилни шеърга солишга эришди, буни уддалади. Турли шаклий ифодалар орқали адабиётга янгича, яъни халқона руҳ олиб кириб, мазмун жиҳатидан турли мавзуларни тақдим этди.

А.Чеховнинг бир машҳур гапи ёдимизга тушади: “Ёзувчи доимо адабий кайфиятда ва адабий муҳитда юрмаса... Қисқа пайтда бетайин, беъмани одамга айланиб қолади”.

Шоир доимо ижод чанқоқлигида яшаган, ижодга ташналик эса илҳом париси, унинг машҳур шеърларининг пайдо бўлишига олиб келган. У ижодни ҳаёт моҳияти деб тушунди, унга меҳр қўйди. У доимо орзулар, истаклар қанотида парвоз қилади. Баъзан фикрлар оқимига соя берадиган кўланкалар ҳам топилади. Қонли тарихнинг оғир зардоблари, машъум қатағон уқубатлари, меҳрга зорлик, оқибатни ўйламаслик, диёнатни унутиш шоир юрагини совуқ зарбаларга тўлдиради.

Ҳаммамиз учун Ватан – битта. Муҳаммад Юсуф ҳам айнан шу ягона Ватанни куйлайди. Бироқ, энди унинг тасаввуридаги Ватанни бошқача севиб қоласиз. Чунки у она юртни тамоман ўзига хос тарзда севар ва шеърларида бу меҳрни тўкиб солар эди. Шоир кўзи Ўзбекистонимизнинг бошқалар кўрмаган кўп-кўп жиҳатларини нозик илғар эди.

Қайси юртда дунёга келишимизни Яратган биздан сўрамайди. Фақат шунинг ўзинигина ҳисобга олганда ҳам, Ватан ҳақида оғиз кўпиртириб гапириш яхши эмас. Бу мавзуда, ҳатто, биргина баландпарвоз сўз қўллаш ҳам носамимийликка сабаб бўлади. “Ватанни севиш керак”, “Ватан учун жон берса арзийди”, “Ватанпарвар бўлайлик”, “Ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялайлик”, - дегандек гаплар шоирларгагина ярашади. Она юрт ҳақида “Ватан” сўзини қўлламай ҳам гапираверишмумкин.

“Ватаним” деганда биз ҳаммамиз Ўзбекистонимизни ўйлаймиз. Ҳар биримиз унинг ўзимизга таниш, гўзал гўшаларини кўз олдимизга келтирамиз. Бу туйғу бирдан соғинчга, фахрга, меҳрга айланади. Юраклар жўшиб кетади.

Ҳа, Ватан шунақа туйғу: “Ҳар кимники ўзига – ой кўринар кўзига!”

Муҳаммад Юсуфнинг “Халқ бўл, элим” шеъри:

Халқ бўл, элим, халқ бўл, элим, халқ бўл, элим!

– тарзида якун топади.

“Ватаним” шеъри Ватан ҳақида ёзилган бошқа бирон-бир манзумага ўхшайди. Унинг ажиб сеҳри бор. Хусусан, уни Севара Назархон маромига етказиб, ўзига хос тарзда ижро этганидан кейинги таъсирчанликни кўз олдимизга келтирайлик...

Муҳаммад Юсуфнинг шеърларида кутилмаганда портлаш рўй беради. Яъни, шоир бирдан ҳеч кимнинг ёду хаёлига келмаган гапни айтиб юборади. Саккиз бандли “Синглимга мактуб”нинг олтинчи бандида бирдан иккита шундай портлаш юз берган:

Энг гўзал шеър-
Сенинг ёрилган қўлинг.
Ҳамма бошлиқларнинг,
Бошлиғи – Ватан!...

Муҳаммад Юсуф кемтик кўнгил, беғам кайфият билан яшагани йўқ, кўнгли эса ишқ султони ўтирадиган жойда ўтирди. Шоирнинг шеърларини ўқиб шундай фикр ёмғири ва ҳикматларнинг хулосаси кўз ўнгимизда намоён бўлади. Бу фикрлар яшаш учун йўриқнома, маёқдир. Тўғри, яшаш учун маълум шеърий қонунлар йўқ. Бу ҳаётнинг хулосалари сизга ёқади, ижодининг асосий лейтмотивини айтишга қарор қилдик. Энг катта мерос, аждодлар илм зиёдасида энг катта орзу, авлодлар бахтида энг катта мукофот оқил фарзандда, энг мустаҳкам қўрғон иймонда, энг чарағон йўл поклик ва саодатда, энг катта куч-бирлик ва ғайратда, энг шафқатсиз душман – ҳасадда, энг даҳшатли хато хиёнатда, энг мудхиш азоб ёлғизликда, зотан, энг буюк китоб ҳаётдир. Инсон ва иймон, яхшилик ва эзгулик, ростгўйлик ва диёнат, меҳр-оқибат ва муҳаббат, бевосита ҳақиқат билан эгизакдир.

Бир зум, бир умр хотиржам руҳий фароғат нималигини билмаган шоир қалб изтироблари ва юрак хасталигига қарамай, маънавий гўзаллик ва ҳаёт ҳақиқати тўғрисида бош қотиради.

Муҳаммад Юсуф ижодий олами давр руҳий эҳтиёжларини юзага чиқарган, эрк ва адолатни улуғлаган, миллий маънавий мустақилликни англаган, инсон ўз умрида тушуниб етган, энг улуғвор поэтик идрокдир. Ижодда бахтини топган Муҳаммад Юсуфнинг ҳис-туйғулари ва эҳтиросларининг таянчи ва юпанчи шеъриятдир.

Resume: For mastery, you need to search tirelessly. Muhammad Yusuf was always in search. This research helped him to be recognized as an enthusiastic representative of Uzbek literature. The article talks about the secrets of Muhammed Yusuf’s skills and researches on this path.

Резюме: Для мастерства нужно искать не покладая рук. Мухаммад Юсуф всегда был в поиске. Эти поиски помогли ему получить признание как увлеченного представителя узбекской литературы. В статье рассказывается о секретах мастерства Мухаммеда Юсуфа и исследованиях на этом пути.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ТАФАККУР, ТАСАВВУР ВА БАДИИЙ СЎЗ

Афоқова Нодира,
"Тафаккур" журнали бўлим бошлиғи, филология фанлари доктори

Ғаниева Афифа,
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети мустақил тадқиқотчиси

Сўз санъати – инсонга ўз фитратига жойланган яратувчилик сифатини воқелантириш учун берилган беқиёс имкониятдир. Чунки ҳақиқий шоир-ёзувчи Сўзда ўзи яшаб турган оламга монанд янги бир олам яратади. Санъат асарида улкан миқёсли воқеа-ҳодисалардан тортиб ҳаётнинг кичик тафсилот, деталларигача акс этади. Балки, билъакс, улкан миқёсли воқеа-ҳодисаларнинг ўзи кичик тафсилотлардан бунёд бўлади. Шунинг учун ҳам ёзувчидан ижодкор учун зарур бўлган жуда кўп сифатлар қаторида энциклопедик билим соҳиби; энг майда ҳаётий тафсилотларнинг, инсон руҳиятининг заррабин билимдони бўлишлик ҳам талаб этилади. Улуғ Алишер Навоийнинг "Фавойид ул-кибар" девонидан олиниб, Сиз азиз ўқувчи учун қуйида шарҳланажак 37-ғазал ҳам, аввало – тасаввуфий, ахлоқий, ишқий каби мазмунларидан ташқари – теран ҳаётий тафсилотлари билан; шоир тафаккурининг миқёси, тасаввурининг тиниқлиги билан; тасвирнинг ёркин ва изчиллиги билан диққатимизни тортди. Бу санаб ўтилганлар адабиётни нуқул тарбия воситаси, адаб-ахлоқ тарғиботи сифатида тушунмасдан, балки образли тафаккур намунаси сифатида идрок этиш имконини беради.

Сориғ оғриғ бўлдим, эй соқий, хазони ҳажр аро,
Қони асфар майки, бор ҳар қатраси бир каҳрабо.

Юзу жисмимдур сариғ барге қуруған шох уза,
Шоху баргеким қуруб сарғарса, ким кўрмиш даво.

Не мараздур буки, бир гулрух шарори ишқидин
Бўлди сориғ лола кўзум оқию доғи қаро.

Суд эмиш кўз тушса асфар жинси сори, вах, қани
Сарвинозимким, сариғ гул баргидин киймиш қабо.

Сарғариб қолмиш ҳаводис комиға ҳижрон куни,
Бир сариғ қушдекки, кундуз қолғай ул қушлар аро.

Шом ила субҳ ар сариғ оғриғ эмаслар, бас, недур –
Тун сочин ёйиб, қуёш йиртиб юзин тутмақ азо.

Дарди туфроққа ниҳон этти Навоий жисмини,
Топибон бир шуша олтин, дафн қилғандек гадо.

Албатта, мутафаккир шоир билан бугунги китобхон ўртасидаги 600 йилга қараб кетган Вақт масофаси айрим сўзларга изоҳ беришни талаб этади. Булар қуйидагилар: *асфар – сариқ; каҳрабо – сариқ рангли шаффоф, ялтироқ, тош қотган елим. Сомонни тортиш хусусияти бўлганлиги учун шундай аталган; мараз – фасод олган яра; гулрух – гул юзли; шарор – учқун, аланга; суд – фойда; қабо – уст кийим; ком – оғиз (кўпинча дев, аждар каби афсонавий махлуқлар ҳақида); сариғ қуш – зарғалдоқ; субҳ – тонг; ниҳон – яширин; шуша олтин – сих олтин.*

1-байт. Ғазалда, Алишер Навоий услубига мувофиқ, жамийки образлар, деталлар, тасвирлар бир унсур – сариқ ранги атрофида айланади. Лирик қаҳрамон айрилиқ туфайли сариқ касалига гирифтор. Аслида ҳижрон тушунчасининг ўзи заъфарон юз, йўл қараб сарғайган кўз орқали сариқлик билан боғланади. Аммо шоир ҳижронни бу ранг билан янаям қаттиқроқ алоқадор этиш мақсадида "хазони ҳажр", яъни ҳижрон кузи деб атайди. Зеро, кузнинг ўзи айрилиқ фасли, адам (йўқлик) сари бораётган фаслдир.

Азиз ўқувчи, ёдингизда сақланг, шеърда 6 марта қўлланган "сариқ" сўзи турли нашрларда ғазалнинг турли ўринларида асоссиз равишда "сариғ", "сориғ" шаклида бериб кетилаверган. Аммо ғазал-

да *рамали мусаммани мақсур (фоилотун/фоилотун/фоилотун/фоилон)* вазни оҳангини сакталиксиз сақлаш зарурати бу сўзни – худди юқорида ёзганимиз каби – 1-, 3-байтларда “сориғ” тарзида; 2-, 4-, 5-, 6-байтларда “сариғ” тарзида ўқишни тақозо қилади.

Лирик қаҳрамон нега соқийга мурожаат этяпти? Бу ҳам шунчаки эмас, чунки у – май талабгори-ю, қани тиниқ ва сап-сариқ май? Бу майнинг ҳар қатраси каҳрабодирки, халқ орасида сариқ касалига учраган одам шундай тошли тақинчоқлар тақиб юрса соғаяди, деган қараш бор. Яна: каҳрабо шаффофлик орқали май билан, сомон орқали куз ва ҳижрондан заифлашган ошиқ жисми, ғазалнинг марказида турган сариқ ранг билан боғланади.

2-байт касалликнинг шиддати ва натижаларидан баҳс этади: қомат (аниқроғи, тана скелети) – қуриган шох, юз ва жисм – шу шохда омонат осилиб турган заъфарон барг экан, сарғайган япроқнинг оқибат узилиб тушмаганини, қуриган шохнинг қайтиб кўкарганини ким кўрибди? 1-байтдаги ҳижрон кузи тушунчаси тадрижий равишда қуриган шох ва сорғарган барг тафсилларига боғланади.

3-байт. Шоир ҳаётий тафсилотларни чуқурлаштиришда давом этади: сариқ касалининг яширин даври тугагач, кўз ва тери сарғаяди. Гулрух (бу сўз айрим нашрлардаги каби “ҳ” билан эмас, “х” билан ёзилиши лозим) – гулюзли бир дилбар уйғотган ишқнинг алангасидан кўзнинг оқи заъфаронлашиб, сарғайган оқлик ва мардумак туфайли кўз – туби доғли сариқ лолага менгзайди. “Мараз” (авж олган, фасод боғлаган яра) сўзи ҳам 2-байтдаги ҳолатни юқорига томон даражалаб, хасталикнинг шиддатига ишора қилади. Байтда “мараз” сўзи дард билан, “гулрух” – лола билан, “сарғайган кўз оқи” – сариқ касаллиги билан таносубият ҳосил этади. Аммо шарор – аланга-чи? Бу сўзнинг муносабатдорлиги эса яшириндир. Оқ мато аланга ҳароратидан сарғаяди – буни ҳамма яхши билади. Касалликнинг яширин даври тугаб, кўз оқининг сарғайиши эса тана ҳароратининг кўтарилиши билан бирга кечади. Мана шундай ҳаётий ҳолатлар орқали шарорнинг ҳам ғазал системаси марказига дахлдорлиги аёнлашади. Ишқ, кўз, лола, шарор, касаллик кабилар дастлабки қарашда бир-биридан анча узоқ тушунчалардир. Аммо шоир тафаккур ва тасаввур кучи билан яхлит бир система бўлган оламнинг бир-бирига алоқаси йўқдек туюлган бўлакларияро алоқадорликни, ўхшашликни кўра олади; аслида шоирнинг шоирлиги ҳам шундадир.

4-байт. Халқ орасидаги яна бир қарашга кўра, сариқ касали билан оғриган киши шу рангдаги нарсаларга қараб ўтирса фойдали бўлар эмиш. Бизнинг беморимиз ҳам тузалмоқ учун сариқ гул барги сингари нозик матодан либос кийган ёрга термулиб ўтирмакни истайдики, бундан унинг асл муддаоси васл эканлиги аёнлашади.

5-байтда “ҳаводис кожиға” деган бирикма бор. Жумла барча нашрларда шу тарзда берилган. “Кож” – шапалоқ, бўйинга уриш демакдир. Аммо бундай ўқиш мазмунда мавҳумликни келтириб чиқаради, яъни “ҳижрон куни ўзгаришлар, воқеалар шапалоғига сарғайиб қолди”. Албатта, матншуносларнинг кўмаги билан бу ҳолатга яна аниқлик киритилар; аммо мазмун тақозосидан келиб чиқсак, бизнингча, бирикма “ҳаводис комиға” тарзида берилиши лозим. Икки сўзнинг имлосидаги яқинлик (ضیجاک - ضیماک) мана шундай чалкашликни туғдирган бўлиши мумкин[1]. Агар сўзни “ком” деб ўқисак; Навоий даври туркийсида ҳам, ҳозирги турк тилида ҳам “-га” ва “-да”нинг алмашиниб ишлатилишини инобатга олсак, мазмун аёнлашади: касаллик авжига чиқди, ўзгаришлар шундай шиддатли тус олди(аждарга ўхшаган оғзидан олов пуркай бошлади)ки, унинг тафтидан ҳижрон кунида ошиқ жисми сарғайиб кетди, бу – сариқ қуш(зарғалдоқ)нинг бошқа қушлар тўдасига тушиб қолган ҳолатига ўхшайди. Зарғалдоқ – чумчуқсимонлар оиласига мансуб қуш бўлиб, фақат ўз жуфти билан, бошқа қушларга қўшилмасдан юрар, сап-сариқ лимондай сайроқи бу қушни кўриш амри маҳол экан[2]. Бошқа қушлар тўдасига тушиб қолиш зарғалдоқнинг ҳолини танг қилгани сингари ўзгаришлар шиддати ҳам ошиқни шу аҳволга солиб қўяди.

6-байт. Ҳар қандай касаллик даволанмаса, оқибати – ўлимдир. Лирик қаҳрамон хасталигининг давоси бўлмиш каҳрабо май қани, сариқ либосли сарвиноз қани? Улар йўқ. Демак, ўлим ва аза ҳақида гап очиш вақти келди. Сариқ касалига гирифтор бўлган бечора кас – ошиқ-ку, шом билан тонг бетоб эмаслар-ку, бўлмаса нима учун тун сочини ёйиб, қуёш юзларини тимдалаб-йиртиб аза тутмоқдалар? Улар лирик қаҳрамоннинг ҳолидан қайғуда эмасми? “Тун”дан мурод – ёрнинг паришон сочлари, “қуёш”дан мурод – унинг ойдин чеҳраси эмасми? Ўлим ҳолатида ҳам кўз олдида ёр сочлари-ю орази турган ошиқнинг ишқини сўз билан ифода этиш мумкинми? Бу байтда ҳаётий тафсилотлар яна чуқурлашади: шоир мотам ҳолатлари – аёлларнинг сочларини ёйиб, юзларини тимдалаб йиғлашларига ишора этади.

---

[1] Ғазалнинг 10-мисрасидаги “бир” сўзи ҳам 20-жилдликнинг 6-жилдида “сир” деб, Ҳ.Сулаймон нашри ва “Қаро кўзум” тўпламида “бир” деб берилган. Бунга ҳам шаклий яқинлик сабаб: “ریڗ - ریږ”.

[2] Мазкур маълумотлар учун орнитолог олим, проф. С. Бақоевга миннатдорчилик билдирамиз.

7-байт. Аза маросими мантиқий равишда дафнга бориб уланади. Ғазал мақтаси ҳам шу ҳақда. Бу дард охир-оқибатда Навоийнинг касалликдан олтиндай сарғайиб, сихдай ингичкалашиб қолган жисмини тупроқ остига олиб кетди. Бу манзара бир сих олтин топиб, қаерга яширишни билмасдан, ерга кўмиб қўйган гадонинг ҳолатига мувозийдир – халқ ҳаёти ва тилининг нодир билимдони бўлган Навоий бу ерда “Гадо жой топса, нарса топмайди, нарса топса – қўйгани жой” мақолига ишора қилиб ўтган. Шу тарзда ғазалда бадиий образлар ва ҳаётий тафсилотлар параллелизми охирги мисрагача давом этиб, сўз санъаткорлиги бизнинг тасаввуримиз чегараларига сиғиб-сиғмайдиган даражада ҳадди аълосига кўтарилади.

Юқорида қайд этилганлардан ташқари, шеър структурасидаги ички боғланишнинг кўп ёқламалигини кўрсатувчи яна қуйидагиларга эътибор беринг: 7 байтли ғазалнинг беш байти наҳвий жиҳатдан риторик сўроқ гап тарзида шакллантирилган, бу – сўз санъати илмида тажоҳули орифона деб юритилади; яна бир усул – илтизом – шеърнинг ҳар бир мисраси ёки байтида битта сўзни такрорлаш усули ҳам байтлараро алоқадорликни мустаҳкамлашга хизмат қилган: шоир мақтаъдан бошқа барча байтларда “сариғ” сўзини такрорлайди.

Хўш, ғазал муаллифи нега айнан сариқ касаллигини мавзу этиб тайинлади? Бунда ҳам маъно бор: сариқ касаллигида жигарнинг ҳолати ўзгаради. Мумтоз адабиётда эса жигарнинг пора-пора бўлиши, жигарнинг хун бўлиши ишққа нисбат берилади. Демак, ғазалда тилга олинган “сориғ оғриғ”дан муддао – ишқ, ишқдан муддао – ошиқнинг ўзлиги, илк бошланғичи – Аллоҳ ва унга муҳаббат, унга бирлашиш – ваҳдатдир. Мана шу ерда ғазалнинг ирфоний мазмуни бошланади. Бу мазмун шарҳини эса тасаввуфий шеъриятнинг нуктадон мутахассислари зиммасига қолдирамиз.

Resume. In this article, Alisher Navoi’s ghazal, taken from the book “Favoyid ul-kibar” and beginning with the words “I’m sick of jaundice, oh soqi, hazani hajr aro”, is analyzed. The deep life details in this ghazal of the thinker and mystic poet, the scale of the poet’s thinking, the clarity of his imagination, the vividness and consistency of the image are scientifically and theoretically justified.

Резюме. В данной статье анализируется газель Алишера Навои из “Фавойид ул-кибар”, которая начинается со слов “Надоела желтизна, о саки, хазани хаджр аро”. Глубокие жизненные детали в этой газели мыслителя и поэта-мистика, масштаб мышления поэта, ясность его воображения, живость и последовательность образа научно и теоретически обоснованы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ АСАРЛАРИДА ИНСОН, ТАБИАТ ВА ҲАЙВОНОТ ОЛАМИ ДИАЛЕКТИКАСИ

Ғаниев Илҳом,
Термиз давлат университети ўзбек адабиётшунослиги кафедраси доценти, филология фанлари доктори

Чингиз Айтматовнинг "Алвидо, Гулсари" қиссаси ҳам бошқа асарлари каби китобхонлар томонидан муҳаббат билан кутиб олинди[1].

Одамзод ола-ғовурлар, шовқин ва ғазаб, ғалаба ва мағлубият, умид ва надоматдан иборат умри интиҳосида босиб ўтган йўлларига бир-бир назар ташлар экан, унда фақат битта нарса қолганини туяди. У бутун мол-мулки, мансаби, обрў-эътибори, яқин кишиларидан айрилганда ҳам ўша нарсагина унинг сояси бўлиб қолади. Бу сояда олис йиллар, минглаб воқеа-ҳодисалар, одамлар, миллионлаб ўй-фикрлар, ташвишлар, изтироблар мужассам. Қандай шарт-шароит бўлмасин, у одамнинг доимий йўлдошидир. Бахтда ҳам, бахтсизликда ҳам ягона ҳушёр кўз ва тасаллидир. Шунинг учун жонажон шаҳри ғаним қўлига ўтган, хотини, бола-чақасидан айрилган файласуф Стилпон шундай деганди: "Ҳаммаси ўзимда – адолатим, фасоҳатим, оқиллигим, хотиним ва болаларим ёди..." Ҳа, ўтиб кетган барча кишилару ҳодисотларнинг танҳо гувоҳи, ўтда ёнмас, сувда чўкмас белгию аломати хотирадир. Бироқ лаънати жунгжанглару совет тузуми Жўломонларни, Собитжонларни ўз она юрти, ота-боболаридан, улар ҳақидаги хотиралардан шафқатсизларча айиргани ҳам аччиқ ҳақиқат. Ҳозирча фақат барҳаётлик сиринг тагига етолмаган, энг олий ва шу билан бирга энг тубан мавжудот бўлмиш одам боласи "шири", "туя териси", "Чамбарак" операцияси, "иксзурриёдлар", "чексиз ахборот оқими" сингари "кашфиёт"лари воситасида ўша муқаддас туйғуга-да тажовуз қилишга эришди. Лекин бу ҳол хотиранинг қудратини заррача сусайтиргани йўқ.

Инсон оғир мусибат дамларида, чўққидан қулаганда ёлғизликда хотираларга берилади, ўтган умрини сарҳисоб қилади. Узоқ йиллик қадрдон дўсти Казангапни дафн этишга бораётган чоғ Эдигейнинг кўз ўнгидан бутун бошли асрнинг миқёсига тенг ҳаётининг ҳар бир палласи бирма бир ўтгани бежиз эмас. Даҳшатли Иф қалъасида ўн йиллаб тутқунликда ётган Эдмон Дантесни ҳам, кимсасиз оролда неча йил одам зотининг йўлига зор-интизор бўлган Робинзон Крузони ҳам айнан эски хотиралар ўлимдан сақлаб қолганди. Қариб, озиб кетган, энди ҳеч нимага ярамай қолган қирчанғи оти Гулсари билан Александровка тепалигига аста-секин кўтарилаётган, ўзи ҳам анча ёшга бориб қолган Танабойни худди уларда бўлганидек турли хаёллар чулғаб олганди... Ҳа, ёшлигида бу йўлларни агар отда бўлса, ўқдай учиб, пиёда бўлса, кийикдек чопиб, босиб ўтарди. Ўшанда раҳматли дўсти Жўра унинг бу қилиғидан кулиб, ҳазиллашарди: *"Сенга қолса ҳамма нарса тезроқ, дарров ҳал бўлса. Жаҳон революцияси ҳам бирдан амалга ошса! Революция-ку майли-я, Александровкадан адирга олиб чиқадиган оддий йўлга ҳам сабринг чидамайди. Ҳамма одамлар аравада хотиржамгина ўтириб боришади-ю, сен бўлсанг сакраб тушиб, худди орқангдан бўрилар қуваётгандек тоққа қараб югурасан. Хўш, нима фойда кўрасан? Ҳеч нарса. Бари бир тепада ўтириб олиб, бошқаларни кутасан. Жаҳон революциясига ҳам бир ўзинг кириб бормайсан, билиб қўй, бошқаларнинг ҳам етиб олишларини кутасан"*[2]. Шўровий ибора билан айтганда, вужуди "инқилобий жўшқинлик"дан ёниб, эскиликни янчишда, янгиликни жорий этишда ўз вақтида катта жонбозлик кўрсатган Танабой, муштумзўрларни қийратишда, қадимий халқ ҳунармандчилигини, хусусан, ўтовларни йўқотишда жуда фаол бўлган Танабой шиддатли 30-йилларнинг типик вакили эди. Ҳа, у бир вақтлар тенгдошлари билан полуторка машиналарга ўтириб, алвон ранг байроқни ҳилпиратганча, совет тузумини, унинг доҳийларини, партияни, янги турмушни олқишлаганди. Ҳа, у яхши яшаб, яхши ишлаб юрган, йиғим-терим пайтида одам

[1] Қаранг: Радов Г. Танабай – друг Айтматова. "Комсомольская правда", 1966 г. 6.05; Рашидов А. Ч.Айтматов. Адабий портрет // Сўнмас юлдузлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981; Дементьев В. Здравствуй, Танабай! "Литературная газета", 1966 г. 7 июня.

[2] Айтматов Ч. Алвидо, Гулсари – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 238.

ёллаган ўгай акаси Қулибойни *“Совет ҳокимияти учун мен ўз отамга ҳам раҳм-шафқат қилмайман. У бўлса менинг акам, сизлар хижолат тортмасанглар ҳам бўлади. Сизлар йўқ десангиз, уни менинг ўзим қулоқ қиламан”*[1], дея Сибирга сургун этганди. Ҳа, у комсомол йиғилишида “Битсин ўтов! Эскичасига яшашни бас қилайлик!” деб, ўтовларни тугатиш ҳақида нутқ сўзлаганди. Орадан ўттиз йилга яқин вақт ўтиб, Танабой буларнинг барини эсларкан, “Гўё унинг бутун ҳаёти колхозлар кучга кирган ўша ажойиб дамларда ўтиб кетгандек эди. У яна ўша кезлардаги “Қизил дуррали зарбдор қиз” ашуласини эслади, колхозга биринчи марта берилган полуторка машинасини, унинг кабинаси ёнида ўзининг қизил байроқ ушлаб турганини эслади...” [2].

Ўша оловли ёшлик йилларининг эрта сўнишига дастлаб уруш сабаб бўлди. Словакия, Австрия ва бошқа мамлакатларда қон кечди. Ана шу оралиқ давр бир-бирига тамоман ўхшамайдиган икки Танабойни, икки тақдирни яратди. Уларнинг биринчиси коммунистик фанатизм туфайли акасини хароб қилишдан ҳам тоймайдиган, бу қилмиши билан аксар қишлоқдошларида оловланган ғазабу норозиликни писанд этмайдиган кимса эди. 40-йилларнинг иккинчи 2-ярми, 50-йиллар бошига келиб эса бутун жамиятда бўлгани каби Танабойнинг дунёқарашида ҳам кескин ўзгаришлар юз берди. Урушдан кейинги улкан харобазор устидан энди шунча даҳшатни бошидан ўтказиб, бу ёғига инсондек яшашга қаттиқ умид қилган кишиларнинг авлоди пайдо бўлди. Шундайлардан бири Танабойнинг оталиғи остида чўпонлик қилиб юриб, қаҳратонда қўйлар қирилаверганидан охири ҳаммаси жонига теккан Бектой бўлиб, тўрт юзга яқин бош қўйни Танабойга топшираркан шундай деганди: *“Мен эса одамлар қандай яшаётган бўлса шундай яшашни истайман. Менинг бошқалардан бир ерим камми? Мен ҳам бошқалар сингари шаҳарда ишлаб, мояна олишим мумкин. Нега мен бу ерда қўйлар билан бирга нобуд бўлиб кетишим керак. Ем-хашак бўлмаса, қўйхона бўлмаса, бирон бошпана бўлмаса. Мени тинч қўйинг. Ишингизга бораверинг. Жонингизни жабборга бериб, гўнгга ботиб юраверинг! Ўзингизга бир қаранг, кимга ўхшаб кетибсиз. Бу ерда ҳалок бўласиз. Сизга бу ҳам оз, яна шиорлар билан жар соласиз. Бошқаларни ҳам орқангиздан эргаштирмоқчи бўласиз. Етар!”*[3]. Ҳа, эндиликда ҳамма нарсани ўзгартиришга қатъий бел боғлаган фидокор ёшлар йўқ. Хўжалик, йилқичилик, чорвачилик эса абгор ҳолатда. Жўранинг таклифи бўйича қўйчилик соҳасида ишлаб, унинг бор заҳматини тотган Танабой ҳам ҳаётга бошқача назар билан қарай бошлаган, урушгача бўлган фаолият, ундаги баъзи жиҳатлар кўзига ғалати кўринаётганди. Ўз вақтида у ўтовларга қарши фаол тарғибот олиб борганини юқорида айтиб ўтдик. Энди *“маълум бўлишича, узоқ яйловларда ўтовларсиз чорвачилик қилиб бўлмас экан. Танабой бундай сўзларни айтишга оғзи қандай борганлигига, кўчма чорвачилик учун ҳали ўтовдан дурустроқ бошқа ҳеч нарса ўйлаб топилмаганлигига қарамай, уни нега қоралаганига энди ўзи ҳам ҳайрон қоларди. Ҳар бир кичик бўлаги аждодларнинг асрий тажрибасидан ўтган ўтов ўз халқининг ажойиб кашфиёти эканлигини у нега кўра олмаган экан?”*[4]. Аммо Танабой барибир янги замонга тўлиқ мослаша олмаётганди. Бундан унинг ўзи ҳам қийналар, ўйга ботарди: *“Соддасан, ҳаёт сени ҳеч нарсага ўргатмабди. Сен ҳеч нарсани билмайсан ҳам, пайқамайсан ҳам. Ёшлигингда қандай бўлсанг, шундайлигингча қолибсан. Ҳамма нарсани шартта-шартта қилсанг. Замон бўлса ҳозир бошқача. Энди ҳаммадан ҳам муҳими, қандай гапиришни, кимнинг олдида нима дейишни билиш, сўзинг барча одамларники сингари замон руҳида жаранглаши, бошқаларникидан ажралиб турмаслиги, худди ёзиб қўйилгандек силлиқ бўлиши керак. Шунда ҳамма нарса жойида бўлади”*[5]. Ҳозир муаммолар ошиб-тошиб ётган эса-да, илгаригидек партия аъзолари, вакиллар халқ аҳволини енгиллаштириш учун жон куйдиришмайди. *“У вақтларда йиғилиш нимага қарор қилса – шу қонун эди”. “Энди эса йиғилиш қуруқ гапдан иборат бўлиб қолди. Сен билан ҳеч кимнинг иши йўқ. Колхозни гўё колхозчиларнинг кўзлари эмас, кимдир ташқаридан бошқараётгандек. Гўё нима қилиш, қандай ишлаш, хўжаликни қандай олиб бориш кераклиги сиртдан яхшироқ кўринаётгандек. Хўжаликни гоҳ ундай, гоҳ бундай айлантириб кўришади, лекин ҳеч қандай натижа йўқ. Одамлар билан юзма-юз бўлгани ҳам қўрқасан. “Қани айт-чи, сен партия аъзосисан, колхоз туза бошлаганимизда ҳаммадан кўп сен вайсагансан, бу нарсалар қандай юз бераётганлигини бизга тушунтириб берчи?” – деб сўраб қолишлари мумкин. Нима дейсан уларга?”*[6]. Тобора бюрократлашиб бораётган совет давлат аппарати, бутун ижтимоий ҳаётнинг умумий аҳволи шу. Бундан қаттиқ норози Танабой эса мажлислардаги тантанавор нутқлар билан чўлдаги, турмушдаги ҳақиқий вазиятнинг умуман

[1] Қайд этилган асар. – Б. 355.
[2] Қайд этилган асар. – Б. 355-356.
[3] Қайд этилган асар. – Б. 359.
[4] Қайд этилган асар. – Б. 309.
[5] Қайд этилган асар. – Б. 330-331.
[6] Қайд этилган асар. – Б. 320.

мос эмаслигидан изтироб чекар, урушгача бўлган замонни қўмсарди. *“Шунда ўзларининг бир вақтлар қандай қилиб колхоз туза бошлаганликлари, халққа бахтли турмуш ваъда қилганликлари, одамларнинг нималарни орзу қилганликлари эсига тушиб кетарди. Ўша орзуларнинг рўёбга чиқиши учун қанақа курашишди! Ҳамма нарсани ағдар-тўнтар қилиб ташлашди, эскиликка зарба беришди. Дастлабки пайтлар турмуш ёмон эмасди. Агар манави лаънати уруш бўлмаганида яна ҳам яхшироқ яшашган бўлишарди. Энди-чи? Урушдан кейин мана неча йиллар ўтиб кетди-ю, ҳамон хўжаликни эски ўтовдек ямаб-ясқаб ётибмиз. Бир жойни ямасанг, бошқа жойидан йиртиғи кўриниб қолади. Нима учун?”*[1] Аммо ҳар нима бўлганда ҳам, урушдан кейинги давр унга ҳеч нарса билан тенглашмайдиган бир туҳфани раво кўрди. *“Танабой худди ўша кезларда, тоққа йилқичи бўлиб борганида, у ерда, кекса Тўрғайнинг йилқилари орасида бир ярим яшар саман тойни биринчи марта кўрганди”*[2]. Вақтидан ўтиб туғилган бу туғма йўрғани ўша қария шундай таърифлаганди: *“Бундайларни кам учратганман. Илгари замонларда у бебаҳо от ҳисобланарди. Бундай от учун чавандоз йигитлар пойга-улоқларда жонларини тикишарди”*[3]. Унинг чопишига мафтун бўлган Танабой ўшанда бу от сабаб шон-шуҳратга бурканишини, қанча қувончу ташвишларни бошидан ўтказишини, энг муҳими, у ер юзидаги бутун тирик мавжудотлар ичида ўзига энг яқини бўлиб қолишини билмаганди...

Янги хўжайинига кўникиб, унинг қўл остида аста-секин улғая, кўркамлаша борган Гулсари билан Танабой ўртасида ажиб бир муносабат пайдо бўлди. Бундай севгига тариху адабиёт олдин ҳам бир неча бор гувоҳ бўлганди. Жаҳонгир Александру Буцефель, Ричард Шерюрак ва унинг баҳоси ярим салтанатга тенг тулпори, Дон Кихоту Роценант... Қайсидир жиҳатлари Сервантес қаҳрамонини эслатувчи, яъни телба рицарь каби янги замон тартибларига кўника олмай, ўтмиш хаёли билан яшаб юрган Танабой ҳам ўз Роценантига – Гулсарига эга эди.

Бу йўрға уни қаерларга элтмади: гоҳ бева Бибижонникига қатнаб, ишқий муносабатларга гувоҳ бўлди, гоҳ улоқни чапдастлик билан илиб олган Танабойни олқишлаб, шону шарафлардан иборат марра сари бошлади. Шундай қилиб, қария Тўрғайнинг башорати рўёбга чиқди: “Кекса-ю ёш – ҳамма уни танирди: “Гулсари!”, “Танабойнинг йўрғаси”, “Овулнинг кўрки” деб тилга олишарди.

Ҳали “р” ҳарфини айта олмайдиган исқирт болалар ҳам саман йўрғанинг елишига тақлид қилишиб, кўчани чангитиб чопишаркан: *“Мен Гулсалиман...” “Йўқ, мен Гулсалиман... Ойи, айтинг, мен Гулсалиман-а... Чу-чу, олға, ҳе-й-й, мен Гулсали” деб қичқиришарди”*[4] . Унинг шарафига қанча қадаҳ кўтарилиб, бўшатилмаган дейсиз?! Ҳа, ҳозир Гулсарининг замонаси эди. Бироқ Тўрғай чол Танабойни огоҳлантирганди: *“Гўзал қизлар каби яхши йўрғанинг ҳам хуштори кўп бўлади. Қиз тақдири шундайки, яхши одамга тушса, очилиб кетади, кўз кўриб қувонади, бирон аҳмоқнинг қўлига тушса, қизни кўриб хафа бўлиб кетасан. Ёрдам ҳам бера олмайсан. Яхши от ҳам худди шундай бўлади”* [5]. Мана, унинг бу гапи ҳам рост чиқди – Жўранинг ўрнига колхозга янги раис бўлиб келган Олданов Танабойга шундай қоғоз жўнатди: *“Фармойиш. Йилқичи Бекасовга. Саман йўрға Гулсари миниб юриш учун отхонага жўнатилсин. Колхоз раиси (ажиужи имзо). 1950 йил, 5 март”*[6] (298). От колхоз мулки эканлиги сабаб Танабой бунга чор-ночор кўнди. Аммо бир куни Гулсари арқонни узиб, қочиб келди. Озодликка талпинувчи бу жониворнинг садоқатидан боши кўкка етган Танабой югуриб бориб, *“уни бегона югганда, оғир узангили қўпол бегона эгар остида кўрди. Уни, айниқса, эгар устидаги қалин духоба кўпчик ғазабга келтирди, гўё отни эркак киши эмас, балки семиз думбали хотин миниб юргандек эди”*[7]. От эса уюр олдидан шодон чопиб юраркан, энди у *“бадбўй ароқхона ёнидаги кўлмакда тургани ва янги хўжайини ўз улфатлари билан чиққани, уларнинг ҳаммасидан бадбўй ҳид бурқсиб таралганлигини ҳам унутган эди. Янги хўжайин пишиллаб, кекира-кекира унга минганди. Йўлда улар лой кечишиб, бемаъни пойга уюштирганларини, янги хўжайинни қандай суриб олиб кетганлигини ва у эгар устида бесўнақай лўкиллаб борганлигини, кейин эса юганни қаттиқ тортиб, унинг бошига қамчи тушира бошлаганини ҳам ҳозир у унутган эди”*. Бироқ сал ўтмай, отбоқарлар келиб, Гулсарини олиб кетишди. Аммо жонивор яна қайтиб келди. Сўнг яна ва яна... Охири уни қочиб келмайдиган қилишди. Отни бичишга буйруқ берган Олдановни Танабой шу тариқа ёмон кўриб қолди. Гулсаридек отни миниб, халойиқ олдида довруқ қозонишни кўзлаган янги раис йўрғани бўйсундира олмагач, уни касалманд Жўрага берди. Гулсари энди қадрдон эгасининг қадрдон дўсти қўлига ўтганди... Йиллар ўтиб, Александровка тепалигида умр соатлари тугаб бораётган отига

[1] Қайд этилган асар. – Б. 319.
[2] Қайд этилган асар. – Б. 250.
[3] Қайд этилган асар. – Б. 251.
[4] Қайд этилган асар. – Б. 274.
[5] Қайд этилган асар. – Б. 252.
[6] Қайд этилган асар. – Б. 355-356.
[7] Қайд этилган асар. – Б. 304.

бағрини босганча хотираларга берилган Танабой ўша жўрасини эсларкан, бирга колхоз қурганлари, қулоқларни аёвсиз тугатганлари, ғалабадан сўнг хароб ҳолдаги чорвачилик соҳасида ишлаганлари, шу билан бирга, ораларида бўлиб ўтган келишмовчиликлар, айниқса, юрагида бир умрлик армонга айланган бир воқеа бирма - бир кўз олдидан ўтди...

Суюкли отини абгор қилган, хўжаликдаги аҳволни яхшилашни ўйламайдиган қуруқ ваъдабоз Олдановга, унга ўхшаган партиялиларга Танабойнинг нафрати бениҳоя зўр эди. Собитжондай фақат "орқаси" учун яшайдиган, буйруғу ҳайбаракаллачиликдан ўзгасини билмайдиган бу тўралар ўша нафратни Танабой қаҳратон қиш чоғи қўйчилик билан шуғулланган ўша машъум кунлари янада кучайтиришди. Шундай обу ҳавода бир неча юз қўйни қўзилатиш, атиги бир неча нафаргина сақмончилар ёрдамида гўнгдан тўлиб кетган сайисхонада жуда кўплаб қўй ва қўзичоқларни совуқдан сақлаш, ўн йиллаб тозаланмаган ўша харобани оз муддат ичида гўнгдан тозалаш... Беихтиёр ёдингга қадим юнон афсоналаридаги шоҳ Авгийнинг гўнг билан тўлган улкан отхонаси келади. Уни фақат дарё ўзанини буриш ёрдамида буюк паҳлавон Гераклгина тозалай олган. Бироқ Танабой Геракл эмас, боз устига лаънат теккан бу чўлда бирон дарё ҳам йўқ. Шу биргина нобоп қўйхонанинг касофатига қанча-қанча қўйлар нобуд бўлди. Аксар қўзичоқлар туғилган куниёқ ҳаром қотарди. Танабойлар эса қанча тиришмасин, фожианинг олдини оломасди. У ҳам нима қилсин, Гулсариларга кўз олайтирган шуҳратпараст катталар план бажарилишини талаб этса-да, ўзидан ёрдам деган нарсанинг ҳиди ҳам келмаса?! Ўшалардан биттаси – Гулсарини миниб олган район прокурори Сегизбоев вакил сифатида чўпонларни текширишга келгани эса ўлганнинг устига тепган бўлди. *"Сен зараркунандасан! Сен колхоз мулкини йўқ қилиб юборяпсан. Сен халқ душманисан! Сенинг ўрнинг партияда эмас, турмада. Сен мусобақа устидан куляпсан"*[1]. Бу ифлос сўзлар Танабойнинг сабр косасидан илк томчини тширди. Сегизбоевдан роса гап эшитган Жўранинг дўстини тинчлантиришга бўлган шунча ҳаракатларига қарамай, "Менинг жойим турмада, турмада!" дея, Танабой бутунлай қутуриб кетди. Сегизбоевга паншаха билан ҳамла қиларкан, "Қоч, Гулсари, нари тур! Мен чармга ўралган манави манапни тутиб олай" деб бақирганча, отига устма-уст қамчи туширди. Қўрқиб кетган Сегизбоевлар бу ердан тезроқ жўнаш пайига тушиб қолди. Ранги қув учган хотини Жавдар "Нима қилиб қўйдингиз? Нима қилиб қўйдингиз? деганча олдига келганда эса Танабой йўрғани бекорга урганига ачинишини айтди. Шўро тузуми учун жон олиб, жон берган Танабой ўша тузумнинг гумаштаси томонидан улуғ бир ҳақоратга мустаҳиқ этилганди... Танабойнинг кўнглида йиғилиб қолган айрим гапларни айтган бу ҳақгўй йигитнинг мазкур сўзлари инобатга олинмаслиги аниқ эди. Чунки суд раиси Қўчқортоев ("Қиёмат") – туман партия қўмитаси котиби Қашқатоев, даъвогар терговчи Тансиқбоев – прокурор Сегизбоев, манфаатдорлар Собитжон – тилёғлама, айёр Иброҳиму Ўразқул – колхоз раиси Олданов эди. Чунки жамиятда шулар ҳукмрон эди. Улар ҳатто Жўранинг тузукроқ сўзлашишига ҳам қўйишмади. Оқибатда Танабой қамалмаган эса-да, ўзи қаттиқ меҳр берган жонажон партиясидан ҳайдалди, руҳи тушган, ҳеч кимнинг гапини эшитмаётган бу одам ҳозир шуни ўйларди: *"Менинг бутун орзу-умидларим қаёққа кетди? Бизнинг сурувларда, подаларда бўлаётган аҳвол билан бу ердагиларнинг ишлари ҳам йўқ. Мен аҳмоқ бўлиб юрган эканман. Ўз умримни колхозни деб, қўй-қўзиларни деб ўтказдим. Ҳозир эса буларни ҳисобга олмаяптилар. Энди мен хавфли одамман. Билганларингни қилинглар"*[2]. Энди ҳаммаси тамом, деб эшик томон йўналган чўпонни Қашқатоев тўхтатиб, унга партия билетини қолдириб кетишни буюрди ҳамда шуни қўшиб қўйди: "Ҳа. Столга қўйинг. энди сиз партия аъзоси эмассиз ва уни олиб юришга ҳаққингиз йўқ". Ҳа, у дўсти Жўрабой билан партия йўлида, унинг мутлоқ ғалабаси йўлида 30-йилларда шонли, шарафли ишларни қилганди. Кейин эса йилқичилик ва қўйчиликда заҳмат чекканди. Ёшлигида қизил байроқни баланд кўтарганча ҳайқиргани, янгиликка, ўзгаришларга даъват этгани, ҳатто бунинг учун ўгай оғасидан, қадим халқ ҳунармандчилигидан юз ўгиришга журъат қилгани, чорвачиликдаги хизматлари... ҳамма, ҳаммаси абас энди.

Бир куни аъзолигини тиклаш-тикламаслик борасида иккиланиб юрган Танабой даштда чопиб кетаётган қадрдон йўрғасини кўриб қолди. Ҳа, одамлар сендан юз ўгирганда ҳам, ана шу тилсиз, онгсиз жониворлар сени унутмас экан! Муму ёки Оқ Бим Қора Қулоқнинг ўз эгаларига меҳрини садоқатини бир эсланг. Ницше ҳам бежизга "Одамлардан қоч, ҳайвонларга бор" демаганди. Қариб қолган Танабойнинг ҳозирги йўлдоши ҳам забонсиз, аммо қалби дарё жонивор эди! Лекин *"Танабой унга узоқдан қараб туриб хафа бўлиб кетди. Энди бўлса йўрғани чанг-тўзон булутлари ўраб оларди"*[3]. Шунда Танабой хотираларга ғарқ бўлди: "Наҳотки шу эндиги қисмати бўйнига

[1] Қайд этилган асар. – Б. 356.

[2] Қайд этилган асар. – Б. 374.

[3] Қайд этилган асар. – Б. 402.

куя тушган бўйинча илиб, эски аравани тортишдан иборат бўлган" қари от бир вақтлар ёшу қарининг ҳавасини келтириб самоларда парвоз этган, улоқларнинг кўрки бўлган от бўлса?! Наҳотки, шу одам, келинию ношуд ўғлидан гап эшитиб юрган шу Танабой 30-йилларнинг зарбдор қурувчиси, шўровий тартибларни мустаҳкамлашда фидойилик кўрсатган олов қалб йигит бўлса?! Наҳотки, йўлдаги ҳар турли шофёрлар томонидан *"Итга ташланг уни, ҳув анави жарликка итариб юборинг, вассалом, қарғалар чўқиб тамом қилишади"*[1] деб ҳақоратланаётган шу от қачонлардир ортидан чанг-тўзон қолдириб, тўраларнинг кўзини ўйнатган жонивор?! Наҳотки, шу "мияси айниган" чол – Иккинчи жаҳон уруши жанггоҳлари бўйлаб олис Европагача ўлимларни доғда қолдирган ефрейтор Танабой Бекасов, Гулсаридек учқур саманнинг энг муносиб эгаси Танабой?! Гулсарини кимлар минмади дейсиз?! Танабойни ҳам кимлар иззат қилмади, яна кимлар ер қилмади?! Бу икки тақдирдош – Танабой ва Гулсари параллелизми улуғ Айтматов ижодида Эдигей ҳамда Қоранор, Арсену Жаабарс образларида намоён бўлади.

Шундай қилиб, барча нарсаларнинг завол топмоғи муқаррар экан, бизга фақат улардан қолгувчи ХОТИРАгина тасалли бериши мумкин. Александровка баландлиги узра аста қадам босиб, бутун ҳаётига назар ташлаган, азиз Гулсарини сўнгги йўлга кузатганча бўғзидан "АЛВИДО, ГУЛСАРИ!" деган нидо отилиб чиққан Танабой ҳозир ана шу ҳақиқатни англаб етган бўлса, не ажаб!?

Resume: In this article, one of the leading representatives of Turkish literature, Chingiz Aitamatov's short story "Goodbye, Gulsari", the issue of the dialectics of man, nature and animal world, the skill of expressing poetic thought is studied.

Резюме: В данной статье рассматривается рассказ одного из ведущих представителей тюркской литературы Чингиза Айтаматова "До свиданья, Гулсари", вопрос диалектики человека, природы и животного мира, мастерство выражения поэтической мысли.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"SADOYI TURKISTON" SAHIFALARIDA ABDURAUF MUZAFFARZODA: MUHARRIRLIK FAOLIYATI HAMDA BADIIY PUBLITSISTIKASI

Egamqulova Nodira,
Termiz davlat universiteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

1905-yil voqealari, xususan, Turkistonda matbuot ishlarining yo'lga qo'yilishi bilan turkistonlik jadidlarning turk, tatar, ozarbayjon, boshqird mutafakkirlari bilan bo'lgan aloqalar yanada mustahkamlandi. Ahamiyatli tarafi shundaki, ko'pchilik qardosh taraqqiyparvarlar turkistonliklar bilan aloqa o'rnatibgina qolmay, bevosita Turkistonga kelib matbuot, maorif, teatr, huquq va ko'plab sohalarda turkistonliklar bilan yelkama-yelka turib faoliyat olib bordi, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdi. Bir qancha sabablar bilan Turkistonga kelib, shu yerda yashab qolgan qardosh tatar-boshqird xalqlarining Turkistonda faoliyat olib borgan tatar muharrirlari sifatida Ismoil Obidiy, Abdurauf Muzaffarzoda, Ahmad Zaki Validiy, No'shiravon Yovushev, Shokir Muxtorov, Ibrohim Tohiriy, Ahmadjon Bektemirov, Husayn Makayev, Kabir Bakir**,** Fotih Bakirlarni misol qilish mumkin. Xuddi shunday, Ozarbayjondan kelib ish olib borgan Muhammad Amin Afandizoda, Jalol Yusufzoda, Piriy Mursalzoda[2] kabi fidoyilar o'zbek publitsistikasi rivojiga ulkan hissa qo'shishgan. Yuqorida nomlari keltirilgan zotlar

[1] Қайд этилган асар.

[2] Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Ғ.Ғулом нашриёти, 2009. – Б.318.

birgina matbuot sohasida emas, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qizg‘in faoliyat olib borishgan, Turkistondagi jadidchilik harakatining rivojiga o‘z hissalarini qo‘shishgan. Biroq haligacha bu kabi turk, tatar, boshqird ziyolilarining Turkistondagi faoliyati yetarlicha o‘rganilgan emas. Ularning ko‘pchiligi sarson-sargardonlikda, quvg‘inda hayot kechirishgan. Misol uchun, Abdurauf Shahidiy, Husayn Makaevlar ham usuli jadid maktablari ochgani uchun Qozondan quvg‘in qilingan, Namangan va Qo‘qonda yashab qolgan pedagog hamda noshirlardir[1]. “Sadoyi Turkiston”ning eng faol muharriri Abdurauf Muzaffarzoda esa turli tazyiqlar sabab Toshkent, Buxoro, Turkmaniston va shunga o‘xshash ko‘p joylarda ko‘chib yurishga majbur bo‘lgan. Tatar farzandi Kabir Bakir (1880-1938) 1917 yil Fevral o‘zgarishlaridan so‘ng Toshkentga kelgan va “Ulug‘ Turkiston” gazetasini chiqargan. Ahmadjon Bektemirov, Nuriddin Sayfulmulkov, Mahmud Budayli kabi publitsistlar “Vaqt” gazetasining muxbiri sifatida Turkistonga kelib ish olib bordilar[2]. Turkistonda bo‘layotgan yirik voqealarni, ijtimoiy siyosiy o‘zgarishlarni aks ettiruvchi turkum maqolalar yaratishdi. Vaqtli matbuotimizda uchrovchi “Sayyoh”, “Bir musofir”, “Samarqandiy”, “Buxoroli”, “A.F”, “Qardosh”, “Muxbir”[3] kabi imzolar aynan Turkistonda faoliyat olib borgan tatar, turk muxbirlarga tegishli edi. Shu bilan bir qatorda turkistonlik jadidlar M.Behbudiy, M.Shermuhammedov, Cho‘lpon, Mo‘minjon Muhammadjonov, Bahrombek Davlatshoevlar “Tarjimon”, “Sho‘ro”, “Vaqt”, “Ulfat” kabi tashqi davriy nashrlarda faol ishtirok etishdi. Turkistonda ham “Tarjimon”, “Mulla Nasriddin”, “Iqbol”, “Turk yurdu”, “Sho‘ro” mushtariylari ko‘paydi. Jumladan, Orenburgda nashr etilgan “Sho‘ro”(1908-1918) jurnalining sahifalari ham turkistonlik va tatar ziyolilarining fikr almashish va aloqa maydoni bo‘lgan edi. Behbudiy, Cho‘lpon, So‘fizoda, Hoji Muin, M. Shermuhamedov, Sadriddin Ayniy, Lutfullo Olimiy, Ajziy, M.Muhammadjonov, Rojiy Xolmuhammad Oxundiy kabi taraqqiyparvarlarning ushbu jurnaldagi muntazam ishtiroki[4] ham bunga dalil bo‘la oladi. Umuman olganda, ushbu gazeta-jurnallar Turkiston matbuoti bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishdi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdi. B.Qosimov so‘zlari bilan aytganda, Turkiston matbuot vositasida qardosh, tildosh, dindosh turk olamiga chiqdi[5]. Matbuot bilan bir qatorda adabiy aloqa va ta’sirlar ham shakllanib bordi. Vadud Mahmudning ta’biricha, “bizda yangi adabiyot Turkiya adabiyoti taqlidi bilan boshlang‘ondir. ...ruhda va shaklda Turkiston, Qafqozyo, Qrim doimo Turkiyaga ergashadir”[6].

Jadidlarning mana shunday adabiy-madaniy aloqalari, asosan, ikki xil yo‘lda rivoj topgan. Birinchisi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, ko‘plab madaniyat, san’at, ta’lim xodimlarining, ijodkorlarning bir-birlari bilan bevosita aloqada bo‘lganliklari, sayohatlar davomidagi tanishuvlar, Turkiston o‘lkasida muqim yoki uzoq vaqt yashab, hamkorlikda ijod qilish yo‘li bo‘lgan. Ikkinchisi, matbuot sahifalari orqali tanishuv, tanituv, ta’sirlanuv yo‘lidir. Va nisbatan bu ikkinchi yo‘l ko‘proq ta’sirga ega bo‘lgan. Bizdagi muvaqqat nashrlarda nafaqat turkistonlik-lar, balki turk, tatar, afg‘on, eron shoirlarining ham o‘z ijodiy namunalari bilan faol qatnashganliklarining guvohi bo‘lish mumkin. Masalan, Rijoizoda Mahmud Akrom, Dog‘istoniy, Kafkoziy, Javdat, Shayx Olim Eroniy, Mahmud Tarziy, Zuhuriddin Fathiddinzoda kabi shoirlar ijodini misol qilib keltirish mumkin. Abdurauf Muzaffarzoda, Ahmad Zaki Validiy, No‘shiravon Yovushev, Shokir Muxtorov, Ibrohim Tohiriy, Ahmadjon Bektemirov kabi bir qator ziyolilarning tanqidiy maqolalari, tahlillari turkistonlik jadidlarning, ijtimoiy qatlamning fikriy uyg‘onishida muhim o‘rin tutgan. Ular faqatgina ijtimoiy-siyosiy mavzudagi tanqidiy chiqishlar bilan bir qatorda, adabiyotdagi yangi shakl, yangi tajribalarga qo‘l urib ko‘rdi. Hikoya, munozara, drama janrlaridagi dastlabki asarlarni yozdilar. Xuddi shunday qardosh ziyolilardan biri Abdurauf Muzaffarzoda (Muzaffarov) dir. “Sadoyi Turkiston” muharrirlaridan biri va eng faoli bo‘lgan Abdurauf Muzaffarov (1889-1938?) 1889-yilda Tatariston Simbirsk guberniyasidagi Shemgilleyli uyezdi, Staro-Timoshkina qishlog‘ida tug‘ilgan[7]. Millati – tatar. 1914 yil boshlarida Turkistonga kelib, shu yerda faoliyat olib borgan. Abdurauf Muzaffarzoda ”Sadoyi Turkiston”ning muharrirlik ishlari bilan bir qatorda o‘zi ham ko‘plab boshmaqolalar, tanqidiy-tahliliy kuzatishlar aks etgan chiqishlar bilan ishtirok etib turgan. Sayyora Halimovaning so‘zlariga ko‘ra, Muzaffarzodaning ushbu gazetada 40 da ortiq maqolalari e’lon qilingan[8]. Muzaffarzoda bu maqolalarida Turkistonda mavjud muammo, muhim ma-

[1] Бу ҳақда қаранг: Долимов У. Туристонда жадид мактаблари. – Тошкент: Университет, 2006. – Б.20.

[2] Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б.52.

[3] Қосимов Б. Миллий уйғониш.... – Б.52.

[4] Қосимов Б. Миллий уйғониш.... – Б. 56.

[5] Қоссимов Б. Миллий уйғониш.... – Б. 64.

[6] Маҳмуд, Вадуд. Танларган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б.82.

[7] Qarang: O‘zRMDA. 132-f., 1-r.,337-yig‘majild, 21-varaq old va orqasi.; Сирожиддин Аҳмад. Убайдулла Хўжаев. – Тошкент: Info Capital Group, 2021. – Б. 90-95; Ҳалимова С. “Садойи Туркистон” газетаси: йўналиши, тил, услуб ва жанр хусусиятлари: Фил.фанл.номз. дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 22-23; Мустафаева Н. Абдурауф Музаффарзоа мушоҳадасида Туркистон тарихи ва маданияти масалалари / История и историки Узбекистана в XX веке. – Ташкент: Navro‘z, 2014. – С. 32-42.

[8] Ҳалимова С. “Садойи Туркистон” газетаси: йўналиши, тил, услуб ва жанр хусусиятлари: Фил.фанл.номз. дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 22.

salarga yechim, yo‘l izlaydi. Millatning asosiy o‘zagi bo‘lgan din va til masalasiga to‘xtalib, din insonlarning diliga o‘z tili, adabiyoti orqali ko‘proq ta’sir qilishi, shuning barobarida islom dinini chuqur o‘rganish uchun arab tilini bilishning ham zarurligi haqida yozadi. Lekin maktablarda diniy bilimlar har bir millatning o‘z ona tilida o‘tilishi, ona tilining eng kerak tomoni ham shunda ekanligini aytib, til masalasiga barcha muallim mualliflarning e’tibor qaratishlarini, maktablarda til darslari o‘qitmoq uchun darsliklar yozishni boshlash vaqti kelganligini, matbuotda til masalasiga oid muzokaralar qilishga chaqiradi[1] Uning yana bir maqolasi din va millat boqiyligi, uni asrab qolish masalasi haqida[2]. Maqolada din va millat muhofazasida ona til yagona vosita bo‘la olishi, din va millatni sevish uchun uning mohiyatiga tushunib yetish lozimligi aytiladi. Turkistondagi taraqqiyot yo‘lidagi harakatlar sezilmas darajada, ya’ni ismi bor jismi yo‘q qabilida kechayotganligi, matbuot va maktablarning bori ham o‘zgarish yasash uchun ozlik qilishi kabi mushohadalar bildiriladi. Din va shariat muhofazasi qay tariqa bo‘ladi, bir din arbobining fikriy taraqqiysi, kamoloti darajasiga qarabmi yoki ilmdan bexabarning minbardagi va’zlari orqalimi deb savol qo‘yadi va o‘zi shu masala atrofida fikrlarini bildiradi. Dinni muhofaza qilish birgina va’zxonlik bilan bo‘lib qolmaydi, din va millat muhofazasi uchun har bir kishi o‘zi harakat qilishi, dunyoda bor ilmlarni egallashga harakat qilishi va har kim o‘z darajasini anglashi, o‘z vazifasini bilib bajarishi kerak deb javob beriladi. Ba’zi qavmlar din ila musharraf bo‘lsa ham milatlari bo‘lmasligi aytiladi, bunga misol tariqasida turkistonliklarni keltiradi. Musulmonlik ila milliylik bir biridan butunlay farq qiladi. Bir qavmda din bo‘lmasa ham millat va milliyat albatta bo‘lar. Din insonlarga berilgan umumiy hadya. Uning boqiyligi shu dinga mansub millatning hayoti qadardir. Shu bois din millat va bayoti milliya ila qoimdur. Milliyat xossasi bo‘lmagan millat shunchaki insonlar yig‘indisi ekani bayon qilingan. Muallifning “Madaniy jarayon va milliy tariximiz” sarlavhali yana bir maqolasida Odamlarning shaharda hayot kechirishlarining o‘zi madaniy hayot uchun kifoya qilmasligi, madaniy hayot uchun eng asosiy vosita ilm-maorif ekani ta’kidlanadi. Taraqqiy etgan xalqlarda ziyolilar har bir daqiqasigacha hisoblab kerakli ishlarga sarflashi, bizdagi vaqtni sovurish hollariga teskari qo‘yiladi[3].

Abdurauf Muzaffarzoda ham til, imlo masalalariga bag‘ishlangan maqolalari bilan matbuotda faol bo‘lgan[4]. Xususan, adabiy tilning bugungidek nochor holga kelib qolish sabablarini izohlash maqsadida uning XX asr boshlariga qadar bo‘lgan o‘tmishiga nazar soladi: “Bu kungacha millat bolalari haqiqiy usullar ila ta’lim va tarbiya ko‘rmadular. Shuning uchun ularg‘a to‘g‘ri bo‘lg‘on o‘qu va yozuv qoidalari o‘rgatilmadi. Imlo, insho va ona tili darslari o‘qutilmadi. Bas, millat savodsiz, imlosiz, tilsiz bo‘lub asrlarcha shul holda qoldi. ...maktablar yana ona tili asosiga qurilmagan, madrasalar forsiy, arabiy kitoblar ila to‘lg‘on edi. ...ona tili ilmiy ishlarda iste’mol qilinmadi. ...ona tilimiz ham yildan yil zaiflandi. o‘qug‘onlarimiz til buzulmog‘iga xizmat etdilar”. Muallifning fikriga ko‘ra, arabiy va forsiy so‘zlarni ko‘p qo‘llashni fazilat sanash hollari hozir ham davom etayotganligi salbiy holdir. Albatta, Muzaffarzodaning sof turkiy tilni saqlab qolish tarafdori bo‘lganligini payqash qiyin emas. U milliy tilimizning oddiy xalq ichida saqlanib qolgan sof turkiycha ulushiga umid bog‘laydi. Va hozirda faqatgina tilning o‘sha parchasidan foydalanilayotganligini yozadi. Muallif nazarda tutayotgan o‘sha “parcha” esa sheva so‘zlari bo‘lib, u adabiy til sifatida shakllanmagan qismidir. Aynan shu kuchga tayangan holda, XX asr boshlariga kelib, millat bolalari o‘z ona tillarida ijod qilishga jiddiy bel bog‘laganliklarini va shu bilan birga, hali-hanuz tilni buzib ishlatuvchilar borligini ta’kidlab o‘tadi. Ulamo qatlamining o‘z nutqida arabiy, forsiy so‘zlarni qo‘llamasligi jaholat sanalurlik holga kelib qolganligini istehzo qilib, ayrim so‘zlarni misol keltiradi. Misol uchun kiyim o‘rnida libos, tilni lison, otni fars, qo‘noqni mehmon tarzida ishlatishlarini oqlamaydi. Muallif til masalasida juda ehtiyot bo‘lib ish ko‘rishga chaqiradi. Muzaffarzoda til sofligi masalasida juda keskin pozitsiyada turgan, deyish mumkin. Boshqa tillardan so‘z qabul qilmaslik, turkiychada muqobili topiladigan yot so‘zlarni quvib chiqarish lozimligini ta’kidlaydi. O‘z o‘rnida, tilimizda o‘rnashib qolgan hamma so‘zlarni ham chiqarib yuborishning iloji yo‘qligini to‘g‘ri anglaydi va bunday so‘zlarga quyidagilarni misol qilib keltiradi: vaqt, ibrat, ayb, duo, odat, adab, rohat, qanoat. Sof turkiycha ekvivalenti bilan almashtirish mumkin bo‘lgan so‘zlarga esa quyidagilarni misol qiladi: muharrir=yozuvchi, matbaa=bosmaxona, madh=maqtamak, hamroh=yo‘ldosh, jamiyat=yig‘in, haqiqat=to‘g‘rilik, majlis=o‘turish, muhoraba=urush. Ilmiy tilni ham turkiylashtirish masalasini qo‘yadi va ilmiy istilohlarni ham shunday muqobillari bilan almashtirish taklifini beradi, misollar keltiradi: ayni o‘zi=xuddi o‘zi, xoh bo‘lsun xoh bo‘lmasun=kerak bo‘lsun, kerak bo‘lmasun, manfaati shaxsiya=o‘z foydasi. Albatta Muzaffarzodaning o‘zi ham maqolasida ko‘plab arabiy, forsiy so‘z va iboralardan foydalangan

[1] Rauf Muzaffarzoda. Til ham din // “Sadoyi Turkiston”. 1914. №24.

[2] Ayn. Muzaffar. Din millat, millat milliyat ila qoimdur. “Sadoyi Turkiston”. 1914. №49-50-51.

[3] A.Rauf Bilolzoda Muzaffar. Madaniy jarayon va milliy tariximiz. “Sadoyi Turkiston”. 1914. №39.

[4] Айн. Музаффарзода. Тил ва имло масаласи // Садойи Туркистон. №63.

va buning izohi sifatida o‘zining ham tilsiz tatar bolasi ekanligini keltiradi. Turkiy tilning hozirgi ahvolida inson o‘z ko‘ngil kechmishlarini, o‘ylagan fikrini yetkazib berishda boshqa tillarga murojaat qilishga majbur bo‘lishlarini tan oladi.

Muzaffarzoda shu kabi ijtimoiy-siyosiy, madaniy mavzudagi chiqishlari bilan bir qatorda adib sifatida ham o‘z uslubiga ega bo‘lgan. Gazetada Uning “Ong umidlari”(xotin qizlar maishatidan)[1] hikoyasi keltirilgan. Asarning asosiy voqealari Gulchehra ismli 18 yashar qizning turmushini yoritishdan iborat. Asarda Muhammadjon no‘g‘ay obrazi zamonning uyg‘oq fikrli kishisi sifatida kiritilgan. Uning qizlari yangi usul maktabida tahsil olishadi, gazeta-jurnal o‘qishadi. Muzaffarzoda bu o‘rinda yonma-yon uyda yashovchi ikki qo‘shni, ikki xil muhit, ikki xil qarashga ega otalar obrazini taqqoslab o‘tishni niyat qilgan. Bu qiyosni yana davom ettirish maqsadida Gulchehraga sovchi qo‘ygan ikki yigit: biri Tojiddin akaning rus maktabida tahsil olgan o‘g‘li zamonadan xabardor Musa afandi hamda ikkinchisi mayparast Sodiqboy bacha obrazini keltiradi. Bu orqali birinchidan, qiz bolaning ota bilan munosabati ijobiy hal qilib berilgan bo‘lsa, ikkinchidan, yangi otalar – ruhiy ma’naviy olamga ega bo‘lgan ziyoli erkaklar avlodining o‘sib kelayotganiga urg‘u bergan. Asarda tatarlar madaniyati, turmush tarzining turkistonlik birodarlariga qaraganda ilgarilab ketganligiga ham ishoralar bor. Muso afandi Turkistondan o‘ziga munosib qiz topa olmagach, otalar o‘z qizlarini ko‘rsatishga yo‘l qo‘ymaganliklari sabab tatar qiziga uylanish uchun Orenburgga ketadi. Hikoya to‘liq nashr qilinmagan, bu orada gazeta faoliyati ham tugatilgan edi. Lekin bu narsa asar yakuni e’lon qilinishiga to‘siq bo‘luvchi sabab hisoblanmaydi albatta. Vaholanki, Abdurauf Muzaffarzoda asarning qolgan qismini “Kengash”, “Ulug‘ Turkiston”, “Turon”, “Najot” gazetalaridan birida ham e’lon qilishi mumkin edi. Lekin nimagadir muallif asarning so‘nggi qismlarini e’lon qilishni istamagan. Bulardan qat’i nazar Muzaffarzodaning ushbu hikoyasi mutlaqo o‘zgacha yo‘sinda yozilgan. Shu mavzudagi ko‘pchilik hikoyalarga e’tibor beradigan bo‘lsak, u yerda din arboblarini qoralash, din arboblari – eshonga hadya qilingan qiz orqali ayollarning fojiasini ko‘rsatish qo‘yilgan bo‘lsa, mazkur “Ong umidlari” hikoyasida sotsial muammo qo‘yilgan. Muzaffarzodaning asari yutug‘i ham shunda.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston matbuot vositasida qardosh, tildosh, dindosh turk olamiga chiqdi. Matbuot bilan bir qatorda adabiy aloqa va ta’sirlar ham shakllanib bordi. Matbuot turkistonlik ziyolilarni tashqi dunyoga chiqishlarida muhim vosita bo‘ldi. Turk, tatar, ozarbayjon taraqqiyparvarlarining teatr, matbuot, maorif sohasidagi tajribalari qo‘llanila boshladi. Tashqi davriy nashrlarda Turkiston mavzusi alohida o‘rin egallay boshladi. “Sadoyi Turkiston”da muharrirlik qilgan tatar farzandi Abdurauf Muzaffarzoda ham shu jarayonlarning markazida turdi. U o‘zining din, adabiyot, matbuot, milliy til masalalariga bag‘ishlangan maqolalari, yangicha yo‘nalishdagi hikoyalari bilan davrning og‘riqli masalalariga davo izladi, yo‘l ko‘rsatdi. Albatta, Abdurauf Muzaffarzoda faoliyatini kichik bir tadqiqot doirasida yoritib berish qiyin vazifa. Uning barcha faoliyat qirralari batafsil yoritilishi, Turkiston jadidchiligi rivojida tutgan o‘rni chuqur tadqiq qilinishi lozim. Bu esa bugungi kun o‘zbek jadidshunoslari va tadqiqotchilar oldida turgan muhim masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Resume. This article analyzes the editorial activity of Abdurauf Muzaffarzoda, a Tatar progressive who worked in Turkestan at the beginning of the 20th century, in the newspaper “Sadoyi Turkistan”, and his articles on various topics.

Резюме. В данной статье анализируется редакционная деятельность Абдурауфа Музаффарзода, татарского передовика, работавшего в Туркестане в начале XX века, в газете “Садои Туркестан”, его статьи на различные темы.

[1] Айн. Рауф Музаффар.Онг умидлари // Садойи Туркистон. 1914. №57, 61,65.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ZAMONAVIY O‘ZBEK ARUZINING FONETIK SATHI

Karamova Shohida,
Qarshi davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Mustaqillik yillarida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Asqar Mahkam, Mirzo Kenjabek, Sirojiddin Sayyid, Nodira Afoqova kabi shoirlar aruzni zamonaviy insonning asl tuyg‘ulari ifodasiga, davrning muhim mavzulari talqiniga xizmat qildira oldilar. Fikrimiz isboti uchun quyida O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning irfoniy mavzudagi bir g‘azalini to‘liq keltiramiz:

Kimnidir tanho dedim men topgunimcha to Seni,
Vo ajab, dunyoni topdim anglagach tanho Seni.

Aslida, yolg‘iz o‘zingda jo ekan borliq – jahon,
Hech birov topmas o‘zin ham topmasa, illo, Seni.

Ming taassufkim, basharga xos ekan aldamchilik,
O‘rtaga noming qo‘yib goh, aldagay hatto Seni.

Kim Seni bezovta qilgay toki dardi yo‘q ekan,
Ahli oshiq vola aylab kuylagay ammo Seni.

Qorli tog‘larga tutashdir bog‘laring – jannatlaring,
Eslatar har bir qadamda har go‘zal ma’vo Seni.

Bepisand boqqay va lekin mo‘r-malaxlar filga ham,
Ko‘rsa hamki ko‘rmagay, deb o‘ylagaylar, yo, Seni.

Bu ko‘ngil nozik ekan, sinsa raqiblar dastidan,
Qalb uyin me’moridirsan - topdi Abdullo Seni. ”.[1]

–V- - / – V - - /– V - - / - V -
Foilotun foilotun foilotun foilun
Ramali musammani mahzuf

Keksa shoir hayot zarbalariga, xiyonat va aldovlarga duch kela-kela, dunyoi dunning ko‘pgina oriflari singari, oxir-oqibatda Parvardigoriga yuz buradi. Ollohni yod etish, unga arzi hol qilish bilan iztiroblarini yengillashtirmoqchi bo‘ladi. Shoir dardu hasratga to‘la qalbining chin kechinmalarini kuylayotgani uchun ham tasavvufning, o‘tmish diniy-irfoniy adabiyotning murakkab obrazu timsollarini matnga tiqishtirmaydi. Zamonaviy o‘zbek adabiy tilining leksik, fonetik shakllarini atay o‘zgartirib tashlamaydi. Hammaga tushunarli ifodada, ko‘ngilga nihoyatda yaqin g‘azal yaratgan. Vazn ham benuqson qo‘llangan.

Shu o‘rinda yana bir shoirning tajribalari haqida aytib o‘tmasa bo‘lmaydi. Bu shoir Benazir Muhammaddir. Uning ijod namunalari ko‘p emas. Qizig‘i shundaki, bu shoirning ayrim she’rlarida aruziy ohanglar yuz ko‘rsatadi, lekin ayrim o‘rinlarda saktaliklar seziladi. Bizningcha, shoir aruz qoidalariga izchil amal qilaman, degan maqsadda bo‘lmagan. Balki ichki bir sezgi, ichki musiqa she’rlariga aruz ohanglarini bergan.

Yana javzo chechaklar qorda qoldi
Yana qirlarni tutdi lola dog‘i,
Bu ellarda ko‘rinmas g‘am adog‘i
Yana ko‘zlar o‘zga diydorda qoldi.
(*yana ko‘zlar o‘zga diydorda qoldi*)

Man bevatan qoldim vatan ichinda,
Na ifor bor na rang chaman ichinda,
Yoshil baytlar soriq kafan ichinda,
Bog‘lar otash ichinda norda qoldi.
(*bog‘lar otash ichinda norda qoldi*)

“Vatan hasrati” deb nomlangan bu she’r jadid bobolarimiz xotirasiga bag‘ishlangan. She’r hazaji musaddasi mahzuf/maqsur (mafoiylun mafoyilun fauvlun / V - - - | V - - - | V - -) vaznida o‘qiladi. Ammo she’rning ayrim o‘rinlarida vazn ritmi buziladi. Saktalikni yuzaga keltirgan hijolar yuqorida ajratib ko‘rsatildi. Ammo she’r asos e’tibori bilan aruz ohangida yozilgan. Bu saktaliklar misralar oralab davom etadi:

Mulki Turon kabi pora yuraklar
Oyoq ostinda qon ag‘lar chechaklar,
Keltirgan bormi Naysondin daraklar
Tanim kuzda ruhim bahorda qoldi.
(Tanim kuzda ruhim bahorda qoldi)

Shafaqlar botdi Botu qonlarina,
Hech kim qiyo boqmas Cho‘lponlarina,
Kim turar Qodiriyning yonlarinda,
Fitrat Usmonlarim qay torda qoldi.
(*Fitrat Usmonlarim qay torda qoldi*)”.[2]

[1] Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 213.

[2] Muhammad B. Ohangsiz qo‘shiqlar. – Toshkent, Akademnashr, 2022. – B. 52-53.

Bu she’r aruz va barmoqning aralash kelishi bilan XX asr boshlarida yaratilgan she’rlarni eslatadi. Jadid she’riyati vaznlarini tadqiq qilgan N.Afoqova bu aralashlikni davr she’riyatining qonuniy xususiyati sifatida baholaydi, aruzdan barmoq va sarbast vazniga o‘tish jarayonining xos xususiyati sifatida qaraydi. Bunday hol hozirgi davrda ijod qilgan va qilayotgan boshqa shoirlarda ham ko‘rinadi. Mustaqillik davri shoirlari, jumladan, Benazir Muhammad she’rlarida ham aruzga barmoqning aralashishi bilan saktalikni yuzaga kelishi ham, bizningcha, davr aruzining qonuniy xususiyati. Faqatgina bunda, XX asr boshlaridagidan farqli o‘laroq, subyektiv omil rol o‘ynaydi. YA’ni bu holni she’rni barmoqda idrok qilgan ijodkorlarning aruzni qo‘llashdagi mashaqqatlari, ba’zan esa e’tiborsizlik sifatida baholasak to‘g‘ri bo‘ladi.

Mustaqillik davri o‘zbek aruzini fonetik sathda kuzatish shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy shoirlarimiz o‘zbek tili fonetikasining xilma-xil imkoniyatlarini yetarlicha angladilar va ishga soldilar. Ayni vaqtda aruzning murakkabligi, undan uzoqlashilganlik o‘z ta’sirini ham ko‘rsatdi. Vaznni benuqson qo‘llash uchun ba’zan zo‘rma-zo‘rakilikka, ba’zan esa xatoga yo‘l qo‘yildi.

Bu davr aruziga xos bo‘lgan yana bir holni qayd etish lozim. Bu – qo‘shimchalar, so‘z shakllari, variantlarining qo‘llanishi bilan bog‘liq. Gap shundaki, deyarli barcha shoirlar ko‘p hollarda qo‘shimchalar, so‘z shakllarining eski ko‘rinishlarini xush ko‘radilar. Bunday qo‘llash hatto vazn va qofiyaga ta’sir etmaydigan o‘rinlarda ham kuzatiladi. –gin/-gil, -dan/-din, -ga/-g‘a, -sin/-sun, -dir/-dur, -gay/--g‘ay, -gan/--g‘on (-qon), ollida/ oldida, qora/qaro, ko‘ngil/ko‘ngul, endi/emdi, gulzor/gul’uzor, tilla/tillo, menga/manga, yashirmoq/ yoshurmoq, yolvormoq/yolbormoq, uni/ani, yomg‘ir/ yog‘mur (yag‘mur), bo‘lmoq/o‘lmoq, ikki/iki, hamma/ hama, yolg‘on/yalg‘on, qovoq/qaboq, keladi/kelodir va hokazo. Vazn va qofiya talabi bo‘lmagan o‘rinlarda, bizningcha, bu xil qo‘llashda ikki holatni farqlamoq lozim. Birinchisi shuki, aruz zamonaviy shoir ong ostida o‘qilgan mumtoz adabiyot namunalari bois so‘z va qo‘shimchalarning shu xil shakllarida o‘rnashgan; bu shakllar ijod jarayonida o‘z-o‘zidan badiiy matn sathiga chiqadi va u tabiiyligi bilan she’rga husn bag‘ishlaydi:

Shul ismdan yurt aro yuz ming umid,
Shul ismdan nurlanur davronimiz.
(S.Sayyid, “To Navoiy bor...”)[1]
– V - - / – V - - /– V - -
Foilotun foilotun foilun
Ramali musaddasi mahzuf

Bu baytda shu/shul, nurlanar/nurlanur almashinuvi bag‘oyat tabiiy bo‘lib, quloqqa yoqimli eshitiladi.

Ikkinchi bir holatlarda, aruznavis she’riga aruz ruhini berish yoki kuchaytirish uchun ataydan so‘z yo qo‘shimchaning zamonaviy shaklidan voz kechadi. Bunday holda zo‘rma-zo‘rakilik sezilib qoladi, she’r ritmi tabiiy ohangini yo‘qotadi:

Manim boshima yog‘dirdi malomat-la qaro yag‘mur,
Biravlar nag‘masiga lol o‘lg‘on jo‘r tilim qursin.[2]
V - - - \ V - - - \ V - - - \ V - - - \
Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
Hazaji musammani solim

Mazkur baytda boshima, yag‘mur, biravlar so‘zlari atayin “boshqachalashtirilgani” sezilib turibdi. Vaholanki, boshimga, yomg‘ir, birovlar shakllari ham hech bir vazn, qofiya xatoligiga olib kelmas edi.

Zamonaviy aruzning yana bir xususiyati izofali birikmalarning mo‘l-ko‘l ishlatilishida ko‘rinadi. Albatta, o‘rnida qo‘llangan izofali birikmalar she’riy matnning badiiyatini oshiribgina qolmay, vazn mukammalligiga erishishda o‘zbek tilining noyob imkoniyatlaridan biridir.

Izlangiz, ey ahli oh,
Qayda deb ahli vafo.

Izlangiz, ey ahli dil.
Qayda deb sohib ko‘ngil.

Izlangiz, ey ahli xos,
Qayda deb ahli niyoz...[3]
- V - - / - V -
Foilotun foilun
Ramali murabba’i mahzuf

Iste’dodli shoir Asqar Mahkamning 18 baytli “Izlangiz” nomli orifona she’rining 14 baytida shu shakl davom etadi: “ahli roh”, “ahli xok”, “ahli g‘am”, “ahli shum”, “ahli bad”, “ahli sharr”, “ahli jon”, “ahli xob”, “ahli xayr”, “ahli shom”, “ahli joh”. Izofali jumla, birinchidan, vazn talabi bilan qo‘llangan. Ikkinchidan esa, she’rga chindan ham tasavvufona, mumtozona ruh bergan. Bu she’rning yana bir eng muhim jihati shuki, masnaviy zamonaviy o‘zbek she’riyatida. Binobarin, mumtoz lirikamizda ham juda kam uchraydigan vaznda yozilgan. Kam hijoli vazn she’rga favqulodda shiddat bag‘ishlagan. Lekin ba’zida izofaning mohiyatini, ya’ni uning aniqlovchi/aniqlanmish tipidagi birikma ekani, faqat bunda teskarisi (aniqlanmish/ aniqlovchi) ekanini bilmasdan ishlatish mazmunning qo‘pol tarzda buzilishiga ham olib keladi:

Qatra-qatra nur to‘kib, boshimda yondi yulduzi,
O‘pdim ilhom qatrasini g‘unchayi titrog‘ida.[4]
– V - - / – V - - / – V - - / – V - -

[1] G‘azal g‘izoli. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 70.

[2] G‘azal g‘izoli. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 107.

[3] Mahkam A. Vahdat kuyi. – Toshkent: Nurafshon business, 2021. – B. 146 .

[4] G‘azal g‘izoli. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 12.

Foilotun foilotun foilotun foilun

Ramali musammani mahzuf

Mazkur baytning ikkinchi misrasida shoir “g‘unchaning titrog‘i” demoqchi. Agar izofali shaklga kiritsak, “titrog‘i g‘uncha” bo‘ladi. Shoir, birinchidan izofani noto‘g‘ri ishlatgan. Ikkinchidan, o‘zbek tili modelidagi aniqlovchi/aniqlanmishni hamma vaqt ham izofaga aylantirish kutilgan natijani bermasligi ko‘rinib turibdi. To‘g‘ri, nazariy jihatdan “titrog‘i g‘uncha” deyish mumkin. Lekin bu xuddi azaga qizil kiyib kelgan ayoldek o‘xshovsiz bo‘lib qoladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy aruzning leksik va morfologik sathida an’anaviylik fonetik sathdan ko‘ra kuchliroq ekan. YA’ni misrani vaznga moslashtirish ehtiyoji tufayli, ba’zan esa shunday ehtiyojsiz ham – shunchaki badiiylikni oshirish uchun, aruz ruhini kuchaytirish uchun eski o‘zbek tiliga xos arxaik, tarixiy so‘zlar, jumla qoliplari juda quyuq ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu hamma vaqt ham kerakli natijani bergan, aruziy baytga uzukka ko‘z qo‘ygandek yarashib tushgan deya olmaymiz.

Nuqul mumtoz adabiyot unsurlariga ruju qo‘ymasdan ham, aruzda poetik yuksak asarlar yaratish mumkinligini Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Asqar Mahkam, Sirojiddin Sayyid, Jamol Kamol kabi shoirlarimiz yozgan aruziy she’rlarda ko‘ra olamiz. Ayni vaqtda aruziy she’rni faqat nazmbozlik, san’atpardozlik, o‘z iqtidorini namoyish qilishgina deya tushunish natijasida pafossiz, sxematik, o‘quvchiga estetik zavq tug‘dirmaydigan she’rlarning ko‘plab yaratilayotgani ham bor gap. Bizningcha, adabiyotshunoslitda bu borada o‘z so‘zini aytishi, tanqid ruhini kuchaytirishi, aruzning tor manfaatlar maydoniga aylanib qolishiga yo‘l qo‘ymasligi darkor.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek aruzida o‘zidan oldingi davrga nisbatan tasavvuf ruhidagi g‘azallar ko‘paydi. Zamonaviy shoirlar imkonlari yetgan darajada tilning barcha imkoniyatlarini ishga solyaptilar. Bizningcha, mustaqillik davrida iste’dodli shoirlar tomonidan aruzning mukammal, go‘zal namunalari yaratilmoqda-yu, ikkinchi tomondan boshqa turli shoirlar misolida aruzni mukammal o‘zlashtirish jarayoni kechmoqda. Bu jarayon an’ananing kuchli ta’siri (ayniqsa, leksik va morfologik, obrazlilik sathida), ba’zan zo‘rma-zo‘rakilik, hatto grammatik xatolarga yo‘l qo‘yish, she’rlarning asl san’at asari bo‘lmay, quruq nazm namunasiga aylanib qolishi kabilardan namoyon bo‘lmoqda.

Resume. This article is about creating perfect, beautiful samples of modern aruz, as well as at the lexical, morphological, phonetic level, sometimes forced, even making grammatical errors, turning poems into a sample of dry verse instead of being an original work. art.

Резюме. В данной статье речь идет о создании совершенных, красивых образцов современного аруза, а также на лексическом, морфологическом, фонетическом уровне, иногда вынужденных, даже допускающих грамматические ошибки, превращающих стихотворения в образец сухого стиха вместо того, чтобы быть самобытным произведением искусства.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ДИЛАФГОР ШЕЪРИЯТДАГИ ЎЗИГА ХОС НАЗИРАЛАР

Мансуров Собир,
Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети катта ўқитувчиси

Дилафгор таржимаи ҳоли ва ижодий меросига доир маълумотлар унчалик кўп эмас. Мавжуд манбалар ҳам мазкур ижодкор фаолияти ҳақида қисқа хабарлар шаклидадир.

Дилафгор шоир сифатида анча баркамол лирик асарлар яратган. У ҳам ижодда устоз сўз санъаткорларидан илҳомланган, уларга ўхшатмалар ёзган, шеърларига тахмислар боғлаган, Фузулийга ўхшатма ғазаллар ёзган. Яссавий, Машраб, Хислат, Ҳазиний, Муқимий, Фурқат, Завқий, Мискин, Камий каби шоирлар ижод намуналарига мухаммаслар боғлаган. Дилафгор лирик меросининг аксариятини ишқий ғазаллар ташкил этсада, кези келганда шоир бошқа турларга ҳам мурожаат қила борган.

XX аср бошларида фотографиянинг кириб келиши ғазал жанрининг бир қатор янгиликлар билан бойишига сабаб бўлган эди, десак муболаға бўлмайди. Лирик қаҳрамоннинг қалби муҳаббатга лиммо-лим бўлганида ёрнинг сурати унга янада қайноқ илҳом берган бўлса не ажаб:

Илтифот айлаб юбормишсан, нигоро, суратинг,
Яхши соатда келиб тегди, дилоро, суратинг.

Лирик қаҳрамон ёрсиз бир лаҳза ҳам нафас олиши қийин. Мудом унинг хаёли билан яшайди. Айниқса, шоирнинг "Сенсиз" радифли ғазали ўзининг ўйноқилиги, енгил ўқилиши билан ажралиб туради. Шеър матлаъи қуйидагича:

Шоир ғазалларида илоҳий муҳаббат, сўфиёна севги мотивлари ҳам куйланади. Шоир аксарият шеърларида ёр гўзаллигига мурожаат қилаётгандек бўлса ҳам, аслида Яратганга бўлган севгисини изҳор этади. Албатта, шу ўринда "Ал-мажозу қантаратул-ҳақиқат" ("Мажоз ҳақиқатга олиб борувчи кўприкдир") эканлигини унутмаслик лозим:

Дариғо, умрим ўтди, эй пари, ҳажрингда жоно деб,
Қаронғу бўлди олам кўзларимға, шўху барно деб.
Бўлибман мисли Мажнун, кил тараҳҳум, ёри жононим,
Ютай токайғача қон лахта-лахта, оҳ Лайло, деб.
Қўйибман остонангға бошимни, эй жафопеша,
Жаҳон маҳвашларидин сен пари пайкарни аъло деб.

Дилафгорнинг юқорида таъкидлаганимиздек, "мажозий йўл билан борувчи илоҳий ишқ" тўғрисидаги байтлари талайгина. Улардан яна бири қуйидаги матлаъ билан бошланади:

Арсаи оламда, жоно, оразинг чун офтоб.
Ламъаи анвор аксинг кўкда гўё моҳтоб.

Адабиётимиз тарихида Фузулийдан баҳраманд бўлмаган туркий тилли ижодкор бўлмаса керак. Бир вақтлар Фузулийнинг ширинзабонлигидан унинг тилида ғазаллар ёзиш ҳам урфга кирган эди. Ўзбекистон халқ шоири Эркин Воҳидов ҳам Фузулий даҳосига тан бериб:

Менинг шоирлигим ёлғондир аммо,
Фузулий шеърига ошиқлигим рост, -

деб ёзган эди. Дилафгор ҳам салафлари сингари фузулиёна ғазаллар битиб, ушбу анъанани қайсидир маънода давом эттирди. Жумладан, шоирнинг қуйидаги матлаъ билан бошланувчи ғазали Фузулийга ўхшатмадир:

Гўзал маҳвашлар ичра сен каби ҳурлиқо бўлмаз,
Қиёмингла нечун ташбиҳ қилам тубо расо бўлмаз.

Рикобинг бўса этмазми, гўранда ҳар нучук одам,
Аё, эй офати даврон, санингла подшоҳ бўлмаз...

Исо пайғамбарнинг ўликни тирилтира олиш мўжизаси мумтоз адабиётимизда ёрнинг сўзлари ошиққа жон бағишлаши ё тирилтириши каби сифатлари мажозий образ бўлиб кўчган. Дилафгорнинг юқоридаги *"Нигоро, лаъли нобинг вермаям*

мен Хизри ҳайвона" сатрларида эса *"Ҳаёт Хизри"* дея мажозий образ олинган. Ибн Сино "Шеър санъати" рисоласида бу ҳақда шундай ёзади: "... шеъриятдаги ҳар бир масал ва афсона ўзидан бошқа бир нарсага ташбеҳ қилиб олинган бўлади, ё бўлмаса ўша нарсанинг ўзини қандай бўлса, ўша тарзда олмасдан, балки аксинча, уни бирмунча ўзгартирилган ҳолатда олинади. Нарсанинг ўзи қандай бўлса, ўшандайлигича олмасдан, уни сал ўзгартирилган тарзда олинганига истиора ё мажоз дейилади. Шеър мана шу истиора билан мажознинг таркибидан ҳосил бўлади"[1].

Шарқ адабиётида назира битиш анча кенг тарқалган, замондош шоирлар ёки салафлар билан ўзига хос ижодий мусобақа тусини олган анъанадир[2].

Нега, нечун манга сиз мунчалик жафо қиласиз,
Ғамингиз ила юрак-бағрими адо қиласиз[3].

Ҳамза ижодидан ўрин олган юқоридаги матлаъ билан бошланувчи шеърга шоир Дилафгор назира боғлаган ва у қуйидаги матлаъ билан бошланади:

Итобу ноз ила боқиб мани адо қиласиз,
Тараҳҳум айламайин ҳолима жафо қиласиз.

Зиёли оразингизға тасаддуқ ўлсун жон,
Кўнгул уйини қачон лутф илан зиё қиласиз?

"Адабиётшунослик луғати"да қайд этилишича, "ўзга шоир асарига боғланган назиранинг тақлиддан иборат бўлиб қолмаслиги, шоирнинг унга ижодий ёндашиши талаб этиладики, бунда мавзунинг янада ёрқинроқ ифодаланиши ва бадиий савиянинг юксалиши кўзда тутилади"[4]. Бу ўринда Дилафгор Ҳамза байтида айтилган фикрларни ривожлантириш баробарида бадиий юксак сатрлар ижод қилганлигини сезиш қийин эмас.

Дилафгор шеъриятининг яна бир жиҳати – ҳақиқий мусулмон кишининг Яратганга бўлган чин эътиқоди, маслакда қатъийликнинг намоён бўлишидир. Шоир ҳар бир мўмин киши бу ёлғончи дунёнинг ҳою ҳавасларига учмасдан, чин дунёга тайёрланиб бориши лозимлигини уқтиради. "Такя қил" радифли ғазалида худди ана шундай ғояни давом эттирган шоир: *Бандалик шулдур санго, қодир Худога такя қил, Ўн саккиз минг олама қудратнамоға такя қил, -* дея мудом Яратганга такя қилиш (суяниш) кераклигини эслатади.

Шоир Дилафгор ҳам бир мусулмон кишиси сифатида тасаввуфий асарлардан бебаҳра қолиши, ундан илҳомланмаслиги мумкин эмас эди.

Бандасан, эй дил, ризойи Раббанони излагил,
Уммат ўлсанг, сарвари ҳақ Мустафони излагил.

Мисли Адҳамдек бу олам нашъасини тарк этиб,
Оҳ уруб йиғлаб, ҳақиқий подшоҳни излагил.

Дилафгорнинг ушбу ғазалида *"Иброҳим Адҳам сингари подшоҳ бўлсанг ҳам бу дунёнинг жилваларига учма, уни тарк эт, ҳақиқий дунё роҳати сенга кўпроқ керак бўлади охиратда"* деган ғоя илгари сурилган бўлиб, бундай фикрлар ҳар қандай даврда ҳам ўз қимматини йўқотмайди.

Дилафгор шеърларида турк элининг машойихи Яссавий ҳикматлари мавзулари оҳангини ҳам кузатиш мумкин. Инсон охир қилар иши "тўрт оёқли чўбин от"га тушиши аччиқ ҳақиқат эканлигини тан олмай илож йўқ.

Табиат гўзалликларидан баҳраманд бўлиш, уларнинг қадрига етиш нафақат мусулмончиликдагина эмас, балки инсонман деган мавжудотнинг ҳар бири қалби қатларига-да кириб боргувчи бир хусусият эканлигини англаш қийин эмас. Мумтоз адабиётимизда "баҳориёт" туркумидаги бир қатор ижод намуналари вужудга келган. Бу сингари шеърларни Муқимий, Фурқат каби шоирлар ижодида кўриш мумкин. Маълумки, Фурқатнинг "Фасли навбаҳор ўлди, кетибон зимистонлар" ғазали жуда машҳур.

Хулоса қилиб айтганда, "Гулшани Дилафгор" тўплами ноширлари Дилафгор ижодида Муқимий, Хислат, Камий каби шоирларнинг таъсири кучли бўлган деган хулосаларга келишсада, аслида шоир шеъриятининг мавзу кўлами анча кенгроқдир. Дилафгорнинг ҳақиқий мусулмон фарзанди сифатида ҳазрати Абу Бакр Сиддиқ муножотларига тахмис боғлаганлиги ҳам бунга далилдир. Дилафгор ғазалларида илоҳий муҳаббат, сўфиёна севги мотивлари ҳам куйланади. Шоир аксарият шеърларида ер гўзалига мурожаат қилаётгандек бўлсада, аслида уларда Яратганга бўлган севгисини изҳор қилади.

[1] Абу Али ибн Сино. Шеър санъати. Саломон ва Ибсол. – Тошкент: Фан. 1980. – Б. 98.

[2] Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 200.

[3] Амонов Ш.Н. Ҳамза шеъриятининг манбалари, матний тадқиқи: Филология фан. номз... дисс. – Тошкент: 2010. – Б. 15.

[4] Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 200.

Resume: During the years of independence, a number of scientific and practical works were carried out to study the literary heritage of enlightened artists who lived and worked in the late 19th - early 20th centuries. However, it is also true that students of the literature of this period are waiting for a lot of topics.

The study of the lyrical works of Dilafgor in the collection “Gulshani Dilafgor” on the basis of the latest achievements in literary criticism and literary source criticism and textual criticism is one of the urgent scientific tasks.

Резюме: В годы независимости проведен ряд научно-практических работ по изучению литературного наследия художников-просвещенцев, живших и творивших в конце 19 – начале 20 вв. Однако верно и то, что исследователей литературы этого периода ждет множество тем.

Исследование лирических произведений Дилафгор в сборнике “Гюльшани Дилафгор” на основе последних достижений литературоведения и литературоведческого источниковедения и текстологии является одной из актуальных научных задач.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NOZIL XO‘JANDIY HAYOT YO‘LI VA IJODI

Gulobov Abdulvosit Nurulla o‘g‘li,
Termiz davlat universiteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Avazmuhammad ibn Hojimuhammad Nozil Xo‘jandiy XVIII asrning oxiri va XIX asr o‘rtalarida yashab tojik va o‘zbek tillarida ijod etgan zullisonayn shoir hisoblanadi.

Nozil Xo‘jandiy hayoti va ijodi haqida o‘zining devonidan tashqari, Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron” (“Shoirlar majmuasi”, 1821) tazkirasida, Po‘latjon domulla Qayyumovning “Tazkirai qayyumiy” tazkirasida, U. Karimov monografiyasida, S.Sultonovning “Ganchi sarpo‘sh” maqolasida, E. Shodiyev “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida chop etilgan shoir haqidagi ikkita maqolasida, Nozil Xo‘jandiy haqida va uning devoni haqida ayrim ma’lumotlar berilgan. Ammo matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fani nuqtai nazaridan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishi olib borilmagan, xususan, o‘zbek tilidagi shoir she’rlari to‘laqonli yoritilmagan va keng o‘quvchilar e’tiboriga havola etilmagan. Shoirning hayoti va ijodi haqida Tojikiston qo‘lyozmalar fondida 1033 raqam ostida va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti Hamid Sulaymon fondida 505 raqam ostida saqlanayotgan shoir devoni Nozil Xo‘jandiy haqida ma’lumot beruvchi eng muhim manba hisoblanadi. Shoirning hayot yo‘liga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Nozilning Xo‘jand viloyatidan ekaniga shubha yo‘q. Chunki shoir devonida bu haqida ko‘plab ma’lumotlar bor. Bunga misol sifatida bir baytda o‘zi aytganidek:

Noziliy, sarrof agar ko‘r ast,
V-arna chun tu chabhare kay omad az koni Xo‘jand[1]- deydi.

Bundan ko‘rinadiki Nozil Xo‘jandiy Xo‘jand viloyatidan. Nozil Qo‘qon hukmdori Norbo‘ta (1768-1798) Xonlik yerlarini shimoldan Namangan va janubdan kengaytirish maqsadida Xo‘jandni o‘ziga bo‘ysundirgan bir paytda tug‘ilgan. Noziliy dastlab Xo‘janddagi maktabda o‘qiydi, so‘ngra diniy ilmlarni o‘rgangach, tojik-fors adabiyoti klassiklari, turkiyzabon shoirlar asarlarini mutolaa qila boshlagan. U o‘zbekcha g‘azalidagi bir baytda, shunday deydi:

Ko‘ngul avroqig‘a ko‘rgan fayzlar etgum raqam,
Mavlaviy Jomiy, Navoiydin navo tahrir etib[2]-deydi.

Bu she’rida shoir ustozlari Jomiy va Navoiyni ko‘ngil varaqlaridagi fayzlar deb alqaydi.

Nozil qayerda va qaysi madrasada tahsil olgani noma’lum. Bizga faqat shoirning Qo‘qon madrasalaridan birida ilm o‘rganganligi ma’lum. Negaki, qisqa fursatdan so‘ng davlat markazi Farg‘ona – Qo‘qon shahrida shoirning o‘sha davr ma’rifatli shaxs sifatida

[1] Каримов У. Нозили хучанди. – Душанбе: Дониш, 1978. – Б. 9.
[2] Каримов У. Нозили хучанди. – Душанбе: Дониш, 1978. – Б. 8.

kechgan hayoti ana shu mulohazalarga kelishimizga sabab bo‘ladi. Nozil yashagan davrdagi siyosiy vaziyatga e’tibor qaratadigan bo‘lsak Qo‘qon xoni Olimxon (1799-1810) katta qo‘shin bilan Ohangaron, Chimkent, Sayram, Toshkent viloyati, Rossiyaga boruvchi karvon yo‘llaridagi muhim manzilgohlarni egallaydi, o‘z poytaxtiga son-sanoqsiz boylikka ega ko‘p aholini olib keladi.

1810-yilda Amir Umarxon (1810-1822) hiyla bilan akasi Olimxonni o‘ldirib, o‘zini xon deb e’lon qildi. Taxtga da’vogarlarning keyingi tahdidini bartaraf etish uchun bu xon o‘z jiyanlarini qatl qilishni buyurdi va qisqa vaqt ichida siyosiy raqiblarining aksariyatini turli yo‘llar bilan yo‘q qildi.

Umarxon shu orqali Farg‘onada markazlashgan davlat tuzdi. Xonlik hududi ancha kengayib, iqtisodiyotida birmuncha yaxshilanishlar kuzatildi. Umarxon davriga kelib ilm ahliga ko‘plab imkoniyatlar yaratildi. Umarxonning o‘zi ham bevosita davlat faoliyati bilan bir qatorda adabiyot bilan ham shug‘ullangan, she’rlar ham yozgan, o‘z saroyiga butun mamlakat va hatto undan tashqarida ham shoir, yozuvchi va maktub egalarini to‘plagan. Umarxon saroyga yordam bergan, o‘zini maqtab, ta’riflagan, xonining shon-shuhratini ko‘tarib, shohlik mavqeini mustahkamlagan shoirlarga afv va duolar qilgan. Umarxon saroyida 75 shoir to‘plangan. Xon topshirig‘iga ko‘ra, Fazliy “Majmuai shoiron” (“Shoirlar majmuasi”, 1821) tazkirasini tuzgan. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk marta she’riy yo‘l bilan yaratilgan mazkur tazkirada 19-asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitining 100 dan ortiq vakillari haqidagi qimmatli ma’lumotlar va asarlaridan namunalar mavjud.[1] Shu shoirlar qatorida Nozil Xo‘jandiy ham bor edi.

Shoir haqida ma’lumot uchrovchi yana bir muhim manba - Po‘latjon Domulla Qayyumovning “Tazkirayi Qayyumiy” asarida Nozil Xo‘jandiy haqida shunday ma’lumot keltiriladi: “Ko‘p bayozlarda Xo‘jandli deb ko‘rsatilmishdur. Sa’dullo mahdum Muhammad Soleh xalifa o‘g‘li Buxoriy bu shoirning Xo‘jandga nisbat berilsa ham Bekobod qishloqli demish edi. Ayrim devoniga ko‘zimiz tushmadi”. Biroq 1935-yilda bosilmish “Mash’ala” jurnalining 1-sonida “Nozil Xo‘jandiy” sarlavhasida tubandagi bayonot bor.(Aynan ko‘chiramiz): Yaqinda idoramizga farg‘onali bir shahardan bir eski qo‘lyozma asarlardan ko‘chirgan bir to‘da baytlar yuboribdur. Bu baytlar Xo‘jandli Nozil imzosi bilan yozilgan. Forsiy va turkiy qit’alardan iborat. Qit’alar to‘rtlik shaklda yozilgan bo‘lub har qaysisi ma’lum maqollardan birini o‘z ichiga oladi. Biz bunda shul qita’lardan bir munchasini namuna uchun bosamiz,[2]- deb Nozil qit’alaridan namunalar keltiriladi. Bu ma’lumotlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, Nozil Xo‘jandiy o‘zbek va tojik tilida g‘azal, qit’a, muxammas, ruboiy va boshqa she’riy janrlarda ijod etgan shoir hisoblanadi.

Nozil Xo‘jandiy Nozil va Tiroziy taxalluslarida ijod etgan. Shoir she’rlaridan ayrim namunalar keltiramiz:

To bilurmu sen kabi xurshid tal’at mahliqo,
Kim Masih anfos olam sa’yi royat mahliqo,
Shahvor qoqub sen amir saxt dil,
Faxri olam voqif asror g‘orat mahliqo,
Sen kabi ko‘rganmu afuloj maloik yopiray,
Yo ajamdin, yo arab asl banutmi mahliqo[3].

G‘azal a-a-b-a tarzida qofiyalangan. Shoir g‘azalida ma’shuqasini “xurshid tal’atli”, “Masih anfos”li ya’ni “jon kirituvchi” – deb alqaydi, keyingi baytda esa ma’shuqasining “dil”ini “saxt” ya’ni “qattiq” ekanligini, shunday bo‘lsa ham ma’shuqasi hamma sirlardan xabardor, “mahliqo” oshiqni “g‘orat” ya’ni “talon – taroj” (es-hushini o‘g‘irlaganini) etganini aytadi, keyingi baytda esa bunday “maloik”ni butun “afuloj” ya’ni (falakning ko‘pligi), dunyolar “ko‘rganmu” – deya ajablanadi va asl vatani qayer ekanligini taajjub bilan so‘raydi.

Qanoat ayla gadolikda ey neku siyrat,
Agarchi shohjahon qilma iltijo anga,
Omondur elni balo birla ranj va ofatidin,
Chu har kimki xudo birla, yo‘q balo anga,
Xudo ne der kimga, yo‘l topoy desang bori,
Bo‘yunni egri qil, qomating duto anga,
Yema jahon g‘amini tortma elni dard sarin,
O‘zungni Nozil dilxasta qil, savo anga[4].

Nozil qit’asi *a-b-v-b-g-b* tarzida qofiyalangan. Qit’ani mazmunan tarbiyaviy-axloqiy deyishimiz mumkin. Ya’ni birinchi misrada “ey neku” (yaxshi inson), gadolikda ham “qanoat ayla”, ikkinchi misrada agar jahonning shohi bo‘lsa ham unga “iltijo”(ta’ma, laganbardorlik, shaxsga sig‘inish) qilmaslik kerakligini, uchinchi misrada shoir yuqoridagi sifatlarga ega bo‘lgan inson elni balo va ofatlaridan“omondur”- deydi. Tabiiyki savol tug‘ilishi mumkin “el” “shohjahon”dan, uzoq bo‘lish kerak bo‘lsa, kim bilan inson yaqin bo‘lishi kerak? degan savolga, To‘rtinchi misrada shoir “Chu har kimki xudo birla, yo‘q balo anga”, - deydi. Beshinchi misrada “yo‘l topay desang”, “Xudo ne der“- deydi, oltinchi misrada endi to‘g‘ri yo‘lni ixtiyor etgan bo‘lsang, “bo‘yunni egri” qil, “qomating duto” (qomating xam,bukik) bo‘lsin unga - deydi, yet-

[1] https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/fazliy/?lng=lat

[2] Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy. – Toshkent, 1998. 2-jild. – B. 408-409.

[3] Nozil Xo‘jandiy devoni. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti Hamid Sulaymon fondida. 505- inventar. – B. 9.

[4] Nozil Xo‘jandiy devoni. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti Hamid Sulaymon fondida. 505- inventar. – B. 8.

tinchi misrada shoir Nozil o‘ziga “Yema jahon g‘amini tortma elni dard sarin” – deydi, sakkizinchi misrada “O‘zungni Nozil dilxasta qil”, “savo anga”(bor vujuding bilan unga qul bo‘l)-deydi.

Shunday xulosa qilishimiz mumkinki, shoir Nozil Xo‘jandiy o‘z asarlari bilan tojik va o‘zbek adabiyotida o‘zining munosib hissasini qo‘shgan, ikki tilda ham bir xil ijod etgan zullisonayn shoir hisoblanadi, shoir she’rlarida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-tarbiyaviy masalalar yoritilgan, o‘z davridagi ijtimoiy muammolarni satirik kulgi bilan tanqid qilgan.

Resume: Nozil Khojandi, who wrote in Uzbek and Tajik languages, was born in Khojand. Later he went to Kokan and lived and created. Poet: created in ghazal, rubai, qita, mukhammas and other poetic genres. The poet’s divans preserved in Tajikistan and Uzbekistan have reached us. Poet Nozil’s collection contains moral-educational, socio-political and satirical poems. This article provides information about Nozil Khojandi’s life and work.

Резюме: Нозил Ходжанди, писавший на узбекском и таджикском языках, родился в Ходженте. Позже он отправился в Кокан и жил и творил. Поэт: создан в газели, рубаи, кыте, мухаммасе и других поэтических жанрах. До нас дошли сохранившиеся в Таджикистане и Узбекистане диваны поэта. В сборнике поэта Нозиля собраны нравоучительные, общественно-политические и сатирические стихи. В этой статье представлена информатся о жизни и творчестве Нозила Ходжанди.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ШАФОАТ ТЕРМИЗИЙ ШЕЪРИЯТИДА ВАТАН ВА ТАБИАТ ТИМСОЛЛАРИ

Мухторова Маҳфуза,
Термиз давлат университети ўзбек адабиётшунослиги кафедраси ўқитувчиси

Бадиий адабиётда энг аввало, инсон ва унинг тақдири, руҳий олами ва кечинмалари тасвирланади. Шеърият инсоннинг маънавий-маърифий тасаввурларини шакллантиради, ундан инсон нафақат маънавий озуқа, балки эстетик завқ ҳам олади.

Адабиётшунос олим Умарали Норматовнинг фикрича, “Шеърият даврнинг акс садоси деган қараш кенг тарқалган. Унда муайян асос бор. Бироқ, чинакам шеърият даврнинг акс садоси бўлиш билан баробар, унинг ўзи ҳам бутун бошли ўзига хос давр, бадиий олам яратишга қодирдир. Бундай шеърият одамларнинг дилидаги, тили учидаги гапларни айтиш, кўнгил розларини ифодалаш билан чекланмай, кўпчиликнинг хаёлига келмаган ўй-мушоҳадалар, фикр-туйғулар изҳори орқали қалбларни забт этиши, шеърхонларнинг ўзи яшаётган давр ҳодисалари ва муҳими, ўзи қалби ҳақида билган-англаганларини, тассаввурларини бутунлай ўзгартириб юбориши, бинобарин, кўнглиларга ғалаён солиши, ҳаётий жараёнларга кучли таъсир кўрсатиши мумкин”[1].

Шафоат Раҳматулло Термизий шеъриятнинг ана шундай нозик томонларини ҳис қилган ҳолда қалам тебратган. Унинг шеърларда инсоннинг руҳий кечинмалари, ҳиссиётлари, орзу-истаклари ўзига хос усулда тараннум этилган. Адиб ўз ижодида лирик образ яратиш билан бирга, табиат манзараларини ҳам худди мусаввирлардек ранг-баранг тасвирларда баён этади. Шоир ўз ижодий фаолияти давомида инсон характери, она юртга муносабат, руҳият қирраларини ифодаловчи кўплаб шеърлар яратган. Шоир «Кенг далада бир туп ўрик бор» шеърида табиатнинг гўзал тасвири билан бирга инсоннинг самимий туйғуларини ҳам жўшқин мисраларда тараннум этади:

Ё далалар саҳнанг сенинг,
Тушасанми ўйинга.
Кийганинг у оқ кўйлагинг

[1] Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2007. – Б. 127-128.

Ярашибди хўб бўйингга[1].

Шоир бу шеърда ўрикнинг фасллар алмашинувидаги ҳолатини батафсил тасвирлайди. Айниқса баҳордаги оппоқ гуллашини ғоят маҳорат билан ифода этади. Бу билан назаримизда ўрик образини инсон ҳаётидаги болалик, ёшлик ва кексаликка ишора этмоқчи бўлади. Яхшилик улашган чоғларини "Саратонда салқинингни, истамас қай одам бор" деб мурожаат этади. Ёки ёшликда барча учун севимли бўлишни "Ҳаммасидан севимлисан, келган чоғи гул баҳор" мисраларига жо этади.

Таниқли шоир Ахтамқули Шафоат Раҳматулло Термизий шеъриятининг нозик жиҳатларни яхши англайди. У "Кўринмай гулладим" китоби сўзбошисида инсон ва табиат уйғунлигини, бу айнан шоир билан боғлиқлигини айтиб ўтади: "Мисралар ўзининг залвори, таровати билан кишини маҳлиё этади. Шеър ёзилмайди, балки мусаввирона чизилади. Шунинг учун бўлса керак, шеърни ўқиганимизда гўзал манзаралаар бизни ўз оғушига чорлайверади.

Кўринмай гулладим тутнинг гулидай,
Тутдай пишарим ҳам келар-келмай май...

Биламизки, саноқли дарахтларгина кўринмай гуллайди. Уларнинг меваси бошқа дарахт мевалларини тотлилиги билан фарқ қилади. Шоир сатрларининг залвори ҳам ана шунда бўлса керак. Тутнинг май ойида пишиб, болалар ва қушларнинг овунчоғига айланиши билан билган шоир Май келишига ҳал вақт борлигини таъкидлаётгандек"[2].

Ижодкор асарлари, асосан, замонавий руҳда ёзилганлиги билан ажралиб туради. Уларда кишиларнинг маънавий дунёси, ўй-истаклари, интилишлари ўзига хос поэтик образлар орқали маҳорат билан ифодаланган. Шоир ўз шеърлари орқали туғилиб ўсган юрт тароватини, самимиятини, сурурини ва мафтункор табиатини оҳангдор мисраларга жо этган.

Шоирнинг Ватанга, Она заминга муҳаббати, халқига садоқати шеърларида яққол намоён бўлган. Ижодкор "Боботоғ баҳори" шеърида Сурхон табиатини шундай шеърий мисраларда ифодалайдики, унинг ўқиган китобхон қалбини нозик ҳислар чулғаб олади ва у бевосита ўзини ана шу табиат қўйнида тасаввур этади:

Сенга соқчи оппоқ булутлар,
Баҳор кўшки, эй буюк савлат!
Оғушингда туман-барқутлар,
Қўрғонингдир қирлар минг қават[3].

Бу шеър орқали беихтиёр китобхон Боботоққа сайёҳат қилади. Шоир билан биргаликда тасвирларни кўраётгандек тассурот қолдиради. "Эл баҳоси ёнар нафармон, бўтакўзлар олов тилла, зар".

Шоир шеърларида соддалик, ортиқча қочиримларсиз, оддийлик мавжуд. Ҳар бир мисраларга адибнинг ҳис-туйғулари, уй-хаёллари ва орзу-истаклари яширинган, беғубор туйғулар сарчашмасидан баҳраманд бўлган китобхон юрагини илиқ ҳислар чулғаб олади. Ҳаётнинг аччиқ-чучугини тотган шоирнинг шеърлари фалсафий мушоҳадаларга бой, инсонга завқ ва маънавий куч беради.

Шафоат Раҳматулло Термизий шеъриятда юксак соддалик санъати борки, бу илҳомбахш изланиш, ижодий меҳнат самарасидир. Соддалик - бу поэтик шакл ва мазмуннинг органик бирлиги мевасидир. Бу мукаммалик ва соддаликка эришишда шоирнинг улкан ижодий меҳнати маҳсули ётади, бу эса ижодкорнинг етук шоирона маҳорати ҳисобланади. Ижодкор табиат манзараларини тасвирлар экан, Сурхондарёни гўзал манзаралари билан ҳамоҳанг тарзда шоирнинг Ватанга бўлган севгиси, ўз халқига бўлган садоқатини ҳам бевосита гувоҳи бўламиз. Зеро, туйғулар силсиласи табиатсиз дунёга келмайди. Унинг «Бир юртки, пари Сурхон» номли шеърида шундай мисралар жо бўлган:

Кун чиқарда бир тоғи бор номи тоғлар Бобоси,
Шу тоғ оша таралади оқ тонгларнинг садоси.
Ул садога ҳамоҳангдир Жайҳунининг сабоси,
Менинг юртим эрур бу юрт – юртларниинг дилрабоси[4].

Ҳаётга доимо кўтаринки руҳда қарайдиган ижодкор қалб туғёнларини, кечинмаларини ғамгинлик билан эмас, балки юқори кайфиятда баён этади. Унинг шеърлари ҳаётга доимо тийраклик билан қарашга, ифтихор билан олдинга интилиш муҳимлигига даъват этади:

Шўх дарёлар ботир халқин шиддатига берди бўй,
Чўлларининг бўз кенглигин забт этди яшил куй,
Ул кенгликлар энди буткул янги бекат, янги уй,
Менинг юртим эрур бу юрт, ҳар уйда ҳар кун тўй.

Турмушнинг қайноқ қозонида тобланган шоир ҳаётга ўз фалсафий қарашлари билан теран ёндошади ва ўз шеърларида тажрибаларидан келиб

[1] Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз: сайланма. – Тошкент: Янги аср авлоди,2003. – Б. 69.

[2] Шафоат Раҳматулло Термизий. Кўринмай гулладим. – Тошкент: Муҳаррир, 2008. – Б. 3-4.

[3] Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз: сайланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 84.

[4] Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз: сайланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 88.

чиқиб, мушоҳадаларга бой, яхшиликка ундовчи, инсонга эстетик завқ берувчи асарлар жамламасини яратади. Ҳислар жилваси, туйғулар манзараси, теран фикр ва мушоҳадалар ўзининг фалсафий-психологик мисралар қатламига жойлаб ўқувчи кўнглига сингдиради.

Шоир шеърларининг асосий мавзуси – она юрт. Ўзбекистон, Сурхондарё, Термиз, Боботоғ, Амударё – Ватандир. Аслида Ватан, халқ, она-юрт, инсон, табиат – булар бир заминда юзага келган тушунчалар. Ёлғиз Ватанни севиб, инсонни, халқни, табиатни севмай бўлмайди. Она юртга, тоғларга, дарёларга, далаларга, бобо-деҳқонга, туғилиб ўсган қишлоққа, сўлим ва дилбар гўшаларга бўлган муҳаббат шоир шеърларида уфуриб туради:

Дунёда кўз очиб келган палладан,
Онажоним айтган мунис алладан,
Ватан вужудимга жон бўб таралган,
Ватан юрагимда собит яралган.
Ватан Боботоғим, Ватан Оролим,
Ватан даштларимда кезган маролим.
Ватан мен ов қилган тоғларнинг зови,
Ватан у қирдаги бобом ўтови[1].

Шафоат Раҳматулло Термизий шеъриятидан бахраманд бўлган ҳар бир китобхон юраги Ватанни, инсонни, табиатни улуғлаш, эъзозлаш ҳисси билан йўғрилади.

Шоир ижоди ҳақида батафсил фикрлар сурхондарёлик адабиётшунос олим Шайдулла Муродовнинг “Тирик сўз тимсоллари” китобида сўз юритилади: “Шафоат қайси мавзуда ёзмасин оргиналликка, ўзига хосликка интилади. Бир шеърида ёзилишича, лирик қаҳрамон - ошиқнинг қиз ишқида кўкси чок бўлади. У шу чокни тиктириш учун чок тикар жарроҳни истайди. Жарроҳга эса ип билан игна керак. Қиз кипригини игна, сочини ип, тишларини садаф қилса бўлгани. Йўқса, у “то маҳшаргача бағрим чок, деб дод” солади. Ошиқни дод солдирмасликнинг йўли - қиз унинг лабларини тугмалаб қўйса бас.

“Иккинчи манзил” монолог ва диалоглардан ташкил топган. Шоир айрим монологларида мураккаб тарихий ҳодисаларга ишора қилиб ўтадики, бу ўқувчидан изланишни, ўрганишни талаб этади. Масалан, шеърнинг дебочасида тўрғай инда Турсуноймисол қонга ботиб, бежон ётгани айтилади. Хўш, шоир бу ўринда қандай ҳодисага ишора қилаяпти? Турсуной ким? Бизнинг тахминимизча, Турсуной театр актрисаси. Уни эри азоблаб ўлдирган. Энди қуйидаги мисраларга диққат қилайлик:

Сўзнинг султонлари тушмагай тахтдан,
Отсизлар йўқ бўлиб кетди-ку, Отсиз.

Биринчи мисра фикри ожизимча, ҳанузгача тахтдан тушмай келаётган “сўз султони” Собир Термизий ҳақида бўлса керак. Иккинчи мисрада тажнис санъати қўлланилган бўлиб, маъноси бир оз мураккаб. Тарихий маълумотларга қараганда, Марв шоҳи Султон Санжар Адиб Собир Термизийнни Хоразм давлатига элчи қилиб юборади. Бу пайтда Хоразм шоҳи Аллоуддин Отсиз деган киши бўлган. Отсиз айрим сабабларга кўра Собир Термизийни дарёга чўктириб юборган. Собир Термизийдан яхши ном, яхши асар қолган бўлса, Отсиз (шоҳ) “отсиз” (ном-нишонсиз) бўлиб кетди”[2].

Ҳар бир даврнинг Аҳмад Яссавий, Алишер Навоий, Машраб, Чўлпон сингари етук шоирлари бўлади. Замондош шоирлар, аҳли ижод улар эришган тафаккур миқёсларига қараб интилган, улардан андоза олган. Шафоат Раҳматуллаев шеъриятида ҳам она Ватан ва унинг табиати бутун бўй-басти билан намоён бўлиб, миллат тарихининг жонли саҳифаларини ўзида ифода этади.

Resume: The article analyzes the images of the Motherland and nature in the poetry of Shafoat Rahmatullah Termizi.

Резюме: В статье анализируются образы Родины и природы в поэзии Шафоата Рахматулла Термизи.

[1] Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз: сайланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 166.
[2] Шайдулла Муродов. Тирик сўз тимсоллари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 153-154.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ARAB VA O‘ZBEK MAQOLLARINING O‘RGANILISH TARIXI

Tadjiyeva Umida Faxriddinovna,
"Oriental" universiteti "Sharq tillari" kafedrasi o‘qituvchisi

Arab va o‘zbek xalqlari boy o‘tmishga ega bo‘lib, har ikki xalqning folklori uzoq asrlarga borib taqaladi. Arab va o‘zbek maqollari bir necha asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib, sayqallanib hozirgi kunga qadar o‘zining qiymatini yo‘qotmay kelgan. Bunda har ikki xalqning boy madaniyati, tilining fasohatliligi, insonlarning xalq og‘zaki ijodiga nisbatan e'tiborliligi muhum o‘rin tutadi. Ma'lumki, har bir xalqni o‘rganishda, uning tarixi bilan birgalikda folklorini ham tatbiq etish joizdir. Maqollar esa folklorshunoslikning asosiy bo‘g‘inlaridan biridir. Shuning uchun tarixdan maqollarga e'tibor alohida o‘rin tutadi.

O‘zbek xalq maqollarining o‘rganilish tarixiga yuz tutadigan bo‘lsak, eng avvalo XI asrda yaratilgan, turkiy tillar haqidagi qomusiy asar Mahmud Qoshg‘ariyning "Devoni lug‘oti-turk" asarini keltirish mumkin. Ushbu durdona asar natijasida turkiy xalq maqollarining 295 tasi bizgacha yetib kelgan. Ushbu asar haqida To‘ra Mirza shunday deydi: "Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar ta'bir joiz bo‘lsa, folkloristik nuqtai nazardan, garchi u epizodik xarakterda bo‘lsa-da, munosabatda bo‘lingan hollarga ham duch kelamiz. Bunda XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnografi Mahmud Koshg‘ariyning to‘plovchilik faoliyati va uning "Devonu lug‘ati-t-turk" asari yorqin misol bo‘la oladi".[1] Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘ati-t-turk" asarini faqat maqollarni o‘zida jamlovchi asarlar sirasiga kiritib bo‘lmaydi, biroq olimning o‘zi aytgan fikriga qarab, uning xalq maqollariga alohida ahamiyat bergani va o‘sha davrda mavjud bo‘lgan xalq maqollarini yig‘ishga uringani va bu noyob asar xalq og‘zaki ijodi xazinasini keyingi avlodlarga yetkazishni maqsad qilgani ayon bo‘ladi. "…toki ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga (tinglovchilarga), naql qiluvchilar esa, o‘z navbatida, shu tilda so‘zlovchilarga yetkazsin. Shuning uchun ham bularning hammasini mazkur asarda to‘pladim.[2] Quyida ushbu asardan olingan ba'zi maqollarni misol qilib keltiramiz:

"Alin arslan tutar, ko‘cho‘n ko‘sno‘k tutmas – Xiyla va tadbir bilan arslon tutish mumkin bo‘lsa, zo‘rlik bilan qo‘g‘irchoqni ham tutib bo‘lmaydi".

"Erdam bashi til – Odobning boshi til".

"Ulug‘ni ulug‘lasa qut bo‘lur – Odam qariyalarni xurmatlasa baxtli bo‘ladi".[3]

Mahmud Koshg‘ariydan so‘ng xalq maqollariga alohida munosabat va e'tibor XIX asrga qadar uchramaydi. Mumtoz adabiyot rivojlanishi va taraqqiy etishi jarayonida xalq maqollari badiiy asarlar tarkibida badiiy san'at tarzida keng qo‘llanildi. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sayfi Saroiy, Atoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Munis, Ogahiy kabi shoirlar ijodida xalq maqollarining o‘rnini alohida baholash mumkin. Biroq xalq maqollari ba'zi lug‘atlarda va badiiy asar tarkibida she'riy unsur sifatida faol qo‘llanilsa-da, ularni alohida to‘plash va ko‘chirish e'tibordan chetda qoldi.[4] XIX asrga kelibgina Muhammad Sharif Gulxaniy o‘zining "Zarbulmasal" asarida turkiy xalq maqollarini keltirib o‘tadi. Ushbu asar ishtirokchilarining nutqlari xalq maqollari, matal, hikmat va qoliplangan birikma va iboralardan keng foydalanish asosiga qurilgandir.

"…Anda Ko‘qush aydi:" Borliqdin maqtanma, "Maqtangan qiz to‘yda uyalar", va yana aymishlar:"O‘zini maqtag‘oni-o‘limning qoravuli". Sening ahvoling olamga ma'lumdir. "Oyni etak birla yashirsa bo‘lurmi?", "Chumchuq semursa, botmon bo‘lurmi?", "Olako‘zanak ola bo‘lsa ham, arslon bo‘lmas, ola-to‘g‘anoq olg‘ur bo‘lsa ham, ahvoli ma'lum"…[5] Ushbu asar turkiy xalqlar etnografiyasida muhim o‘rin tutib, unda qo‘llanilgan maqollar soni uch yuzdan ortadi. Gulxaniydan so‘ng Xo‘qandiy taxallasuga ega shoir, xattot Rojiy, Sulaymonqul usta Suyarqul o‘g‘li (1871 – Qo‘qon – 1924.11.11) 400 dan ortiq maqol va hikmatli so‘zlarni o‘z ichiga olgan "Zarbulmasal" asarini yozadi. Ushbu asarda shoirning gumanistik hamda didaktik qarashlari, davrning ijtimoiy masalalariga munosabati aks etgan.

XIX asrning II yarmidan boshlab, Yevropa olimla-

[1] Mirzayev T. So‘zdan so‘zning farqi bor / O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2016. – B. 4.

[2] Rahmatov Y. Maqol va uning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi evolyutsiyasi: DSc ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya. – B. 20.

[3] F.Abduraxmonov, S.Mutallibov. Devoni lug'otit turk. Indeks lug'at. – Toshkent: Fan, 1967. – B. 570.

[4] Rahmatov Y. Ko‘rsatilgan manba. – B. 20.

[5] Zarbulmasal. Taqvim.uz elektron kutubxonasi.

rini Sharq xalqlari hayoti, turmush tarzi, madaniyati, shu jumladan folklori qiziqtira boshlaydi. Xususan, Venger olimi Arminiy (German) Vamberri 1863-yilda darvesh kiyimida Markaziy Osiyoga qilgan safari davomida Xiva xonligi, so‘ngra Buxoro amirligida ham bo‘ladi. 1864-yilda esa uning ushbu safari natijasida kitobi e’lon qilinadi. 1867-yilda uning “Chag‘atoy tili darsligi” Leyptsigda nashr etilgan. Kitob uch qismdan iborat: tadqiqot, darslik va lug‘at. Kitobning tadqiqot qismi, o‘z navbatida, ikki bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim turkiy tillar grammatikasi, ikkinchi bo‘lim adabiy aloqalar masalasiga bag‘ishlangan. Olim birinchi marta Xorazmga bevosita daxldor “Yusuf va Ahmad”, “Xuriliqo va Hamro”, “Oshiq oydin”, “Xirman dali” kabi dostonlarni nashr ettirib, bu dostonlar va alohida matallar haqida juda qimmatli ma’lumotlar berdi. Kitobning ikkinchi, darslik qismida “Maqollar” (45–58-b.), “Burk devoni” (“Ahmoq burk”, 59–70-b.), “Merojnoma” (“Yuksalish haqidagi kitob” 71–84-b.) “Said vaqqos” (84-94-b.), “Zarqum” (144-150-b.), “Yusuf va Ahmad” (94-114-b.), “Sayful muluk” (187-193-b.) kabi asarlardan parchalar keltirilgan. Bundan tashqari, ilova tarzida kitobda qator mashhur shoirlar, xususan, A.Navoiy, Mashrab, Ravnak, Shaydoiy, So‘fi Olloyor ijodidan namunalar keltirilgan. G. Vamberrining o‘zi turkiy xalq maqollari to‘g‘risida shunday degan: “Axloq haqidagi qarashlarning eng yaxshi xulosasi chinakam milliy ruhdan kelib chiqqan va musulmon xalqlarining qon-qoniga singib ketgan ifodali so‘zlar bo‘lishi mumkin. Ushbu so‘zlar axloq dunyoqarashining, jamiyat urf-odatlarining chinakam in’ikosidir. Butun dunyo bo‘ylab tarqalayotgan bu maqollar o‘tgan ajdodlarning ma’naviy dunyosini qamrab olgan holda, juda qadrlanadi”.[1] O‘zbek xalq maqollarini o‘rganish va to‘plashda Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan rus missioneri, sharqshunosi, etnografi Nikolay Ostraumovni o‘rni kattadir. Nikolay Ostraumov Qozon diniy akademiyasida o‘qigan (1866–70). 1877-yildan Toshkentda yashagan. Uning ishtirokida A.S.Pushkin (“Baliqchi va baliq haqidagi ertak”), L.N. Tolstoy (“Odamlarni nima tirik qiladi”), risolalar “Qadimgi Misrning qisqacha tarixi”, “Kolumbning hayoti”, “Fanlarning foydalari haqida”, “Jismoniy geografiyadan hikoyalar”, “Olamning barcha hududlarning geografik xaritasi” va hokazolar o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. 1907 yilda “Maxtum-quli” she’rlar to‘plami va Muqimiy devonidan parchalar nashr ettirdi. 1910 yilda uning “Sart tilining etimologiyasi” asari nashr etildi. 1885-1886 yillarda u “Sartlar tiliga Xushxabar” ni tarjima qilgan, keyinchalik u Leyptsigda (1891) Britaniya Bibliya Jamiyatida nashr etilgan. 1893 yil dekabr oyidan Turkiston arxeologiya ixlosmandlari to‘garagi asoschilaridan biri bo‘lgan. Uning asosiy asarlari: “Payg‘ambarlar haqidagi Muhammad ta’limotining tanqidiy tahlili” (magistrlik dissertatsiyasi, Qozon, 1874), “Ramazon oyida Muhammad ro‘zasi” (1877), “K.P. fon Kaufman. Shaxsiy xotiralar va tarixiy konspekti”, “Viloyat xalq ta’limi” (Toshkent, 1899), “Sartlar” (3-nashr, Toshkent, 1908), “Sartlar xalq ertaklari” (2-nashr, 1906), “Sartlar maqol va matallari” (1895), “Islom olami o‘tmishda va hozirda” (1912), “Islomshunoslik. Muqaddima” (Toshkent, 1914), “Arabiston - islom beshigi” (1910), “Qur’on; qiyofasi tasviri va matn tarixi” (1912), “Qur’on ta’limoti” (1915), “Shariat” (Toshkent, 1912), “Qur’on va taraqqiyot” (1901).[2]

N.P.Ostroumov o‘zbek xalq maqollarini tadqiq etishda quyidagi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi:

1. O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va nashr ettirish.
2. O‘zbek xalq maqollarini rus tiliga tarjima etish.
3. O‘zbek va rus maqollarini qiyosan o‘rganish.
4. O‘zbek xalq maqollarining genezisi va o‘ziga xosligini tadqiq etish.

5 O‘zbek xalqining dunyoqarashi, psixologiyasi va xarakterini xalq maqollari orqali bilib olish.

N.P.Ostroumov o‘zbek xalq maqollarining shakllanish omillarini ham bir qadar tadqiq etishga harakat qiladi. Olim xalq maqollarining genezisi haqida fikr bildirib, shunday deydi: “Sartlarning maqol va matallari kelib chiqishi o‘ziga xos qadimiy tarixiga ega. Sart maqollarining aksariyati umumturkiy bo‘lib, boshqa turkiy xalqlarda ham qo‘llanadi. Shuning uchun aynan bir maqol qirg‘izlar, tatarlar va turklar nutqida ham uchraydi. Ba’zi maqollar sartlar bilan yonma-yon yashaydigan fors-tojik tillaridan o‘zlashgan”.[3]

O‘zbek xalq maqollarini o‘rganishda filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Hodi Zaripovning o‘rni beqiyosdir. Asosiy asarlari: “O‘zbek folklori” (ikki jildli), “O‘zbek xalq qahramonlik eposi”, “Navoiy zamondoshlari”, “Fozillar fazilati”, “Muhammad Amin Muqimiy”, “Alpomish” dostonining asosiy motivlari”, “Arshaq – sharq qahramoni”, “O‘zbek folklorshunosligi tarixidan”, “O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari”, “O‘zbek xalq baxshilari”, “Folklor va termin to‘plovchilarga qo‘llanma” va boshqalar. Hodi Zarifning qirq yildan ortiqroq davrdagi qidirish, izlanishlari yaxshi samaralar berdi. O‘zbekistonda yangi fan– folkloristika yaratildi. U filologiya sohasidagi faoliyati bilan O‘zbekistonda fanning rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Xususan, o‘zining yetuk asarlari bilan o‘zbek folkloristikasiga asos soldi va uning yetakchi rahbarlaridan biri bo‘lib qoldi.

[1] Abdurahimov M. Qisqacha o‘zbekcha-tatarcha maqol-matallar lug’ati. – Казань: Татарское книжное издательство, 2010. So‘z boshi.

[2] Internet manbasi. https//tashkentpamyat.ru

[3] Rahmatov Y. Ko‘rsatilgan manba’. -B 29.

Akademik V. M. Jirmunskiy haqqoniy ta’kidlaganidek: “Uning qiyofasida biz yetuk olimni – o‘zbek folklori haqidagi fanni yaratuvchini kuramiz. Uning tuplovchi va tadqiqotchi sifatidagi mehnatlari bilan o‘zbek xalq ijodi to‘g‘risidagi fanning mustahkam asosi yaratildi. Men aytar edimki, uning qiyofasida o‘zbek xalqi milliy madaniyatini o‘rganish sohasida yangi yo‘llar ochuvchi olimni ko‘ramiz”.[1]

Arab folklorini o‘rganishni ilk bosqichida (VIII-XII asrlarda) arab filologlari asosan xalq maqollarini tahlil etishga harakat qilishgan. O‘sha davrlarda arab xalq og‘zaki ijodining eng ommavioy janri-maqol hisoblangan. VIII-XII asrlarda arab xalq maqollarini to‘plab, tavsiflash hamda alohida majmualar holda umumlashtirishga harakat qilindi. Bu davrda turli mualliflarning sa’y-harakatlari bilan 44 ta arab maqollari to‘plamlari tuzilgan bo‘lib, shundan bizgacha atigi 14 tasi saqlanib qolgan, xolos. Ayniqsa, Ahmad ibn al-Husayn al-Maydoniy (1124-yilda vafot etgan) ning “Majma al-amsal”, Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy(1075-1144 yillarda yashagan) ning “Al-Mustaqsa fi amsal al-arab” asarlari arab xalq maqollarining eng mukammal to‘plamlaridir. Shuni qayd etish kerakki, arab folklorini zukko bilimdoni hisoblangan bu olimlarning har ikkisi ham etnik kelib chiqishiga ko‘ra arab xalqiga mansub emas: al-Maydaniy Xurosonning Nishopur shahrida tug‘ilgan bo‘lsa, az-Zamaxshariy asli Xorazmlikdir.[2] Yevropalik sharqshunos olim Shayla Vebster Maydoniyning “مجمع الامثال” “asari arab xalq maqollari va matallariga bag‘ishlangan eng bebaho asar deb ta’kidlab o‘tgan. Uning fikricha, muallif o‘zining to‘plamida arab maqol va matallari yig‘ilgan barcha kitoblarni jamlagan. Nemis olimlari K.Brokkelman va I.Goldtsier ham ushbu kitob to‘g‘risida: “Asarning nusxalari va tarjimasi dunyoning barcha kutubxonalarida saqlanadi”, - deb aytib o‘tishgan. Ikki tomdan iborat bo‘lgan majmua 6000dan oshiq maqollarni o‘z ichiga olib, arab xalqining Islom dinigacha bo‘lgan davrlarini ham aks ettiradi. “Majmuatu-l-amsal” 1838-yilda Bonn shaxrida uch qismda, 1869-yilda Qohirada Muhammad as-Sabag‘a va Muhammad al-Aldaviya boshchiligida chop etilgan. 1982-yilda esa Misrda “Almaktaba al-hayriya” nashriyotida Abu Hilol al-Askariyning “Al Jamxaratu-l-amsal” asari bilan birgalikda ikki qismda nashr etilgan.[3]

إنَّ الْحَديدَ بالْحَديدِ يُفْلَح

Temirga temir bilan ishlov beriladi.

الفَلْاح: الشَّقُّ ، ومنه الفلاَّ ح للَحَرَّ اث لأنه يشق الأرض

Al-falhu - yoriq, yirtiq, teshik. Dehqon erni yirtgani uchun fallah deyiladi (shudgor).

أي يُسْتعان في الأمر الشديد بما يشاكله ويقاويه

Ya’ni, ekstremal holatlarda ekstremal choralar ko‘riladi.

إنَّ الْجَوَادَ قَدْ يَعثُرُ

Zotdor ot ham ba’zida qoqiladi.

يضرب لمن يكون الغالُبُ عليه فعَلَ الجميل، ثم تكون منه الزَّلة

Bu maqol ko‘pincha yaxshilik qiladigan, lekin ba’zida xatolari bo‘lgan odam haqidadir.[4]

Maqol, matallar, hikmatli so‘zlarga nisbatan ishlatilgan arab terminologiyasi aniqliligi bilan ajralib turmaydi. Asosiy atama “masal” – maqollarga, aforizmlarga, ertaklarga, frazeologik birliklarga taalluqlidir. Bu atamaning eng to‘g‘ri tarjimasi bizga “masal” kabi ko‘rinadi (Qur’oni Karim tarjimasida “masal” so‘zini I.Yu.Krachkovskiy mana shunday keltirgan). Ushbu atama yuzasidan ba’zi o‘rta asr filologlari tomonidan berilgan izohlari zamonaviy tadqiqotchi uchun sodda tuyulishi mumkin, ammo, folklor va folklor tarixi nuqtai nazaridan, shubhasizdir qiziqish uyg‘otadi. Shunday qilib, ilk maqollardan birini tuzuvchi Abu Ubayd al-Qosim ibn Sallom (taxminan 770-838 yillar) “masal” atamasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Bu arablarning butparastlik (al-johiliyya) va islom davridagi hikmatlaridir”. Bu yerda “masal” atamasi boshqa bir atama – “hikmat” (“donishmand gap, aforizm”) yordamida izohlangan. “Masal” va “hikmat” atamalarini taxminan bir xil bog‘laydilar.Abu Hilol al-Askariy: “Keyin muomalada bo‘lgan har bir hikmatli gap masallar bo‘ldi va so‘zlovchi o‘rinli bo‘lgan so‘zlarni masal sifatida keltirishi mumkin”.[5]

Arab maqollarining eng qadimgi to‘plami al-Mufaddal ad-Dabbiy (786 y.da vafot etgan) tomonidan tuzilgan bo‘lib, 160 ga yaqin qadimiy maqollarni o‘z ichiga oladi. Ushbu to‘plam hech qanday aniq tizimsiz tuzilgan bo‘lib, har bir maqol oldidan uning kelib chiqishini tushuntiruvchi hikoya berilgan. Aslida, klassik arab maqollarini yig‘ish jarayoni al-Maydaniy va az-Zamahshariy to‘pamlari paydo bo‘lishi bilan XII asr boshlarida tugaydi. Keyingi paydo bo‘lgan to‘plamlar yuqoridagi ikki kitobning yig‘indisidan hosil bo‘lgandi. Keyinchalik, XIV asrdan boshlab arab filologlar va yozuvchilarning e’tibori shahar maqollariga tushdi, bunday maqollar to‘plamlarini tuzishga ehtiyoj paydo bo‘ldi.

[1] Hodi Zarif-folklorshunos. Internet manba’si

[2] Shomusarov Sh. Arab-o‘zbek folklor aloqalari. – Toshkent: Fan. – B. 5.

[3] Максудов У. Арабские пословицы и поговорки: возникновение и развитие паремиологических словарей в арабской литературе // Вестник Санкт-Петербургского Университета. 2012. – С. 106.

[4] Al-Maydoniy. Majma al-amsal. http//www.nuruliman.ru. – B. 8.

[5] Lebedev V. У истоков арабской фолклористики / Палестинский сборник. Вып. Т. 28 (91). – Л., 1986. - B. 104-105.

Arab maqollarini chuqur o‘rganish va tasniflash bo‘yicha yirik asar iroqlik olim Abd ar-Rahmon at-Tikritiyning “Bag‘dodning maqollari” (Bag‘dod, 1966-1969. 1-4-jild) to‘plami deb e’tirof qilinadi. Bu yerda maqollar va matallarning kelib chiqishi, birlamchi va asl ma’nosi, shuningdek, “Johiliya” davridagi qadimiy she’riyat yoki boshqa davrlar she’riyatidan olingan va Islomdan oldin va undan keyin jamiyatda mavjud bo‘lgan davrlarda yuzaga kelgan maqollar o‘rganilgan. At-Tikriti maqol va matallarni birinchi bo‘lib keng miqyosda o‘rgangan umummilliy olim hisoblanadi. Misrlik Muhammad Qandil al-Baklining “Arab mamlakatlaridagi xalq maqollarining birligi” kitobi bu sohadagi tadqiqotlarga yana bir urinishdir. (Qohira, 1968). Al-Bakli o‘z asarida nafaqat Misr maqollari va matallarini tushuntiradi, balki ularni boshqa arab xalqlarining paremiyalari bilan taqqoslaydi. Ushbu taqqoslash muallifga bir tomonidan ham ma’naviy ham psixologik faktorlarni ochib berish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan davrlar osha muqimligi, uning o‘zgarmasligini va qadimgi davrga qaytishini namoyish etish imkoniyatini beradi.[1]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, arab va o‘zbek maqollarining o‘rganilish tarixi va ularning tavsifi bir necha asrlarga borib taqaladi. Ularni nafaqat arab va o‘zbek olimlari, balki Yevropa sharqshunoslari ham keng tarzda o‘rganganlar. Ushbu xalqlarning maqollarini to‘plash va tasniflash bo‘yicha bir necha asrlar davomida ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, ularning lingvomadaniy jihatdan o‘rganish bo‘yicha qilinadigan ishlar bisyordir.

Resume: In this article, the history of studying the proverbs of two peoples with a rich spiritual past – Arab and Uzbek – is covered step by step. Also, the interests of European scientists and their descriptions of the proverbs of these nations are shown.

Резюме: В данной статье шаг за шагом освещается история изучения пословиц двух народов с богатым духовным прошлым – арабского и узбекского. Также показаны интересы европейских ученых и их описания пословиц этих народов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHE’RDA HIS-TUYG‘ULARNI TELEPORTATSION TABIATIGA KO‘RA O‘RGANISH MASALASI

Omonturdiyev Alibek,
Termiz davlat universiteti magistranti

Har qanday zamon-u makonda, istalgan badiiy mezonlarda ko‘rilgan taqdirda ham she’rning asosiy “tarkibiy qismi”ni insoniy his-tuyg‘u, kayfiyat, fikr, xarakter, “ong osti” kechimlari mahsullari tashkil etishi oydinlashadi. Demak, poetik his-tuyg‘uning ko‘lamini, ta’sirchanlik kuchini, badiiy qiymatini, avlodlar tuyg‘ulari tarbiyasidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish dunyo adabiyotshunoslik sohasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Biz, bugungi kunda, deylik, Navoiyning bir parcha varaqqa ko‘chgan his-tuyg‘ularini “ko‘rishimiz”, hatto, his etishimiz mumkin. Albatta, bu poetik saodat Navoiyni anglash uchun ter to‘kishni, buyuk shoir tuyg‘ulariga bexato eltadigan mashaqqatli yo‘lni sabot ila bosib o‘tishni talab etadi. Bunda adabiyotshunoslik ilmi yordamga keladi. Bu masalaning bir tomoni.

Ikkinchi – asosiy jihati esa biz, tadqiqotga tortayotgan muammoga bag‘ishlangan bo‘lib, his-tuyg‘uning (mas., Navoiy his-tuyg‘usining) qay darajada qog‘ozda eks ettirilgani, shoirning iste’dod darajasi, ilhom manbai, so‘z boyligi, leksikasi, tasvir qudrati, metaforik imkoniyatlari, janriy universalligi, she’r texnikasini bilish darajasi, savqi tabiiy tajallisi, impravizatsion ustuvorliklari nechog‘liq yuksak ekanligini o‘rganarkan, tuyg‘u “asliyati”ning “A” nuqtadan “B” nuqtaga qay tarzda ko‘chish/ko‘chmasligi bilan shug‘ullanadi (bu jarayonda zamon va makon tafovuti rol o‘yna-

[1] Максудов У. Арабские пословицы и поговорки: возникновение и развитие паремиологических словарей в арабской литературе // Вестник Санкт-Петербургского Университета. 2012. – С. 108.

maydi); eng muhimi, deylik, besh asr oldin kechgan, muayyan ikchi-tashqi impuls tufayli shoir ko‘ngli-da, shuurida sodir bo‘lgan lahzalik va takrorlanmas his-tuyg‘uning nazmiy ifodasining (voqea-hodisa, poetik kayfiyat) hozirgi g‘azalxon his-tuyg‘ularida paralellashishini – hissiy teleportatsion xususiyatini sintez qiladi.

Shu ma’noda nazariy jihatdan his-tuyg‘u “ko‘chirish”ni tadqiq etish masalasining dolzarbligi, aytaylik, buyrak ko‘chirish jarayonini o‘rganishdan zinhor qolishmaydi. She’riyatda subyektiv his-tuyg‘u va uning ta’sir kuchi adabiy zarrabinlar orqali nazariy va amaliy jihatdan turli usullarda sinchiklab tahlil qilingan. Jahon adabiyotshunoslik fani turli metodlar orqali diqqat qaratgan, o‘zbek adabiyotshunosligi ham bu bo‘yicha qator muvaffaqiyatlarga erishgan. Bunday ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj har doim ham mavjud.

Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, o‘zbek she’riyatida his-tuyg‘ular teleportatsion tabiatiga ko‘ra hali ilmiy tadqiqotga tortilmagan. Bu mutlaqo yangi qo‘riq: tangaga tamomila boshqa rakursdan qarash demakdir. Ushbu dolzarb mavzuning nazariy asoslarini jahon adabiyotshunosligidan (dunyo adabiyotshunosligida mazkur termin aynan uchramaydi – A.O.), hatto ayrim taalluqli jihatlarini fizika ilmidan izlashga to‘g‘ri keladi.

Teleportatsiya o‘zi nima? Ushbu istiloh qanday vujudga kelgan? Dastavval, shu haqida to‘xtalsak. Teleportatsiya (yunoncha *tele* – “uzoqda” va lotincha *portare* “tashuvchi”) obyekt (harakat) koordinatalarining faraziy o‘zgarishi bo‘lib, bunda obyekt trayektoriyasini vaqtning uzluksiz funksiyasi orqali matematik tarzda tasvirlab bo‘lmaydi. Bu atama 1931-yilda amerikalik yozuvchi Charlz Fort tomonidan g‘alati g‘oyib bo‘lish va ko‘rinishlarni, uning fikricha, umumiy narsaga ega bo‘lgan paranormal hodisalarni tasvirlash uchun kiritilgan[1]. Ushbu termin aksar hollarda bizga fantastik gipotezalar mahsuli kabi tasavvur uyg‘otsa-da, zamonaviy fan uning haqiqatga yaqin hodisa ekanligini, teleportatsiya – virtual makonda allaqachon mavjudligini (biz, bugun kundalik turmushda kanda qilmay istifoda etayotganimiz ijtimoiy tarmoqlar, ular orqali matn, xabar, surat, audio va videoyozuv yo‘llayotganimiz – ma’lumot alamashayotganimiz, axborot teleportatsiyasi. Bu jarayonda “A” nuqtadan “B” nuqtaga bir necha lahzada yetib borayotgan ma’lumotning asliyat ekanligi e’tiborga molik – A.O.) inkor etib bo‘lmaydi. Qolaversa, teleportatsiya bosh ma’nosida (jismni “ko‘chirish”) olamshumul kashfiyotlar arafasida turgani haqida ham qator ilmiy qarashlar (aksariyati hali gipoteza), futurologik xulosalar mavjud.

“Qur’oni Karim”da qavmi quyoshga sajda qiladigan Yaman malikasi Bilqiys Sulaymon alayhissalomning chindan ham payg‘ambar ekanligiga amin bo‘lib, talablariga bo‘ysunib, uning huzuriga otlangani, shunda Sulaymon alayhissalom Bilqiys yo‘lda kelayotganidan xabar topib, unga Allohning qudratini namoyish etish uchun Bilqiysning Yamanda qolgan taxtini “ko‘z ochib yumguncha” Quddusi Sharifga keltirishni (jism teleportatsiyasi) buyurgani haqida bayon etiladi: “38. Ey odamlar, ular mening huzurimga bo‘yinsungan hollarida kelishlaridan ilgari qaysi birlaringiz menga uning (ya’ni Bilqiysning o‘z shahrida qolgan) taxtini keltira olur”, dedi. 39. (Shunda) jinlardan bir pahlavoni aytdi: “Men uni sen o‘rningdan turishingdan ilgari senga keltirurman. Albatta men bunga qodir va ishonchlidurman”. 40. Kitob – (Lavhul-mahfuz)dan ogohligi bor bo‘lgan bir zot esa: “Men uni ko‘zing o‘zingga qaytguncha (ya’ni ko‘z ochib yumguncha) senga keltirurman”, dedi. Endi qachonki (Sulaymon taxtning) o‘z huzurida turganini ko‘rgach, dedi: “Bu parvardigorimning men shukr qilamanmi yoki kufroni ne’mat qilamanmi, imtihon etish uchun bergan fazlu-marhamatidandir. Kim shukr qilsa bas albatta u faqat o‘z (foydasi) uchun shukr qilur. Kim kufroni ne’mat qilsa bas albatta Parvardigorim (uning shukr qilishidan) behojat va fazlu-karam egasidir”[2].

Nyuton qonunlariga ko‘ra, teleportatsiya mutlaqo mumkin bo‘lmagan harakatdir, chunki atomlar bir holatdan ikkinchi holatga o‘ta olmaydi va harakatlantiruvchi kuchsiz kosmosda harakatlana olmaydi. Biroq, teleportatsiyani inkor etmaydigan kvant (Kvant – *lot*. Quantum – qancha, qanchalik oz; *fiz*. Diskret (uzlukli, ayrim-ayrim) tabiatga ega bo‘lgan fizik kattalik (harkat, energiya va sh.k.) o‘zgarishi mumkin bo‘lgan eng kichik miqdor[3]) nazariyasi ham mavjud. Unga ko‘ra, teleportatsiya mumkin, chunki atomlar to‘lqinga o‘xshash harakatlar qilishlari va sakrashlar qilishlari mumkin. Obyekt atomlari klasterining bunday uyushgan sakrashi teleportatsiya bo‘ladi[4].

Amerikalik astronom D.Darling “Teleportatsiya: imkonsiz sakrash” kitobida teleportatsiyani ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish tarixidan kvant hodisalarini o‘rganishga bo‘lgan birinchi urinishlardan tortib materiya atomlarining haqiqiy va fantastik bo‘lmagan teleportatsiyasi bilan zamonaviy tajribalargacha haqiqiy faktlar keltiradi. Olim kvant teleportatsiyasining juda muhim masalalarini, ya’ni kvant kriptografiyasi va kvant hisoblashning tar-

[1] https://minikar.ru/uz/ezoterika/kak-nauchitsya-magii-teleportacii-teleportaciya-eto-prosto/

[2] Қуръони Карим (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). “Намл”сураси, 38-40-оятлар. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 273-274.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент**: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 340.**

[4] https://minikar.ru/uz/ezoterika/kak-nauchitsya-magii-teleportacii-teleportaciya-eto-prosto/

ixi va hozirgi holatini muhokama qiladi: “Haqiqiy dunyoda teleportatsiya kvant teleportatsiyasini anglatadi. Hozircha biz, eng ko‘p teleport qilishimiz mumkin bo‘lgan narsa qattiq narsalarga qaraganda yorug‘lik nurlari, subatomik zarralar va atomlarning kvant xususiyatlari. Ammo olimlar teleportatsiya haqida gapirishmoqda, kyeyingi o‘n yil ichida molekulalardan tashqari katta jonsiz narsalar bilan ham teleportatsiya qilish istiqbollari mavjud. Va bundan tashqari...”[1]. Kontekstda ko‘rinadiki, olim “bundan tashqari” deganda jonli jismlarga sha’ma qilmoqda. Bu kabi qizg‘in bahs-munozaralar zamonaviy aniq fanlar olamida kechmoqda.

Bizga uning badiiyatdagi funksiyasi muhim. Teleportatsiya hodisasi badiiy adabiyotda sodir bo‘ladimi? Bizningcha, bu hodisa badiiy so‘z san’ati yaralibdiki, insonning botiniy dunyosiga, his-tuyg‘ulari orqali tasavvuriga ta’sir o‘tkazib kelmoqda. Biz, “she’rning kuchi” deya baho beradigan jihat aynan poeziyaning his-tuyg‘ularni teleportasiya qilish qudrati bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, “Chag‘alaylar” haqida o‘qilgan she’rda – “chag‘alaylarning chirqillab (aynan chirqillash tovushining eshitilishi) uchishi” va “osmon” tasvirlari; “yomg‘ir”da – rutubat, ivigan borliq, nam tuproqning hidi (aynan hidni tuyish); “sharshara”-da – purkalgan suv zarralarining yoqimli epkini (suv zarralarini badanda sezish); “kuzak”da – xazonrez, chirik yaproqlarning achimtir isi, parishon tabiat manzaralari (kuzni his qilish), tasvirlari mukammal she’r orqali kishi tasavvurida aniq gavdalanishi, shoir his qilgan tuyg‘ular – she’rxon his-tuyg‘ulariga ko‘chishi, mazkur tuyg‘ular darajasiga ko‘ra parallellashishi lozim.

Bu hodisa sodir bo‘lishi uchun shoir ham, o‘quvchi ham ma’lum ma’noda so‘zni his qiladigan darajada bo‘lishi muhim: shoir tuyg‘usini she’rga ko‘chira olmasa, o‘quvchi she’rda aks etgan his-tuyg‘uni ilg‘ay olmasa, his-tuyg‘uning “ko‘chishi” sodir bo‘lmaydi. Anglashiladiki, mazkur jarayon auditoriya tanlaydi va hatto she’rning eng nozik va yuksak pallalarida shoir va o‘quvchi “doirasi” torayadi, favqulodda xoslashiladi.

Tom ma’noda san’at asari bo‘lgan she’rlarni o‘qiganda yoki tinglaganda kishi bir nafas butun borliqni unutib, ushbu she’r ta’sirida bo‘ladi. M.Gorkiy Yeseninga bag‘ishgangan xotira ocherkida uning she’r o‘qishidan olgan taassurotini shunday ifodalagan edi: “...hayajonlanganimdan tomog‘im quruqshab, bir narsa xippa tiqilgandek bo‘ldi. Ho‘ngrab yig‘lagim keldi”[2]. Adabiyotshunos olim Suvon Meliga ko‘ra she’rning ta’sir kuchini uch omil hal etadi:

1) avvalo, so‘zlar tashqi olamdagi muayyan hodisani qayta tiklashi natijasida kitobxon hislarini junbishga keltiradi. Bunday parchalar kontekstini tekshirganda asosiy e’tibor obrazli so‘zlarga qaratiladi;

2) so‘zlar o‘zaro birikib, voqeiy holat yoki manzara yaratadi, bunda asosiy vazifa poetik his tug‘dirish bevosita so‘zlarga emas, manzaraning yorqinligi yoxud holatning kuchiga yuklanadi. To‘g‘ri, she’rdagi manzara, holat so‘zlar vositasida bunyodga keladi, lekin bunda so‘z yordamchi funksiyani bajaradi;

3) ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushlab, quloq bilan eshitib bo‘lmaydigan abstarkt tushunchalar va konkret predmetni emas, u haqdagi tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarning aloqalarga kirishi natijasida poetik tuyg‘uni yuzaga keltiradi[3].

Bizningcha, mazkur uch omil his-tuyg‘ularning teleportatsiyasiga oid elementlar hisoblanib, yakdil aksioma bo‘lish uchun kamlik qiladi. Zotan, *“so‘zlar tashqi olamdagi muayyan hodisani qayta tiklashi natijasida kitobxon hislarini junbishga keltirish”* barobarida muallif his qilgan tuyg‘ularni aynan “ko‘chiradi”. Deylik, Navoiyning “Yo‘lungda tufroq o‘ldim, ey sabo, yetsang g‘uborimg‘a” satridagi (manbalarda geolog bo‘lgani uchun ham mazkur satr akademik Habib Abdullayevga (“Yo‘lungda tufroq o‘ldim”) kuchli ta’sir qilgani, hatto o‘zbek xalqi udumlariga xos bo‘lmasa-da, vafot etganida ushbu g‘azal bilan aytilgan mumtoz ashulani dafn marosimida ijro etilishini vasiyat qilgani haqida ma’lumotlar keltiriladi[4]. Bu hodisa Hazrat Navoiy tuyg‘usining birgina satr vositasida Habib Abdullayev ko‘ngliga aynan “ko‘chishi” – badiiy teleportatsiyasi demakdir) qariyb olti asrlik “muzlatilgan” his-tuyg‘u ushbu satrni o‘qigan bugungi zamon she’rxoni qalbida “erishi” mumkin. Bu hodisa she’rxonning qalbida muqaddam “kashf etilgan” his-tuyg‘ularini junbishga keltirishdan tashqari, hali umrida hech qachon his qilib ko‘rmagan tuyg‘ularni ilk bor his ettirishi ham mumkin. Aynan shu holat tuyg‘uning (mas., baayni Navoiy tuyg‘usining) teleportatsiyasi.

She’r o‘qilganda yoki tinglanganda his-tuyg‘uni aynan shu tarzda teleportatsiya holatiga tushiradigan ba’zi she’rlardan parchalarni misol tariqasida keltirsak.

“...Bir yulduz iltijo etdi tangriga, / Istig‘for so‘zida nur bo‘yi anqib: / – Qanday soz – yotmoqlik yerning tagida – / Yomg‘irni eshitib uxlamoq baxti![5]. Mazkur satrlar favqulodda auditoriya tanlaydi. Uni ma’lum ma’noda tayyorgarliksiz, ruhiy-hissiy beqaror holda o‘qib bo‘lmaydi, albatta. Ammo bu satrlar orqali tele-

[1] Darling David. Teleportation: The Impossible Leap. Hoboken, Nyu-Jersi. John Wiley & Sons, 2005. P – 15.

[2] Мели Сувон. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020. Б. – 220.

[3] Мели Сувон. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020. Б. – 220.

[4] Bu haqda qarang: Боқий Н. Ҳамидов Ҳ. Мени ёд эт. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. Б – 208.

[5] Азим Усмон. Куз. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 6.

portatsiya hodisasiga uchraydigan his-tuyg‘ular, dastavval kishi ko‘z o‘ngida ajabtoqur “salqin tun”, “o‘z tasavvuridagi Tangri”, “qora tuproq”, “bir kun kelib o‘lishi”, “qabrda hammasidan qutulib, maroq ila rutubat aro yomg‘ir yog‘ishini “eshitib” yotish baxti”... kabi “kadr”larni gavdalantiradi. Bizningcha, ziyrak o‘quvchi ushbu satrlarni anglash chog‘ida yulduzlarning bu orzusiga to‘satdan orzudosh bo‘ladi.

Lirik qahramon – hijronga duchor bo‘lgan yomg‘ir tilidan satrlarga diqqat qiling. (Mahbubaga qarata): *Manzilga yetasan. Nogoh eshikda / Meni soyabondan silkib tashlaysan.*[1]– degan yozg‘irishi yoki ayni “Yomg‘ir”ning yoriga: *Goho etagingga yetdim beozor, / Goho etigingga bebaxt surindim.* [2]– tarzida shahi hol etishi lirik qahramon his-tuyg‘ularini teleportatsiya qiladi. Shoir qalbidan o‘tgan emmotsional depsinishlar o‘quvchi shuurida, ko‘nglida aks sado beradi. Eshikka yetib, uyga (qalbga) kiritmaslik uchun shilta soyabonni (yomg‘irning – yorning izhoridan saqlanish vositasini) siltab tashlash – Yomg‘irni – umuman, oshiq umrini, orzu-maqsadlarini, sevgining eng baland zirvasini zabt etolmay chirpanayotgan ko‘nglini bartaraf etish, sevgini shavqatsizlarcha rad etish holatining go‘zal badiiy ifodasini o‘quvchi xuddi kino ko‘rganday “ko‘radi”. “Etak va etik”, “bebaxt va beozor” so‘zlari tashigan ma’nolar ham o‘quvchi shuurida vizuallik kasb etmay qo‘ymaydi.

She’r yaxlit holda his-tuyg‘uning teleportatsion tabiatini yaqqol aks ettiradi. Hatto ba’zida bir yo bir necha satr mustaqil holatda bu funksiyani bajarishi ham mumkin. *“Kim osmonni ketdi pichoqlab?*[3]*”*; *“Maysalar, tovonim sizni sog‘inar, / Tog‘lar, viqoringiz qalbimda mangu”*[4]*; “Maysa, rahmat, o‘sishni eslatib turding”*[5]*; “Senga aytadigan so‘zim qolmadi, / Senga aytadigan jimliklarim – ko‘p”*[6]*; “Yulduzlarni ko‘p ko‘rganman hayotimda, / Dengizdagi yulduzlarni keldi quchgim”*[7]*...* (Usmon Azim) kabi “o‘z taqdirini o‘zi hal etishga qodir bo‘lgan” satrlar fikrimizga yorqin misol.

Tadqiqotimizda his-tuyg‘ularning teleportatsiyasi orqali badiiy matnni o‘rganish o‘zi nima uchun zarur, degan konkret savolga aniq javob izlash ko‘zda tutilgan. His-tuyg‘uning teleportatsion xususiyati adabiyotshunoslikka nima beradi?

Birinchidan, ushbu metod orqali muallifning hissiy ifodalari qismlarga ajratilib (aniq tasvir, o‘xshatish, poetik kayfiyat, badiiy niyat va h.k.) va yaxlit holda (asosan, to‘rtlik, ruboiy, fard, qit’a, ikkilik, tanka, xokku kabi hajman kichik bo‘lgan she’riy janrlar) tahlil qilinadi va natijada qog‘ozga ko‘chgan muallif his-tuyg‘usi badiiy qiymatining darajasi, ko‘lami, badiiy-teleportatsion muvaffaqiyati ko‘lami aniqlanadi;

Ikkinchidan, muallif his-tuyg‘usining asliyati, genetik-etimologik iljizlari aniqlanadi, deylik, ma’lum voqea-hodisa tufayli paydo bo‘lgan his-tuyg‘uning (ilk) badiiy ifodasi (shoirning leksikasi, so‘z ishlatishi, ifoda yo‘sini, ohangi, tasvirlash usullari, metaforik qobiliyatlari) davrlashtiriladi (mas., Boburning “Boshimni olib, ey Bobir, oyoq yetgancha ketgaymen[8]” satridagi firoq, Vatandan ayro tushish musibati va “ketishga majburlik kayfiyati” hayotiy sabablarga: ulug‘ bobomizning taqdiri va yashab o‘tgan murakkab davri bilan bog‘liq va “birlamchi” his-tuyg‘u sifatida o‘zbek mumtoz adabiyotida ifoda etib bo‘lingan. Undan keyingi “ketishga majburlik kayfiyati” sifatida yaratilgan realistik yoxud lirik qahramonning avtopsixologik kayfiyati mahsuli bo‘lgan nazmiy asarlarga xronologik jihatdan Hazrat Boburdan keyin tartib beriladi).

Uchinchidan, badiiy matn – she’r his-tuyg‘uning teleportatsion xususiyatiga ko‘ra tahlil qilinganda badiiy matnlarni saralash, SARAK sifatida ajratib olish imkoni paydo bo‘ladi. O‘z-o‘zidan ayonki, his-tuyg‘uni “ko‘chirish” xususiyatiga ega bo‘lmagan she’riy matnlar PUCHAKka chiqadi. Ushbu “elak” shoirlarning “tanlangan” she’rlarini aniqlashda ayni muddao bo‘ladi (odatda “Saylanma”lar, “Tanlangan asarlar”ga shoirlarning o‘zlari tartib beradilarki, aksariyat “Saylanma”larni chindan ham “Saylanma” deb bo‘lmaydi. Chunki odatda muallif o‘zining novdalarini butashga ko‘zi qiymaydi. Bu ish muallif ishtirokisiz bajarilishiga to‘g‘ri kelganda adabiyotshunoslik sohasi she’rlarni muallif his-tuyg‘ularining teleportatsiya quvvatiga ko‘ra tekshirib, saralab beradi. Bu jarayonning izchil davom ettirilishi esa o‘zbek adabiyotida sifat barqarorligini saqlab turishga xizmat qilishi mumkin).

To‘rtinchidan, mamlakat va dunyo adabiy jamoatchiliklari hukmiga bemalol havola qilsa bo‘ladigan, badiiy jihatdan yuksak, o‘zbek adabiyoti haqida yuksak taassurotlar (zotan, shunga javob beradigan shoirlarimiz va ularning she’rlarini turli tillarga mahorat bilan o‘giradigan mutarjimlarimiz bisyor) she’riy antologiyalar, almanaxlar, bayozlar va turli to‘plamlarni yuksak adabiy saviya hamda did bilan tuzishda ayni metod asqotadi.

Beshinchidan, badiiy matnni his-tuyg‘uning teleportatsion xususiyatiga ko‘ra tahlil qilish metodidan nafaqat, nazmda balki adabiyotning boshqa turlarida

[1] Азим Усмон. Куз. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 88.

[2] Азим Усмон. Куз. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 88.

[3] Азимов У. Дарс. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 39.

[4] Азим Усмон. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б. 62.

[5] Азим Усмон. Юрак. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2009. – Б. 318.

[6] Азим Усмон. Фонус. – Тошкент: Шарқ, 2010. – Б. 8.

[7] Азим Усмон. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б. 5.

[8] Бобир З.М.Танланган асарлар. – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1958. – Б. 76.

ham bemalol foydalanish mumkin.

Oltinchidan, adabiyotshunosning asosiy vazifalaridan biri – badiiy asarni oson va qulay tarzda tushuntirib, asoslab berish ekanligini nazarda tutgan holda ushbu termin imkoniyatlari orqali she'rni keng auditoriyaga oson tushuntirishda ma'lum samaraga erishish mumkin.

Biz, bu sanoq bilan cheklanmaymiz, albatta. Harb ilmidagi: "Taktika jang paytida ma'lum bo'ladi" qabilidagi fikrga monand, tadqiqotlar mobaynida mazkur metodning turli afzalliklari yuzaga chiqaverishi tabiiy.

Resume: This article discusses the importance of studying poetry through the teleportation feature of emotions, a completely new concept for Uzbek literary studies.

Резюме: В данной статье рассматривается важность изучения поэзии посредством телепортации эмоций, совершенно новой концепции для узбекского литературоведения.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TURK OLIMI BAHAEDDIN O'GEL VA UNING "TURKIY MIFOLOGIYA" ENSIKLOPEDIYASI

Saydullayeva Aziza Ubaydullayevna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Turkiy xalqlar madaniyati tarixining bilimdoni, bu sohaning zabardast vakillaridan biri, turk tarixchi olimi, professor Bahaeddin O'gel 1923-yil 21-aprelda Elazikda (Turkiya) tijoratchi Shamsiddin Bey oilasida dunyoga keldi. Oilaning bir qiz va ikki o'g'il farzandlarining eng kattasi bo'lgan Bahaeddin O'gel, har doim ota-onasining erkasi bo'lgan va ukalarining hurmatiga sazovor bo'lib voyaga yetgan. O'gel o'z suhbatlari asnosida tarixga bo'lgan qiziqishi bolaligida onasining aytib bergan hikoyalaridan boshlanganligini bir necha marotaba ta'kidlab o'tadi. Tarixchi bo'lishga qaror qilishiga yashayotgan shahri Harputning boy tarixi ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. Bahaeddin O'gel dastlabgi ta'limni tug'ilib, o'sgan yurtida oladi, maktabni Elazikda tamomlaydi. O'sha paytlarda Elazikda litsey bo'lmaganligi sabab tahsilini Malatyada davom ettiradi. 1941-yilda universitetning Tarix fakultetida o'qish istagida Anqaraga yo'l oladi. Anqara universitetining Til-tarix-geografiya fakultetini tahsilni davom ettiradi. 1948-yilda "Uyg'ur davlatining qurilishi" mavzusidagi dissertatsiyasi bilan doktorlik ishini himoya qiladi. 42 yillik akadimik hayotining asosiy qismini o'zi tehsil olgan Anqara universitetida o'tkazadi. O'z sohasi doirasida 20 ta kitob va 120 dan ortiq maqolalar e'lon qiladi. "Buyuk Hun imperatorligi tarixi" (2-jildlik), "Turkiy madaniyatning yuksalish davri", "Islomdan oldingi turkey madaniyat tarixi", "Turkiy madaniyatga kirish tarixi" (9 jildlik), "Turkiy mifologiya" (2 jildlik), "Arzurum yodgorliklaridagi Oltoy turk san'atining izlari", "Turkiylarda davlat tushunchasi" nomli asarlari bilan turkiy xalqlar madaniyatining qorong'ulikda berkinib yotgan jihatlarini, ularning boy o'tmishini ilm ahliga taqdim etdi.

Biz bu maqolamiz orqali uning "Turkiy mifologiya" nomli kitobini o'zbek kitobxonlariga tanitishni maqsad qildik.

Kitobning birinchi to'liq (2 jildlik) nashri 1989-yilda Anqarada chop etilgan bo'lib, bugungi kungacha 6 marta qayta nashr etilgan. Ikki jilddan iborat bo'lgan mazkur asarning birinchi jildida muallifning hayoti va asarlari haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. Muallif asarning birinchi jildining "So'z boshisi"da kitobning yozilishi, manbalar bilan ishlash, metod tanlash, ishonchli materiallarni saralab olish bilan bog'liq bo'lgan ushbu fikrlarni keltiradi: "Nima mifologiya bo'la oladi yoki bo'la olmaydi?" Bu kitobni yozishni boshlashdan oldin, bu masalani o'rganish va uni keskin shaklda aniqlashtirib olish majburiyatida edik. Shu sababli har bir bo'limning metodlari ustida atroflicha izlandik. O'gel fikrlarini davom ettirar ekan, mi-

fologiyaga ta’rif bildiradi: “*Mifologiya*ning ma’nosini qisqacha izohlaydigan bo‘lsak, aslida “mifologiya” so‘zi ma’lum bir qavmga oid bo‘lgan afsonalarni o‘rganuvchi sohadir. Qadimgi yunonlar buni “mif” deb ataydilar. Mifologiya atamasi mana shu so‘z asosida vujudga kelgan. Faqat, mifologiya bir qavmga oid birgina afsona yoki ertak bo‘lib qolmasdan, barcha afsona va inonch, e’tiqodlarni o‘rgangan holda, natijaga boriluvchi ilmdir”[1].

Asarning kirish qismida yozar, millatlar va davlatlar tarixida mifologiyaning ahamiyatini ko‘rsatish barobarida, bir xalqning davlat bo‘lishi uchun albatta bir qavmdan tarqaganini islatlamog‘i kerakligini, buning uchun o‘ziga tayanch nuqtasini topishi lozimligini alohida uqtiradi.

Kitobning birinchi jildi o‘n uch bo‘limdan iborat bo‘lib, unda quyidagi mavzular o‘rin olgan: Buyuk Hun davlati va turkiy mifologiya, Turkiylarning bo‘ridan tarqalishi (kelib chiqishi), “Ergenekon” afsonasi, Uyg‘urlarning kelib chiqish afsonasi, “O‘g‘uz” dostoni, Turkmanlarning shajarasi, “O‘g‘uz” dostonlari haqida ba’zi qaydlar, Xonnoma, Yaratilish dostonlari, “Manas” dostoni, Turkiylar va mo‘g‘ullar mifologiyasi (o‘xshash va farqli tomonlari), Turkiy mifologiyada “Kiyik”, Turkiy mifologiyada “Burgut”[2].

Muallif bu mavzular ustida ish olib borar ekan, butun turkiy xalqlar inonchlarining asoslariga suyangan holda vujudga kelgan afsonalar va dostonlarni keltirib o‘tadi. Nafaqat bu afsonalarga ta’sir ko‘rsatgan diniy e’tiqodlar haqida, o‘z navbatida, bu afsonalarning turkiy xalqlar turmush tarziga ko‘rsatgan ta’siriga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. Mulohazalarini afsona va dostonlarning tub mohiyatidan uzoqlashmagan holda o‘z qarashlari asosida olib boradi. Zotan, uning maqsadi ham bosh g‘oyadan uzoqlashmagan holda, bu asarlarni tarkibiga keyinchalik singib o‘z ta’sirini ko‘rsatgan omillardan xalos etib, uning asos ildiziga yetib borishlik bo‘lgan[3].

Asarning ikkinchi jildi qirq bir bo‘limdan iborat bo‘lib, unda muallif turkiy mifologiyada o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va turkiylarda muqaddas deb hisoblanuvchi, hatto, ularning timsoliga aylangan mifologik afsonalar va dostonlar hamda bu asarlardagi muhim motivlarga o‘rin bergan. Ikkinchi jildning nashrga tayyorlanishi haqida Bahaeddin O‘gel shunday deydi: ““Turkiy mifologiya” nomli asarimizning birinchi jildi 1971-yilda nashr etilgan edi. Turkiy mifologiyaning motivlarini qamrab oluvchi ikkinchi jild uchun esa, matnlarning qo‘lyozmalaridan nusxalar olish va ularni bir joyga to‘plash kerak edi. Bu ish ko‘p vaqt talab etardi. Shu sababli ham ikkinchi jildning nashr etilishi biroz kechikdi. Kitobimizning birinchi jildida eng qadimgi turkiy afsonalar va dostonlarning matn holatidagi tarjimasi shakllantirilib, ularning qiyosiga katta o‘rin berilgan edi. Ikkinchi jildimizda esa, o‘sha mavzularga yanada batafsil to‘xtaldik”[4].

Asarning ikkinchi jildidan o‘rin olgan mavzular: Turk an’analari va dostonlarida “O‘g‘uz” obrazi, To‘pqopi saroyidagi “O‘g‘uz” dostonining parchasi, “Alp Er To‘ng‘a” afsonasi, Tepako‘z haqida, Tentak Dumrul haqida, Turkiy mifologiyada “Kelo‘g‘lon”, Turkiylarda Xizr obrazi, Kiyik va turkiylar, Bo‘ri va turkiylar, Lochin va burgut, Qiyofa o‘zgartirish, Ko‘k (osmon) va turkiylar, Osmonning tirgagi, Qutb yulduzi, Quyosh, Oy, Yulduzlar, Somonyo‘li, Sarob va turkiylar, Kamalak, Dunyo, Dunyoning shakli, Dunyoning markazi, Yer va yer osti, Tabiat hodisalari va turkiylar, Chaqmoq, Shamol va turkiylar, Suv va suvlar, Qutlug‘ va muqaddas buloqlar va chashmalar, Buyuk turk xalqlarining ulug‘ irmoqlari, Dunyoning ulug‘ (qadimiy) irmog‘i, Turkiy mifologiyada dengiz va ummon, Ko‘llar va qamish(zor)lar, Tog‘lar, Turkiy mifologiyada daraxt, Turkiy mifologiyada olov, Turkiy mifologiya va dostonlarda ayrim jonzotlar, Turkiy mifologiya va dostonlarda qushlar, Turkiy mifologiyada devlar va ajdarlar, Tush va turkiy mifologiya, Turkiy mifologiyada bazi motivlar.

Asarning har ikki jildidan o‘rin olgan mavzular tarkibini quyidagi guruhlashtirilgan shaklda tasnif qilib o‘rganishni joiz topdik:

Yaratilish dostonlari (Olamning yaratilishi)

Osmon jismlari bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular

Yer va yerosti bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular

Suv bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular

Daraxt, tog‘, olov va tabiat hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular

Tarix, davlat, turli xalq dostonlari va kelib chiqish afsonalari bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular

Turkiy mifologiyada uchraydigan obrazlar va ba’zi motivlar bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular

Hayvonlar bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular

Qushlar bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular.

Tarixchi olimning ushbu asari Yashar Kalafat, Ravshan Alizoda, Erhan Chavdaro‘g‘li, Aysha Altinok va boshqa izlanuvchilar tomonidan tadqiq etilgan va bu asar haqida qator maqolalar e’lon qilingan. Jumladan, Erhan Chavdaro‘g‘li, “Turkiy mifologiya (I, II-jild)” maqolasida bu asarning har ikki jildi haqida so‘z yuritar ekan, har ikkala jildda ham afsona va dostonlarning matni berilganidan so‘ng, Bahaeddin O‘gel ularni mavhumlik keltirib chiqaradigan biror bir

[1] Ögel, Bahaeddin. Türk Mitolojisi, I.cild. TTK Basimevi. – Ankara, 2010. – S. 3.

[2] Ögel, Bahaeddin. Türk Mitolojisi, I.cild. TTK Basimevi. – Ankara, 2010. – S. 19.

[3] Altınok, Ayşe. Prof. Dr. Bahaeddin Ögel’in hayati ve eserleri, yüksek lisans tezi. – Erzurum, 2020. – S. 119.

[4] Ögel, Bahaeddin. Türk Mitolojisi. II.cild, TTK Basimevi. – Ankara, 1995. – S. 4.

nuqta qoldirmasdan atroflicha tahlil etganligini ta'kidlaydi.

Mifologema kosmogonik miflar tarkibidagi o'zak syujetlar hisoblanib, u jahon kosmologiyasida keng tarqalgan hodisadir. Olamning Yaratilishi parametrlari va insonning paydo bo'lishi haqidagi ibtidoiy tasavvurlar inson va tabiat bog'liqligi muammosiga borib taqaladi va bunday miflarning yaratilishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Hayvonot va tabiatga oid ilk arxaik miflarda ham shu jarayon kuzatiladi. Vaqtlar o'tib, kishilik jamiyati madaniylasha boshlagandan keyin, mifopoetik va kosmogonik tushunchalar yanada aniqlashib, mukammallashdi. Bu paytda tadrijiy ravishda dunyoning qurilish modeli haqida yangi obrazlar paydo bo'ldi. Bunday qarashlar turli ko'rinishdagi miflarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Shu tariqa dunyoning yaratilishi haqida turli tasavvurlar paydo bo'la boshladi[1].

Bu o'rinda olamni turli xil kosmik vertikal-gorizontal qavatlarga bo'lib tasavvur qilish mifologemasi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, olam haqidagi tasavvurning shakllanishida har bir narsa dunyo markazi yoki olam o'qiga (kindigiga - Axis Mundi) bog'liq edi, degan mifologemalar ham mavjud.

Biz tadqiq etayotgan "Turkiy mifologiya" ensiklopediyasida "olamning yaratilishi" mifologemasining turkiy xalqlar inonchlari qamrovi doirasigi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ular "Uygurların türeyiş efsanesı", "Yaratılış destanları" bo'limlaridagi dostonlar, afsonalar tarkibining asosini tashkil etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Bahaeddin O'gel qalbidagi turkiylarga va ularning shonli o'tmishiga bo'lgan muhabbati tufayli bu yo'llarda shahdam odimlar ila ildamladi. U turk qavmlarining o'ziga xos bo'lgan madaniyatini betakror asarlari orqali ilm ahliga tanitdi. Uning tukiy xalqlar madaniyatining turli jabhalarini mifologik qatlamlari orqali ko'rsatib beruvchi ikki jildlik "Turkiy mifologiya" ensiklopodiyasi esa, shu sohaga oid asarlar orasida o'z o'rni va qadriga ega asarlardandir. Asarda, asosan, Oltoy turklari, Yoqut turklari, Sibir turklari, Anadolu turklari, uyg'urlar, qirg'izlar va boshqa bir necha turkiy xalqlar mifologiyasi, turmush tarzi va madaniyati haqida alohida katta bo'limlarda yoki bo'limlar ichida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Turkiylarning tarixini, madaniyatini, mifologiyasiyasini, etnografiyasini o'rgangan boshqa olimlarning asarlaridan eng saralarini va ishonchlarini tanlab olib tahlilga tortadi, qiyoslaydi va bu boradagi o'z qarashlari bilan ularning mulohazalarini to'ldiradi, kezi kelganda tanqid qiladi va ma'lum mulohazalarni rad etib turkiylarning bir vakili sifatida umumiy tariximizni, hayot tarzimizni, ota-bobolarimiz dunyoqarashini yuzaga chiqarib, ularni turkiylarga xos bo'lmagan yot unsurlardan himoya qiladi, olis o'tmish zulmatlarida qolib ketayotgan madaniyatimizni yorug'likka olib chiqishga intiladi.

Resume. The purpose of this article is to highlight the life and scientific activities of the Turkish historian, Professor Bahaeddin Ogel, his contribution to the study of the history of Turkic culture, the two-volume encyclopedic work "Turkish Mythology", mythological layers, their historical roots and the role and significance of the author's observations in science. The article uses two volumes of B. Ogel's book "Turkish Mythology", N.Jorakoziev's Ph.D. thesis on the topic "Cosmogonic mythology in ancient Turkic written monuments"and a number of articles by Turkish scientists Yashar Kalafat, Ayse Altynok, Chavdavoglu Erhan. The study was conducted on the basis of historical-comparative, biographical and classification methods.

Резюме. Целью данной статьи является жизнь, научная деятельность, вклад в изучение истории культуры тюрков, жизни турецкого историка, профессора Бахаеддина Огеля. Мифологических пластов легенд и эпосов на различные темы, содержащихся в двухтомный энциклопедический труд "Тюркская мифология" состоит в том, чтобы представить сведения об их исторических корнях и роли и значении высказанных автором на их основе соображений в науке. В статье использованы два тома книги Б.Огеля "Тюркская мифология", кандидатская диссертация Н.Джуракузиева на тему "Космогоническая мифология в древнетюркских письменных памятниках" и ряд статей турецких ученых Яшара Калафата, Айше Алтынок, Чавдавоглу Эрхан. Исследование проводилось на основе историко-сравнительного, биографического и классификационного методов.

[1] Жўрақўзиев, Н., Қадимги туркий ёзма ёдгорликларда космогоник мифология: Фалсафа доктори дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 86-87.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ZAMONAVIY JAHON NASRIDA MIFOLOGIK MODEL

Aliyeva Dilshoda,
Termiz davlat universiteti magistanti

Insoniyat aqli, tafakkuri mifdan, mifologik olamdan ajdodlarning ilk xayoliy dunyosidan qanchalik uzoqlashib, taraqqiyot zinalaridan ko‘tarilgani sari bu mavzu ham yanada qizg‘inroq tus oldi. Atom, yadro, kosmik kemalar asri bo‘lgan XX asrda ham fizika va kimyoning yutuqlariga qaramay, mifologiya yana adabiyotning asosiy mavzusiga aylandiki, oqibatda “neomifologizm” degan oqim paydo bo‘lib, mif va adabiyot aloqalarini birinchi marta ilmiy o‘rganishga kirishdi.

XX asr jahon ilg‘or adabiyotining yirik namunalari bo‘lmish “Uliss”, “Sehrli tog‘”, “Doktor Faust”, “Qo‘rg‘on”, “Jarayon”, “Vabo”, “Pedro paroma”, “Yolg‘izlikning yuz yili”, “Sartoris”, “G‘azab va shovqin” kabi asarlar mif adabiyotdagi yangilanishni, uning imkoniyatlarini kengaytirish, yangi mavqega ko‘tarishi mifsiz, afsonalarsiz sodir bo‘lmasligi ayon bo‘lgach, mif va adabiyot aloqalarini endi quruq sujetlardan emas, inson psixologiyasidan izlaydigan fan–psixoanalitika yuzaga keldi. Bu fan mif–ajdodlar dunyosining yaralishi, olam va xudolar orasidagi jo‘n va cho‘pchakona va ongsiz tasavvurlarning yig‘indisi emas, balki u inson psixologiyasining bir qismi, inson ruhiyatining ajralmas bo‘lagi ekanligini isbotlab bera boshladi. Qizig‘i shundaki, XVIII-XIX asrdagi tanqidiy, romantik realizmlarni o‘zlashtirgan, insonni o‘rganishda o‘zigacha bo‘lgan boy tajribadan unumli foydalangan XX asr adabiyoti inson dunyosi va ruhiyatini tahlil qilar ekan, ya’ni u o‘zigacha bo‘lgan adabiyotlardan ham ko‘ra inson ruhiyati va qalbiga ko‘proq yaqinlashar, uni tadqiq etar ekan, ana shu ruhiyat va qalbda ilk insonlar dunyosi kabi mifologik timsollarga duch keladi. Shundagina mifni faqatgina ifoda usuli, badiiylashtirish vositasi sifatida emas, balki insonni tahlil va tadqiq qiluvchi poetik til sifatida qabul qilish boshlandi. Shu sababli mif va adabiyotning aloqasi haqida gap ketganda, bu aloqani faqat sujetlashtirish va tasvir usuli, badiiylik vositasi sifatida emas, inson ruhiyatini aks ettiruvchi poetik til sifatidagi o‘rniga katta ahamiyat berish kerak. Zero, Frans Kafka asarlarida “Uliss”, “Doktor Faust” kabi parallael mifik sujetlar emas, balki ichki va tashqi olamdagi mifologik jarayon modelining yaratilishi muhimdir.[1] Chunki insonning o‘z-o‘ziga va tashqi olamga yotlashuvi va munosabati jarayoni ilk insonning tabiat va xudolarni kultlashtirish jarayoni va munosabatida kam farq qiladi. Inson ilk ajdodi tabiat va xudolar oldida ojiz bo‘lgani kabi bu yerda ham o‘z taqdirini o‘zgartirishga ojizlik qiladi, tashqi va ichki olam jarayoni mifologik model ustiga quriladi. Shu sabali o‘z ixtiyoridan yot, oldindan jarayonga mahkum etilgan hamda qo‘rg‘onni izlab yo‘lga chiqqan va uni topolmagan XX asr odamining ruhiyati, taqdiri xudolar qo‘lida bo‘lgan, taqdiriga qarshi inson qanchalik kurashmasin, baribir uning quli bo‘lib, o‘z onasiga uylangan, qanchalik istamasin hech bir voqea o‘z ixtiyori bilan sodir bo‘lmagan Edipdan kam farq qiladi. Har ikkala holatda ham odam ixtiyorsizlik qurbonidir va har ikkala holatda ham inson o‘z-o‘ziga hamda tashqi olamga begonadir.

Demak turli davrlarda yaratilgan asar va qahramonlar muhiti mifik muhitdir. Mifning bunday keng imkoniyati va insonni tahlil qilshdagi rolining beqiyosligi uning adabiyotning ajralmas qismi sifatida yashab qolishini ko‘rsatadiki, XX asrdan emas insoniyat shu paytgacha yaratgan biror ulkan namunasini mifsiz, mif ishtirokisiz tasavvur qilish mumkin emas. Xo‘sh, bu nimadan darak beradi? Adabiyotga mif nega shunchalik yopishib olgan? Adabiyot va mif ta’sirini qanday ilmiy asoslash mumkin? Umuman, adabiyot nega mifsiz yashay olmaydi? Umuman olganda, nega adabiyot afsonasiz yashay olmaydi? Nega adabiyotning hayoti afsonasiz qisqa? Bizningcha, bu savolga javobni ikki xilda izlash kerak. Ulardan birinchisi, insonning tashqi dunyo bilan munosabati va ularni qabul qilish jarayoni. Xuddi shunday vaziyatda ham ilk ajdodlarimiz afsonalar yaratgan, ya’ni afsonalar ajdodlarimizning tashqi olamga munosabati, uni tirik va harakatlanuvchi sifatida tasvirlashi, insonning bu boradagi o‘rni va u haqidagi tasavvurlari natijasida vujudga keladi.

Makon va vaqt. Teylorning fikricha, Afrikada haligacha qabila bo‘lib yashayotgan ibtidoiy xalqlarning yer, osmon, osmon, tabiat kuchlari, olam haqidagi g‘oyalari o‘sha olis zamonlardagidek o‘zgarmagan, shuning uchun ham ularning barcha g‘oyalari shundaydir. Mifologik. Ishlash. Mif tashqi olamga munosabat muammosidan va undan kelib chiqadigan tushuncha va g‘oyalardan, boshqacha aytganda,

[1] Кафка Ф. Мастера современной прозы. – Москва: Радуга, 1989.

insonning tashqi olamga nisbatan zaifligi natijasida tug‘iladigan g‘oyalar yig‘indisidan kelib chiqadi. Inson kuchli va sirli tashqi dunyo oldida kichik bir mavjudotdir. Uning butun xulq-atvori, hayoti va taqdiri shu tashqi dunyo kuchlari dengizida va u bu kuchlarning irodasi ifodasi bilan yashaydi. Bu erda yaxshilik va yomonlik ajralib turadi va tashqi dunyoning qudratli kuchlari yaxshi va yomon xudolarga bo‘linadi. Koinot bu yaxshi va yomon xudolarning muvozanati va kurashidan iborat. Bu kurash inson ruhiyatida o‘z aksini topadi. Inson ruhiyatida yovuzlik paydo bo‘lsa, yovuzlik xudosi uni to‘ldiradi va uni faqat yomon ishlarga undaydi. Yoki aksincha. Yigirmanchi asr adabiyotida inson ojizligi va iroda erkinligi yo‘qligi mavzusi asosiy o‘rin tutadi, deb hisoblaymiz. Shu boisdan ham “Uliss”, “Sehrli tog‘”, “Qo‘rg‘on”, “Sinov” yoki boshqa asarlarda beixtiyor inson tasviri bo‘rttirib tasvirlangan. Xususan, bu asarlarning har birida o‘ziga xos mifologik olam yaratilgan. Bu olamda inson o‘z ixtiyorisiz, kuchsiz qilib tasvirlanadi. Ya’ni ular mifik dunyodagi turli qahramonlar, xudolar, kuchlar xohish -istaklarining oddiy ijrochilari va ana shu ixtiyorsizlikdan paydo bo‘ladigan ma’nisizlik yoki absurd qurbonlaridir. F.Kafkaning bu fidoyilik jarayoni uning asarlarida o‘zining jonli ifodasini topdi. Aytish kerakki, Kafka asarlarida miflar tilga olinmaydi, miflar keltirilmaydi, lekin asarlardagi obrazlar o‘z pozitsiyasidagi mifologik obrazlar, tashqi olam yoki tashqi olamning ularga munosabati. Kafka tadqiqotchisi M. Broad bu figuralarni xudolardan adolat, rahm-shafqat va rozilik so‘ragan mifologik personajlarga o‘xshatadi. Boshqa tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, asar Nuh payg‘ambar afsonasi ta’sirida yaratilgan, Freyd-Yung nazariyasi asosida qayta ko‘rib chiqilgan, xususan, Nuh mehnat ruhining otalik hukmronligi ostida yashaydigan begunoh gunohkor sifatida o‘ziga o‘xshatilgan. Biroq bu talqin “Sud” qissasidan ko‘ra “Sud” qissasiga ko‘proq mos keladi. “Otaning o‘g‘ilga munosabati” qissasida va “Jarayon, Iosif K qonuni” da bu mifga munosabat shu mifga o‘xshaydi, lekin Kafkaning mifologik talqini bevosita emas, bilvosita, ya’ni asarda yaratilgan tasavvur va tushunchalar modellarida singib ketgan. Shuning uchun bu asarlarni har qanday mifologik nuqtai nazardan talqin qilish mumkin bo‘ladi. Badiiy olam mifning takrorlanishidan emas, balki bu mifdagi dunyo maketini yaratish orqali yaratilgan bo‘lib, asar qahramoni butun insoniyat timsolini ifodalaydi. Qahramon afsonaviy dunyo namunasida harakat qilib, afsona qahramonlaridek harakat qiladi va begunoh aybdorga, xudolar qurboniga aylanadi. Jozef K. u nima uchun sud qilinayotganini bilmaydi, lekin unga qonunning adolatli tomonlari (masalan, “xudolar” adolati) haqida doimiy ravishda ma’lumot beriladi, sudlanadi, lekin uning jinoyati nima ekanligini aytmaydi, sudyalar sud jarayonida turli xil rasmlarni chizishadi va sud oddiy binoda emas, balki eski uyning tomida, etakda va tashlandiq holda, joyida bo‘lib o‘tadi; Qamoqxona ruhoniysi K. unga o‘z taqdiriga tan olishi kerakligini, arab gunohi bo‘lmasa, jarayon boshlanmasligini aytadi, uni o‘zini qurbon qilishga ko‘ndiradi va bu xizmat orqali mifdagi ruhoniylik vazifasini bajaradi; Kafka ish oxirida. Siz kimsasiz, tor, qorong‘i ko‘chada qatl qilinyapsiz - bu holat qatldan ko‘ra oddiy qotillikka o‘xshaydi: Jozef asar davomida adolat izlab topolmaydi va uning qanday ekanligini tasavvur ham qila olmaydi. Natijada u o‘zini qurbon qilishlariga ko‘nishga majbur bo‘ladi va ko‘nadi. Uning qurbonligi xudoga qurbonlikni eslatadi: Edvard Teylorning guvohlik berishicha, qadimgi davrlarda odamlar turli xudolarga qurbonlik qilishgan va buni qurbonlik qiluvchi xudolarning marhamati sifatida qabul qilganlar. “Qo‘rg‘on” da qahramon qo‘rg‘ondan uni sudralib yuruvchi sifatida tanib olishni so‘raydi: hatto qo‘rg‘onning quyi saflari ham o‘zlarini xudolar kabi tutadilar. “Qo‘rg‘on” bizga Olimpni, yunon mifologiyasida Zevsning qarorgohini va uning atrofidagi xudolarning xizmatkorlarini eslatadi. Ertaklar olamining maketi zavodda noodatiy hodisalarga yo‘l qo‘yadi: K. qishloqqa yetib keldi, tavernadan qal’aga qo‘ng‘iroq qilib, qazuvchilar chaqirilgan-qilmaganligini bilishadi. Qishloq aholisi ushbu telefon orqali qal’a bilan bog‘lanib, turli ko‘rsatmalar oladi. Biroq, ish davomida qal’a va mehmonxona o‘rtasida sim yo‘qligi, aloqa yo‘qligi ma’lum bo‘ldi. Asarning mifologik modeli asarni har qanday afsonaga bog‘lab talqin qilish imkonini beradi, shuning uchun tadqiqotchilar Kafka asarlarini shumer afsonalari bilan, xususan, “Mangu hayoti” suvini izlagan Bilgamish (Gilgamish) afsonasi bilan solishtiradilar. Uni topishni kutmasdan vafot etdi. Kafka o‘z asarida mifni emas, balki afsonaviy dunyo modelini o‘zlashtiradi va bevosita parallel afsonaga tayangan holda shu model asosida asar quradi. “Odissey” yoki “Sehrli tog‘” asarlari uning texnikasini tezda ochib beradi. “Jarayon” va “Kurganets” kabi. Joys mifni inson hayotining davomi deb hisoblaydi, T. Mann 20-asr hayotini tasvirlash uchun mifdan foydalanadi, Kafka afsonaning asl mohiyatini ochib beradi; bizga afsonani batafsil holda keltirmaydi, balki bizni mifologik dunyoning ushbu modeli bilan tanishtiradi. “Evrilish”da biz ikki marta mifologik marosimga – maqomga o‘tishga, ya’ni odamni ruhga aylantiruvchi sehrga duch kelamiz va bu “sehrgarlik”ni endi jamiyat faoliyatida u insonni hasharotga aylantirdi: inson mifologiya izidan boradi.

“Evrilish”da biz insonni tirik mavjudotdan insonga aylanish jarayonini ko‘ramiz. XX asr adabiyotida mifologiyaga yangicha munosabat shakllandi. Mifologiyani adabiyot va san’atga yaqinlashtiradigan, mifologiyani talqin qilishning yangi nazariyasini yaratgan psixoanalitiklarning qarashlari inson va ijod

jarayonlari haqidagi mifologiyani tushunish imkonini beradi. Psixoanalitiklar ijodkorlikni ongli darajada ongsiz tuyg‘ularni ozod qilish sifatida baholaydilar. Ilhom – ong tomonidan bostirilgan ongsiz tuyg‘ularning to‘satdan paydo bo‘lishi. Buyuk ijodkorlar ongsiz tuyg‘ularining sirtini oddiy mahoratga aylantirgan, ongli faoliyat va ongsiz tajriba o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga muvaffaq bo‘lganlardir. Psixoanalitik fan insondagi “men”ni izlab, ruhiy olamda ushbu psixikaga xos “miflar”ga duch keldi. Bu “miflar” insonning ma’naviy olamiga ta’siri jihatidan birinchi ajdodlar afsonalaridan deyarli farq qilmaydi. Ma’naviy olamda “men”ning shakllanishigacha bo‘lgan kultlar[1] bor va bu kultlar odamlarni, ta’bir joiz bo‘lsa, soqov qilib qo‘yadi; Afsonalardagi xudolar, yovuz ruhlar, bahaybat jinlar qahramonning maqsadiga erishishga to‘siq bo‘lganidek, ular uning “men”ga bo‘lgan istagini har xil sukunat, illyuziya, umidsizliklar bilan to‘sadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘q qiladi. Insondagi kult o‘zini xudo qilgan birinchi ajdodlarning ruhiy dunyosidan deyarli farq qilmaydi. Uning ongi va ongi birinchi ajdodinikidan keskin farq qilsa-da, ruhiy dunyosi birinchi ajdodi Jozef K.nikidan farq qilmasa ham, ichki kult ajdod ichidagi kultdan farq qilmaydi. Insonning ruhiy yuksalishi va yuksalishi nafaqat ruh va aqlning chaqmoqlari Xudoning nayzasi emasligini yoki yerni ho‘kiz ko‘tarmasligini bilish bilan emas, balki uning qay darajada ekanligi bilan o‘lchanadi, ko‘tarildi. ruhiy dunyo kultlaridan oshib, mukammal o‘zini yaratishga qodir. Madaniy qahramon ogre yoki siklop yo‘qligini yaxshi biladi va bunday yirtqich hayvonga ishonmaydi, lekin uning ruhiy olamidagi kultlarga nisbatan zaifligi va ichki ahmoqligi uni kulda yashashga va kanniballar jamiyati soyasidan qo‘rqishga majbur qiladi va uning ustiga yiqilib, ikkala holat ham ilmiy jihatdan afsonaviydir. Atoqli adib U.Folkner asarlarida “polkovniklarning sharpasi” kezib yuradi. Kafka asarlarida insonning ojizligi va ahmoqligi, uning o‘z “men”i dan uzoqlashishi, jarayon kultlarining oxiriga yeta olmasligi va uning yetishmovchiligi yo‘lida turgan qal’a qoralanadi. iroda erkinligi va u o‘z yo‘lidan keta olmasligi; Tomas Mannning asarlarida yovuzlik va illatga sig‘inish inson qalbining yolg‘on egizaklarida hukmronlik qiladi, shuning uchun insonning hamma qilgan ishlari, hatto yaxshilik uchun qilgan ishlari ham oxir-oqibat shu kult qurboniga aylanadi. S.Bekket yoki absurd teatrining boshqa vakillari hayotlarini mantiqsizlikka sig‘inish tarzida o‘tkazishadi, Kamyu asarlarida aql-idrokka sig‘inishning soyalari bor, inson hayoti pirovardida safsata va safsatalardan iboratdir, deydi. M. Prust asarlarida personajlar undan chetga chiqadi, ikkinchi va lahzani kult sifatida qabul qiladi, ma’no va go‘zallik izlaydi. “Neomifologizm” yo‘nalishiga mansub har qanday yozuvchining ijodida inson haqidagi u yoki bu darajadagi “MİF”ni uchratish mumkin. Bu mif antik davr afsonalariga parallel emas, balki bu miflarning takrori, XX asr inson ruhiyati haqidagi afsonalardir. Shu sababdan ham asrimizda adabiyot miflari ma’lum ma’noda yangilanib, ong qatlamlari ochilib, adabiyot inson haqidagi chinakam ilmga aylanganda tsivilizatsiya yangi deb hisoblangan miflarga ehtiyoj paydo bo‘ldi. filiali, o‘sdi. Ch.Aytmatovning “Oq kema”, “Azrga tatigulik kun”, “Qiyomat” asarlarida parallel miflar bugungi kundagi inson ruhiyati haqidagi mif bilan qiyoslanadi va har ikki afsonadagi o‘xshashliklarni ochib beradi, shuning uchun muallif o‘z ajdodlaridan kam farq qiladi. Afsonalarni kim yaratgan. Agar biz XX asr adabiyotiga murojaat qiladigan bo‘lsak, shartli ravishda aytishimiz mumkinki, “inson - bu afsona”, bugungi kunda “Jajman”, “Qora kun”, “Ko‘k ko‘l”, “Chodir xayol”| o‘zining “Qadimdan bo‘lgan ekan” kabi asarlarida bu odamni o‘rab olgan afsonaga yondashuvni ko‘ramiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mifologik modellar adabiyotimiz tarixida shakllangan ilk obrazlar silsilasini tashkil etibgina qolmay, qanchalik qadimiy va eski bo‘lishiqa qaramay davrlar, zamonlardan bizga qadar yetib kelgan javohirlardir. Mif va mifologik obrazlar nafaqat o‘zbek adabiyoti nasr va nazni uchun,balki jahon adabiyoti rivoji, badiiy taraqqiyoti, ularning mavzu va maqsadi chuqurlashuvida ham o‘ziga xos o‘rin tutib kelmoqda.

Zamonaviy jahon adabiyoti nasrida ko‘plab mifologik modellar sintezini ko‘rishimiz mumkin. Ulardan ayniqsa fransuz yozuvchisi Alber Kamyu o‘z asarlarida maqsadli foydalangan bo‘lib, yunon afsonalari qahramoni Sizif modelining qiyofasini yoritishda boshqa adiblarga nisbatan o‘zgacha yondashuvni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Mifologik modellarning qiyofalari yillar, asrlar yoki ijodkorlar tafakkuri va falsafiy mulohazalari natijasida turli xil xarakter kasb etishi mumkin. Bu esa uni yaratgan millat yoki ijodkorning mazkur obraz haqidagi shaxsiy qarashlari va ruhiy ehtiyojlari bilan uyg‘un ravishda o‘zgarib borishi mumkin.

[1] Kult (lot. cultus dan) - hurmat, sajda qilish. Diniy kult - har qanday xudolar va narsalarni (muqaddas tasvirlar, haykallar) diniy hurmat qilish; shu jumladan marosim va marosimlar, oliy mavjudotga sig’inish.

Resume: In this article, we can see the role of myth in modern world prose and its importance, the synthesis of many mythological models in the prose of world literature.

Резюме: В данной статье мы можем увидеть роль мифа в современной мировой прозе и его значение, синтез многих мифологических моделей в прозе мировой литературы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ABDULLA ORIPOVNING G'OYAVIY -ESTETIK OLAMI

Aliyeva Orzigul,
Termiz davlat universiteti magistranti

O'zbek xalqi azaldan shoirtabiat bo'lib, tuprog'idan bargigacha shoir bo'lgan. Shuning uchun u farzandlariga she'rdek teran, she'rdek sodda, bir-biriga o'xshash ismlar qo'yadi. Uylansa shodligini she'rga solib "yor-yor" deydi. G'amda ham g'amini she'rga aylantiradi.

Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher

deb yozgan o'zbek xalqining sevimli farzandi, shoir Abdulla Oripov. Temur kabi sohibi zamonlar qilichi yetmagan yerlarni qalam bilan olishga Alisherni qodir qilgan qudrat she'riyatdir. She'riyatni "onajonim" deb ulug'lagan va chindan ham she'riyatga fidoyi farzand bo'lgan Abdulla Oripovning she'ri kirib kelmagan bironta xonadon O'zbekistonda topilmasa kerak. O'zbekistonning o'zi shoir bir yurt. Abdulla Oripov o'z she'rlarini ana shu "ustozi"ga barhaq va barhayot ilhom manbai, "asrlarning koshonasida mangu yorug' maskan" bo'lgan ona yurti – O'zbekistonga bag'ishlaydi".[1] Darhaqiqat, bu yurt shoir o'g'lini juda yaxshi ko'radi. She'rlarini o'qiydi, yod oladi. Tushlik chog'ida Abdullaxon she'rlarini o'qiyotgan kolxozchilarni, dalada quvnoq tasavvur bilan tinglayotgan hamshiralarni ko'rdik. Keksalarning she'rlarini tinglab, "O'g'lim omon bo'lsin" deya olqishlaganini yeshitdik. Uzoq yo'llarda Abdullaxonning she'rlarini ko'targan haydovchilarni, uning she'rlarini qo'llarida ushlab turgan qurilishchilarnigina ko'rdik. Ba'zan shunday bo'ladiki, Toshkentga kelganlar sog'lig'ini so'rashadi. Bu haqda shoirning o'zi haqli g'urur bilan yozadi:

Bizni xafa qilganlarga ming marta xizmat qilamiz...
Paxtakorlar va ishchilar pisand qildilar,
Ziyolilar, yumushchilar pisand qildilar,
Studentlar, to'quvchilar pisand qildilar,
Maktabdagi o'quvchilar pisand qildilar,
Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq.

Xalqning o'z shoiriga bo'lgan bu muhabbati Abdulla Oripov o'zi orzu qilganidek "bizniki" bo'lib qolganini bildiradi:

Koshkiydi ahli yurt turib tepamda
– U bizniki edi- desalar

-deb yozgan shoir o'sha olis yillar ortidagi "Mitti yulduz" to'plamidan boshlab xalqning o'ziniki bo'lib qolgan. Mutafakkir shoir sifatida Abdulla Oripov she'riyatining markazida inson va uning xayoti, borlikdagi o'rni, vazifalari masalasi turadi. "Koinot gultoji – Insondir azal" deb boshlanuvchi to'rtlikni shoirning insonga oid nuqtayi nazarining ham, butun ijodining ham programmasidir, desak bo'ladi. Shoir butun ijodi davomida insonning ikki yoqlama (koinot gultoji va tubanlik ichra tanxo) mana shu xil siymosiga turlicha nazar tashladi. Inson siymosida azal-abaddan mujassam etilgan ziddiyatni badiiy talqin qildi. U insonning insonligini yo'qqa chiqaradigan illatlarni ko'proq qalamga olgan. Bu adibning badbinligi emas, o'z qavmini mukammal, yorug' siymoda ko'rish istagidan tug'ilgan iztirob, dardlaridir. she'rida avvaliga "Ishtonsiz ajdodni qo'msamoq nechun?" deydi kinoya bilan, ammo keyinroqda "Zevs siymosida axtardi o'rnin" deya insonni "Yuzma-yuz" yunonlarning bosh ma'budiga mengzaydi. "Sarob" she'rida (1966), "Ha, onamni o'ylar edim inson degan dam, Yo'q, maymundan tarqamagan derdim odamzod" deydi yana insonni ulug'lab. Inson siymosida buyuklik va tubanlik birday mujassamlashganiga oid badiiy-g'oyaviy mazmun shoir she'rlaridan qizil ip bo'lib o'tadi. Hamma vaqt iftixor, maqtov bilan zimdan fojialar tasviri yonma-yon keladi. U insonni, eng avvalo, tabiatning ajralmas bir bo'lagi deb anglaydi. 1974 -yilda "Lekin inoq edim men aslim tabiat bilan, Bepoyon xilqat bilan tunlar bo'yi suhbatdosh" deb yozgan shoirda insonga tabiat parallelida qarash uslub darajasiga ko'tarilgan. Shu faslda inson kontseptsiyasiga oid ijodining ilk bosqichida uchraydigan ziddiyatlar, yolg'izlik, baxt, tafakkur, harakat kabi motivlar ham tadqiq etildi. Pirovardida esa u "Usha nokomilning men ham biriman" deb yozadi. Bu xil iqrorlar; uzoq yillar adashib, puch g'oya-mafkuralarga ishonib yurganidan nihoyatda ichkin, nihoyatda qattiq chekkan afsus-nadomatlar ifoda etilgan misralar, she'rlar Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lev Tolstoy kabi jahon mutafakkirlarini xotirga keltiradi. Abdulla Oripov xam xuddi o'shalar kabi Hazrati Insonni ulug'ladi, uning kamolotini achchiq sog'indi, ilohiy rutbasiga nomunosib ishlaridan o'kindi. Ayni choqda o'zini ham nokomil o'sha bani bashardan yuqori o'ringa qo'ymadi. O'z xatolari,

[1] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/maqsuda-ergasheva-abdulla-oripov-sheriyatning-oziga-xos-xususiyatlari.html

adashishlari, gunoxlaridan qattiq iztirob chekdi, tavba qildi, iqrorlarini ochiq-oshkor yozishdan istihola qilmadi. Hamisha komillikka intildi. Xuddi ana shu niyat, sa'y-harakatlari, tafakkuri, iqrorlari, afsus-nadomatlari xudodod iste'dodi bilan uyg'unlashib uni dunyo adabiyoti titanlari qatoriga ko'tardi. "Afsus, tubsizlikka yuz burdi inson, Aqchadir suyangan murabbiysi ham" dedi u 2016 -yil 30 -aprelda yozgan "Xayol va xayot" she'rida. Bu uning odam bolasiga, XXI asr kishisiga bergan eng so'nggi baholaridan biri bo'lib qoldi. "Inson inson uchun to'ka olsa yosh" - shoirning eng oliy orzusi shu.

Biz shoir ijodini mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy tendentsiyalariga ko'ra ikki katta davrga ajratdik:

1. Sho'ro davri. XX asrning 60-yillaridan 1991- yilgacha.

2. Mustaqillik davri. 1991-2016 yillar.

Abdulla Oripov ijodining ilk davrida inson hayotiga oid haqiqatlarni tabiatda ko'rdi, tabiatdan axtardi. Ularni soddaroq shaklda yonma-yon qo'yib, yaxshilik va yomonlik haqida yozdi. Ayni chog'da yozganlarini tadrijda kuzatar ekanmiz, Abdulla Oripovning ijodkor sifatida shiddat bilan o'sganini ko'rishimiz mumkin. 20 yoshlar atrofidagi shoir inson va jamiyat xayotini shu qadar chuqur irok etadi va benazir shaklda badiiy qayta gavdalantiradiki, beyxtiyor O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning "Sen bahorni sog'inmadingmi?" misolida aytgan bahosini takrorlashga to'g'ri keladi: ularni "25 yoshli shoir yozganiga ishonging keladi!" Xa, shaxsga faqat yuksak tafakkur va ulkan iste'dod tabiat tomonidan tuhfa etilsagina juda yoshligidanoq shu qadar doxiyona tafakkur qilishi va yozishi mumkin. Tarix va ijtimoiy borliqqa munosabat, qalb manzaralari, o'ta ichkin insoniy iztiroblar, iloxiy koinot ilk bosqichlaridanoq olam va odamni mana shunday butun ko'lami bilan qamrab oldi. Shoirning eng go'zal lirik, falsafiy she'rlari ilk bosqichning mahsulidir. Abdulla Oripov ijodiga nazar tashlar ekanmiz, u o'zining o'zgacha badiiyati, tili, qarashlari bilan ajralib turishiga guvoh bo'lamiz. Uning deyarli har bir she'ridan kinoyaviy fikrlarni anglash va undan kerakli xulosalarga ishoralarni topish mumkin. Masalan, quyida biz uning "Saviya" she'ri tahlilga to'xtalamiz.

Ha, birodar, o'z-o'zingni
Maqtashdan avval,
Hisobga ol saviyangni,
Ongingni tugal.

She'r misralarining boshlanishidayoq shoir o'quvchisini istehzoli fikrlar g'alayoniga tortadi. Buni esa hech ikkilanmay, ochiqchasiga ifodalaydi. Ya'ni to'g'ridan-to'g'ri "maqtanchoqlikning yomon odatligi va ayniqsa unga loyiq bo'lmay turib, yana o'zi tomonidan maqtanishni tanqid ostiga oladi".

Mahallada yashar edi
Bir musofir zot,
Ilm bilan mehnat edi
Uning chun hayot.
Atay kelib biror kimsa
Olmasdi xabar,
Olim g'oyat xoksor edi,
G'oyatda kamtar.
Bir kun yuksak mukofotni
Berdilar unga,
Biroq hech kim zarra parvo
Qilmadi bunga,

Shu o'rinda ijodkor kinoya bilan jamiyatda ilmli, ziyoli, maqtashga arziguli insonlarning qadrsizligiga ishora qilib o'tadi.

Va inchinun mahallada
Yashardi bir boy,
U ham bir kun ola qoldi
Siylov, hoynahoy.
Qutlagani kelishdilar
Jami boyonlar,
Dimog'lari ko'kka yetgan
Kibor insonlar.
Bayram qildi yarim Shahar.

Ammo jamiyatimiz a'zolari orasidagi shu obro'-e'tiborga haqiqatan munosib bo'lmagan va faqat boylik, mol-mulki orqaligina nimadir natijalarga erishib va kamiga ularning xalqimz orasidagi "laganbardor", "manfaatparast", "ikkiyuzlamachi"lik kabi illatlarga ega kimsalar tomonidan ko'klarga ko'tarib yurilishi hodisasi kinoya orqali qattiq tanqid orqali zaxarxanda qilinadi.

Balandi, pasti,
Lekin olim qayda qoldi?
Hech kim bilmasdi.
Ha, birodar, o'z-o'zingni
Maqtashdan avval,
Hisobga ol saviyangni,
Ongingni tugal.

Insoniyat yashar ekan turli zamonlarni, dovonlarni oshib o'tadi. Shu davrlar orasida qachondir ilmlilar qadr topgan bo'lsa, qachondir ular boylik, mansab kabikar soyasida eziladi. Mazkur satrlar orqali ham Abdulla Oripov aynan shu jihatlarga urg'u berish orqali xalqni ilmning, ilmlining qadriga yetishga da'vat qiladi. Istehzo usuli orqali tashkil topgan yoki mazmuni, asosiy g'oyasi kinoya orqlali ifolangan yana bir she'r bu "Shokolad" dir.[1]

Cho'ntagimga solib oldim to'rtta shokalad,
Va o'zimcha bitta shartni ayladim tayin:
Kimki meni aldamasa, siylayman albat,
Shokoladni shu odamga sovg'a etayin.
Kun bo'yi biror g'olib chiqmadi, ajab,
Boz ustiga bilmas edi hech kim shartlarni.
Uyga qaytdim, bolalarni bayram deb aldab,

[1] Abdulla Oripov eng sara she'rlar to'plami-bilimlar.uz

Bo‘lib berdim cho‘ntakdagi shokoladlarni.

She’rdan ko‘rinadiki, ijodkor kimda-kim uni kun davomida unga rost gapirsa, uni aldamasa, o‘sha odamni shokolad bilan siylashni maqsad qiladi. Ammo ming afsuski, butun kun bo‘yi ham shokoladlarning birortasining ham egasi topilmaydi. Keyin qahramonimiz uyga borib bolalarini bayram deb aldab, o‘sha shokoladlarni farzandlariga beradi va bu orqali shoir yolg‘onchilik illatining davom etayotgani haqida achchiq istehzoga urg‘u berib o‘tadi. Bu misralar orqali shoir A.Oripov odamlar orasida yolg‘onchilik, soxtakorlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarning avj olgani va buning natijasida hattoki ota ham o‘z farzandlariga yolg‘on gapirishga majbur bo‘layotgani hamda bu holatning salbiy oqibatlaridan o‘z o‘quvchisini ogohlantirishga urinadi. Umuman olganda shoir Abdulla Oripovning ijodida istehzo va kinoya usulida tashbehlangan she’rlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Yuqoridagilardan tashqari “Hangoma”, “Avlodlar”, “Qult-qult” kabi she’rlarda ham kinoya va istehzo katta ahamiyat kasb etgan bo‘lib, ijodkorning fikrlarini, qarashlarini o‘z tinglovchisiga tushuntirishda juda qimmatli ahmiyat kasb etadi. Uzoq asrlik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she’r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so‘z borganda uning nimalarni tasvirlagani bilan bir qatorda, qanday tasvirlaganiga, asosan, e’tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she’riy san’atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san’atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Abdulla Oripov uchlik, to‘rtlik, oltilik, sakkizlik, g‘azal, muxammas kabi turli she’riy shakllarni mahorat bilan yaratgan. Shoir qanday she’riy shaklda yozmasin, o‘zbek milliy ruhini ulug‘lagan. Shoir asarlari sof milliy ruhning o‘ziga xos badiiy ifodasi, chuqur hayot falsafasi jihatidan nafaqat o‘zbek she’riyatida, balki jahon she’riyatida ham noyob ijod namunasidir. Shoir qanday she’riy shaklda bo‘lmasin, go‘zal san’atdan chuqur mamnuniyat izhor yetadi. Adibning she’rlari she’riyat ixlosmandlarining badiiy-estetik didini rivojlantirish, ularni yuksak adabiy idrok yetib tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘zbeklarning asl xarakteri va turmush tarziga xos dunyoda baxtli chehra bilan yashash: odamlarga hurmat ko‘rsatmaslik; jamiyatda hurmatga sazovor bo‘lish; Men mehrli so‘zlarni yeslay olmayman; Abdulla Oripov ijodida yaxshi nom qoldirish, xizmat qilish kabi besh muhim xususiyat badiiy idrok yetilgan. Yuksak san’at namunasiga aylangan zamonaviy o‘zbek she’riyati o‘z xalqi, ruhi fazilatlarini teran qadrlashi bilan taraqqiyot omiliga aylandi.

Resume: In this article, the method of irony and the role of irony in the poems of Abdulla Oripov, its importance in our poetry were studied.

Резюме: в данной статье изучены метод иронии и роль иронии в стихах Абдуллы Орипова, ее значение в нашей поэзии.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

OBRAZ, OBRAZLILIK, BADIIY OBRAZ ("HUJUM" DRAMASIDAGI OBRAZLAR TAHLILI MISOLIDA)

Yorbulova Dildora Shokir qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

San'at va madaniyat azaldan bir-biriga yaqin sohalar hisoblanadi. Ular hayotni emotsional bo'yoqqa bo'yab, turli yo'nalishda bo'yab turli tasviriy yo'nalishda ifodalab, hayotning haqiqiy go'zallikka ega ekanligini tasvirlaydi. Obyekt ularning subyekti hisoblanadi. Dastlabki obraz tushunchasi poeziyada vujudga kelgan. Poeziya bu san'at hisoblanib, obraz ifodalash uning uslubini, negizini tashkil etadi. Bu esa yunon faylasufi Aristotel tomonidan ishlatilgan. Uning "Poeziya san'ati haqida" asari obraz tushunchasini ifodalab, bu tushuncha "mimemis" so'zi bilan ifodalangan. "Mimemis" atamasi taqlid ma'nosini anglatadi. Olim bu tushunchani butun borliq yashab turgan hayotimizga taqlid deb biladi. Haqiqatan ham, taqlid ham bir ajoyib san'at. Obrazning tub negizida taqlid yotishi ham bejiz emas.

Professor L.I.Timofevning ta'rificha, "…obraz – to'qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog'da konkret manzarasidir"[1].

Professorning fikridan anglashiladiki, obraz – to'qima yaratilgan, ammo hayotning va uning hayotiy manzaralarining aksi. Uni ifoda etish, hayotni umumlashma fon sifatida chizish obraz bilan amalga oshiriladi.

Mariya Klimuk esa obrazga quyidagicha ta'rif beradi: "Образ – основное понятые науки образности". Ya'ni obraz bu tasvir fanining asosiy tushunchasidir,deb aytadi. Obrazning xususiyatini tasvirlash aynan ma'lum jismni, shaxsni, voqeani ma'lum obyekt yoki subyektga o'xshatib tasvirlash.

Obraz haqida fikrlarni umumlashtirar ekanmiz, obraz bu san'atning bir qismi, aspekti bo'lib u muayyan tasvirni ifodalab uni badiiylashtirish, emotsiyalashtirish, shuningdek, ma'lum hissiy tuyg'uni ifodalagan badiiy umumlashma sanaladi. Obrazlarning rang-barangligi estetik boyligi, ko'p qirraliligi – hayotning murakkabligi taqozosidir. Obrazlarning rang-barangligi – konkret tarixiy vaziyatdagi inson harakatlarini haqqoniy tasvirlash natijasi. Bu tipik sharoitni qahramonning bevosita intellektual olam xatti-harakatlari, qiliq, odatlari, muomala-munosabatlari orqali badiiy ifodalash demakdir[2]. Yozuvchi obrazni ifodalar ekan, uni barcha qirralarini bo'rttitib, uni qaytadan kashf etadi. Uning realligi va idealligi haqqoniy xarakteri biln izohlanadi.

Rus olimi Xolizev o'zining "Теория литературы" kitobida obraz va obrazlilik haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Обращаясь к способам (средствам) с помощью которых литература и другие виды искусства, обладающие изобразительностью, осуществляющие свою миссию, философы и ученые издавна пользуются термином "образ" (др.-гр эйдос, вид)…"[3]. Ya'ni: "Adabiyot va san'atning boshqa turlrining obrazlilik bilan o'z missiyasini amalga oshirish yo'llari (vositalari) ga ishora qilib faylasuf va olimlar azaldan "obraz" (qadimgi yunoncha eidos ko'rinish) atamasini qo'llashgan".

Obraz haqida to'laligicha so'z yuritdik. Rus olimlari fikrlarini tahlil qildik. Obrazlilik nima? Obrazni tasvir deb umumlashtiradigan bo'lsak, obrazlilik bu tasviriylikdir, tasviriy san'atdan u xoh san'at sohasida bo'lsin, xoh adabiyot sohasida. Obrazlilik bu san'atning asosiy xususiyati, hayotni o'zlashtirishning o'ziga xos shakli va usuli. Uning "tili" va shu bilan birga hayot hodisalari ustidan chiqargan "hukmi". Obrazlilik – adabiy ijodning mohiyatini, umumiy xususiyatlarini adabiy qahramon, badiiy til tabiat, buyumlar, jismlar, narsalar, hayvonot dunyosi tasviri va hokazolarni o'z ichiga qamrab oladi[4].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan kichik xulosa shundaki, obrazlilik bu umumlashgan va obrazlashtirilgan badiiylikdir. Obrazlilik o'z ichiga obraz yaratgan individ, obraz ishtirok etgan voqelikni va narsa-hodisalarni oladi. Bu tushuncha hayot va adabiyotni jamlab, ularni qiyoslab bo'yoqqa soladi. Obraz bu obrazlilikning tayanch leksemasi hisobla-

[1] Тимофеев Л.И. Основы теори литературы. – М.: Просвещение, 1971 – С. 62-63.

[2] Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 45 b.

[3] Хализев В.И. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999. – С. 38.

[4] Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 45 b.

nadi. Aynan obrazni adabiyotda qo‘llasak, badiiy obraz tushunchasi shakllanadi. Badiiy obraz tushunchasi nima? Bu tushuncha qay shaklda qo‘llanadi?

F.M.Golovichenkoning fikricha, “…badiiy obraz – bu inson va inson hayotining konkret va ayni chog‘da, umumlashma manzarasidir”[1]. Bu ta’rifdan anglashiladiki, inson bu shaxs, ma’lum asardagi qahramon, individ bo‘lsa, badiiy adabiyotda xuddi shu obraz hayotini va uning to‘liq kartinalarini tasvirlash demakdir. Badiiy obraz adabiyotimizning estetik qiymatini tashkil etadi.

Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘atida esa, unga quyidagicha izoh aytiladi: “Badiiy obraz tushunchasi tarixiy o‘zgaruvchan tushunchadir. Turli adabiy oqim va yo‘nalishlar hamda ijodiy metodlardagi obrazlar o‘rtasida tafovutlar mavjud. Buning sababi, birinchidan, tasvir obyekti bo‘lgan inson tabiati, uningongi, ruhiy olami va uning ko‘rinishlaridagi o‘zgarishlar, siljishlarning natijasi bo‘lsa, insonni tasvirlovchi san’at va adabiyotdagi imkoniyat va vositalarning tobora mukammallashib borishidir”[2]. Demak quyida keltirilgan ikki sabab tufayli ham badiiy obraz qadimda shakllanib hozirga qadar o‘z shakl-shamoyilini biroz o‘zgartirgan holda qo‘llanilmoqda. Badiiy obraz asarni harakatga keltiradi. Muallif badiiy obraz yaratar ekan, o‘zining estetik qarashlarining tasvirini chizadi. Bu tasvirning ideal bo‘lishi ijodkorning yagona o‘ziga bog‘liq. Yozuvchi obraz kashf etishda avvalo yashab turgan davriga, vaqtiga va obrazga asos bo‘luvchi insonlarga ularning fazilatlariga qarab obrazini shakllantiradi. Adabiyotimizni davrlashtirayotgan paytda eng og‘ir davr deya ta’rif olgan jadidlarning ijod paytidir. Ular yashab o‘tgan va ijod qilgan davr oralig‘i jamiyatdagi qusurlarni ochish, shuningdek, xalqni zabun holatdan deb chiqish edi. Xuddi shunday davrda adabiyot sahniga Zebi, Kumush, Ra’no kabi ayol obrazlar, Otabek, Anvar, Miryoqub kabi obrazlar paydo bo‘ldi. Aynan shu obrazlar jamiyatning ahvoli haqida so‘z yuritish maqsadida yuzaga keldi. Bir turkumdagi obrazlar ayollar erki haqida so‘zlashsa, ikkinchi guruh haqiqiy elparvar, mard yigitlar haqida so‘zlaydi.

Aynan shu davr mohiyatini o‘zining nazmiy va nasriy asarlari bilan ochib bergan xalqchil shoir Abdulhamid Sulaymon o‘gli Cho‘lpondir. Cho‘lpon yaratgan ko‘plab obrazlar millatning ahvolini ifodalab, ayollarning mustaqil bo‘lishini kuylaydi. Uning “Kecha va Kunduz”, “Novvoy qiz”, “Qor qo‘ynida lola”, “Kamon” hikoyalari va “Yorqinoy”, “Hujum” dramalariayollarning haq-huquqi, ularning ozodligi haqida qizg‘in va shiddatli fikr yuritadi. Cho‘lponning “Hujum” dramasi tahliliga to‘xtalamiz:

Dramada yuqorida aytib o‘tilganidek, ayol kartinasi hurfikrlik bilan to‘qnashadi. Jamiyatdagi qusurlar ayollar va ularning erkini zanjirband qilishi tasvirlangan “zamonning zo‘rlari” bo‘lmish domla eshon mulla kabi din peshvolarining o‘zining chirkin ishlarini bajarishda pokiza bo‘lgan dinni niqob qilishi asarda ko‘rsatib o‘tiladi. Yozuvchining jahlini qitiqlagan holat shuki, xalq ichida yashagan kimningdir onasi, kimningdir opasi-yu singlisi yoki qizi, rafiqasi bo‘lgan ayollar taqdiriga jamiyat beparvo edi. Bu yozuvchi nazdida eng katta fojea edi. Asarda 15 dan ortiq bosh va epizodik obrazlar mavjud. Asar ruhi obrazlar tasviri bilan birga, uning aytgan nutqiga qo‘shimcha tasvir yuki sifatida she’riy nutq qo‘shilmoqda. Bu esa nutqiy holatni ixcham, sodda, tushunarli qiladi. Shuningdek asarda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq ustalik ham bor:

“Oyjamol. Salomat bo‘lsinlar, biz u kishiga nima xizmat ma’qul bo‘lib edikki, bizga bunday marhamat qilibdilar?

Tabib (Ahmadjonga).Choraki, sizda qush bor, bizda ovchi. Sizda elchixon bor, bizda – xaridor.

Tursun. Bularda bo‘ri bor, bizda – qo‘zichoq”.[3]

Asarda bu kabi dialogik qochirimlar va kinoyalar ko‘plab uchraydi. Bu esa qahramonlarning xuxusiyatidan darak beradi.

Aslida obrazlar 2 xil bo‘ladi, ya’ni: bosh obrazlar va epizodik obrazlar. Asardagi bosh obrazlar asarning boshida qatnashgan, voqea va hodisalar aynan shu obrazlar tevaragida aylanadi. Syujet obrazlar ustida qurilgan bo‘ladi. Demak, drama Guljamolning hayot taqdirini aks ettirgan holatda uni bir eshonga juvonmarg bo‘lishiga oz qolishi bunga uni ochiqdan-ochiq tomoshabin sifatida otaning xudbinligi ifodalangan. Obrazlarni tahlil qilganda kategoriyalanish salbiy va ijobiy tarzda ham ifodalanadi. Shaxslarning asarda namoyon etilgan xususiyatlari va fazilatlariga qarab belgilanadi. Dramadagi salbiy obrazlar: Eshon, ijobiy obrazlar esa: Tursun, Guljamol, Oyjamol kabilar. Ayrim badiiy asarlada neytral obrazlar ham uchraydi. Ya’ni salbiy va ijobiy obrazlar. Bu obrazlar asosan davr, muhitga qarab moslashuvchan obrazlar sanaladi. Bunday obrazlarda klassifikaysiya jarayoni yuz beradi. Asar boshlanishida salbiy ruhga ega bo‘lib, voqealar rivoji ketgan sayin yaxshilanib ijobiy tarafga o‘zgara boshlaydi. Asar yakunida esa bu obraz to‘lato‘kis ijobiy obrazlar qatoriga kiradi.

Dramada bu kabi neytral obraz uchramaydi. Aslida asar mazmuni va uning ohangdorligini oshiib berish uchun asarga jamoaviy epizodik obrazlar qo‘shilgan. Bu obbrazlar bolalar obrazidir. Bu obrazlar sod-

[1] Головенченко Ф.М. Ведение в литературоведению. – М.: Высшая школа, 1964. – С. 20.

[2] Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug’ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – 208 b.

[3] Cho‘lpon Abdulhamid. Asarlar. 4 jildlik.A.Cho‘lpon. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 544 b.

dalik, oqko‘ngililik va yoshlik timsolini gavdalantirgan. Ularning she’riy nutqi asarning jozibasini oshirgan..

“Eshon bobo, ajinani chaqirmang,
Bir kecha sizni bossalar (ham) baqirman
Eshon bobo tashlang jahl-juhulni,
Bir kechs jinlar o‘qitar sizga fununni”

Bu kabi she’riy nutqdan ko‘rinib turibdiki, eshon o‘z yoshiga va topgan e;tiboriga sira mos emas. Chunki bolalar unga “fununda n” dars berishni va hajlidan qanday tushishni o‘qtirmoqdalar. Demak, dranada keltirilgan detal, kichik bir epizodik obraz ham bosh obrazlarning asl ma;nosini anglab yetishimizga yordam berarkan.

Badiiy asarlarda obrazlar bir tuzilmani tashkil etib, u aynan nimadir yoki qayerdir bilan bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun, jamiyat, davlatning ahvolidan kelib chiqqan, zamona zo‘rlarining kechmishlaridan kelib chiqqan, yoki o‘z ichki hissiyotlaridan kleib chiqqan obrazlar. Drama bilan bog‘lab bu jarayonni ahlil qilamiz:

Tursun to‘laligicha jamiyatga va uning davr mohiyatidan kleib chiqib tasvirlangan obraz hisoblanadi. Uning siymosida biz zulmga qarshi kuchni ko‘rishimiz mumkin. Bu obraz zamonning achchiq mahsulidir.

Eshon makon va zamonda kesishgan jamiyatning zulmkor qatlamining siymosi. U to‘laligicha ezuvchi qatlam.

Guljamol obrazi shoir yashagan asrdagi Qadri toptalgan qizlar siymosi. U to‘laligicha eziluvchi qatlamning bo‘g‘ini, bir ko‘rinishi.

Ko‘z oldimizga obrazlar kelganda aynan qanday voqelik namoyon bo‘ladi? yozuvchi ayni shu voqelik va tasvirni ongimizga singdirmoqchi. Obrazlar bizga o‘zi yashagan davr muhitini ifodalab, shu davr haqida ma’lumot olishimizga yordam beradi. Har bir obraz o‘zga dunyo (xoh yaxshi, xoh yomon bo‘lsin), o‘zga kechinma. Ular ifodalagan tasvir bilvosita davrning psixikasini ifodalab, unga bo‘lgan qo‘llab-quvvatlovchi yoki qarshi (zid) fikrlarni shakllantirdi.

Dramaga e’tibor qaratsak, unda ifodalangan detal ya’ni paranji erk tuyg‘usi va mustaqillikni ifoda etmoqda. Yoozuvchi nazdida paranji yechish o‘z hayotida yangi qadam tashlash va hurligini his qilishdir. So‘zimiz isboti sifatida ushbu jumla keltiramiz:

Guljamol: “Paranjisi boshinin yesin, menga kerak emas! Jon oyi, meni eshonga sotmang. Bo‘lmasa o‘zimni o‘ldirib qo‘yaman!”

Xotunlar: “Qurib kestin shu paranji”.

Obrazlar tizimi bo‘yicha tavsiflash

Tursun (Hujum) Bosh obraz	**Eshon**	**Tabib**	**Oyjamol**	**Guljamol**	**Mualli-ma**	**Ahmad-jon**
Haqiqiy o‘zbekning mard o‘g‘loni tasviri, cho‘rt-kesar, jasur. Millatning ayni davrdagi oynasi	Qalbida johillik urug‘i sochilgan, chirkin xarakter egasi, zulm va zo‘ravonlikni kasb etgan obraz	“Labbay” deb jon oluvchi, davr miqyosida “laycha”, ammo shu mobaynida buzuvchi va zulmkor	Ayyor, sustkash Millatning beparvo ayoli. Boylik va pulga o‘z qizini almashgan ona obrazi	Chiroyda suluv, aqlda beqiyos, hali yoshlik bahoridan chiqmagan sodda qiz obrazi. O‘zbek qizlarining umumlashma obrazi	Ilm, ma’rifat kuychisi millatning shami, jasur va mustaqil ayol obrazi.	Fosiq, kaltabin va qo‘rqoq ota tasviri. Zulmga bosh ekkan va ularni olqishlagan ilmsiz obraz
“O‘zi mol emas, lekin sotiladi. Og‘zi tili bor, gapir-maydi. Ko‘zi bor, ko‘rsat-maydi. Yuzi bor tusadilar.U nima?” “…ayol” (mu-allifdan)	“Rostimi bu, yolg‘onmikin, yosh yigitmanmi hali, Yosh juvonlar bazmida ravnoq ug‘urmanmi hali? Boshlanib ketar degin yaqinda zo‘r to‘ylar hali’ Chirkinlik	“Choraki oladig‘on qizlari yosh qiz bo‘lsa, shunda taqsirim albatta yosharadilar, yosh qiz har to‘g‘rida o‘tkir bo‘ladi. Chor-aki ularning siynalaridan ishq otashi…”	“Nima o‘qimoqchi-misan? Seni o‘qitti-ramiz deb ochdan o‘laylikmi? …yig‘lama! Ko‘p nozlanma! Mana senga juda chiroyli paranji!...Umi eshon bobom” “Har bir nutqida sal-biylikka yo‘g‘rilgan faxr bor”(muallif)	“Men bu to‘yni also istamay-man. Men o‘z o‘rtoqlarimga o‘xshab yayr-ab-yashnab, o‘ynab-kulib yurmoqchiman Yer yutsin shu paranjini. Men eshonga tegmay-man	“Bu ozod mamla-katning qonuni bo‘yicha hamma xotin-qizlari hur, xoh-lag-anlarini qiladilar Guljamol bizniki …”	“Sen aytish-ma, bu sen-ing ishing emas. O‘zing o‘ylab ko‘r eshon bobom-dek inson bizga kuyov bo‘ladilar”

Obrazlar asarda tutgan o‘rni va vazifasiga qarab adabiyotshunoslikda turlicha bo‘ladi. Aynan personaj deb yuritiladigan bosh obraz muayyan bir asarda har xil talqin oladi. Personaj so‘zining ma’nosi “shaxs” ma’nosini anglatadi. Demak asarda mustaqil shakllangan, o‘z biografiyasini asarda chizolgan shaxs personaj bo‘la olishi mumkin. Adabiyotshunoslikda tip va xarakter tushunchalari ham ma’lum.

Tip va xarakter tushunchalariga ta’rif bersak, ular personajlarning ijodkor tomonidan qay holatda ta’riflanganligi bilan izohlanadi. Yozuvchining dunyoqarashi, u ifodalagan g‘oya va tasvir, personajga yuklatiladi. Tip – obrazning psixografiyasi, butun ongning psixologiyasi va uni ijtimoiylikka aylanishi. Bosh obraz yozuvchi mahoratidan kelib chiqib tip darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Misol uchun “Kecha va Kunduz” romanidagi Zebi obrazi asarda psixik tasvir bilan chiziladi. “Hujum” dramasidagi Guljamol yoki Tursun obrazlarining psixikasi esa yashirin tarzda tuzilib kitobxonga havola etiladi. Xarakter esa obrazning hayotda yoki boshqa asarlarda o‘zoga o‘xshagan obrazlarning ifodalanishi. Bu termini qiyosiy tahlil orqali izohlaymiz. “Hujum” dramasidagi Guljamol, “Kecha va Kunduz” romanidagi Zebi, “Novvoy qiz”, “Qor qo‘ynidagi lola” hikoyalaridagi Sharofatxon va nomlanmagan qiz obrazlari. Keltirilgan asarlardagi obrazlarning barchasi personaj mavqeiga ko‘tarilgan. Ularning o‘xshash tomonlari: taqdirining zulmat ostida qolishi, o‘z so‘z va erkini nomustaqillik, oilasi va yaqinlarining beparvoligi, jamiyatning tinmay ozor berishi, psixologik portretning bir xil tarzda chizilishi. Bularning barchasi personajlarni birlashtirib turuvchi omillar sanaladi. Asardagi talqinni ko‘rdik, bu yetarli emas. Personajlarning xarakteristikasi hayotda ayni shu damda, yoki hozirgi kundagi insonlarga ko‘chgan bo‘lsa, demak bu holat ham personajni xarakter qilishga yordam beradi.

Guljamol obrazi xarakter bo‘la oladimi? Albatta bo‘ladi, chunki ayollarning mustaqilligi, ularning erki va gender tenglik masalasi har zamon va har qayerda bosh va ustvor masala bo‘lib kelmoqda. Gujamol xarakteistikasi esa, o‘z erkidan o‘zi yashiringan va huquqini talab qilolmagan qizlarning xarakteristikasi bilan qiyoslanadi. Bu kabi obrazlar hali ham mavjud. Bu esa kishi dilini xira qiladi.

Tipga to‘xtalsak, obrazlarrning psixografiyasi ular qatnashgan psixomakondir. Xo‘sh, Guljamolning psixikasi ijtimoiy masalaga aylandimi o‘z zamonida. Ha aylandi. Bu esa muallima va bolalarning eshonning qarshisiga chiqib uni himoya qilishi bilan izohlanadi. Makon va zamondaa ayri holatdagi ammo bir umumiy ma’no ostida birlashgan bu tipning psixikasi har zamonda ijtimoiylikka aylantirish muumkindir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, dramadagi Guljamol obrazi asarning bosh nuqtasi bo‘lib, u jamiyatning ahvolidan darak beradi. Ezuvchi va ezuluvchi qatlam o‘rtasidagi munosabatni bildirib turadi. Tursun ya’ni Hujum esa bu qusurlarga qarshi bosh ko‘targan mard o‘g‘lon qiyosida shakllanadi. Asarda xususiy xarakterlar va tiplar ijtimoiylikka ko‘chadi. Bu ijtimoiylik har bir obraz va epizodlarning hissiyotlarini keskin ochib beradi. Dramada keltirilgan katta va kichik brazlarning bari asar samaradorligini oshirish bilan birga, uning g‘oyasini shakllantirishga katta yordam berdi. Drama oxirida keltirilgan ushbu parcha esa asarning maqsad va vazifasini ta’kidlagan:

“Hujum, hujum, qattiq hujum eski dunyoga,
Eshon, murid, zokir, tabib, boyu-mullog‘a.

Hujum, hujum, doim hujum pranji, chimmatga,
Ozodlik yo‘l xotun-qizg‘a, tutqun insonga.

Hujum, hujum, hujum bilan porlasun a’mol
Yasha, yasha, yasha, yasha ozod Guljamol!”[1]

Resume: The images in this article define figurative images. Scientific terms are based on the opinions of scientists. Analysis of the characters in the drama “Attack” by Abdulkhamid Suleiman oglu Cholpon. Comparative analysis (comparison), universal, independent implementation. Analysis of types and characteristics in terms of characters. How images are communicated to society.

Резюме: В данной статье определяются понятия образа, образности и художественного образа. Научные термины обсуждаются на основе мнения ученых. Анализируются персонажи драмы “Атака” Абдулхамида Сулеймана оглы Чолпона. Анализ проводится в сравнительном (сопоставительном), обобщающем, способе. Понятия типа и характера анализируются с точки зрения характера. Объясняется, как образы передаются обществу.

[1] Cho‘lpon Abdulhamid. Asarlar. 4 jildlik. A.Cho‘lpon. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 544 b.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MILLIY MAKTABLARDA QARDOSH XALQLAR ADABIYOTINI QIYOSIY O‘RGANISH

Abduvalitov Ergash Buranevich,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qozoq tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

Medenova Aydana Kanatbek qizi,
Qozoq tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi

Qardosh xalqlar adabiyoti misolida adabiy aloqalar, milliy adabiyotlarning o‘zaro hamkorligi va bir-birini boyitishini o‘rganish umumiy o‘rta adabiy ta’lim tizimida ko‘p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Milliy adabiyotlar o‘rtasida tarixan shakllangan aloqalar, turli xalqlar og‘zaki poetik ijodi an’analarining o‘zaro ta’siri, tipologik yaqinlik kabi adabiy hodisalar adabiyotshunoslikda atroflicha o‘rganiladi. U maktab adabiy kursi doirasidan ham chetda qolmasligi lozim. Adabiyotlarning o‘zaro aloqalariga doir konkret olimlar tahlilida o‘quvchilarga qardosh xalqlar adabiyotlari yaqinlashuvi, ularning milliy o‘ziga xosligi inkor etilmasligi, balki ularning boyib borishi va ravnaqiga xizmat qilishini o‘quvchilarga hayotiy misollar vositasida ishonarli tarzda ko‘rsatib berish kerak. Milliy maktab o‘quvchilari adabiy aloqalarni qardosh xalqlar adabiyoti namunalarini o‘rganish davomida o‘zlashtiradi. Bir-biriga yaqin adabiyot namunalarini o‘rganish o‘quvchilar madaniy saviyasi yuksalishi, g‘oyaviy estetik va mustaqil fikrlash doirasi kengayishi, milliy va qardosh xalqlar adabiyotlarini idrok etishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Qardosh xalqlar adabiyotini o‘rganish badiiy asarlarni obrazli hissiy idrok qilish, ma’naviy-estetik an’analardagi ta fovutlar bilan bog‘liq psixologik to‘siqni bartaraf etish bilan ham bog‘liq.

Kundalik amaliyotda adabiyot o‘qituvchilari ayrim asarlarga baho berishda o‘quvchilarning tahlil qilinayotgan asar syujetini notug‘ri idrok etishi, sub’ektiv va chalkash fikrlar yuritishiga tez-tez duch keladi. Ayrim hollarda xatolar ikkita milliy adabiyotda personajlarni tavsiflashning an’anaviy usullari mos kelmasligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ma’naviy-axloqiy tasavvurlardagi milliy tafovutlar adabiy qahramonlar xarakteri yoki butunicha asar syujetini noto‘g‘ri baholashga olib keladi.

O‘zga millatning so‘z sa’nati hodisalarini to‘g‘ri idrok qilishga o‘rgatish uchun o‘quvchilarning milliy adabiyotdagi o‘ziga xosliklarni o‘zlashtirishlariga erishish, ularning estetik tasavvuri va badiiy didini shakllantiradigan barcha omillarni hisobga olish zarur.

Qardosh xalqlar adabiyotini idrok etish uchun zarur bo‘lgan adabiy-estetik malakalarni tarbiyalash va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning amaliy vositasi bo‘lgan adabiy tahlilga qardosh xalqlar adabiyotlarining o‘zaro aloqalariga oid omillarni jalb qilish, milliy adabiyotlarning mushtarak jihatlarini qiyoslash ijobiy samara beradi.

Milliy adabiyotni o‘rganish davomida mavjud bilim va malakalarga tayanish – “milliy subyektizmni” bartaraf etish vazifasining bir qismi qardosh xalqlar adabiyoti asarlari syujetini chuqur, estetik to‘laqonli idrok etish yanada keng asosga – kitobxonlik madaniyati; til sezgisi, o‘quvchilarda milliy madaniyat bazasida shakllantiriladigan estetik ko‘nikmalarning butun kompleksini nazarda tutadi. Bu vazifalarni amaliy hal etish adabiyot o‘qitishda hayot va kurash yo‘li puxta o‘ylangan metodik tizimni talab qiladi. O‘quvchilarda qardosh xalqlarning tarixiy taqdiri va g‘oyaviy intilishlari umumiyligi haqidagi tasavvurlarni quyi sinflardan shakllantirib borish lozim. Shundagina keyingi sinflarda o‘quvchilar milliy adabiyotlarning badiiy o‘ziga xosligini anglab yeta boshlaydilar.

Adabiy ta’limda folklor asarlarini o‘rganish alohida o‘rin tutadi. So‘z san’atining birlamchi asosi xalq og‘zaki ijodi o‘quvchilar ongida shakllanayotgan estetik tasavvur va adabiy bilimlarning zaruriy dastlabki bug’ini sanaladi. Qardosh xalqlar folklori bilan tanishuv o‘quvchini o‘zga millat estetik tasavvurlari doirasiga olib kiradi.

Qardosh xalq maqollari, ertaklari bilan tanishuv, ularning uslubiy xusu- siyatlarini diqqat bilan o‘rganish badiiy asar matnidagi so‘zga diqqat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirishga, keyinroq yirik adiblar asarlarining uslubiy o‘ziga xosligini yaxshiroq anglab yetishiga yordam beradi. Shunga

ko‘ra, xalq og‘zaki ijodi bilan tanishuv o‘zga millat adabiyotini idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim bosqich sanaladi.

Qardosh xalq maqollari, hikmatli so‘zlari va cho‘pchaklarini milliy xalq maqollari, hikmatli so‘zlari va cho‘pchaklari bilan qiyoslash ularni estetik idrok qilishni osonlashtiradi. Bunday qiyoslash ikki xalqning hayotiy tajribasi, ma’naviy ideallari o‘xshashligi haqida dastlabki va ancha yorqin tasavvurni shakllantiradi.

Ma’no va mazmuniga ko‘ra o‘zaro yaqin, ba’zida bir xil maqollar hamma xalq- larda mavjud. Masalan, o‘zbek xalq maqollari “Onaning ko‘ngli bolada, bolaning ko‘ngli dalada”, “qizim senga aytaman, kelinim sen eshit”, “qari bilganni, pari bilmas”, qozoq xalq maqollari “Ананың көңілі балада, баланың көңілі далада”, “Қызым сағаң айтам, келінім сен тыңда”, “Кәрі білгенді,пері білмес”, qirg‘iz xalq maqollari “Enenin koonu balada, balanьn koonu talaada”, “Kuzum, saga aytamun, kelinim, sen uk”, “Karu bilgenin, peri bilbeyt”, turkman xalq maqollari “Enanin govnu balada, balanьn govnu dalada”, “Guzum sana aydayun, gelnim sen dinle”, “Garru bilenini, peri bilmez[1]” aynan shu jihatidan e’tiborga loyiq.

Maqol mazmuniga ko‘ra yaxlit, miniatyurali badiiy asar ekanini unutmaslik lozim. Maqollar alohida ritmik qurilishi, ko‘pincha qofiyaga egaligi, ba’zida tarjimasi qiyin ibora, sheva va eskirgan so‘zlar ishlatilishi bilan ajralib turadi. G‘aliz, malakasiz tarjima maqolning so‘z ifodasi o‘ziga xosligini, uning badiiy maftunkorligini barbod qiladi. Mazmunan o‘xshash maqollarni qiyoslab, o‘quvchilar ularning badiiy shaklida xam umumiylikni ko‘ra biladi: maqol doimo ifodali, qisqa, jarangdor, aniq topilgan so‘z va ohang tufayli g‘oyat ixcham. Ko‘plab maqollar ikki qismli qurilishga ega bo‘lib, qarshilantirishga mos keladi. Masalan, “Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi”.

Bunday maqollarda o‘quvchilar asosiy obrazli – mazmunli yuklamani olgan antonimlarni yengil ajratadi: topib-qopib.

Maqol va matallar bilan tanishuv o‘quvchilar uchun badiiy asar tahlilining o‘ziga xos modeli bo‘lib xizmat qiladi: elementar tarzda bo‘lsa da, so‘zning ifoda va tasviriy imkoniyatlarini o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

5-7 sinflarda o‘quvchilar u yoki bu qardosh xalq adibining hayoti va ijodiy faoliyatiga doir ayrim faktlar bilan (masalan, O.Yoqubovning Qozog‘istonda tug‘ilgani, M.Avezovning Toshkentda o‘qigani kabi) tanishsa, 7-9 sinf o‘quvchi- lari e’tiboriga shu aloqalar natijasida yuzaga kelgan asarlarning umuminsoniy mohiyati taqdim etiladi[2]. Yuqori sinflarda ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda milliy adabiyotlar rivojidagi umumiy tendensiyalarning shakllanishi, badiiy tarjima va uning ahamiyati, adabiyotlarning o‘zga millat obrazlari va motivlari bilan bir-birini o‘zaro boyitish kabilar o‘rganiladi.

O‘lkashunoslik xarakteridagi adabiy ma’lumotlarning o‘quvchilar qiziqishini orttirishi shubhasiz. Biroq shuning o‘zi yetarli emas. Yuqori sinf o‘quvchilari adabiy aloqalariga doir ma’lumotlar o‘rganar ekan, ma’lum axborotni oddiy o‘zlashtirishdan tadqiqot, tahlil, keyin esa o‘rganilganlarni umumlashtirishga o‘tadi. O‘quvchini u yoki bu qardosh xalqlarning milliy (qozoq, o‘zbek, kirgiz va h.) san’ati, adabiyotiga, shu adabiyotning yaratuvchisi bo‘lgan xalq taqdiriga qiziqishi, hurmati haqida dalolat beradigan misollar bilan tanishtirishning o‘zi kifoya qilmaydi. Bunda o‘quvchilar oldiga ijodiy, tadqiqiy xarakterdagi savollar qo‘yilishi lozim. Masalan, o‘zbek xalqining turmushi, ma’naviy-axloqiy an’analari A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qanday aks ettirilgan? “Qirq qiz” dostoni matnidan qoraqalpoq xalqining milliy urf-odatlari tasvirlangan o‘rinlarni toping va h.

Milliy adabiyotlar turli davrlarda va turli darajada o‘zaro hamkorlik qilib kelgan. Shu bois har bir maktabda milliy adabiyotning o‘ziga xosligi va uning qardosh xalqlar adabiyoti bilan aloqalari xususiyatidan kelib chiqib adabiy aloqalarni o‘rganishning tegishli yo‘li va shakllarini topish lozim.

Bu aloqalar shakllari xilma-xilligiga qaramay, o‘quvchilarni ma’lum tasnifga mos keladi. Ayrim hollarda qardosh xalqlar adabiyotini o‘rganishda adiblarning o‘quvchilar ona diyori, turmushi, ijodi bilan tanishtirish ijobiy samara beradi. Boshqa bir hollarda tipologik xarakterdagi ma’lumotlar (g‘oya va mavzu jihatdan yaqinlik badiiy shakllardagi parallellar, o‘xshashliklar va sh.k.) yordamga keladi. Bunda mumtoz adabiyot namunalari va folklordagi umumiyliklar alohida ahamiyat kasb etadi.

Qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o‘rganishda masalaning to‘g‘ri yechimi adabiy aloqalar sohasidagi filologik tadqiqotlarni hisobga olgandagina topilishi mumkin. Muammoga ilmiy yondoshuvgina uni to‘g‘ri anglashga yordam beradi.

Bunday qiyoslashlarda estetik mezonlar umumtarixiy va umummafkuraviy holatlar soyasida qolib ketmaydi.

Qardosh xalqlar adabiyotiga doir milliy va umuminsoniy xususiyatlarini to‘g‘ri anglashda tarjima muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham badiiy tarjimani har ikkala adabiyotning mushtarak va farqli jihatlarini

[1] Бейсенова М. Турк халықтары әдебиеті. Оқулық – хрестоматия. – Шымкент. 2006. – 344-б.; Sayfullayev B.N. Structural Features of Uzbek-Kazakh Dialectal Phrasemas. http://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH.

[2] Абдуллаев К.А. Ўзбек адабиётини ўрганиш жараёнида предметлараро алоқалардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номз. дисс... – Тошкент: 1992. – 203 б.

o‘rganishning organik sintezidir, deyish mumkin.

Milliy maktab o‘qituvchisi oldida iste’dodli tarjimon oldidagi kabi sharafli vazifa turadi. Bu yozuvchi ijodini o‘quvchilar uchun yaqin va tushunarli qilish ayni paytda o‘rganilayotgan asarning butun milliy xarakteri, badiiy nafosatini yetkazib berish bilan belgilanadi.

O‘quvchilarga yirik asarlarning milliy tilga tarjimalari haqida tushuncha berish ularning duniyoqarashini kengaytiradi. Badiiy tarjima – adabiy aloqalarga oid hodisa. Biroq tarjimaning saylanmaligi, nima uchun tarjimon aynan shu asarning tanlanishi obyektiv omillarga bog‘liq. Bular adabiyotlarning tipologik yaqinligi, ijtimoiy muammolari birligi va shu kabilardir.

Maktabda qardosh xalqlar adabiyotini o‘qitishda o‘quvchilarning milliy adabiyotini o‘rganishi davomida o‘zlashtirgan bilim va malakalariga tayanish taqozo qilinadi[1].

Ushbu ishda qardosh xalqlar adabiyotini o‘qitishni muvofiqlashtirish yullari haqida faqat bitta yo‘nalish – o‘quvchilarining milliy adabiyotni o‘rganish davomida egallagan bilim va malakalariga tayanish nazarda tutiladi. Milliy maktablarning adabiyot fani dasturi va darsliklaridan o‘zbek adabiyoti asarlari, adiblarning tarjimai holi anchagina keng o‘rin olgan. Adabiyot dasturlari tahlili ko‘rsatadiki, ularda aynan bir xil adiblar ijodi ba’zan yaqin va hatto aynan bir xil mavzudagi asarlari misolida o‘rganiladi.

5-7 sinflarda adiblarning tarjimai holini alohida o‘rganish ko‘zda tutilgan; 8-9 sinflarda esa yozuvchilarning hayoti va ijodi birgalikda sharhlab o‘rganiladi.

Qardosh xalqlar adiblari tarjimai holi va ijodini o‘rganishning zaruriy sharti milliy va qardosh xalqlar adabiyotini o‘qitishni muvofiqlashtirish, dastur materiallari milliy adabiyotda o‘zlashtirilgan bilim va malakalar qardosh xalqlar adabiyotidagi o‘xshash materialni o‘rganish uchun asos bo‘ladigan tarzda joylashtirishdir[2].

Milliy adabiyot dasturida qardosh xalqlar adiblaridan Ch.Aytmatov, Berdaq, Abay, Maxtumqulilarning asarlari tarjimalari orqali turli ta’lim bosqichlarida o‘rganiladi. Bu asarlarni davlat tilida o‘rganishda o‘quvchilarning ular bilan tarjima orqali tanish ekanligi hisobga olinishi lozim. O‘quvchilarning asosiy mazmundan xabardorligi lug‘at ishiga, asarni chuqurroq anglash, o‘quvchilar bog‘lanishli nutqiga e’tibor qaratishga imkon yaratadi.

Qardosh xalq adabiyoti asarlarini o‘rganish amalda o‘zaro bog‘lanmagan, muvofiqlashtirilmagan tarzda amalga oshiriladi. Holbuki, milliy va qardosh xalqlar adabiyoti asarlari qiyoslab o‘rganilsa, adabiy bilimlarning o‘zlashtirilishida muayyan izchilikka, darslarning bir-birlarini to‘ldirishiga erishish mumkin.

Bunga o‘zbek xalqining buyuk shoiri A.Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati mavzusi misol bo‘la oladi.

A.Navoiy ijodi o‘zbek maktablarida boshlang‘ich sinflardanoq, qozoq maktablarida 9-sinfda, qirg‘iz, qoraqalpoq va turkman maktablarida 5-sinfdanoq o‘rganiladi. A.Navoiy asarlaridan tashqari tarjimai holi o‘quvchilarga shoir yashagan davr, tarixiy sharoit, o‘sha davrdagi urf-odatlar, xalqning turmush tarzi haqida yorqinroq tasavvur berishga xizmat qiladi.

Qozoq maktablarining 9-sinfida shoir tarjimai holi haqida qisqacha ma’lumot berilib, so‘ngra g‘azal va ruboiylarini o‘rganishga kirishiladi, g‘azal va ruboiylarning mazmun-mohiyatini o‘qituvchi sharhlab beradi. Shoirning “Xamsa”sidagi asarlarni sinfdan tashqari o‘qish ko‘zda tutiladi[3].

Qozoq o‘quvchilarining A.Navoiy bilan keyingi uchrashuvi 9-sinfda “Xamsa” asarlarni o‘rganish orqali davom etadi. Bunda uning chuqur falsafiy ma’nosi, undagi murakkab tuyg‘u: quvonch va g‘am, samimiylik va isyon haqida ma’lumot beriladi. Shoir asarlari simvolikasini izohlashga shoshmaslik kerak. Mazkur asarlar tahlilida ularni o‘qiganda tasavvurda hosil bo‘ladigan manzara va ular uyg‘otgan kayfiyatga e’tibor qaratiladi. Bunda quyidagicha savol-topshiriqlardan foydalanish qardosh xalq adabiyoti namunalaridagi milliy umuminsoniy masalalarni anglashga yaqindan yordam beradi.

A. Navoiy ijodini o‘rganishda o‘sha davrdagi qardosh xalqlar uchun tipik holatlar, shoir taqdirining undan keyin yashagan Abay, Berdaq, Maxtumquli kabi o‘z davrining ilg‘or kishilari taqdiriga o‘xshashligiga urg‘u beriladi. O‘qituvchi A.Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi hikoyasidan keyin o‘quvchilarga milliy adabiyot darslarida mumtoz adabiyot namunalari yuzasidan o‘rganganlarini eslashni taklif qiladi[4].

Qardosh xalqlar adabiyoti barcha milliy maktablarda 5-sinfdan boshlab o‘rganiladi. Bu qardosh xalqlar adabiyotiga doir darslarda o‘quvchilarning milliy adabiyotdan o‘zlashtirgan bilimlarini hisobga olish zaruriyatini belgilaydi. Aynan shu fanlararo aloqalar qardosh xalq adabiyotini o‘qitish darajasini ortishi, uni o‘rganishning muammoli xarakterda bo‘lishi,

[1] Дуйсабаева Д. Formation of Linguo-Culturological Competence of Future Native Language Specialists. https://ijssrr.com/journal/issue/view/21.

[2] Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979. – 320 с; Sayfulayev B. Structural Features of Uzbek-Kazakh Dialectal Phrasemas. https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/311

[3] Abduvalitov N. Ways of Teaching Samples of World Literature at Literature Classes by Grene Features. http://ijmmu.com editor@ijmmu.com ISSN 2364-5369 Volume 9, Issue 3 March, 2022 Pages: 219-223.

4 Abduvalitov E. Aesthetic Education and Perception in the Teaching of Literature of Fraternal Peoples. http://ijmmu.com editor@ijmmu.com.

o‘quvchilarning fikrlash doirasininng kengayishiga ko‘maklashadi.

Qardosh xalqlar adiblari asarlarini o‘rganishda respublikalar bilan ijodiy aloqalar va ularni kengaytirish imkoniyatlariga tayanish maqsadga muvofiq. Masalan, Oybekning “Navoiy” romani haqida gapirayotib, uning qozoq tiliga, Maxtumquli “Pandnomalari” tahlilida uning o‘zbek tiliga tarjima qilingani haqida qiziqarli misollar keltirish mumkin.

Dars jarayonida o‘quvchilarda faol aqliy faoliyat ehtiyojini keltirib chiqaradigan omillarni qiyoslash yo‘llarini topish muhim. Bunda qardosh xalqlar adiblarining hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish juda ko‘p ma’lumot beradi. Masalan, Oybek ijodini o‘rganishda M.Avezov haqida eslash mumkin. Ularning har ikkisi qalamiga mansub “Navoiy” va “Abay yo‘li” romanlari misolida xalqlarimiz tarixidagi mushtarak xususiyatlar to‘g‘risida diqqatga sazovor ma’lumotlar keltirish o‘quvchilar qiziqishini orttiradi.

Respublikamiz maktablarida G‘.G‘ulom haqida suhbatdan oldin qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, rus shoirlarining u haqidagi misralarini eslash o‘quvchilarning shoir ijodi haqidagi tasavurini boyitadi. Qardosh xalqlar adabiyoti asarlari tahlili davomida g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishdagi o‘zaro aloqadorlikni ko‘rsatish juda muhim.

A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani respublikadagi barcha milliy maktablarda qisqartirib o‘rganiladi. Asar va uning muallifi haqida o‘quvchilarda to‘laroq tasavvur hosil qilish uchun ularga romanning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari yuzasidan tushuncha berish, kompozitsion tuzilishi savol-topshiriqlar yordamida ularni asar badiiy syujeti va tahliliga yo‘naltirish ijobiy natija beradi.

Qozoq maktablarida A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, M.Avezovning “Abay yo‘li”, qoraqalpoq maktablarila T.Qalepberganovning “Qoraqalpoqnoma”, turkman maktablarida B.Kerboboyevning “Dadil qadam” romanlarini o‘rganish tajribasi bu borada qo‘l keladi. Masalan, ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda yozuvchi ijodini o‘rganish ta’limiy-tarbiyaviy maqsadiga ko‘ra murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib hisoblanadi. Aslida, shu qutlug‘ zaminda tug‘ilib o‘sgan qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq farzandlari uchun o‘zbek adabiyoti mutlaqo begona emas. Lekin har bir millatning o‘ziga xos milliy-ruhiy xususiyatlari, turmush tarzi, urf-odatlari bo‘lgani kabi milliy adabiyotlarning ham o‘ziga xosligi bo‘lishi tabiiy. Mana shu o‘ziga xoslikni o‘quvchilarga yozuvchilarning hayoti va ijodi misolida yetkazish o‘qituvchiga boy ma’lumot beradi.

Resume. This article has developed a system of methodological unified requirements to achieve the effectiveness of a comparative study of the literatures of fraternal peoples. As is well known, he mentions that many actual processes took place in general secondary schools in connection with the comparative study of the literature of fraternal peoples. In particular, a system has been developed for the development of worldview thinking and international feeling of students by teaching Uzbek literature in schools where teaching is conducted in other languages. In addition, the teaching of the literature of fraternal peoples states that students should study the works of the great Uzbek poet Alisher Navoi in the original language.

Резюме. В данной статье разработана система методологических единых требований для достижения эффективности сравнительного изучения литератур братских народов. Как известно, он упоминает, что в общеобразовательных средних школах произошло немало фактических процессов в связи со сравнительным изучением литературы братских народов. В частности, разработана система развития мировоззренческого мышления и интернационального чувства учащихся путем преподавания узбекской литературы в школах, где обучение ведется на других языках.

Кроме того, в преподавании литературы братских народов говорится, что учащиеся должны изучать произведения великого узбекского поэта Алишера Навои на языке оригинала.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

СИСТЕМА ИЗУЧЕНИЯ ИМЕНИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аллаёрова Нилуфар Яхшиноровна,
доцент Самаркандского государственного университета

Шукурова Шахноза Маратовна,
студентка Самаркандского государственного университета

На сегодняшний день большое внимание уделяется развитию устной речи. А речь, как известно, имеет свое начало на подготовительном этапе обучения. В периоды обучения грамоте в начальных классах особое значение занимают части речи. Главной задачей педагога является создание организации в процессе обучения, чтобы формировать у учащихся знания, умения и навыки. Давайте дадим понятие именам существительным исходя из толкового словаря.

"Существительное" – в грамматике: часть речи, которая обозначает предметность в формах рода, числам падежа. Склонение имен существительных. Существительные конкретные и абстрактные. Существительные собственные и нарицательные.[1]

Существуют множества мнений о данной теме. По мнению Антонова Е.С. "Имя существительное – это класс слов, которые объединены категориальным значением предметности". Учёный показывает что, семантика предметности в грамматике означает все то, чему можно придавать различные признаки. Такие как: состояния, качества, действия. К примеру, "радость, жидкость, доброта, синева" и др.[2]

Знаменитый методист М.Р.Львов даёт представление об имени существительном. Он пишет, что основная семантика имени существительного – предметность. Но есть такие имена существительные как: (бег, терпение, свойство) не всегда понятны школьникам как предметы. По данной причине, М.Р.Львов даёт первоначальное знакомство с данной частью речи в четырех этапах.

1-этап: познакомить учащихся со словами, которые обозначают предметность и отвечают на вопросы кто? что? (дерево, стол, дом, человек).

2- этап: формировать умение задавать вопрос к слову – это переход от морфологии к синтаксису.

3-этап: ознакомить с постоянными свойствами имени существительного (в частности род).

4-этап: склонение имени существительного. На этом этапе могут возникать у школьников затруднения при изменении формы слова.[3]

Трудности, возникающие при изучении имени существительного в школах с нерусским языком:

1) понимание слов. Школьники могут не понимать лексему отдельного слова и не могут задать к ним соответствующий вопрос;

2) умение определить род. У многих слов сложно определить род: мам*(А)* – ж.р. и юнош*(А)* – м.р.;

3) умение изменять форму слова. Уже в 3-4 классах учащиеся знакомятся с категориями падежа и числа. И на этой ступени обучения возникают трудности:

– в образовании мн. числа: книга – книги, облако – облака;

– в образовании падежных форм:

Книга, книги, книге, книгу, книгой, о книге;

Сегодня, актуальной проблемой является то, что школьники потеряли интерес к изучению русского языка. По этой причине, методисты и психологи советуют применять технологию игровых методов. Игровые методы способствуют развитию творческого мышления, памяти, логики и направлены на стимулирование учащихся.

[1] Антонова Е.С., Боброва С. В. Методика преподавания русского языка (начальные классы): учебник для студ. учреждений сред. проф. образования / Е.С.Антонова, С. В.Боброва. – 4-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2014. – 464 с.

[2] Ожегов, С.И., Шведова, Н.Ю. Толковый словарь русского языка [электронный ресурс]. URL: https://gufo.me/dict/ozhegov/

[3] Львов М. Р. Методика преподавания русского языка в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Р. Львов, В. Г. Горецкий, О. В. Сосновская. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – 464 с.

Существует множество игровых методов, которые можно использовать при изучении имени существительного: кластер, отгадывание загадок, ребусы и др.

Разработка урока русского языка в 1-классе

Тема – “Слова, которые отвечают на вопросы кто? что?”

Цель – Создать условие для:

– ознакомления со словами обозначающими предмет, и отвечающими на вопросы кто? что?

– формировать умение различать категории одушевленности и неодушевленности предмета

Ход урока:

I этап: “Организационный момент”

Деятельность учителя: – Доброе утро, ребята! Подтянулись, улыбнулись и аккуратно сели. Подготовились к уроку, записываем число.

Деятельность ученика: Здороваются с учителем, подтягиваются и готовятся к уроку.

II этап: “Актуализация новых знаний”

Деятельность учителя: – Ребята, к нам сегодня пришел в гости сказочный герой, которого мы должны найти. Для этого у меня для вас есть загадка. – Вы готовы отгадать?

У отца был мальчик странный,
Необычный, деревянный
На земле и под водой
Ищет ключик золотой.[1]

– Кто это? Ребята, Буратино пришел к нам не просто так. Он потерял свой ключ, и просит нас помочь ему в поиске. Чтобы найти ключ, мы должны выполнить ряд заданий. – Поможем нашему гостю?

Деятельность ученика: – Да! – БУРАТИНО (хором)

III этап: “Изучение нового материала”

Деятельность учителя: – На доске даны слова: (Амина, стол, дом, кошка, самолёт). Прочитайте, скажите, что означают данные слова?

– Правильно! А теперь послушайте стихотворение, которое приготовил нам Буратино:

Про людей, зверей и рыб
Насекомых и всех птиц,
Спросим дружно кто они?
Всем предметам остальным,
Что? Вопрос мы зададим.[2]

– Исходя, из данного стихотворения задайте к этим словам вопрос.

– Молодцы! Сегодня мы с вами познакомимся с одушевленными и неодушевленными предметами. Одушевленные предметы – это живые существа, которые отвечают на вопрос кто? Например: девочка, собака, доктор. Неодушевленные обозначают предметы, явления природы, события и отвечают на вопросы что? Например: стол, дом, книга. Откройте страницу 59 и прочитайте правило от мудрой совы.[3]

Деятельность ученика: – Читают слова с доски. Объясняют значения данных слов: Амина – имя девочки; стол – это предмет мебели, за которым сидят; кошка – это домашнее животное; и тд. Внимательно слушают стихотворение и задают к данным словам соответствующие вопросы. Кто? Амина, Что? стол, Кто? кошка и др. – Внимательно слушают учителя, читают правила (прием жужжания).

Физкультминутка “Буратино”

Буратино потянулся,
Раз – нагнулся,
Два – нагнулся,
Три – нагнулся,
Руки в сторону развел,
Ключик, видно, не нашел.
Чтобы ключик нам достать,
Нужно на носочки встать.

VI этап: “Закрепление нового материала”

Деятельность учителя: – Давайте поможем найти ключик, для этого выполним упражнения. – Вы готовы?

Упражнение 225

Составьте предложения и запишите их.

Подчеркните слова, отвечающие на вопросы кто? что?

Чудные, деньки, стоят.
Светит, солнышко, ярко.
Тёплый, дует, ветерок.
Весело, поют, скворцы.
Скачет, двору, воробей, по.
Он, весну, долго, ждал.
Ручейки, звонко, крыльца, у, журчат.[4]

Упражнение 226

Выпишите в первый столбик слова, которые отвечают на вопрос кто?, во второй столбик – на вопрос что?

Парта, учитель, отличник, смородина, урок, утро, девочка, газета, ребята, самолёт, клён, зайцы, молоко, гусь, горох, щука, ферма, магазин, планшет, телефон, бабушка.[5]

[1] Загадка для детей [электронный ресурс]. URL:http://hvatalkin.ru/zagadka/1257.

[2] Физминутка “Буратино потянулся” для детей [электронный ресурс]. URL:https://doshkolnik.net/fizkultminutki/fizminutka-buratino-potyanulsya.html .

[3] Русский язык и читательская грамотность [Текст]: учебник для 1-го класса 2-часть / Миркурбанов Н. и др. – Ташкент: Республиканский центр образования, 2021. – 104 с.

[4] Русский язык и читательская грамотность: учебник для 1-го класса 2-часть / Миркурбанов Н. и др. – Ташкент: Республиканский центр образования, 2021. – 104 с.

[5] Русский язык и читательская грамотность: учебник для 1-го класса 2-часть / Миркурбанов Н. и др. – Ташкент: Республиканский центр образования, 2021. – 104 с.

Упражнение 227

Напишите слова-отгадки. Поставьте к ним вопросы кто? или что?

1) Не царь, а в короне,
Не всадник, а со шпорами,
Не сторож, а всех будит.
2) В лесу родилась, в воде живёт.
3) Не портной, а всю жизнь с иголками ходит.
4) Без ног приходит, без языка рассказывает.
5) Летит орлица по синему небу,
Крылья распластала, солнышко застлала.
6) В воде купался, а сух остался.

Упражнение 228.

Дополните каждое предложение тремя словами, поставьте к ним вопросы кто? или что?

..., ..., ... – это деревья.
..., ..., ... – это домашние животные.
..., ..., ... – это цветы.
..., ..., ... – это птицы.
..., ..., ... – это времена года.[1]

Деятельность ученика: – Да поможем! Начинают выполнять упражнения в тетради.

V этап “Итоги урока”

Деятельность учителя: – Молодцы ребята! Давайте повторим нашу тему. – Что мы сегодня с вами узнали?

– Что такое неодушевленные предметы?

– Что такое одушевленные предметы? Поднимите зеленую карточку, если вам все было понятно; Поднимите желтую карточку, если у вас остались вопросы; Поднимите красную карточку, если вы не поняли тему. Молодцы, а теперь запишите домашнее задание в дневник.

Деятельность ученика: – Повторяют пройденную тему.

– Мы узнали сегодня об одушевленных и неодушевленных предметах.

– Одушевленные предметы обозначают живые существа и отвечают на вопросы кто?

– Неодушевленные обозначают предметы, явления природы, ситуации и т.д.

– Поднимают карточки и записывают домашнее задание.

– Спасибо за урок!

В начальных классах изучении имени существительного происходит постепенно. В 1 классе в процессе обучения термин “имя существительное” не используется. Педагог лишь объясняет семантическое значение этой части речи, и знакомит учащихся с категорией одушевленности/неодушевленности. В начальной школе при изучении темы используется различные игровые методы и наглядности. Это позволяет создавать особую атмосферу в классе и влияет на эффективность обучения.

В ходе проведения разработки урока по русскому языку на тему “Имя существительное”, мы на наглядном уровне показали, как проходит процесс обучения. Мы постарались решить задачи, поставленные нами ранее в введении. Исходя из вышеуказанных информаций, можно сделать выводы, что программа начального курса охватывает большой объем сведений. И в основном предполагает изучение частей речи. Как мы можем наблюдать, процесс ознакомления с частями речи начинается с имени существительного. Таким образом, имя существительное – это часть речи, которая обозначает предмет, и отвечает на вопросы: “Кто?”, “Что?”. А также, в начальных классах учащиеся знакомятся с категориями существительного: род, падеж, число, склонение. Это как правило, педагог проводит в определенном порядке, разделяя тему на несколько уроков, придерживаясь правила “от простого к сложному”.

Resume: The article deals with the theoretical basis of the noun at the initial stage of study, the difficulties that arise in the process of teaching it in schools where the native language is not Russian. To teach this topic, a lesson in Russian was developed for the first grades.

Резюме: В статье рассмотрена теоретическая основа имени существительного на начальном этапе изучения, трудности возникающие в процессе его обучения в школах, где родным языком не является русский язык. Для обучения данной темы был разработан урок по русскому языку для первых классов.

[1] Русский язык и читательская грамотность: учебник для 1-го класса 2-часть / Миркурбанов Н. и др. – Ташкент: Республиканский центр образования, 2021. – 104 с.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NORMUROD NORQOBILOVNING "OQBO'YIN" QISSASINI ADABIYOT DARSLARIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS USUL VA METODLARI

Jovliyeva Yulduz Abdivasi qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Qissa – hayot va qahramonlarni aks ettirishdagi batafsillik, ya'ni syujetning murakkabligi jihatdan hikoya bilan romanning o'rtasida turuvchi o'rta epik janr. Qissa bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o'ziga asos qilib olishi bilan epik turning hikoya, hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma'lum bir davri xronikal tarzda bayon qilinadi.

O'rta epik asarlarini tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

– asarning o'quvchilar tomonidan to'la o'qib o'zlashtirishlariga erishish;

– asar g'oyasi mazmunini obrazlar tizimi va asar qurilishiga bog'lab o'rganish;

– badiiy asar tilini tahlil qilish;

– tahlilda janr talablarini e'tiborga olish. eng qulay va to'g'ri tahlil metodi bilan usullarini tanlay olish;

– yozuvchi uslubi va mahoratini namoyon qiluvchi portret, peyzaj, joy tasviri, badiiy detallar, ruhiyat tasviri, qahramon xarakter tasviri, asar konflikti va badiiy tasvir vositalariga o'quvchilar e'tiborini qaratish;

– asarning badiiy xususiyatlari va obrazlar tahlili asosida umumlashma xulosa chiqarish.[1]

7-sinf adabiyot darsligi 2022-yildagi yangi nashrida 1-fasl, ya'ni bo'lim "Inson, tabiat, o'zlik" deb atalgan. Bu faslda epik asarlar namunasi sifatida zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyondalaridan Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasidan parcha berilgan. Asar bilan tanishishdan avval o'quvchilar bilan itlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida suhbat o'tkazish mumkin. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning fikr-mulohazalarini tinglab, o'zi ham qo'shimcha ma'lumotlar berishi lozim. Bu o'quvchilarda kognitiv bilimlarni oshirish, o'quvchilarning olamni yanada teran anglashiga va dunyoqarashi keng bo'lishiga yordam beradi.

"Oqbo'yin" qissasida Oqbo'yin va yana boshqa itlar (Malla, Olapar, Oqto'sh, Oqbo'yinning onasi, To'rtko'z va hokazolar) misolida itlarga, umuman olganda esa hayvonlarga xos tashqi va ichki xususiyatlar ochib berilgan.

Birgina Oqbo'yinning onasi obrazini olaylik. Qissada Sodiq aka va Karim podachi kelganini ko'rgan ona it g'ingshib bezovtalanadi. Bunga sabab bu xil keldi-ketdilardan so'ng bolalaridan birortasi g'oyib bo'ladi. Bolalari, jigarbandlaridan judo bo'lish nafaqat insonlar uchun balki hayvonlar uchun ham nihoyatda og'ir. Bolalaridan ayrilgan ona itning tuni bilan g'ingshib chiqishi buning yorqin dalilidir. Endi esa bevosita qissaning bosh qahramoni Oqbo'yinga kelsak. U asar boshidan o'quvchiga o'zining ziyrakligini namoyon etadi. Oqbo'yin atrofdagi voqealarga, insonlar va hayvonlarga nihoyatda e'tiborli, kuzatuvchan. Hovlidagi babaq xo'rozdan tortib, Sodiq aka bilan kelgan Karim podachigacha uning e'tiboridan chetda qolmaydi. U og'a-inilariga nisbatan bardoshli. Podachining ezg'ilashlari garchi unga yoqmasada bardosh bilan chidaydi, boshqalar singari to'polon qilmaydi. Bardoshliligi bilan bir vaqtda izzat-nafsli va qadr-qimmatini yaxshi biladi. Bu xususiyatlar unga otasi – Olapardan o'tgan. Karim podachining biqiniga tepishi unda ana shu otameros g'urur, nafsoniyatni uyg'otdi va shu ta'sirida Karim podachining qorasi yo'qolgunga qadar akkillab, unga dushmanlarcha munosabat bildiradi.

Endi Karim podachi obraziga kelsak. Bu qahramon, shubhasiz, o'quvchilarda salbiy taassurot qoldiradi. Sodiq aka uning taklifiga rozi bo'lmagach, Oqbo'yinning biqiniga tepib yuborishi yoxud "Buni asrab naf ko'rmaysan. Rashkim yomon, birda bo'lmasa, birda otib o'ldiraman" deyishi bunga dalil bo'la oladi. Afsuski, oramizda Karim podachiga o'xshash tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga loqayd, bemehr in-

[1] Botirova Sh.I. Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Book trade, 2022. – B. 75.

sonlar ham uchrab turadi. Yozuvchi mana shu obraz orqali ana shunday insonlar yuziga ko‘zgu tutmoqchi bo‘lgandir, balki. Qissada faqat o‘z foydasini o‘ylab tabiatga, hayvonlarga zarar yetkazish, ozor berish naqadar razil illat ekanligi ko‘rsatib berilgan. Dono xalqimiz “Besh qo‘l barabor emas” deya bejizga aytmaydi. Darhaqiqat, hayvonlarga mehrli, ular bilan do‘st tutinadigan Rasul kabi insonlar ham anchagina. Shu jihatdan Karim podachi va Rasul obrazlarining xarakter xususiyatlari va xatti-harakatlarida konfliktni yaqqol ko‘rish mumkin. Bu o‘rinda o‘qituvchi konflikt tushunchasi haqida o‘quvchilarga ma’lumot berishi ham talab etiladi.

Qissaning eng ta’sirli o‘rinlaridan biri uy egasining o‘g‘li – Rasul bilan Oqbo‘yinning chin do‘stligi hisoblanadi. Rasul Oqbo‘yinni boshqalardan ayricha yaxshi ko‘radi. Shu o‘rinda Oqbo‘yin ham Rasulni, uning do‘stligini qadrlaydi. U Rasulni kelishini doim ilhaq bo‘lib kutadi, hatto sabr kosasi to‘lib, Malla bilan yakkama-yakka olishish uchun ketar chog‘ida ham bolani ko‘zi qiyib-qiymay ko‘chaga chiqadi. Rasulning Oqbo‘yinga bo‘lgan mehri ayniqsa Oqbo‘yin jarohatlanib, og‘ir ahvolda ekanida qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, Salom do‘xtirni davolash uchun olib kelishida yorqin namoyon bo‘ladi. Oqbo‘yinni davolashi evaziga Salom do‘xtirning tomorqasidagi piyozni o‘tab berishga ham, har kuni do‘xtirning sigiriga daladan o‘t yulib kelishga ham rozi. Faqat, Oqbo‘yinni, aziz do‘stini, davolasa, u o‘lmasa bas. Asarning ayni shu o‘rni o‘quvchilarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu xil inson va hayvonlar o‘rtasidagi sof va samimiy do‘stlik yosh avlod qalbida yaxshilik, ezgulik hislarini yanada jo‘sh urishiga sabab bo‘ladi. O‘quv-didaktik tahlilning asosiy vazifasi ham ayni shundan iborat. Ya’ni badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglash orqali o‘quvchilarda ezgu ma’naviy sifatlarni shakllantirishdan iborat.

Normurod Norqobilovning “Oqbo‘yin” qissasini o‘qitishda:


1) “Oqbo‘yin” qissasining darslikda berilgan parchasini o‘qish talab etiladi;

2) qissadagi qahramonlar va ularga ta’riflar yoziladi. Masalan: Salom do‘xtir – Oqbo‘yin jarohatlanganda uni davolaydi; Rasul –Sodiq akaning o‘g‘li, Oqbo‘yinning do‘sti; Olapar – Oqbo‘yin, Malla, Oqto‘shning otasi kabi. Asar qahramonlari haqida so‘z borganda ularning ismlariga ham alohida e’tibor qaratilishi lozim. Chunki ko‘p hollarda yozuvchi tomonidan tanlangan ism qahramonlar ruhiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan Salom do‘xtir obrazini olaylik. “Salom” so‘zi tilimizga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, “sulh, do‘stlik, omonlik” degan ma’nolarni anglatadi. Qissada ham Salom do‘xtir Oqbo‘yinni davolab, hayotini saqlab qoladi.

3) Notanish so‘zlar, lug‘atlar bilan ishlash: *norg‘ul* – *baquvvat gavdali*; *sinchi* – hayvonlarning zotini farqlay oladigan kishi; *novvos* – ikki-uch yashar buqa; *arloni* – sardor, yetakchi; *tana* – bir-ikki yoshli buzoq; *chiviq* – yangi, ingichka novda; *tanda qo‘yish* – serqatnov bo‘lib qolish; *pol* – ekin maydoni qismi; *kulliklash* – birlashtirib bog‘lash kabi.

1-chizma

Oqbo‘yinga xos xususiyatlarning “klaster” metodi asosida ifodalanishi



1-jadval

Qahromonlarga xos xususiyatlarni tasniflash

№	Oqbo‘yinga xos xususiyatlar	Ushbu xususiyatlarni ochib berishga xizmat qilgan voqea
1	Bardoshli	Podachining ezg‘ilashari Oqbo‘yinga yoqmadi. Ammo tabiatan bardoshli bo‘lgani uchun boshqalar kabi to‘polon qilmadi.
2	O‘z qadr qimmatini yaxshi biladi	Karim podachi Oqbo‘yinni biqiniga tepganda bu xil muomala Oqbo‘yinga yomon ta’sir qiladi va shu sabab irillash barobarida akillaydi.
3	Izzat-nafsli	Akillagani sari izzat-nafsi allanechuk orom topib, ovozi o‘ziga xush yoqdi. Karim podachi Mallani qo‘yniga solib, eshik ortida ko‘zdan yo‘qolmaguncha u tinchimadi.
4	Sodda, firibni bilmaydi	Mallaning kalta-kalta hurib, xo‘jayini ogoh qilganini anglamaydi.
5	Haybatli	Malla qaysi ko‘z bilan ko‘rsinki, qarshisidan hov birda oyog‘ini sindirgan bahaybat maxluq kelardi. Malla talvasada turib qoldi. Zora qaytib ketsa degan umidda Malla yer tirnab jon-jahdi bilan hurdi. Biroq raqibi pinak buzmadi, loaqal irillashni o‘ziga ep ko‘rmadi.

Bu jadval asosida faqat birgina qahramon emas balki bir nechta qahramonlar shu tahlit tahlil qilinishi mumkin. Tanlab o‘qish metodining afzalligi shundaki, bunda o‘quvchilar asarga qayta murojaat qilishadi.

2-chizma

Asar qahramonlariga berilgan ta’riflar



Adabiyot darslarida foydalaniladigan barcha metod va usullar badiiy asar g‘oyasi va mazmunini ochishga xizmat qilishi zarur. Badiiy asar sinfda o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan tahlil qilinganda, turli xil metodlar, asarning mazmuni yuzasidan beriladigan savol va topshiriqlar yordamida o‘qituvchi asarning g‘oyasi va mazmunini o‘quvchilarning o‘zlari anglab yetishlariga yo‘naltirishlari lozim. Bunda o‘quvchilarda “kashf qilish lazzati” paydo bo‘ladi va ular asardan chinakamiga badiiy-estetik zavq oladi.

Resume. In this article, the analysis of short stories in the literature classes of general secondary schools, teaching methods and methods are studied and analyzed on the example of the short story “Aqboyin” by Normurod Norqabilov.

Резюме. В данной статье анализ рассказов на уроках литературы общеобразовательных школ, методы и методы обучения изучены и проанализированы на примере рассказа “Акбойин” Нормурода Норкабилова.